

SCIENCE AND EDUCATION NEWS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC, METHODICAL AND POPULAR JOURNAL

2025 ISSUE 3

01 Science news

02 Search and thinking

03 Research results

04 Educational innovations

https://t.me/saen_2024

saen_2024@mail.ru

ResearchGate doi Crossref Google Scholar WORLD of JOURNALS

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2025-yil, 3-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2025

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 283913-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Mas'ul kotib:
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.
Telefon: +998 94 201 14 48
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik

Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Кадыров У.Д. Художественная литература как объект психологического исследования…… 8
Umarov B.M. O‘zbek oilalarida tarbiya psixologiyasining ayrim ijtimoiy-psixologik muammolari…….. 17
Xalimova M.V. Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlar kompetentligini rivojlantirishning psixologik asoslari…….. 26
Кадыров К.Б. О роли психологических исследований в профилактике коррупционных нарушений в вузах…….. 32
Sattarova G.I. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda hissiy-irodaviy sifatlar shakllanishi……. 39
Axmedova M.X. Milliy til jargonlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari…….. 48
Narbasheva M.A. Psixologik salomatlik shaxs shakllanishi mezoni sifatida…….. 53
Karimov X. Er-xotin o‘rtasidagi nizo va uni bartaraf etish – muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida……. 60
Алиев М.Ч. Психологические модели самопознания и их классификация…….. 67
Bekova Sh.D. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ kompetensiyaning psixologik mohiyati…… 79
Nazarov A.S. Noaniqlik sharoitida moslashuvchan liderlik qaror qabul qilishining ijtimoiy-psixologik jihatlari…….. 86
Aliyeva K. S. Psixologiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: nazariy asoslar va innovatsion didaktik yechimlar…… 95
G‘oyibnazarov R. Islomda ayollarning ilm olishiga munosabat va uning gender jihatlari…….. 103
Ismoilova G.K. Ma’naviy qiyofa va ijtimoiy qiyofa: mohiyati hamda o‘zaro bog‘liqligi…….. 107
Suyarov N.R. Paxta qismati yoxud “paxta ishi”da qamalgan qashqadaryolik ayollar taqdiri……. 114
Toxirova G.D. Yoshlarda dastlabki professional karyerani rejalashtirishning motivatsion xususiyatlari……... 125
Norbosheva M. Bolaning oilada psixologik moslashuvi va oilada integratsiyalashuv masalalari…….. 131
Юлдашева Ф.Т. Значение и роль русского языка в современном обществе…….. 143
Qosimova G.I., Xayitova Y.S. Ona tili fani o‘qituvchisining lingvodidaktik tayyorgarligini amalga oshirishdagi yondashuvlar tavsifi…… 148
Рахимова А.И., Калинина О.Н. Изучение русского языка как иностранного: культурологический аспект…… 154
Шакарова Ф.Д., Ядгарова Г.И. Форма контроля при обучении РКИ – тестирование (на примере функционирования LMS)……. 159
Qurbonova G. A. Gidronimlarning struktur-semanik tahlili…… 164
Amanova S.X. Talabalarda koping-strategiya shakllanishining psixologik determinantlari…….. 170
O‘roqov A.Sh. Talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasi shakllanishida psixologik yondashuvlar…….. 176
Usmanaliyeva R. Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda pedagogik innovatsiyalar va kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim jihatlari…… 183
Xo‘jamberdiyeva D.I. Yuqori sinf o‘quvchilarining axbotorlar bilan ishlashda sun’iy intellektning o‘rni…….. 189
Durmanova G.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirish jarayonida ekologik ong va madaniyatni shakllantirish…….. 195

Abayev A.A. O‘smirlarda smartfonlarga qaramliknatijasida kognitiv toliqishning namoyon bo‘lishi…… 203
Ungboyeva U.S. Xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklashda psixologik qo‘llab-quvvatlashning samarali usullari…… 211
Mamadiyarov O‘.E. Tibbiyot xodimlari psixologiyasidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari……. 217
Yoqubova G.E. Sun’iy intellekt va an’anaviy psixologik xizmatlarning integratsiyasi: o‘smirlar psixikasiga ta’siri……... 223
Boymatov B.E. To‘garaklarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning mazmuniy-maqsadli yo‘nalishlari…… 230
Raximova D.M. Shaxs kamoloti va barqaror nikoh o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik… 242
Abdullayeva M.M. Raqamli omillar ta’sirida kognitiv faoliyat o‘zgarishi va xotira jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari…… 249
Mirzayev N.N. 1991–1999-yillarda Qarshi shahrining ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar…… 260



Кадыров Умарали Дусткабилович,
доктор психологических наук, профессор, заведующий кафедрой «Педагогика, психология и образовательные технологии» Центра педагогического мастерства Сурхандарьинской области

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЛИТЕРАТУРА КАК ОБЪЕКТ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические основы и механизмы анализа художественной литературы и образцов творчества, влияние произведений искусства на реципиента, индивидуально-психологические особенности творца как личности и их отражение в содержании произведений, а также значение использования духовного наследия в воспитании молодёжи.

Ключевые слова: творчество, психология литературно-художественного творчества, восприятие, психологическое изображение, мировоззрение, психология творца, мотив произведения, душевные переживания, индивидуально-психологические особенности, художественно-психологический анализ.

BADIIY ADABIYOTNING PSIXOLOGIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyot va ijod namunalarini tahlil qilishning psixologik asoslari va mexanizmlari, san’at asarlarining retsipiyentga ko‘rsatadigan ta’siri, ijodkurning shaxs sifatidagi individual-psixologik xususiyatlari va ularning asar mazmunidagi ifodalanishi, shuningdek yosh avlod tarbiyasida ma’naviy merosdan foydalanishning ahamiyati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ijod, adabiy-badiiy ijod psixologiyasi, qabul qilish, psixologik tasvir, dunyoqarash, ijodkor psixologiyasi, asarning motivi, ruhiy kechinmalar, individual-psixologik xususiyatlar, badiiy-psixologik tahlil.

FICTION AS AN OBJECT OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Annotation. The article examines the psychological foundations and mechanisms of analyzing works of fiction and samples of creative activity, the influence of works of art on the recipient, the individual-psychological characteristics of the creator as a personality and their reflection in the content of the works, as well as the significance of using spiritual heritage in the upbringing of the younger generation.

Key words: creativity, psychology of literary and artistic creativity, perception, psychological depiction, worldview, psychology of the creator, motive of the work, emotional experiences, individual-psychological characteristics, artistic-psychological analysis.

Известно, что в настоящее время уделяется особое внимание восстановлению и развитию художественно-культурного наследия. На современном этапе развития общества важное значение имеет использование творческого наследия мыслителей, писателей и деятелей искусства для воспитания всесторонне развитой личности, формирования гармоничного поколения, а также внедрение в сознание молодёжи содержания и сущности национальных и общечеловеческих ценностей, выдвинутых ими.

На протяжении веков в разных странах создавались многочисленные произведения, в которых отражались социально-нравственные взгляды, обсуждались вопросы семьи, межличностных отношений, излагались правила управления государством, содержались призывы к правителям вести справедливую политику, словом, охватывались практически все стороны общественной жизни. Одни авторы посвящали данным вопросам отдельные главы своих трудов, другие же писали об этом целые произведения. В прошлом немало мыслителей, изложивших свои социально-политические, философские взгляды, внесли значительный вклад в развитие общественных наук.

В течение определённого времени жизнь, деятельность и творчество мыслителей, писателей, литераторов в основном являлись объектом исследования таких наук, как литературная критика, литературоведение, этика, эстетика, педагогика, философия. Среди узбекских учёных, занимавшихся данной проблематикой, можно отметить И. Султона, М. Кушжанова, Х. Якубова, В. Захидова, А. Хаитметова, О. Шарафиддинова, У. Насирова, М. Нурмухамедова, С. Мамажонова, Х. Умурова, У. Норматова, Н. Каримова, Н. Худойберганова, Ю. Бекмуродова, Н. Шодиева, И. Гафурова, М. Абдурахманову, И. Хаккулова, У. Хамдама, Ж. Жумабаевой и др., в трудах которых изучались психология творчества, природа и особенности творческого процесса, вопросы психологического изображения в литературе и поэзии — с точки зрения литературоведения. Однако в узбекской психологии эта проблема практически не рассматривалась как самостоятельный объект исследования.

Вместе с тем, вопросы психологической стороны данной проблематики освещались в трудах многих учёных, в том числе зарубежных философов и психологов, таких как Шеллинг, Бергсон, Фихте, Фрейд, Шомбар де Лов, а также российских исследователей — Б. Г. Ананьева, А. Л. Андреева, Г. М. Андреевой, М. М. Бахтина, Л. С. Выготского, А. Г. Ковалева, И. С. Кона, А. Н. Леонтьева, Б. Ф. Ломова, Б. С. Мейлаха, С. Л. Рубинштейна, И. В. Страхова, Б. М. Теплова, П. М. Якобсона, М. Г. Ярошевского и других.

Западные учёные — Шеллинг, Фихте, Фрейд, Хосе Ортега-и-Гассет, Бергсон — объясняют творческий процесс как активность человека в бессознательном состоянии и оценивают его как интуитивный процесс.

Член Парижской академии хирургов, заведующий кафедрой Свободного медицинского университета Тегерана, почётный профессор и доктор университетов Азербайджана и Национальной академии, более полувека занимающийся литературоведением Джавад Хайят в своей книге «Литературоведение» отдельно анализирует моральную, социальную, марксистскую, психологическую критику, психоанализ, теорию искусства Фрейда. Автор, говоря о психологической критике, подчёркивает неразрывную связь между личностью писателя и его произведениями:

а) для прояснения смысла произведения необходимо исследовать жизнь и личность автора;

б) для раскрытия психологии и личности писателя следует приводить примеры из его произведений [8,29].

В исследованиях зарубежных учёных, посвящённых изучению мотивации творческой деятельности писателей и художников, анализировалась природа мотивов, побуждающих их к творчеству. У 100 писателей методом интервью были выявлены 10 основных мотивов, побуждающих к творчеству:

1. Способности и мастерство.
2. Возможность осмысления, исследования, преодоления неопределённости.
3. Эстетическое удовлетворение.
4. Коммуникация и участие.
5. Политические и эстетические потребности.
6. Общественное признание.
7. Эмоциональная реализация и сублимация.
8. Понимание и решение эмоциональных проблем.
9. Бессмертие.
10. Духовный поиск и трансценденция.

В этих исследованиях особое внимание уделяется «внутренней» мотивации субъекта. «Внешние» факторы — такие как общественное одобрение, признание — в расчёт не принимаются [15].

Российский учёный И. С. Кон подчёркивает, что образы детства в художественных произведениях можно изучать с эстетической,

социологической, этнологической, исторической, психологической, идеологической и биографической точек зрения [4,10]. Он отмечает, что художественный образ отражает не только определённую социальную и психическую реальность, но также мысли и чувства автора [4,9]. То есть, по сути, творчество является личным явлением, поэтому писатель неизбежно вкладывает свою личность в произведение.

Л. С. Выготский в книге «Психология искусства» анализирует образцы художественной литературы с психологической точки зрения. Однако в этом труде он не обращается к принципу личности, то есть не акцентирует внимание на психологии самого автора. В книге «Психология искусства» в основном рассматриваются психологический механизм художественного восприятия и влияние произведения на читателя. Но, как отмечал Б. Г. Ананьев, «психология искусства не может существовать без анализа личности автора» [2,296]. Отсюда следует, что при психологическом анализе произведений искусства, в частности художественной литературы, необходимо обращать внимание и на личность автора, его индивидуальные качества и то, как они влияют на результат его творчества.

Кроме того, Ананьев высказывает мнение, что образ человека в художественных произведениях представляет собой своеобразную художественную модель определённой личности, различных социальных групп и присущих им социально-психологических отношений [1,322].

По словам В. Е. Семёнова [9,74], многие реалистические художественные произведения можно рассматривать как своеобразное изложение социально-психологических исследований. Например, к таковым можно отнести отдельные произведения некоторых русских и французских писателей XIX века — Э. Золя, Г. Успенского, А. Куприна, Л. Толстого, М. Горького, Ф. Достоевского.

Для социального психолога продукт творчества важен не только как коллекция художественных моделей и образов, но и как источник понимания личности авторов, принадлежавших к разным эпохам и социальным системам, а также как средство познания аудитории произведения (реципиента).

Как отмечает Б. Ф. Ломов, анализируя художественные произведения, можно выявить направленность духовных ценностей писателя, которая является составной частью личности и главным компонентом её иерархии, а также изучить особенности его мировоззрения [6,311].

Психологи подчёркивают, что внимательное изучение мемуаров, автобиографических произведений писателей и мыслителей, а также авторских комментариев в их произведениях, наряду с анализом поведения персонажей, позволяет составить представление об их таланте, духовности, ценностях, чувствах, интересах, мировоззрении, убеждениях, эстетике, морали и нравственности.

Некоторые исследователи, обращаясь к искусству и образцам художественного творчества, подчёркивают, что настало время использовать литературных персонажей как объект и метод психологического исследования.

В этом контексте чаще всего ссылаются на труды Б. М. Теплова. Учёный задавался вопросом: «Не следует ли расширить методы психологии за счёт анализа художественной литературы?» [10,311]. Более того, он сам анализировал поведение и поступки персонажей произведений А. С. Пушкина с позиции психолога, формулируя собственные выводы.

По словам М. Г. Ярошевского, обращение к продуктам художественного творчества позволяет извлечь из них ценную психологическую информацию. При этом раскрывается сущность личности: эти сведения касаются не только персонажей произведения, но и глубоко личного отношения к ним автора. Можно сказать, что в произведениях искусства отражаются восприятие человека человеком, различные психические процессы, а также особенности характера, поведения, мышления, склонностей и стремлений самого автора [11].

Некоторые аспекты диалектического единства субъективных и объективных категорий в творчестве писателя и вообще художника рассматривались в работах А. Цейтлина, Б. С. Мейлаха, П. М. Якобсона, И. В. Страхова.

Интуиция и воображение талантливого писателя зачастую выступают как совершенное средство познания социальной реальности. Нередко они создают типы личностей и социальные отношения, на которые даже учёные-теоретики не осмеливаются замахнуться, воплощая их в прошлом (исторические романы) или будущем (фантастика). Учитывая возможности художественной литературы, социальные психологи обращаются к накопленным в ней знаниям, идеям и опыту для изучения и познания социальной действительности.

«Произведение вырастает из писателя, рождается в нём, как его дитя, взрослеет, достигает зрелости... Произведение — это судьба писателя; при необходимости он готов даже пожертвовать собой. Его эта необычайная преданность, невозможность не писать, склонность к психологии, философии, размышлениям, его личность, характер, стиль, взгляды, боль, страдания никого не интересуют. Писатель соединён со своей личностью и личностью других — произведение является его субъектом» [7].

Аскад Мухтар подчёркивает, что способность к воображению является очень важной составной частью таланта творца. Писатель сначала воображает своих героев, их действия и ситуации, а затем описывает их. По его мнению, сила воображения сближает писательский талант с наукой.

Писатель как личность стремится отразить в своём произведении собственную сущность, духовное и нравственное содержание. Как говорил Стефан Цвейг, в процессе творчества личность писателя как бы «капля за

каплей вливается в кровеносные сосуды других людей»: его судьба сливается с судьбой других, его чувства — с их чувствами, его мысли — с их мыслями.

При определении идейного, политического, социально-психологического и нравственного направления произведения большое значение имеет принадлежность автора к определённому течению, классу или группе. Индивидуально-психологические особенности писателя также могут оказывать влияние на содержание произведения.

Например, всемирно известный писатель маркиз де Сад прославился произведениями садистского характера, воспевавшими мучения и насилие, и, как оказалось, сам был склонен к заболеванию, которое впоследствии получило название «садизм» по его имени. Подобное можно сказать и о Захере-Мазохе: термин «мазохизм» также происходит от его имени.

Любой жизненный материал становится произведением искусства лишь после того, как он пройдёт через сознание, мышление и творческую лабораторию писателя. В этом процессе огромную роль играют его талант, идеалы, мировоззрение. О взглядах и отношении писателя к жизни и окружающим событиям можно составить представление через анализ его произведений.

Выдающийся узбекский писатель Абдулла Кадыри в одном из своих литературных размышлений писал:

«Даже если писатель лично не знаком, по его произведениям можно мысленно понять, какой он человек. Потому что он в них в основном изображает свою натуру, свою душу» [13, 73].

А.Г. Ковалёв [5,23] в изучении психологии художественного творчества рекомендует придерживаться следующей программы:

1. История творческой деятельности и жизненного пути писателя (анализируются данные о его биографии, семье, круге друзей, процессах социализации, творческой деятельности и отношении к ней).

2. Особенности писателя как личности (изучается его впечатлительность от жизненных событий, наблюдательность, память, сила творческого воображения, отношение к природе и людям, работоспособность).

3. Особенности, присущие творчеству писателя (любимый жанр, причины и мотивы, побуждающие его к созданию произведения, построение плана произведения, творческий стиль писателя).

При анализе художественного произведения с точки зрения психологии не следует забывать, что его создатель — это личность с определёнными, уникальными, индивидуальными особенностями. Поэтому в продукте творческого процесса, в характере и динамике событий, отражённых в произведении, также исследуются личные качества и свойства писателя. При изучении личности писателя и его литературно-художественных произведений, являющихся результатом его деятельности, на основе жанровых особенностей произведений, стиля письма анализируются

характер, темперамент, мировоззрение писателя, его отношение к окружающему миру, обществу, людям вокруг.

В целом произведение является средством выражения отношения писателя к жизни. Обычно крупное эпическое произведение обобщает важнейшие стороны эпохи, основные взгляды писателя на жизнь, отражает настроение, психологию и стремления определённой социальной группы.

Основная задача писателя заключается в раскрытии внутреннего духовного мира героев, описании их стремлений и характерных особенностей, выявлении внутренних мотивов поведения героев. Для этого писатель должен хорошо знать психологию, достичь успехов в понимании человеческой психики. Только тогда он сможет адекватно выразить сознание человека, его психику, природу, правильно показать общественные настроения, причины их возникновения, силу, устойчивость, межличностные отношения, воздействовать на людей своим талантом, направлять читателя к соответствующему ходу мыслей.

Конечно, писатели, хотя и не написали специальных научных трудов или не проводили специальных исследований для подтверждения своих взглядов, однако их наблюдения, отражённые в художественных произведениях и романах, обладают аналитическим приоритетом и могут выполнять функцию фактологического материала, доказательства.

Вместе с тем, в художественном произведении отражаются особенности личной и эмоциональной жизни персонажей, специфика их взаимных отношений, и их научно-психологический анализ может дать дополнительную ценную информацию для психологии как науки.

Поскольку искусство является одной из форм общественного сознания, литература, как его составная часть, отражает человека вместе с его социальными отношениями, его существование и деятельность в обобщённом виде. С развитием общества и общественных отношений роль и значение духовности в жизни возрастают.

Высокое мастерство, проявляемое писателем в процессе творчества, идейное содержание произведения, мировоззрение писателя и его замысел воспринимаются читателем, который формирует определённое отношение к описываемым событиям.

М.Г. Ярошевский отмечает, что психология как наука может использовать образы художественных произведений в следующих направлениях:

1. Для иллюстрации состояний, полученных с помощью специальных методов и приёмов психологии;

2. Для объяснения процесса создания этих образов самим художником, творцом;

3. Для анализа того, как эти образы воспринимаются и осознаются читателями (реципиентами) [12].

Известно, что социальные отношения между людьми имеют сложный характер. Они включают в себя экономические, политические, культурные и духовные связи. Эти связи в совокупности формируют человека, индивида как личность. Психологические особенности личности невозможно понять, оторвав их от конкретных исторических условий и общества, к которому она принадлежит. Личность всегда выступает как субъект определённых личных, сложных индивидуальных качеств и особенностей. Эти качества и свойства проявляются в её отношении к другим людям, в чертах характера, поведении, воле, жизненных стереотипах, установках, способностях, склонностях, интересах, потребностях и мотивах деятельности, мировоззрении, убеждениях и идеалах.

При рассмотрении личности как объекта социально-психологических исследований или при изучении её с социально-психологической точки зрения, прежде всего исследуются её поведение, установки, социальные мотивы, место личности в обществе, её социальная роль, процесс социальной интеграции и становления, факторы самосознания, самооценка, отношение к себе, а также влияние социально-исторических и культурных условий на сознание личности.

В целом, при анализе произведений мыслителей, писателей и поэтов обращает на себя внимание то, что многие учёные, правители, поэты внесли свой вклад в формирование, становление и развитие психологии как науки наряду с другими общественными дисциплинами. Изучение взглядов мыслителей, писателей применение их идей в образовательном процессе и в практике имеет большое значение и в наше время. Хотя они не использовали подтверждение своих идей в жизни в виде специальных научных исследований, широкое мышление и наблюдательность авторов обеспечили актуальность их идей на протяжении веков. Жизнь сама требует действий, основанных на их духовном наследии, широкого применения их идей на практике. Поэтому важнейшей задачей, стоящей перед представителями социально-гуманитарных наук и учёными, является всесторонний, глубокий и последовательный анализ богатого научного и культурного наследия учёных и мыслителей, освещение его психологических и социально-психологических аспектов и использование их для возвышения нашей духовности.

Литература:

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. Л.: ЛГУ, 1969. — 339 с.
2. Ананьев Б.Г. О принципах современного человекознания. М.: Наука, 1977. — 312 с.
3. Жумабоева Ж. Мастерство психологического изображения в узбекской поэзии XX века. Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. Т.: 1999.
4. Кон И.С. Ребёнок и общество. М.: Наука, 1988. — 268 с.
5. Ковалёв А.Г. Психология литературного творчества. Л.: Изд-во ЛГУ, 1960. — 135 с.

6. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. М.: Наука, 1984. — 444 с.
7. Мухтор А. «Уйқу қочганда...» // Тафаккур, 1996, №1, с. 25–33.
8. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб. Т.: Маънавият, 1998. — 62 с.
9. Семёнов В.Е. Социальная психология искусства. Л.: ЛГУ, 1988. — 165 с.
10. Теплов Б.М. Избранные труды. Т. 2. М.: Педагогика, 1985. — 359 с.
11. Ярошевский М.Г. Психология творчества и творчество в психологии // Вопросы психологии. 1985. №6. С. 14–25.
12. Қодирийни қўмсаб. Хотиралар. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. — 80 с.
13. Кадыров У. Социально-психологические и этнопсихологические проблемы в художественном творчестве. Автореф. дисс. ... канд. психол. наук. Т.: 2002.
14. McNiff S.A. Motivation in art. Art Psychotherapy, 1977, vol. 4, p. 125–136.



Umarov Bahriddin Mengboyevich,
psixologiya fanlari doktori, "Alfraganus" universiteti professori

O'ZBEK OILALARIDA TARBIYA PSIXOLOGIYASINING AYRIM IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek oilalaridagi tarbiya psixologiyasining ayrim ijtimoiy-psixologik muammolari borasidagi mulohazalar muhokama qilingan. Shuningdek, globallashgan jamiyatda o'zbek oilalaridagi tarbiya jarayonining ijtimoiy-psixologik muammolari va ularning yechimi bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy tarbiya, xulq-atvor, xulq og'ishi, tarbiya buzilishi, noaxloqiy va g'ayriqonuniy xulq-atvor, tarbiyada ota-ona nazorati, oilaning tarbiyaviy funksiyasi, oilaviy nosog'lom psixologik muhit.

НЕКОТОРЫЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ ВОСПИТАНИЯ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. В этой статье рассматриваются некоторые социально-психологические аспекты психологии воспитания в узбекских семьях. Также в условиях глобализatsii общества описаны социально-психологические проблемы процесса воспитания в узбекских семьях и их решении.

Ключевые слова: семья, семейное воспитание, natsиональные ценности, natsиональное воспитание, поведение, отклонения поведении, расстройства воспитания, неадекватное и протвозаконное поведение, родительский контроль в воспитании, воспитательная функция семьи, семейная нездоровая психологическая среда.

SOME SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PARENTING PSYCHOLOGY IN UZBEK FAMILIES

Annotation. This article examines some socio-psychological aspects of the psychology of parenting in Uzbek families. Also, in the context of the globalization of society, the socio-psychological problems of the upbringing process in Uzbek families and their solutions are described.

Keywords: family, family upbringing, national values, national upbringing, behavior, behavioral deviations, parenting disorders, inappropriate and illegal behavior, parental control in upbringing, educational function of the family, family unhealthy psychological environment.

Muhtaram Prezidentimizning «Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. «Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi»[1] – deb ta'kidlashi yurtimizda yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Ma'naviy yetuk oila – ma'naviy yuksak jamiyat tayanchidir. Oila – urf-odatlar, shajara, an'analar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni farzandlar ongiga singdirish, har bir oila a'zosini kasb-hunar malakalari bilan urollantirish, ma'naviy barkamollikni tarbiyalashning asosidir [1].

Milliy ma'naviy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi mumkin emas. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi bilan belgilanadi [2]. Bu nazariy qoida bugungi kunda ijtimoiy tarbiyaga ham, oilaviy tarbiyaga ham bevosita taalluqlidir.

Quyida biz oilada farzandlarni tarbiyalash, tarbiyadagi yo'l qo'yilayotgan xatoliklar, yoshlar tarbiyasining buzilishi va uning oldini olish borasidagi muammolarni o'rganib va tahlil qilib, bugungi kun amaliyotiga javob beradigan o'zimizning ilmiy va hayotiy xulosalarimizni o'rtaga tashlamoqchimiz.

Butun dunyo va xususan yurtimizda yuz berayotgan yangi ijtimoiy-tarixiy voqeliklar oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyada jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Shundan kelib chiqib, oilada farzandlarni mustaqillik ruhida, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash oiladan boshlanishini e'tiborga olib, oilaviy tarbiya mazmunini qaytadan ko'rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash va shu asnoda maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo'llarini aniqlash muhim ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik zaruriyat bo'lib bormoqda [4].

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kamolot» yoshlar jtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1 iyul 2017y.

Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, oilalarda farzandlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rni katta.

Ma'lumki, o'zbek xalqi boy ma'naviy, madaniy qadriyatlarga ega. Ana shu qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali bobolarimiz, momolarimiz farzandlarini tarbiyalab voyaga etkazishgan. Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan farzandlar odob-axloqda, aql-zakovatda, mehr-oqibat va xalqparvarlikda, jasurlik va mardlikda nom qozongan.

Xabaringiz bor xalqimiz uzoq yillar mobaynida yevropacha turmush tarzini boshidan kechirdi. Bir necha ming yillik urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va milliy tarbiya usullari o'rniga yevropacha tarbiya madaniyati kirib keldi. Ular ba'zan tazyiq orqali ham kiritildi. Natijada xalqimiz tarixan shakllangan boy madaniy va ma'naviy merosidan, oilaviy tarbiya usullaridan ayrildi.

Nazarimizda bunday holat, bugungi kunda o'zbek oilalaridagi tarbiya samarasiga qaysidir ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada oilaviy tarbiyaning ta'sirchanlik roli pasaydi. Ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Oilalarda mehr-oqibat, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat kamayib bormoqda. Bu oxir oqibat atrofga, jamiyatga ham ta'sir eta boshladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, bugun ko'cha-ko'yda yoshlarning o'zini tutushlari, muomala munosabatlari ba'zan kishining g'ashini keltiradi.

Kuzatishlarimiz va ilmiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, oilada "qahr-g'azab" asosidagi ota-ona munosabati bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o'smirlarda oilaviy muhitga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada o'smir oiladan tashqari ko'cha muhitini o'ziga ma'qul ko'radi. Ko'cha muhiti esa ba'zan kriminal mazmunga ega bo'lishi mumkin. Natijada noaxloqiy va g'ayriqonuniy xulq-atvor muhitiga tushib qolgan o'smirda xulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Ota-onalarning "qahr-g'azab" asosidagi munosabati bolalar va o'smirlarda salbiy xarakter xislatlarining, xususan, qo'rqoqlik, tobelik, asabiylik, hissiyotlarga beriluvchanlik va mustaqil tafakkurning sustligi kabilarning shakllanishiga olib keladi. Qo'rqoq, tobe bolalar va o'smirlar birovlarning qistovi, zo'rlashi natijasida turli xil g'ayriqonuniy guruhlarga qo'shilib ketadilar. Ulardagi asabiylik, qo'zg'aluvchanlik va hissiyotlarga beriluvchanlik xususiyatlari tez-tez nizoli vaziyatlarga duch kelishga sabab bo'ladi. Shuningdek, ulardagi mustaqil fikrlash layoqatining sustligi nizoli vaziyatlarning chigallashuviga, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini noto'g'ri qo'llashga olib keladi. Natijada bunday vaziyatlarda o'smir o'zining yosh davri xususiyati va hayotiy tajribasizligi tufayli g'ayriqonuniy harakatlarga qo'l urishi mumkin.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra ota-onalar oilada farzandlari bilan turlicha muomala va munosabatda bo'lishliklari ma'lum bo'ldi. Buni xulq og'ishiga ega bo'lgan va tarbiyasi buzilgan bolalar va o'smirlarning o'z ota-onalari xulq-atvorlari to'g'risida bergan ma'lumotlari ham ko'rsatadi. Bunga ko'ra, xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar tarbiya ko'rgan oilalarda ota-

onalar ko‘pincha farzandlariga “erkinlik berish” asosida muomala munosabatda bo‘lishganliklari kuzatiladi.

Nazarimizda oilada bolalarga haddan ortiq erkinlik berish ularni o‘z bilganicha ish tutishga, qilayotgan ishining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini anglab yetmaslikka olib keladi. Ota-ona nazoratidan, so‘rab tergashidan chetda qolgan o‘smir o‘zini erkin bilib ko‘ngli tusagan ishga qo‘l o‘radi. Bunday xatti-harakatlar ba’zan noqonuniy bo‘lishi ham mumkin.

Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ko‘pincha o‘smirni g‘ayriqonuniy xulq-atvorga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar safiga qo‘shilib ketishga olib keladi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarining ayniqsa, o‘smirlik yoshi davridagi faoliyatlarini, bo‘sh vaqtlarida nimalar bilan shug‘ullanayotganliklarini domiy ravishda nazorat qilib borishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa o‘smirlik yoshi davridagi psixofiziologik o‘zgarishlar va o‘tish davri xususiyatlari bu yosh ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning o‘ziga xos alohida e’tiborini talab qiladi. Oilada ota-onalarning bu yoshdagi o‘smirlarga nisbatan bo‘ladigan e’tiborsizliklari, tarbiya shunday berilishi kerak deb qarashlari bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, oiladagi avtoritar, haddan ortiq qattiqqo‘llik asosidagi munosabat ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘lganligi kuzatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, oilada bolalarga pozitiv, direktiv, avtoritar munosabatlarni me’yorida va bunda bolalar va o‘smirlarning yosh va o‘tish davri xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llash ular xulqida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa bolalar va o‘smirlar xulqida o‘ziga xos o‘zgarishlar kelib chiqadi.

Mikromuhit hisoblangan oila muhiti ham bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan biz quyida voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida oila muhitining o‘rni masalasiga kengroq tuxtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti fuqarolarning bilimdonligiga, aql-zakovati, ma’naviy va axloqiy jihatdan yuksakligiga bog‘liqdir.

Insondagi ushbu xislatlar oilada, oila muhitida shakllanadi. Shuning uchun ham oilaning muhim vazifalaridan biri farzandlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash bo‘lib hisoblanadi. Xo‘sh bugungi o‘zbek oilasida ana shu muhim vazifa qanday uddalanayapti? Quyida ana shu masalalar to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Oilaning vazifasi qaysidir ma’noda ijtimoiy ehtiyojlar xarakteri bilan o‘xshashdir. Shu boisdan bo‘lsa kerak, oila shaxsning ijtimoiylashuvi, uning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik jarayonlar bilan aloqasini ta’minlovchi vosita vazifasini ham bajaradi.

Oilaning tarbiyaviy funksiyaga ega ekanligi ham hech kimga sir emas. Oila haqiqatdan ham yoshlarda ijtimoiy va milliy qadriyatlarni, axloqiy fazilatlarni,

hayotiy mezon va normalarni, odob va nazokatlilikni shakllantiruvchi muhim maskandir.

Oila ijtimoiy institut sifatida hozirgi paytda bir qator o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. U bugun juda ko‘plab ta’sirlar qurshovida qolmoqda. Xususan, iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy va huquqiy mazmunning susayishi, oilaviy ajrimlarning ko‘payishi va boshqalar oilaviy tarbiya ta’sirchanligining susayishiga olib kelmoqda. Bular o‘z navbatida oilaviy muhitning buzilishiga, farzandlar tarbiyasidagi nuqsonlarning kelib chiqishiga zamin yaratmoqda.

Oilalarda nosog‘lom psixologik muhitning mavjudligi oilaviy munosabatlar noxushligi, oilaviy ajralishlar, ota-onalardan birini yo‘qligi, oilaviy tarbiyadagi yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar hamda oilaning tarbiyaviy ta’sirga ega emasligi holatlari bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o‘rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta’sir doirasi ijtimoiy ta’sir doirasi singari o‘ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda kata imkoniyatlarga egadir. Biroq, keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Tabiiyki ushbu muammolar bolalar va o‘smirlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotimiz natijalarining ko‘rsatishicha, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida xulq og‘ishi va va tarbiya buzilishining kelib chiqishida “oilada farzandlar tarbiyasiga e’tiborning susayishi va ular faoliyatini nazorat qilmaslik” asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kuzatishlarga qaraganda, keyingi yillarda oilalarda turli xil sabablarga ko‘ra, xususan yurtimizda kechayotgan islohotlar, bozor munosabatlariga o‘tish, kishilarda kundalik turmush tashvishlariga barham berish, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va kelajakka nisbatan yangicha qarash layoqatining yetishmasligi va shu kabilar oilada farzandlar tarbiyasiga e’tiborning biroz susayishiga sabab bo‘lib, ota-onalar farzandlari bilan kam muloqotda bo‘lishga to‘g‘ri kelmoqda. Shu boisdan yurtimizda oiladan tashqarida farzandlar kamoloti, tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘ladigan turli xil mashg‘ulotlarga (sport, kasb-hunar) to‘garaklarga nisbatan bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan tadbirlar maqtovga sazavordir. Joylarda foydalanishga topshirilayotgan sport inshootlari, zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim maskanlarining bunyod etilishi, yoshlarimizning bo‘sh vaqtlarida shug‘ullanishlari uchun turli xil to‘garaklarning barpo etilishi bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning namunasidir. Ammo bu sohada hali qilinadigan ishlar ham bisyordir.

Oilada yetarlicha tarbiya ko‘rmagan bolalar turmush qiyinchiliklaridan qoqiladi. Turli xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Tarbiyasizlik o‘smirni yaxshi o‘rtoqlaridan, davralardan ayiradi. Oqibatda o‘smir uchun birdan-bir yo‘l nosog‘lom xulqli o‘smirlar davrasiga qo‘shilib ketish bo‘lib qoladi. Qarabsizki, o‘smirda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi oilaviy tarbiyaga bog‘liq bo‘lgan omillardan yana biri “oilaviy tarbiyada primetiv (eskirgan, noma’qul) usullardan foydalanish” bo‘lib hisoblanadi. Bunday tarbiya usulida tarbiya o‘ta qattiqqo‘llik, avtoritar, bolalarning fikr va qarashlarini inobatga olmaslik asosida olib boriladi. Bunday usulda bolalarni tarbiyalashning noto‘g‘ri ekanligini bugun hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Chunki, bugungi yosh mustaqil fikrlashga intiluvchan, o‘z qarashlariga ega bo‘lgan, aqlan yetuk yoshlardir. Bunday yoshlar bilan hisoblashish, ularning fikr va mulohazalarini eshitish, kerakli joylarda maslahat berish yaxshi natijalar berishligini unutmasligimiz kerak.

Oilaviy tarbiyadagi qo‘pollik, andishasizlik, haqorat, do‘q-po‘pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish ko‘pincha bolalar va o‘smirlarning uydan qochishiga, biron ish qilib qo‘yib ota-onasidan qo‘rqqanidan ko‘chalarda daydisirab yurishiga, qayerlardadir tunab qolishiga olib keladi. Bunday bolalar oila muhitiga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish jarayoniga duch keladilar. Oqibatda o‘ziga ma’qul bo‘lgan oiladan tashqari guruh yoki ko‘cha muhitini qabul qiladi. Bu muhit o‘zining xarakteriga ko‘ra, bolaga salbiy yoki ijobiy ta’sir qilishi mumkin. Afsuski, nosog‘lom muhit psixologiyasiga ega bo‘lgan kucha muhiti bolalarga ko‘p holatlarda salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oilaviy tarbiyada bolalar va o‘smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olmasliklari holati ko‘pincha ko‘zlagan tarbiyada teskari natija beradi.

Ma’lumki, balog‘at yoshi hisoblangan (12-14 yosh davrida) o‘smirlik davrida keskin psixofiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ushbu o‘zgarishlar ko‘pincha o‘smir ruhiyatiga ham ta’sir o‘tkazadi. Bu o‘smirda tajanglik, serzardalik, injiqlik, ta’sirlanuvchanlik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. O‘smir ruhiy dunyosida paydo bo‘lgan bunday o‘zgarishlar balog‘at davri o‘tishi bilan bir me’yorga kelib qoladi. Shuning uchun balog‘at yoshi davrida ota-onalar o‘smirlar tarbiyasiga alohida e’tibor berishlari, ularda kechayotgan psixofiziologik o‘zgarishlarni hisobga olishlari maqsadga muvofiqdir. Ko‘pincha oilaviy tarbiyada bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarining inobatga olinmasligi ularning noto‘g‘ri, yomon yo‘llarga kirib ketishlariga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ota-onalar oilaviy tarbiyada, farzandlari bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlarda, ular bilan muomala qilishda shaxs va yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutsalar oilaviy tarbiyaning samarasi yuqori bo‘lishligini ta’minlagan bo‘lur edi.

Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi oilaviy tarbiyaga bog‘liq bo‘lgan omillar orasida “ota-onalarda

farzandlar tarbiyasiga doir bilimlarning yetarli emasligi" holati ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, ota-onalarda bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlari va oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash to'g'risidagi bilimlarning etishmasligi hamda tarbiya jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish borasidagi kamchiliklar bolalar tarbiyasida jiddiy nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Oilada ota-onalar ko'pincha farzandlari biron bir yomon ish qilib qo'ysa, uni qattiq jazolash, taqiqlash va ularni uydan chiqarmay qo'yish usullari orqali tarbiyalamoqchi bo'ladilar. Farzandi o'zlariga yoqadigan ishga qo'l ursa uni haddan ortiq maqtaydilar va mukofotlaydilar. O'zlari qo'llayotgan usullarni qay biri to'g'ri, qay biri noto'g'ri ekanligini anglab yetmaydilar. O'zlaricha tarbiya shunday beriladi deb o'ylaydilar. Natijada o'zlari bilmagan holda bolalarining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun ota-ona eng avvalo oilada bolalarni tarbiyalash to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ular tarbiya to'g'risidagi pedagogik va psixologik kitoblarni, gazeta va oynomalarni ko'proq o'qishlari zarur bo'ladi. Ushbulardan ko'rinadiki, ota-onalarda tarbiya borasidagi bilimlarning yetishmasligi, tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va rasm-rusumlarimizdan foydalanmaslik bolalar tarbiyasining buzilishiga, ularda turli xil xulq og'ishlarining kelib chiqishiga olib keladi.

Tadqiqotlarimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, oilada "bolalar tarbiyasida qariyalarning ishtirok etmasligi" holati ham bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axir xalqimizda "qarisi bor uyning – parisi bor" deb bejiz aytilmagan. Qariyalarning birinchidan, deyarli uyda bo'lishliklari bolalar bilan doimo muloqotda bo'lishga, ular faoliyatini doimo nazorat qilib turishga olib kelsa, ikkinchidan ulardagi hayotiy tajribaning ko'pligi bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Yoshlarimizda o'zbek xalqiga xos bo'lgan mehr-shafqatlilik, bag'rikenglik (tolerantlik), nochorlar, dardmanlar holidan xabar olish, ularga yordam berish xislatlari negadir bugungi kunda ko'rinmay borayapti. Yoshlarimiz o'rtasida xasislik, boqibeg'amlik, loqaydlik, betga choparlik, manfaatparastlik, ta'magirlik, ko'zbo'yamachilik kabi illatlar kuchayib bormoqda.

Kuzatishlarimizga qaraganda, oilalarda ota-ona hamda farzand o'rtasidagi munosabatlarda ham o'ziga xos samarasiz usullardan foydalanilmoqda. Jumladan, ota-onalar ba'zan farzandlariga o'ta-darajada mehr qo'yadilar. Ularni asrab avaylaydilar, e'zozlaydilar. Ularga gard yuqtirmaslikka harakat qiladilar. Aytgan yoki istagan narsalarni muhayyo qilishga intiladilar. Bir qarashda ota-onada shunday qilsa nima qilibdi deysiz. Ammo ota-onalarning bolalarga bunday munosabatlari bolalarda salbiy xislatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ota-onasi tomonidan ko'rsatilayotgan bunday munosabat natijasida bolada manmanlik, birovlarni mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy xislatlar paydo bo'lmoqda. Bunday xislatlarga ega bo'lgan

bolalarda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, olijanoblik, o‘zgalarni hurmat va e’zozlash, mehnatning qadriga yetish xislatlari shakllanmaydi. Shuningdek, ularda maqtanchoqlik, birovlarning ustidan kulish, nochorligini yuziga solish odatlari ham kuzatiladi. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalar muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydilar. Bundaylar o‘z tengqurlari bilan kelisha olmasliklari, do‘stlari doirasining torligi tufayli ko‘pincha tengdoshlaridan yakkalanib qolishliklari bilan ajralib turadilar.

Bugungi kunda o‘zbek oilasida mavjud bo‘lgan tarbiyadagi nuqsonlardan yana biri ota-onalarning rad etish, taqiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi tarbiyalash usulidir. Bu xildagi tarbiya usulida bolalarning xohish-istagi, o‘y-xayollari, orzu va intilishlari, fikr va mulohazalari inobatga olinmaydi. Bundan tashqari bunday tarbiya usulida bolalarga o‘z fikr-mulohazalarini ochiqcha bayon etish, mustaqil qarorlarga kelish va muayyan vaziyatlarga o‘z nuqtai nazarini bildirish imkoniyati cheklanadi. Bunday tarbiya usulida ba’zan bolalarning xatti-harakatlari majburiy tarzda taqiqlash usullari bilan boshqarib boriladi. Uyda bu narsaga tegish mumkin, bu narsaga tegish mumkin emas, bu kiyimni kiyasan, bunisini kiymaysan qabilidagi munosabat o‘rnatiladi. Bolaning qiziqishi, erkinligi, o‘ziga yoqqan kiyimni kiyishi, ko‘ngli istagan ish bilan mashg‘ul bo‘lishi, qiziqqan kitobini o‘qishi va xohlagan sport turi bilan shug‘ullanishi ota-ona ixtiyori bilan amalga oshiriladi. Oilada ota yoki onaning aytgani-aytgan, degani-degan bo‘ladi. Bunday usulda tarbiyalangan bolalarda mustaqil fikr yuritish qobiliyatining sust rivojlanishi, tortinchoqlik, o‘z fikr-mulohazalarini bayon eta olmaslik, tobelik, qo‘rqoqlik va jur’atsizlik kabi salbiy xislatlar yorqin namoyon bo‘ladi. Jur’atsiz, tobe, tortinchoq bolada faollik va o‘z-o‘ziga ishonch hissi yetishmaydi. Shuningdek, ularda nutqning sust rivojlanishi holati ham kuzatiladi. Bunday bolalar butun umr davomida birovlarga tobe bo‘lib yashaydilar. Ularda rahbarlik, boshqaruvchanlik qobiliyatlari sust rivojlangan bo‘ladi. Ular birovlarning gap-so‘zlariga tez uchadilar. Shuning uchun ular aldovlar, ko‘zbo‘yamachiliklar, ta’magirliklar qurboniga aylanadilar. Ulardagi fikrlash qobiliyatining sust rivojlanganligi nizoli vaziyatlarga tez-tez tushib qolishlikka sabab bo‘ladi. Bundaylar nizoli vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga qiynaladilar. Ular birovlarning ta’siri, qistovi yoki majburlashi natijasida turli xil qonunbuzarliklarni amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbek oilalarida berilayotgan tarbiya nuqsonlaridan yana biri oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarimizdan, ya’ni ertak, maqol, rivoyat va hadis ilmidan yetarlicha foydalanilmayotganligidir.

Tadqiqotimiz natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, tadqiqotimizda ishtirok etgan ota-onalarning atigi chorak qismi farzandlariga yoshligida ertak, rivoyat va maqollar aytib berishganligini eslashadilar xolos[5].

Axir qadriyatlarimiz, xalq og‘zaki ijodi durdonalari, rivoyatlar va hadis ilmi bolalarda yaxshilik, olijanoblik, xush xulqlilik xislatlarining shakllanishiga xizmat qilishligi hammaga ayonku. Shunday bo‘lsada, nega bugun farzandlar tarbiyasida

bu masalaga e'tiborsizlik qilamiz. Sizu bizning ana shu e'tiborsizligimiz, erta katta bo'lganda tarbiyalanib qolar degan aqidaga berilishligimiz bolalarmizning barkamol, xush xulqli insonlar bo'lib yetishishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

O'zbek oilalarida ota-onalarning farzandlarni tarbiyalashdagi kamchiliklaridan yana biri bolalarning tarbiyasiga yoshligidan e'tibor bermaslikdir. Axir xalqimizda "to'qqizida bo'lmagan to'qsonida ham bo'lmaydi" degan ajoyib naql borku. Bolani qanchalik erta o'rgatsang, tarbiya bersang shunchalik tez moslashadi, o'rganadi. Afsuski, ko'pgina ota-onalar yoshligida farzandimning qorni to'q, usti but bo'lsa bo'ldi deb o'ylashadi. Yoshi 16-17 ga borib, maktabni bitirayotganda esa farzandi haqida o'ylab qolishadi. Bu davrga kelib farzand tarbiyasi, uning ertangi kuni haqida o'ylashligi kech bo'lganligini ko'pchilik ota-onalar anglab yetmaydilar. Natijada tarbiyada qo'ldan boy berilgan fursat azobini o'zimiz tortamiz. Bu ham yetmaganidek bolaning kelajagi, ertangi kuni, faravon va baxtli hayot kechirishini barbod qilamiz. Bunday holatlarda aybni ko'pincha bolalardan izlaymiz. O'z aybimizni esa tan olmaymiz yoki ko'ra bilmaymiz.

Oilada ota-onalarning tarbiyada yo'l qo'yayotgan kamchiliklaridan boshqa biri bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslikdir.

Ko'pchiligimiz oiladagi barcha farzandlarga bir xil tarbiya berishga o'rganib qolganmiz. Bilamizki, bolalar tabiatan har xil ko'rinishli, turli xil xarakterli, qobiliyatli yoki qobiliyatsiz, og'ir, vazmin yoki harakatchan bo'lishadi. Aynan ushbu jihatlarga ko'ra, bolalarga yondashish, ular bilan munosabatda bo'lish va tarbiya berish usulini tanlash maqsadga muvofiqligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila – farzandlarni har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishlarida muhim o'rin tutadigan asosiy tarbiya o'chog'idir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Измаилов А.Э. Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. М., 2006. 39-бет.
2. Quronov M. "O'zbek xarakteri va milliy g'oya". T., 2005. 67-bet.
3. Кон И.С. Ребенок и общество. М., 1988. 239-бет.
4. Umarov B.M.Voyaga etmaganlarda og'ishgan va jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik omillari. Monografiya. "Samo nashr" T.:-2024, 302 bet.
5. Umarov B.M. O'zbek oilaviy tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar. // «Xalq ta'limi». Toshkent, 2003. № 2. – B.55-57.



Xalimova Mashraboy Vaxidovna,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori, professor

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlar kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqot mamlakat iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi va psixologik faoliyatni tashkil etishning metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Maqolada tadbirkorlarning o‘zaro munosabatlarida mas’uliyatni shakllantirish jarayoni, uning ijtimoiy-psixologik determinantlari, kasbiy motivatsiya, o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatlari hamda o‘ziga ishonch darajasining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, munosabatlar kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik faoliyati, shaxslararo munosabatlar kompetentligi, mas’uliyatni rivojlantirish jarayoni, kasbiy motivatsiya, ijtimoiy-psixologik omillar, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘ziga ishonch.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖПЕРСОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на развитие компетентности межличностных отношений в предпринимательской деятельности.

Исследование является логическим продолжением научных работ, направленных на совершенствование концепции экономического развития страны и методологических основ психологической практики. В статье раскрываются особенности формирования ответственности в межличностных отношениях предпринимателей, рассматриваются профессиональная мотивация, особенности саморегуляции и уровень уверенности в себе. Также предлагаются практические рекомендации по развитию межличностной компетентности в бизнес-среде.

Ключевые слова: предпринимательская деятельность, межличностная компетентность, развитие ответственности, профессиональная мотивация, социально-психологические факторы, саморегуляция, уверенность в себе.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF INTERPERSONAL RESPONSIBILITY IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITY

Abstract. This article analyzes the socio-psychological factors that influence the development of interpersonal competence in entrepreneurial activity. The study represents a logical continuation of research aimed at improving the country's economic development concept and the methodological foundations of psychological practice. The article examines the formation of responsibility in entrepreneurs' interpersonal relations, highlighting the role of professional motivation, self-regulation, and self-confidence. Practical recommendations for enhancing interpersonal competence in business settings are also provided.

Keywords: Entrepreneurial activity, interpersonal competence, development of responsibility, professional motivation, socio-psychological factors, self-regulation, self-confidence.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi dunyoning rivojlangan yetakchi davlatlari qatoridan munosib o‘rin egallash borasida barcha sohalarda keskin o‘zgarishlar amalga oshirmoqda. Jumladan tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir chora-tadbirlarda ko‘rish mumkin [1].

Bugungi kundagi islohotlar jamiyatda tadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tavsiya etilgan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha, Harakatlar strategiyasiga muvofiq investitsiya muhitini yaxshilash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shu qisqa vaqt ichida respublikada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonunlari, 20 dan ortiq farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 35 qarori qabul qilindi. Litsenziyalar va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishni

tubdan soddalashtirish va oshkoraligini oshirish choralari ko‘rilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kuchaytirildi. Boshqacha aytganda, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar "Xalq boy bo‘lsa, davlat boy va kuchli bo‘ladi", degan mashhur tamoyilga asoslanadi. O‘tgan yil davomida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarning samaradorligi Jahon bankining Doing Business hisobotining so‘nggi sonida tasdiqlangan [3]. Shu bilan birga, olib borilayotgan islohotlar O‘zbekistonga ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va soddalashtirish bo‘yicha Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yetakchi bo‘lishga imkon berdi. Qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ko‘lami va samaradorligi Jahon bankining Doing Business 2018 hisobotidagi 10 ko‘rsatkichdan 6 tasida sezilarli yaxshilanish bilan tasdiqlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur mavzu bo‘yicha faoliyat yondashuvi doirasida "psixologik munosabat" kategoriyasiga oid nazariy g‘oyalar bir qator olimlar tomonidan keng yoritilgan. Jumladan, B.V. Agayev, V. Zobkov, O.V. Zotov, A.F. Lazurskiy, E.V. Levchenko, B.F. Lomov, V.N. Myasishchev, V.V. Novikov, K.K. Platonov, V.P. Poznyakov, I.R. Sushkov, E.V. Shoroxova va boshqa tadqiqotchilar psixologik munosabatlarning shakllanishi, tuzilishi va dinamikasiga oid muhim konseptual yondashuvlarni ilgari surganlar. Xususan, V.P. Poznyakov individual va guruhiy qo‘shma faoliyat sub'ektlarining psixologik munosabatlari haqidagi konsepsiyani ishlab chiqqan.

Tadbirkorlarning o‘zaro munosabatlari, ayniqsa shaxslararo mas'uliyatni inobatga olgan holda, ijtimoiy o‘zaro ta'sir nazariyalari doirasida P. Blau, G. Blumer, D. Tibault, G. Kelly, C. Cooley, J. Mead, T. Parsons, J. Homans, T. Shibutani va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zaro hamkorlikning turli shakllariga bag‘ishlangan tadqiqotlar, xususan birgalikdagi mehnat faoliyatidagi muloqot va hamkorlik masalalari A.J. Juravlyov, K.K. Platonov, E.V. Shoroxova va boshqalar tomonidan tahlil qilingan. Ishbilarmonlar o‘rtasidagi hamkorlik jarayonida munosabatlar mas'uliyati bo‘yicha konseptual yondashuvlar O.S. Deineka, O.L. Juravlev, V.P. Poznyakov, T.S. Vavakina, O.I. Titov va boshqa mualliflar izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Mas'uliyat fenomenining nazariy asoslari ham mahalliy, ham xorijiy psixologiya ilmida keng yoritilgan. L. Berkovits, V.A. Bodrov, D.M. Darley, L.I. Dementiy, E.D. Dorofeev, B. Latane, K.D. Lutterman, A.L. Lutsenko, K. Muzdybaev, M.V. Mukonina va boshqa tadqiqotchilar mas'uliyatni tushuntiruvchi turli nazariy yondashuvlarni ishlab chiqqanlar [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlar mas'uliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar mahalliy va xorijiy adabiyotlarda keng tadqiq qilingan. Psixologiya fanida munosabat va mas'uliyat masalasining tahlili mazkur hodisaga oid ko‘plab yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbek psixologiyasida ushbu mavzu turli jihatlari bilan N.S. Safayev, D.G. Muhamedova, L.S. Beknazarova, E.G‘. G‘oziyev, V. Karimova, S.X. Jalilova, A.M. Jabborov, B.A. Nazarova, Z.T. Nishonova, B. Utanov, Sh.A. Eshmetov kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy psixologiyada V.N. Myasishchev "munosabat" tushunchasining psixologik mohiyatini kengaytirgan holda, uni insonning atrof-muhitni aks ettirishining o‘ziga xos shakli sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, shaxsning munosabatlari ijtimoiy haqiqatning mazmunini ongli ravishda aks ettirish jarayonida shakllanadi va inson tajribasining asosiy regulatorlaridan biriga aylanadi. Myasishchev munosabatlarni tuzilishi bo‘yicha ehtiyoj-mazmun, hissiy, kognitiv komponentlardan iborat deb ta’riflaydi [7–8].

A. Makarenko shaxsning noto‘g‘ri munosabatlar ta’sirida buzilishi mumkinligini, ijtimoiy-pedagogik me’yorlarga mos munosabatlar esa axloqiy barkamollikka olib kelishini ta’kidlaydi.

J. Piaje va L. Kohlberg mas’uliyatning rivojlanish bosqichlarini, J. Rotter esa mas’uliyatni "nazorat lokusi" konsepsiyasi orqali izohlaydi. F. Heider mas’uliyatni atributiv tendensiyalar nuqtai nazaridan, B. Latane va J. Darley esa altruistik xatti-harakatlar kontekstida tahlil qilgan. S.L. Rubinshteyn mas’uliyatni erkinlik va zaruriyat o‘rtasidagi murakkab dialektika bilan bog‘laydi; K.A. Abulxanova-Slavskiy esa uni shaxsning tashabbuskorlik xususiyati bilan uyg‘un holda ko‘radi.

Psixologik-pedagogik yondashuv maktabgacha, boshlang‘ich va o‘smirlik davrida mas’uliyatni shakllantirish jarayoniga qaratilgan. E.D. Dorofeev rahbarligidagi strukturaviy yondashuv doirasida mas’uliyat bilim, motivatsion, emotsional-volitiv, regulyativ va qiziqish komponentlaridan tarkib topuvchi kompleks sifatida talqin qilinadi. K. Muzdiybaev esa ijtimoiy mas’uliyatni "insonning ijtimoiy tipikligini aks ettiruvchi sifat" sifatida izohlaydi [6].

Mas’uliyatning mazmuni asosan uning ob’ekti bilan belgilanadi. Shaxslararo munosabatlar kontekstida mas’uliyat, odatda, amaldagi me’yor va qoidalarga rioya qilishga tayyorlik, faoliyatni maqbul va samarali bajarish zarurati bilan bog‘liqdir.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy jamiyatda muloqot va shaxslararo munosabatlar masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ishbilarmonlik faoliyatida samarali muloqot, konstruktiv o‘zaro ta’sir, shaxslararo kelishuv va nizolarni boshqarish ko‘nikmalariga talab yuqori.

Insoniy munosabatlarda tafovutlarning paydo bo‘lishiga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

Shaxs va jamoa manfaatlarining mos kelmasligi;

Ayrim a’zolarning ijtimoiy-guruh me’yorlariga zid xatti-harakatlari (tartibsizlik, intizom buzilishi va boshq.);

Jamoa a’zolarining qarashlaridagi nomuvofiqliklar;

Mehnatni tashkil etish va unga munosabatdagi farqlar;

Vazifalarning noto‘g‘ri taqsimlanishi.

V.N. Myasishchevga ko‘ra, shaxs munosabatlari makro va mikroijtimoiy muhitning ta’sirida, ijtimoiy munosabatlarning mazmunini ongli aks ettirish orqali shakllanadi. Uning ta’kidlashicha, psixologik munosabatlar — shaxs tajribasini, ehtiyojlarini va motivatsion tuzilmasini belgilovchi ichki tizimdir.

B.F. Lomov ijtimoiy munosabatlar shaxsning psixologik xususiyatlarini belgilashda asosiy omil ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, shaxsning qiziqishlari, motivlari va intilishlari jamiyatdagi pozitsiyasi, roli va ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish darajasi bilan bog‘liq.

G.M. Andreeva ijtimoiy va psixologik munosabatlarni farqlab, psixologik munosabatlarning asosiy xususiyati ularning hissiy tabiatga ega ekanligi deb ta’kidlaydi [12].

V.P. Poznyakov psixologik munosabatlarni shaxsning xatti-harakatlariga tayyorligini belgilovchi ongli tizim sifatida talqin etadi; ular hissiy baholash, bilimlar tizimi va motivatsion komponentlarning birligi sifatida namoyon bo‘ladi [13].

I.R. Sushkov psixologik munosabatni sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning natijasi sifatida ko‘rib, uni organizm hayot faoliyati uchun muhim bo‘lgan voqealardagi sub’ektiv o‘zgarishlar o‘lchovi deb ta’riflaydi [11].

Xulosa va takliflar. Mas’uliyat fenomeni psixologiya, falsafa, sotsiologiya, pedagogika va yurisprudensiya kabi bir qator fanlarning umumiy tadqiqot obyektidir. Fanlarning barchasida mas’uliyat insonning jamiyatga bo‘lgan ijtimoiy, axloqiy va huquqiy munosabatini ifodalaydigan kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Psixologiyada mas’uliyatga oid turli konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ular quyidagi yo‘nalishlarga birlashtiriladi:

- Rivojlanish yondashuvi (J. Piaje, L. Kohlberg, J. Rotter);
- Atributiv yondashuv (F. Heider);
- Altruistik xulq kontekstida mas’uliyat (B. Latane, J. Darley, I. Staub);
- Erkinlik–zaruriyat dialektikasi (S.L. Rubinshteyn, K.A. Abulxanova-Slavskiy);
- Psixologik-pedagogik yondashuv (mas’uliyatni bolalik va o‘smirlik yoshida shakllantirish);
- Strukturaviy yondashuv (E.D. Dorofeev va boshq.);
- Ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyasi (K. Muzdiybaev).

Mas’uliyatning mazmuni uning ob’ekti bilan belgilanadi. Ishbilarmonlar o‘rtasidagi hamkorlikda mas’uliyat iqtisodiy faoliyatning qoidalari, biznes etikasi, kelishuvlar va o‘zaro majburiyatlar bilan belgilanadi hamda faoliyatning optimal va samarali bajarilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. -Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.

2. O‘zbekiston Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. I.A.Karimov. Toshkent 1998y.

3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari P/F -5490son
4. В.Н.Мясишчев. Муносабатлар назарияси. Москва
5. Андреева Г.М. Социальная психология. М., 1998. 376 с.
6. В.Н.Мясишчев ПсихологияОтношения//Москва.Воронеж 1995г 356ст.
7. Ломов Б.Ф. Общение и социальная регуляция поведения индивида // Психологические проблемы социальной регуляции поведения / Под ред. Шороховой Е.В., Бобневой М.И.. М.: Наука, 1976. С. 63-76.
8. Сушков И.Р. Психологические отношения человека в социальной системе. М.: Изд-во ИП РАН, 2008. 412 с
9. Позняков.В.П. Концепция психологических отношений индивидуальных и групповых субъектов совместной жизнедеятельности Психология отношений: полисистемный субъектно-деятельностныйподход // Материалы межрегионального методологического семинара. Москва-Владимир-Кострома, 2009. С. 256-281.
10. Андреева Г.М. Социальная психология. М., 1998. 376 с.



Кадыров Кутлуг-Бек Бекмурадович,
доктор педагогических наук, профессор университета
«University of Management and future technologies»

О РОЛИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ КОРРУПЦИОННЫХ НАРУШЕНИЙ В ВУЗАХ

Аннотация. Статья посвящена анализу роли психологических факторов в формировании и противодействии коррупционным практикам в высших учебных заведениях. Предлагаются психологические методы профилактики и интервенции, включая тренинги этического выбора, программы развития мотивации, формирование культуры прозрачности, а также стратегии изменения поведения преподавателей и студентов. Работа опирается на современные научные источники и предлагает практические рекомендации для образовательных организаций.

Ключевые слова: коррупция, психология коррупции, высшее образование, профилактика коррупции, организационная культура, когнитивные искажения, моральный выбор.

KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIKNING OLDINI OLISH BORASIDA PSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING ROLI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqola oliy o‘quv yurtlarida korruptsiya amaliyotini shakllantirish va unga qarshi turishda psixologik omillarning rolini tahlil qilishga bag'ishlangan. Profilaktika va aralashuvning psixologik usullari, shu jumladan axloqiy tanlov bo‘yicha treninglar, motivatsiyani rivojlantirish dasturlari, shaffoflik madaniyatini shakllantirish, o‘qituvchilar va talabalarning xatti-harakatlarini o‘zgartirish strategiyalari taklif etiladi. Ish zamonaviy ilmiy manbalarga asoslanadi va ta’lim tashkilotlari uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiya psixologiyasi, oliy ta'lim, korrupsiyaning oldini olish, tashkiliy madaniyat, kognitiv buzilish, axloqiy tanlov.

ON THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH IN PREVENTING CORRUPTION IN UNIVERSITIES

Annotation. This article analyzes the role of psychological factors in the formation and prevention of corruption practices in higher education institutions. Psychological methods of prevention and intervention are proposed, including ethical choice training, motivation development programs, the formation of a culture of transparency, and strategies for changing the behavior of teachers and students. The work is based on modern scientific sources and offers practical recommendations for educational organizations.

Keywords: corruption, psychology of corruption, higher education, prevention of corruption, organizational culture, cognitive biases, a moral choice.

Введение. Коррупция в системе высшего образования представляет собой сложное социально-психологическое явление, оказывающее негативное влияние на качество подготовки специалистов, доверие общества к образовательным институтам и развитие человеческого капитала. Вузовская коррупция включает широкий спектр нарушений: взяточничество, непотизм, злоупотребление властью, фальсификацию оценок и научных результатов, получение взяток за выставление положительных оценок, допуск к экзаменам, оформление фиктивных научных достижений, плагиат, покупка и продажа курсовых или дипломных работ. А также, коррупция подрывает качество подготовки специалистов, поскольку нарушает принцип объективности оценивания и снижает ценность образовательных результатов.

В общественных масштабах коррупция ослабляет доверие к вузам, как общественно важным этапам карьеры молодого поколения. Выпускники, получившие дипломы через незаконные механизмы, оказываются недостаточно подготовленными для профессиональной деятельности, что снижает качество кадрового потенциала на реальном уровне. Кроме того, коррупция затрудняет интеграцию вузов в международное научно-образовательное пространство, в плане доверия и снижает репутацию вуза, и препятствует развитию научных совместных проектов.

Несмотря на то, что коррупция традиционно рассматривается через призму правовых и экономических факторов, роль психологических механизмов в её возникновении и распространении остаётся мало изученной. Вузовская среда являясь уязвимой для разнообразных форм коррупционного поведения, подрывает доверие к системе всех видов образования, а также, затрудняет общее развитие вуза.

И в этом плане необходимо комплексно раскрыть психологические факторы, влияющие на коррупционное поведение в вузах, а также определить возможности применения психологических методов в борьбе с коррупцией. Статья основана на реальных научных исследованиях, охватывающих социальную психологию, когнитивные науки, поведенческую экономику, педагогику и организационную психологию.

Степень изученности проблемы зарубежными специалистами. Современная научная литература рассматривает коррупцию как результат взаимодействия индивидуальных, групповых и организационных факторов. Углубление теоретического анализа позволяет увидеть психологическую природу коррупционных процессов в вузовской среде как системное явление, встроенное в социальные структуры и когнитивные модели поведения.

Современная научная литература предлагает несколько теоретических рамок, в которых объясняется коррупционное поведение. Социально-психологический подход, согласно исследованиям С.Роуз-Аккермана, Б.Палифки, коррупция обусловлена особенностями групповой динамики, социального сравнения, норм поведения и механизмами социального научения.

Исследования Д.Канеман и Р.Чалдини показывают, что решения людей связаны с когнитивными искажениями, эвристиками и восприятием справедливости. Исследования Д.Канемана и А.Тверски показывают, что при столкновении с моральной дилеммой человек часто выбирает путь наименьшего сопротивления.

А.Бандура изучал влияние морального развития, механизмов морального отчуждения и самооправдания на коррупционные действия, и что уровень морального развития влияет на готовность к коррупции. Люди с доминирующим уровнем моральных решений, основанным на внешнем контроле (наказаниях и поощрениях), более склонны к коррупционному поведению, чем те, кто руководствуется внутренними универсальными этическими принципами. Это означает, что борьба с коррупцией должна учитывать эмоционально-психологические аспекты, а не только нормативные.

Исследования Э.Шейна и Г.Хофстэде демонстрируют, что культура организации определяет нормы поведения сотрудников и студентов. Коррупционное поведение часто укоренено в контексте социальных норм. Э.Шейн определяет культуру организации как набор базовых допущений и ценностей, определяющих поведение членов коллектива. В вузах культура проявляется через отношение к студентам, прозрачность процедур, распределение власти, нормы взаимодействия. Г.Хофстэде показывает, что такие культурные параметры, как дистанция власти, избегание неопределённости, коллективизм или индивидуализм, напрямую влияют на уровень коррупции. В вузах с высокой дистанцией власти коррупция чаще легитимизируется как часть неформального взаимодействия (в анализе

вышеуказанных работ ученых были использованы источники из Scopus, Web of Science, РИНЦ и Google Scholar).

Суммируя многие исследования, можно предположить, что индивиды склонны адаптироваться к групповым ожиданиям даже тогда, когда эти ожидания противоречат правовым или моральным нормам. В вузах формируются устойчивые микрогруппы - студенческие сообщества, кафедры, научные коллективы - внутри которых существуют собственные нормы допустимости. Если в этих группах коррупционные практики считаются приемлемыми или выгодными, вероятность их воспроизводства возрастает.

Современные исследования также демонстрируют, что люди склонны к незначительным коррупционным действиям, если они не наносят прямого вреда другим или не нарушают их самоощущение честного человека. Это объясняет распространённость «мягких» коррупционных практик - благодарственных подарков, символических услуг, обмена ресурсами.

О психологических методах противодействия коррупции. Для анализа роли психологии в борьбе с коррупцией в вузах необходимо применить некоторые междисциплинарные подходы, например, анализ реальных научных публикаций по проблемам фактов коррупции; сопоставление данных социальной психологии и педагогики и организационного поведения; систематизация психологических методов по противодействию коррупции.

Важнейшей причиной коррупционного поведения также являются когнитивные факторы искажения, такие как, эффект оправдания собственных решений; указание на нехватку государственных, общественных и иных ресурсов и т.д. А также, те категории, которые непосредственно являются факторами определения коррупции, нужно распределить на ряд групп, обеспечивающих оправдание коррупционным нарушениям:

- **Фактор оправдания** - склонность оправдывать собственные действия («система такая», «я никому не вредил», «все так делают» и т.д.).
- **Иллюзия контроля** нарушения - убеждение, что коррупционный акт не будет раскрыт (это часто, внутренние убеждения руководителей вузов).

В вузовской среде студенты и преподаватели могут перенимать нормы коррупционного поведения, если «все так делают».

Альберт Бандура описал механизмы морального отчуждения: перенос ответственности, сравнение с худшими нарушениями, дегуманизация. Кроме того, социальное научение по А.Бандуре играет существенную роль: наблюдение за коррупционным поведением преподавателей или старших студентов снижает моральные барьеры у новичков. Коррупция становится частью «нормального» организационного поведения.

Высокая учебная нагрузка, страх отчисления, низкая зарплата преподавателей усиливают вероятность коррупции. Важнейшим инструментом является культура прозрачности и этических норм.

Исследования показывают, что коррупция является не только правовой проблемой, но и психологической. Эффективная борьба с ней невозможна без изменения поведенческих моделей, ценностных ориентаций и социальных норм.

Выводы и перспективы исследования. Психология играет ключевую роль в диагностике и профилактике коррупции в системе высшего образования. И на основе многих современных междисциплинарных исследований, рассматриваются психологические механизмы коррупционного поведения, ее влияние на организационную культуру социального обучения и антиморального поведения.

Одной из ключевых причин распространённости коррупции в высших учебных заведениях является несоответствие между спросом на качественное образование и возможностями системы обеспечить этот спрос на основе прозрачных и справедливых процедур. Важным фактором выступает и административная принадлежность вузов. И данный порядок необходим для академической свободы и гибкости образовательных программ, внешняя подотчётность и не всегда эффективные внутренние механизмы контроля часто порождают действия в злоупотреблениях. Например, руководители подразделений обладают значительной властью в распределении нагрузки, назначении на должности, формировании экзаменационных комиссий, что создаёт возможности для неофициального давления и коррупционных взаимодействий.

Психология играет важную роль в исследовании коррупции, поскольку именно она объясняет, во-первых, как формируется коррупционное поведение, во-вторых, почему люди склонны к нарушениям, хотя они вполне внятно понимают об ответственности.

Психологические исследования показывают, что эффективная борьба с коррупцией невозможна только с помощью наказаний - она требует изменения мышления, норм, культуры поведения и пересмотр правовых вопросов.

Реализация программ психологической профилактики, внедрение этических стандартов, работа с организационной культурой и снижение влияния когнитивных искажений способны существенно снизить уровень коррупции в вузах.

Также большое значение имеет теория мотивированного рассуждения: человек интерпретирует информацию таким образом, чтобы она поддерживала его желаемый образ себя. Поэтому даже прямые нарушения могут восприниматься в виде аморального поведения либо как вынужденное действие.

Вузы, с высоким уровнем коррупции обычно обладают низким доверием среди своих сотрудников, конкретной планкой непотизма, отсутствием законных мотивов и требований, неопределённых целей и задач со стороны руководства, часто авторитарных стилей управления,

отсутствием борьбы с коррупцией, отсутствие приветствия и поддержки в коллективе порядочности сотрудников, поощрение сотрудников и студентов в формах борьбы с коррупцией и т.д.

Психологические исследования играют ключевую роль в профилактике коррупционных нарушений в вузах, поскольку позволяют глубоко понять мотивационные механизмы поведения студентов и сотрудников, выявить факторы, формирующие готовность к недобросовестным действиям. Анализ ценностных ориентаций, уровня морально-этической устойчивости, восприятия справедливости, а также психологического климата в академической среде помогает определить группы риска и причины, повышающие вероятность коррупционного поведения. На основе таких данных можно разработать целевые интервенции, направленные на повышение моральной ответственности личности и укрепление академической культуры.

Кроме того, психологические исследования позволяют оценить эффективность действующих профилактических мер — тренингов, этических кодексов, антикоррупционных кампаний — и выявить, какие именно подходы реально формируют устойчивое антикоррупционное поведение. Изучение механизмов социального давления, конформизма, групповых норм и лидерского влияния помогает вузам создавать прозрачную и доверительную среду, минимизирующую предпосылки для нарушений. Таким образом, интеграция психологического анализа в систему управления вузом обеспечивает более научно обоснованные и результативные стратегии профилактики коррупции.

Коррупция не просто финансовое или правовое явление, но и в социальном плане она частично является психологическим явлением. В её основе всегда будет модель поведения, социальные установки, нормы и правила, которые, к сожалению, могут побудить в человеке интерес к нарушению общих правил или законов. И часто в вузах, ряда современных стран, руководящие должности без необходимого контроля и прозрачности в работе, повышают вероятность злоупотреблений.

Человек, испытывающий стресс или эмоциональное выгорание на основе чувств несправедливости, легче идет на нарушение норм. Ряд психологов выявляют несколько причин в этом направлении: понимание самоконтроля; равнодушие; ощущение вседозволенности. И поэтому работа с психологическими климатом, средствами и механизмами является одной из эффективных антикоррупционных мер.

Список литературы

1. Bandura A. Moral Disengagement: How People Do Harm and Live with Themselves. New York: Worth Publishers, 2016.

2. Rose-Ackerman S., Palifka B. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. Cambridge University Press, 2016.

3. Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
4. Cialdini R. Influence: The Psychology of Persuasion. Harper Business, 2007.
5. Schein E. Organizational Culture and Leadership. San Francisco: Wiley, 2017.
6. Hofstede G. Culture's Consequences. Thousand Oaks, CA: Sage, 2001.



UDK: 159.9.072

Sattarova Gulnora Ikromovna,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'SMIRLARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlar shakllanishi koping xulq atvor va ichki internallik, eksternallikka xos psixologik holatlarining rivojlanishi bilan birga va aloqadorlikda kechishi, shuningdek, tayanch harakati a'zolarida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy rivojlanishida emotsional, koping xulq atvorni tarkib toptirishga ta'sir etuvchi stimulyativ vositalarning o'rni va ahamiyati o'rganilganligiga doir ma'lumotlar yoritilgan. Empirik natijalar, statistik mezonlar asosida tahlil qilingan. Irodaviy sifatlar psixokorreksiyasi bo'yicha tadbirlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, mustaqillik, hissiy-irodaviy sifatlar, o'smir, mas'uliyat, qat'iyatlilik, faollik, imkoniyati cheklangan o'smirlar, hissiy holat, o'zini o'zi boshqarish.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У ПОДРОСТКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. В данной статье показано, что формирование эмоционально-волевых качеств у подростков с ограниченными возможностями протекает совместно и во взаимосвязи с развитием психологических состояний, характерных для копинг-поведения и внутренней интернальности, экстернальности, а также представлена информация об изучении роли и значения стимулирующих средств, влияющих на формирование эмоционального и копинг-поведения в эмоционально-волевом развитии подростков с нарушениями опорно-двигательного аппарата. Эмпирические данные проанализированы с использованием статистических методов. Представлены научные выводы,

которые помогут повысить эффективность психокоррекционных мероприятий, направленных на развитие волевых качеств.

Ключевые слова: инициативность, решительность, самостоятельность, эмоционально-волевые качества, подросток, ответственность, решительность, активность, подростки с ограниченными возможностями, эмоциональное состояние, самоуправление.

FORMATION OF EMOTIONAL AND VOLITIONAL QUALITIES IN ADOLESCENTS WITH DISABILITIES

Annotation. This article shows that the formation of emotional-volitional qualities in adolescents with disabilities occurs in conjunction and interconnection with the development of psychological states characteristic of coping behavior and internal internality, externality, and also provides information on the study of the role and significance of stimulating agents influencing the formation of emotional and coping behavior in the emotional-volitional development of adolescents with disorders of the musculoskeletal system.The empirical data are analyzed using statistical methods. The article presents scientific conclusions that will help to increase the effectiveness of psychocorrectional measures aimed at developing volitional qualities.

Key words: initiative, decisiveness, independence, emotional and volitional qualities, adolescent, responsibility, decisiveness, activity, adolescents with disabilities, emotional state, self-governance.

Kirish. Hissiy-irodaviy sifatlar psixologiya sohasida o‘rganilishi jihatdan eng murakkab sanalgan psixik protsesslardan biridir. Shu boisdan, hissiyot va iroda ilmiy manbalardan mustaqil psixik hodisalarning tarkibiy qismi sifatida narsa va voqeiylikni aks ettirish jarayonida insonda tug‘iladigan ichki kechinmalar, munosabatlar, shaxsiy tashabbusi bilan, ongli zaruratdan kelib chiqqan holda, oldindan rejaga solingan yo‘nalishda va oldindan nazarda tutilgan kuch-g‘ayrat bilan tegishli ish harakatlarni bajarish, shuningdek, xatti-harakatlarni mustaqil asosda nazorat qilishning o‘ziga xos qobiliyati sifatida ham talqin etiladi. E.A.Kedyarova iroda fenomenini tushuntirishda uch muhim jihat mazmuniga alohida to‘xtalib o‘tadi [2]. Ya’ni harakatni tanlash, harakatni boshlash va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish. T.A.Trifonovaning fikricha, hissiy-irodaviy sifatlar bu - motivatsiya kuchi bilan belgilanadigan, xohish va istaklar bilan xarakterlanadigan mustaqil kuchdir [4]. Mazkur yondashuvlarga muvofiq, ta’sir qilish kuchi –irodani harakatga keltirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, hissiy-irodaviy kechinmalar tashqi ta’sirlar ostida paydo bo‘lib, keyinchalik irodaviy sifatlar tomonidan nazorat qilinadi. Shu bois, zaif istaklar uchun kuch sarf qilinmaydi va ular muddat o‘tib o‘z-o‘zidan unutilib ketadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Toshkent shaxar Olmazor tumani 100-sonli tayanch harakat a'zolari shikastlangan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 126 nafar o'smir yoshidagi tarbiyalanuvchilari jalb etildi.

Tadqiqotimizda asosiy metodikalar sifatida muvaffaqiyatli aprabatsiyadan o'tgan M.Chumakovning "Shaxs irodaviy sifatlarini o'rganish" testi va Nikiforov tomonidan yaratilgan "Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish" so'rovnomasidan;, yordamchi metodika sifatida Jeymsom Amirxon tomonidan ishlab chiqilgan "Koping-indikator" testi, Panteleyev va Stolinning "Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari" so'rovnomalaridan foydalandik. Tadqiqotimiz uchun tanlangan metodikalarning aksariyati noparametrik mezonlarga (o'zaro bog'liq bo'lmagan tanlamanlar uchun Man-Uitni, Spirmen) mos kelganligi bois, biz mazkur mezonlar asosid ma'lumotlarni statistic tahlili qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Natijalar va amaliy misollar. Ko'p yillik izlanishlarimiz, olib borgan tadqiqotlarimiz imkoniyati cheklangan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlanishi, shakllanishining determinantlarini korrelyatsion tadqiqot asosida aniqlashga harakat qildik. Dastlabki 1-jadvalda imkoniyati cheklangan o'smirlardan "Shaxs irodaviy sifatlari" va "Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish" metodikalari bo'yicha korrelyatsiyon tadqiqot asosida olingan natijalar taqdim etiladi.

1-jadval

SHIS hamda emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish komponentlari o'rtasida aloqadorlik.
(Spirmen mezoni bo'yicha, n=126)

Shkalalar	Emotsional holatlarda ozini nazorat qilish	Faolyatda ozini nazorat qilish	Ijtimoiylashuvda ozini nazorat qilish
Masuliyatlilik	0,084	0,130	-0,002
Tashabbuskorlik	0,000	0,164	0,100
Qatiyatlilik	0,092	0,157	0,089
Mustaqillik	**-0,266(**)**	0,085	**-0,139(*)**
Matonatlilik	**-0,275(**)**	-0,075	-0,034
Tirishqoqlik	0,099	0,093	-0,007
Gayratlilik	0,079	0,111	0,006
Ziyraklar	**0,190(**)**	-0,020	**0,214(**)**
Sobitqadamlik	**0,167(*)**	0.145	0,093

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

Tahlillariga ko'ra, har ikkala metodika shkalalari o'rtasida o'zaro ahamiyatlilikka ega 6 ta korrelyatsiya koeffitsiyenti aniqlandi. Ko'rinib turibdiki, shkalalari o'rtasida aloqadorlik biroz tarqoq. Imkoniyati cheklangan o'smirlarning irodaviy sifatlari bilan emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish xususiyatlari

uyg‘un holda rivojlanyapti deb bo‘lmaydi. “Mustaqillik” shkalasi “Emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilish” shkalasi bilan (r_s =-0,266;p<0,01) va “Ijtimoiylashuvda o‘z o‘zini nazorat” qilish(r_s =-0,139;p<0,01) shkalalari bilan ijobiy ahamiyatli aloqadorlik hosil qilgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda mustaqillik zaiflashuvi bilan emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish suratida pasayish holati sodir bo‘lmoqda. Natijalarga ko‘ra, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish quyilashsa maqsadni amalga oshirish va harakat ijrosini tanlashda ularda regress holati vujudga kelmoqda. Maqsadga erishmaslikning juda kichik yoki katta ehtimoli imkoniyati cheklangan o‘smirlarda hissiy beqarorlikning ortishi o‘ziga ishonchning pasayishiga olib kelgan. Boshqa tomondan esa, hissiy barqarorlikning yuqorilashuvi kichik muvaffaqiyatdan ruhlanish, maqsadga erishishga bo‘lgan ishonchni va mustaqillikni orttirgan. Mustaqillik sur’atida o‘sish ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilishda progressiyani vujudga keltirmoqda. Imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilarda mustaqillik hissi ortib borgani sayin ularda, atrofdagilar bilan munosabatda o‘zini nazorat qilish suratida ham ijobiy siljish kuzatilgan, lekin mustaqillikning zaif respondentlarda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilishning zaifligi, odamovilik, stressiv holatlarga moyillik va xavotirli his tuyg‘ular rivojlanishini kuzatish mumkin.

“Matonatlilik” bilan “Emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilish” shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r_s =-0,275; p<0,01); Matonatlilikning pasayishi emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qila olmaslikning ortishiga olib kelmoqda. Aksar imkoniyati cheklangan o‘smirlar emotsional holatlarda o‘zlarini nazorat qila olmaydilar, tez yig‘lab yuboradilar, qizaradilar, asabiylashadilar yoki quvonchdan baqirib yuboradilar. Ko‘zlagan maqsadiga erishishga matonatsizlik, sobitqadamlik sur’atini pasaytirgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar matonatli bo‘lib borganlari sayin ularda tirishqoqlik sifati unga mutanosib tarzda o‘sib boradi. Imkoniyati cheklangan katta o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilar irodasining kuchi va qat’iyati, ular fe’l-atvorning qaysi xislatlarida ifodalangan bo‘lsa o‘sha xislatlar eng yorqin irodaviy xislatlardan hisoblanadi. Matonatli bo‘lmagan o‘smirlarda tirishqoqlik sifati ham kamol topmaydi. Chunki, tirishqoqlik insondan chidam matonat talab etadi. Shu bois, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda matonatlilik sifatini tarkib toptira borish nihoyatda muhim vazifalar sirasiga kiradi. Imkoniyati cheklanganlikda matonat bilan maqsadga erishish, maqsadi yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni yengish, hayotda o‘z o‘rnini topishga harakat qilish matonatlilik sifatisiz mushkuldir.

“Ziyraklik” shkalasi bilan “Emotsional holatlarda o‘z- o‘zini nazorat qilish” (r_s =0.190;p<0,01); va “Ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat” (r_s =0,214;p<0,01) qilish shkalalari o‘rtasida musbat ahamiyatli aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda ziyraklik ortib borgani sayin ularda emotsional holatlar va ijtimoiylashuvda o‘z o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari tarkib topa boradi. Ziyraklik – biror qarorni amalga oshirishga xalaqit beradigan xatti-harakatlar, his-tuyg‘ular hamda fikrlarni o‘z vaqtida sekinlashtirishga, ularni doimiy nazorat

qilishga yordam beruvchi sifatdir. Mazkur masalada V.E.Fishenkoning aytishicha, ziyrak va aqlli odam har doim, sharoitga mos keladigan faoliyat turini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi [5].

Aslida, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning o‘zini tutish qobiliyatini rivojlantirish uchun, ularda ichki sokinlik, qiyin hayotiy vaziyatlarda oqilona va muvozanatli harakat qilishni mashqlantirib borish lozim. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning psixologik xususiyatlarni o‘rganar ekanmiz, ular shaxsining shakllanishida, rivojlanib, kamolotga erishuvida unga bevosita ta’sir etuvchi pubertat rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq omillar ta’sirini tushunish mumkin. Biroq, nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni hamma vaqt ham jismoniy o‘sish va jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Kuzatishlarimizcha, bu davrga kelib ularda o‘z tana tuzilishidan qanoatlanmaslik va mayiblik hissi ustuvor o‘ringa chiqadi. Tushkunlik, fatal holat, o‘ziga past baho berish, ularda ba’zida so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, beqarorlik, tajanglik kabi harakatlar bilan namoyon bo‘ladi. Mana shunday psixofiziologik nomutanosiblik o‘smirning psixik o‘sishiga uzluksiz ta’sir etib, unda doimiy noxush hislarni paydo qilib turadi.

“Sobitqadamlik” shkalasi “Emotsional holatlarda o‘z- o‘zini nazorat qilish” (r_s =0,167;p<0,05); shkalasi o‘rtasida ham musbat zaif aloqadorlik aniqlandi. Sobitqadamlik imkoniyati cheklangan o‘smirlarda shakllantirilishi o‘ta muhim bo‘lgan irodaviy sifatlar sirasiga kiradi. Ularda sobitqadamlik sifatining shakllanishi emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilishda me’yoriy bosqichlarga ko‘cha borgan. Imkoniyati cheklangan o‘rta o‘smir yoshidagi o‘quvchilar uchun irodaviy sifatlarga egalik muhimdir, ammo irodaviy sifatlarning emotsional holatlar bilan uyg‘unlashuvi yanada ahamiyatlidir. Hissiy-irodaviy sifatlarni o‘rganishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni shaxsning bilimlari, afzalliklari, e’tiqodi, ehtiyojlari va qaror qabul qilish qobiliyati va boshqalar. Chunki, inson biror ishni amalga oshirishni niyat qilsa, ana shu vazifani amalga oshirishga kirishishning o‘zi, ixtiyoriy harakatlarga o‘tishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bir so‘z bilan ta’riflaganda, irodaviy sifatlar niyatlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi, uni tartibga soluvchi va ishning davomiyligini ta’minlovchi psixologik jarayondir [3].

Navbatda (2-jadval) respondentlarning shaxsning irodaviy sifatlari koping-indikator hamda subyektiv lokus nazorat metodikalari komponentlari bo‘yicha korrelyatsion aloqadorligi natijalari taqdim etiladi.

Shaxsning irodaviy sifatlari so‘rovnomasining “Mas’uliyatlik” shkalasi bilan “Muammolardan qochish” (r_s =-0,196;p<0,05); shkalasi o‘rtasida zaif manfiy aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda mas’uliyatlikning tarkib topib borayotganligi ularning muammolardan qochish sur’atida pasayishni yuzaga keltirmoqda.

“Qat’iyatlilik” shkalasi “Muammolarni hal qilish” shkalasi bilan zaif aloqadorlik (r_s =-0, 164;p<0,05);, “Muammolardan qochish” shkalasi bilan ahamiyatli manfiy aloqadorlik (r_s =-0.195;p<0,01); hosil qilgan. Respondentlarda

qat'iyatlilik ular hayotida uchraydigan ba'zi xarakterologik muammolarni hal qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatsa, muammolardan qochish darajasini pasaytirgan. Aksariyat o'smirlarda muammoni yechish oldidagi holat qiyinchiliklarga taslim bo'lishi, qat'iyatlilikni namoyon eta olmaslik, o'zini tuta bilmaslik, xatti-harakatlar va faoliyatning yuqori bosqichlarida boshqara olmaslik bilan ifodalanadi. Qat'iyatlilikning ortishi muammolarni hal qilish sur'atida o'sishni muammolardan qochish sur'atida pasayishni vujudga keltirgan. Bu ijobiy natija. E.Ilinning ta'kidlashicha, zaif irodaning namoyon bo'lish doirasi kuchli irodaning xarakterli fazilatlari kabi katta ko'rinishda namoyon bo'ladi. Zaif irodaning haddan tashqari darajasi psixikaning buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bularga, masalan, abuliya va appraksiya kiradi [1].

2-jadval

Shaxsning irodaviy sifatlari, koping-indikator hamda subyektiv lokus nazorat komponentlari aloqadorligi. Imkoniyati cheklangan o'smirlar kesimida (Spirmen mezoni bo'yicha, n=126)

Shkalalar	Muammolarni hal qilish shkalasi	Ijtimoiy yordam sorash shkalasi	Muammolardan qochish shkalasi	Internal lokus	Eksternal lokus
Mas'uliyatlilik	0,110	0,159	-0,196(*)	0,067	0,112
Tashabbuskorlik	0,076	0,129	-0,001	-0,022	-0,066
Qat'iyatlilik	0,164(*)	0,013	0,195(*)	0,142	-0,031
Mustaqillik	0,049	-0,224(*)	-0,285(*)	0,221	0,028
Matonatlilik	-0,160	0,036	-0,009	-0,051	0,028
Tirishqoqlik	0,035	0,065	0,047	0,043	0,058
G'ayratlilik	0,030	0,186(*)	-0,052	-0,077	-0,011
Ziyraklar	0,126	0,175(*)	-0,022	0,131(*)	0,172
Sobitqadamlik	0,117	0,360(**)	-0,128(*)	0,032	0,378(**)

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

Mustaqillik shkalasi bilan "Ijtimoiy yordam so'rash" (r_s =-0,224;p<0,01); "Muammolardan qochish" shkalasi o'rtasida (r_s =-0.285;p<0,01); ahamiyatli manfiy aloqadorlik aniqlandi. Metodika bo'icha olingan natijalar, ba'zan imkoniyati cheklanganlikda bu holat ba'zan kishida normal jarayondek tasavvurni uyg'otadi. Aslida, bu normal jarayon emas albatta. Ayniqsa, maxsus maktab o'qituvchi murabbiylari hamda ko'pgina ota-onalarda "Istaymizmi, yo'qmi, ular jismonan mayib, imkoniyati cheklangan, shuning uchun ularni asrab avaylash,

ko‘ngillariga qarash kerak” degan tushuncha ustuvorlik qiladi. Ota-onalar nogiron farzandiga ko‘proq g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi, o‘smirning qiliqlari o‘zini tutishi va istaklariga xayrixohlik bildirishi, farzandiga uchun qo‘lidan kelgan ish harakatni amalga oshirishga urinishi kuzatiladi. Ko‘pchilik ota-onalar nogiron farzandining turli faoliyatdagi kichik muammolarni ham o‘zlari hal qilishga harakat qiladilar. Bolaning saqlangan imkoniyatlarini ishga tushirishga imkon bermaydilar. Go‘yoki, bu harakatlari bilan farzandiga yordam berayotgandek, mehribonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotgandek bo‘ladilar. Tarbiyada bunday yondashuv xato bo‘lib, nogiron bola emotsional irodaviy sferasining zaiflashuviga, hissiy- irodaviy o‘sishini kechikishiga, ijtimoiy qo‘llab quvvatlashni qidirish va tobelikni oshishiga olib keladi. Shuning uchun, maxsus maktablarda pedagoglar, psixologlar imkoniyati cheklangan o‘smirlar tarbiyasiga bag‘ishlangan mavzularda ota-onalar uchun maxsus seminar treninglar, davra suhbatlari tashkil etishlari zarur bo‘ladi.

“G‘ayratlilik” sifati va “Ijtimoiy yordam so‘rash shkalasi” komponenti orasida ahamiyatli bog‘lanish aniqlandi (r_s =0,186;p<0,01); imkoniyati cheklangan o‘smirlar g‘ayratli bo‘lib borganlari sayin ularda emotsional holatlarda o‘z o‘zini boshqarish uquvi ham o‘sib borgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar mustaqil bo‘lib borganlari sayin ularda atrofdagilarga qaramlik, ijtimoiy yordam so‘rash kamaygan va muammolarni o‘zlari yechishga harakat qila boshlaganlar.

“Ziyraklik” shkalasi bilan “Ijtimoiy yordam so‘rash” shkalasi o‘rtasida manfiy (r_s =-0,186;p<0,05); aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ziyraklikning rivojlanishi boshqalardan yordam kutish, atrofdagilarga qaramlik holatlarini pasaytiradi. Irodaviy sifatlar bilan koping xulq atvor xususiyatlarining tarkib topganligi jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda shakllantirilishi muhim bo‘lgan xulq atvor xususiyatlari sirasiga kiradi. Bunday xulq atvor normalari tarkib topgan o‘smirlar kelajakda o‘z o‘rnini topishga intiladi. Aksincha iroda va koping xulq atvor xos xususiyatlarning zaifligi tayanch harakati a’zolarida nuqsoni bor o‘smirlarda muammolardan qochish, o‘z-o‘zini izolyatsiyalash, xavotirli hislarga berilish kabi qator salbiy holatlarni keltirib chiqargan.

Aslida, hissiy-irodaviy sifatlar tashqi muhitga, ichki jarayonlar va o‘ziga-o‘zi ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirishda barqaror va individual ko‘rinish oladi. O‘smirlarning hissiy-irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan mana shu unsurlar bilan bog‘langandir. Hissiy-irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog‘liq ravishda irodaviy harakatlar odam to‘la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Hissiy-irodaviy faoliyat tufayli o‘smir ko‘p jihatdan o‘zini ma’lum sharoitda anglaydi, o‘z hayot yo‘li va taqdirini o‘zi belgilashi mumkin.

Shaxsning irodaviy sifatlari bilan subyektiv lokus nazorat so‘rovnomasi komponentlari o‘rtasida quyidagi aloqadorlik aniqlandi. “Ziyraklik shkalasi “Internal lokus” shkalasi bilan zaif aloqadorlik namoyon qilgan (r_s =0,131;p<0,01). Demak ichki internallikka ega imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ma’lum

darajada ziyraklik mavjud. Natijalardan ba'zi (kam sonli) imkoniyati cheklangan o'quvchilarda introvertlikka xos xususiyatlar kuzatildi. Bu ijobiy holat. Agarda, o'smir barcha harakatlarining natijalarini ichki muhitdan ya'ni o'zidan qidirsa, unda bunday o'smirlar har qanday vaziyatda mas'uliyatni o'z bo'yniga oluvchi o'quvchilar hisoblanishadi.

"Sobitqadamlik" "Ijtimoiy yordam so'rash" shkalasi (r_s=0,360;p<0,01);. "Muammolardan qochish" (r_s =0,128;p<0,05);. Va "Eksternal lokus nazorat" shkalasi bilan (r_s =0,378;p<0,01);. ahamiyatli aloqadorlik hosil qilgan. Eksternallik imkoniyati cheklangan o'smir yoshidagi o'quvchilarda yuqoriroq ko'rsatkich bilan tafovutlandi. Eksternal tipga xos imkoniyati cheklangan o'smirlar tashqi holatga yo'naltirilgan, qiyinchiliklardan cho'chiydilar, muayyan topshiriqni bajarishda turli vaj-bahonalar izlaydilar, o'z mas'uliyatsizligi, erinchoqligi sababini tashqi omillar bilan bog'lash kuzatilgan. Bunday tipdagi o'smirlar psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, ular tomonidan qo'lga kiritilgan har bir yutuq, yoki natija kattalar, murabbiylari tomonidan e'tirof etilib, qo'llab-quvvatlanmasa ularda o'z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o'z niyatlarini ro'yobga chiqarishni yana va yana paysalga solish kabi holatlar yuqorilashuvi mumkin. Bundan tashqari, xulq atvori eksternallikka xos o'smir o'quvchilar hayotdagi ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan sezgir hisoblanadilar. Shikastlantiruvchi tashqi omillarni his etgan o'smir ularni takrorlanishidan xavotirlanadi,o'z-o'zini izolyatsiya qila boshlaydi, atrofdagilarga qo'shilmaslikka va yolg'iz bo'lishga intiladi. Bu o'z navbatida salbiy emotsional kechinmalarni uzluksiz paydo qiladi. Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan o'smirlarda kechayotgan kechinmalar tashqi omillar xarakteriga bog'liq bo'lib, bu omillar destruktiv kechinmalar ta'sirida shakllangan o'smirning "men"i bir tomondan kompensator- ya'ni himoya mexanizmi sifatida inqirozli vaziyatdan chiqib ketish vazifasini o'tasa, ikkinchi tomondan, o'smirning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beradi. Ushbu qarama– qarshilikni bartaraf etish uchun o'smir shaxsining ichki imkoniyatlarini faollashtirish zarur bo'ladi. Ammo, imkoniyati cheklangan o'smirlarning hayoti va faoliyatida ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, o'smir o'z oldiga qo'ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yengib bo'lmaydigan yoki o'ziga shunday bo'lib tuyuladigan to'sqinliklarga duch keladi. Bunday vaziyatlarda, ba'zan ular qabul qilgan qarorni o'zgartiradi, bekor qiladi, yoki, ular, qiyinchiliklardan qo'rqishi tufayli o'z oldiga qo'ygan maqsadidan butunlay voz kechishi ham mumkin. Hissiy-irodaviy sifatlar bu – tasodifiy tabiatning tuhfasi emas, u rejalashtirilgan harakatlar uchun ishtiyoq etishmasligini bartaraf etadigan, murakkab sharoitlarda muqobil variantlardan birini tanlashni ta'minlaydigan, ayrim muammolarni hal qilish uchun qo'llanadigan ongning mahsulidir[3]. Hissiy-irodaviy jarayonlar ta'sirida inson qiyinchiliklarni yengish sharoitida o'z harakatlarini faollashtirish va ularning muvaffaqiyatli yakunlanishiga erishish uchun harakat qilishi muhim.

Hissiy va irodaviy sohani bir-biridan tubdan ajratib o'rganish mumkin emas. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o'smirlarga xos ixtiyoriy harakatlar shakli va atrof – muhitga bo'lgan hissiy munosabat kabilar yuqorida bildirilgan mulohazalarga

aniq ilmiy dalil hisoblanadi. Mustaqillik, ziyraklik, emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, o‘z his tuyg‘ularini anglash va boshqarish, ijtimoiy yetuklik imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirishda yetakchi sifat tariqasida maydonga keladi. Mazkur sifatlarni ular xulq atvorida shakllantirishni muhim birinchi navbatdagi vazifalar qatoriga kiritish zarur. Chunki emotsional holatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, ijtimoiylikda va faoliyatda o‘z-o‘zini nazorat qilish uquviga egalik imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ichki umumiy holatiga ijobiy ta’sir etib, psixik jarayonlarning rivojlanish sifatini, psixologik xususiyatlarning shakllanishi darajasini hamda o‘z o‘zini nazorat qilish funksiyasini ishlash samaradorligini ta’minlaydi, ularda hissiy barqarorlik, axloqiy me’yoriylik, ishonchlilik, kreativlik, xushmuomalalik kabi yuksak hislarning tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

Shunday qilib, tadqiqotimizda belgilagan vazifalarimizdan kelib chiqib, mazkur paragrafda imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy irodaviy sifatlarining o‘zaro aloqadorlik jihatlari (biz tadqiqotda tatbiq etgan barcha metodikalar natijalari asosida) aniqlandi va tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga erishdik. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy shakllanishini quvvatlovchi shaxslilikning yordamchi vositalari aniqlandi. Ular faoliyatida “Emotsional konsonanslik”, “O‘z his tuyg‘ularini anglash va boshqarish”, “Emotsional simpatiya”, “Muloqotda hamda ijtimoiylashuv jarayonlarida o‘zini boshqarish” stimulyatsion vosita sifatida xizmat qilishida “Matonat”,”Qat’iyat” ”Mustaqillik” “sabr-toqatlilik” kabi irodaviy sifatlar ustuvor psixodinamik regulyatorlar ekanligi dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ильин Е.П. Психология воли. 2-е изд. -СПб.: Питер:- 2009. – 368 с.
2. Кедярова Е.А. Волевая регуляция как фактор деятельности студентов // Известия Иркутского Государственного Университета. Серия: психология. 2012. № 1. С.40 - 46.
3. SattarovaG.I. Jismoniy rivojanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar hissiy-irodaviy sohalarining rivojlanishi” Monografiya “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti” Qarshi sh. 2023 160b.
4. Трифонова Т. А. Особенности волевого компонента Я-концепции при целенаправленном развитии способности к самоуправлению: Автореф. дис.канд. психол. наук. –Казань:- 2004.-21 с.

Axmedova Muyassar Xadimatovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Psixologiya" kafedrasi professori v/b.,
psixologiya fanlari doktori

MILLIY TIL JARGONLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Jahon aloqa tizimida, shuningdek texnikaning rivojlanishida nutq, til va muloqotning ifoda xarakteri o'zaro bog'liqdir. Undagi nutqiy faoliyat hayotiylikning muhim omili sifatida muhim kommunikativ-metodik vazifalarni bajaruvchi, adabiy bo'lmagan so'zlarning qo'llanishiga, shuningdek nutq madaniyatining o'zgarishiga olib keladi.

Maqolada hozirgi kunda yosh avlodning jargon so'zlarini o'rganishning ahamiyati va zarurligiga e'tibor qaratiladi. Jargon so'zlarga xos psixolingvistik xususiyatlar ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Tadqiqot davomida ijtimoiy-psixologik so'rovnoma natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Manba sifatida tajriba orqali olingan ma'lumotlar psixologik hamda lingvistik jihatdan talqin qilindi.

Kalit so'zlar: til, jargon, sleng, psixolingvistika, nutq, leksika, milliy.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖАРГОНОВ НАЦИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В мировой системе связи, а также в развитии техники взаимосвязан характер выражения речи, языка, общения. Речевая деятельность в ней как фактор жизнедеятельности приводит к употреблению нелитературных слов, выполняющих важные коммуникативно-методические задачи, а также к изменению культуры речи.

В статье делается акцент на значении и необходимости изучения жаргонных слов молодого поколения в настоящее время. Психолингвистические особенности, присущие жаргонным словам, были научно исследованы. В исследовании был проведен сравнительный анализ результатов социально-психологического анкетирования. Источник, информация, полученная из опыта, интерпретируется как психологически, так и лингвистически.

Ключевые слова: язык, жаргон, сленг, психолингвистика, речь, лексика, национальная.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF JARGONS OF THE NATIONAL LANGUAGE

Abstract. In the world communication system, as well as in the development of technology, the nature of expression of speech, language, and communication is interconnected. Speech activity in it as a vital factor leads to the use of non-literary words that perform important communication and methodological tasks, as well as to a change in the culture of speech.

The article focuses on the meaning and need to study the slang words of the younger generation at the present time. The psycholinguistic features inherent in slang words have been scientifically investigated. The study conducted a comparative analysis of the results of a socio-psychological questionnaire. The source, information derived from experience, is interpreted both psychologically and linguistically.

Key words: language, jargon, slang, psycholinguistics, speech, vocabulary, national.

Kirish. Til nafaqat qiymat tizimini va hayotiy ustuvorliklarni aks ettiradi, balki shakllantiradi ham. Til fikr va hissiyotlarimizni ifodalovchi, faoliyatimizda qo‘llaniluvchi asosiy omildir zero, qolgan aloqa vositalari ko‘lami cheklangandir. Til o‘zgaruvchan hodisa bo‘lsada uning ichki obektiv qonunlari rivojlanib bo‘ladi. U nafaqat insonlar o‘rtasida axborot almashinish, balki axborot ulashuvchi va axborot tinglovchining xohish istagi, bahosi, ruhiy holati va munosabatini ham o‘zida aks ettiradi[2.255].

Hozirgi vaqtda milliy tilni demokratlashtirishning o‘sib borayotgan tendentsiyalaridan biri noadabiy so‘z birikmalarini faollashishi hisoblanadi. Bunday so‘zlar ommaviy axborot matnlarida, zamonaviy adabiy asarlarda kuzatilmoqda. Milliy tildagi noadabiy so‘zlar psixolingvistlar hamda filologlarning e'tiboridan chetda bo‘lmaydi, chunki ular tilda yashash jarayonlarini aks ettiradi. Biroq, bunday birliklarning ma’nosini bilmaslik ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot faoliyatining ko‘plab manbalarini tushinishni murakkablashtirishi inkor etilmaydi.

Oxirgi o‘n yillikda zamonaviy milliy tildan foydalanuvchilarni nutq jarayonining dinamik tabiatida ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik ildizlar mavjud. Bunday holda, milliy tilidagi so‘zlovchilarning nutq xatti-harakati ijtimoiy rivojlanishning o‘zgaruvchan oynasi vazifasini bajaradi. Zamonaviy milliy tilning bunday sifati til vositalarining tobora o‘sib borishi sifatida ijobiy hodisa deb qaraladi. Chunki bu ona tilida so‘zlovchilarga tanlash imkoniyatini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy tilning muayyan aloqa ehtiyojlariga erishish bo‘yicha salohiyatining kengayishini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, tilning leksik qatlami asosiy birlik sifatida juda boy bo‘lib, uning bir qismi nofaol, ya’ni qo‘llanilishi chegaralangan so‘zlardan iborat bo‘ladi. Bular qatoriga sleng, jargon va argo so‘zlari ham kiradi[1. 344]. Bunday so‘zlarning ilmiy jixatdan tadqiq etish XX asrni boshlariga to‘g‘ri keldi.

Jargon qo‘llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi (frants. jargon—sheva) [6.125]. Kasbi, jamiyatdagi o‘rni, qiziqishi, yoshiga ko‘ra alohida ijtimoiy guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og‘zaki nutqida ishlatiladigan va ma’nosini boshqalar ko‘p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi. Milliy tilning lingvistik lug‘ati "jargon"da asosan barqaror ijtimoiy guruh tomonidan og‘zaki muloqotda ishlatiladigan nutqning bir turini ko‘rsatadi. Jargon (fr. jargon ma’lum bir guruhga oid so‘z). Biror bir ijtimoiy yoki professional guruhga xos, faqat ularni o‘zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so‘z va iboralar, deb ta’rif beriladi o‘zbek tilining izohli lug‘atida[7.74].

Jargon suxbatlashuvchilarni birlashtiradi, bir vaqtning o‘zida ularni boshqalar bilan taqqoslab, "yashirin til" yoki guruhni identifikatsiyalash vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, suxbatdosh shaxsiyatining ma’naviy va ruhiy rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladigan, til vositalarida "tillar", "dunyo tasvirini" shakllantiradi. [5.158]. Zamonaviy yoshlar nutqining kelib chiqishi biror bir manba’ga ega bo‘lishi mushkul. V.M.Mokiyenko, T.G.Nikitina kabi filolog olimlarning fikriga ko‘ra jargonning turli tashuvchilari tomonidan ishlatiladigan bir xil so‘zlar va iboralarning kelib chiqishi, shakllari va ma’nolari bir-biriga bog‘langan dialekt, lahja, sheva kabilarga bo‘linadi. Bunga zamonaviy yoshlar nutqida sezilarli bo‘lgan ijtimoiy va professional jargonlarni misol qilib keltirsa bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, Vilgelm fon Gumboldt Gumboldt so‘zlarining kuchini ruhiyat mahsuli sifatida tasavvur qilish lozimligini o‘z asarlarida aytib o‘tgan, keyinchalik u neo-gumboldtizm va etnolingvistik tushunchalarida o‘z aksini topgan. Amerikalik neo-gumboldtizm oqimining asoschilari E.Sepir va B.Uorf o‘zlarining ilmiy izlanishlarida “tilning nisbiylik nazariyasi”ni ishlab chiqdilar. Ushbu nazariyaga ko‘ra, dunyoning qarashlari til bilan belgilanadi. Til nafaqat odamning tafakkuri, kognitiv faoliyati, balki madaniyat turini ham belgilaydi. [4.6].

Tahlil va natijalar.

Individ boyligi bo‘lmish so‘z insonning til-nutq mexanizmining ishlash xususiyati tomonidan yondashish kerak ekanligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, inson so‘z ma’nosini tushunib, bilganida yoki bilaman deb o‘ylaganida nimani bilishini, so‘z ma’nosining tanishdek tuyulishi nimaga asoslanishini, qabul qilinayotgan ma’lumotni tushunishda, xotirada so‘zlarni qidirishda qanday usullar va tayanch elementlarini ishlatishini anglashga qodir bo‘lgan ma’no jihatidan yondashuv kerak bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi jargon so‘zlar va ularning ma’no-mazmunini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borildi. Ularning tahlillari quyidagilardan iborat bo‘ldi.

Eksperiment natijalariga ko‘ra milliy jargon so‘zlarini ma’no-mazmunlar bo‘yicha tahlil qilganimizda bitta so‘zni bir qancha ma’noda ishlatilishi mumkinligini guvohi bo‘ldik. Shuning uchun bunday so‘zlarning qo‘llanilishiga alohida e'tibor qaratishni lozim deb topdik.

Tadqiqot tahlillarini ko‘rsatishicha eng ko‘p qo‘llaniladigan jargon so‘zi insonga berilgan ta’riflar hisoblanib, u deyarli barcha mavzularda turlicha ta’riflarda ishlatilgan. Bulardan bir qanchasiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

“Qo‘y” jargon so‘zi ikki xil ma’noda ifodalanishi kuzatilgan. Birinchidan qo‘y so‘zi odamni “bo‘sh”, “sodda” sifatini ta’riflasa, ikkinchidan bu so‘z odamning “axmoqlik, tentaklik” sifatini bayon etilgan.

“Tovuq” jargon so‘zi ham qo‘y so‘ziga o‘xshab har xil ma’noda ifodalangan. Bunda birinchidan tovuq so‘zi insonni jinsi, ayol kishi sifatini ta’riflasa, ikkinchidan bu so‘z odamning “axmoqlik, tentaklik” xususiyatini ifoda etilgan.

Yana rus tilidan olingan “kazyol” so‘zi ham jargon sifatida qo‘llanilishi kuzatildi. Bu “Kazyol” jargon so‘zi ham yuqoridagi “tovuq”, “qo‘y” jargon so‘zi kabi har xil ma’noda ifodalangan.

Ko‘proq “kazyol” so‘zi insonning yalqov, ishyoqmas, tanbal sifatlarini ifodalovchi so‘z o‘rnida ishlatilishi ma’lum bo‘ldi. Ba’zi hollarda bu jargon ham kishining “axmoqlik, tentaklik” xususiyatini tariflagan.

“Bich” jargon so‘zi ham inson sifatlarini ta’riflashda keltirilgan. Bunda “Ichkilikbozlik, narkomaniya” mavzularida “bich” so‘zining ma’nosi ko‘p spirtli ichimlik ichuvchi kishi hisoblangan. “Pul, kambag‘allik, qashshoqlik” mavzularida bu so‘z kambag‘al, qashshoq, ko‘chadagi gadoy ma’nosida ishlatilgan.

Shuningdek “Bomj” jargon so‘zi ham “bich” so‘ziga o‘xshab turli mavzularda har xil ma’noda qo‘llanilishi kuzatildi.

“Lo‘li” jargon so‘zining ham bir qancha ma’nosi mavjudligini tadqiqot ko‘rastib berdi. Unda “Go‘zallik, sharmandalik” mavzularida bu jargon axloqsiz, sharmandalik ma’nosida ifodalangan. “Pul, kambag‘allik, qashshoqlik” mavzudagi jargonlarda bu so‘z kambag‘al, qashshoq, uysiz odam ma’nosida keltirilgan.

“Tanka” jargon so‘zining ham turli ma’noda ifodalanishi ma’lum bo‘ldi. “O‘quv jarayoni”ni ifodalovchi mavzularda bu so‘z o‘quv dargohiga o‘qishga kirishga yordam bergan, unda o‘qishida himoyachi bo‘lgan kishini ta’riflasa, “Transport, texnika” mavzusidagi bo‘limida “tanka” so‘zi mashina ma’nosida kelgan.

Tanka - yordam beruvchi, ximoya qiluvchi, puldor, ishonchli kishi. Ta’lim jarayonlarida, ayniqsa oliygoglarda o‘qishga kirish, imtihon, mustaqil ta’lim, kurs ishlari kabilarni topshirish, turli muammolarni hal qilishda o‘quvchi yoki talabani himoya qiluvchi mansabdor yoki puldor shaxs shu himoyalanuvchi odamni tankasi hisoblanadi[3. 182].

Tanka jargoni “tank” so‘ziga “a” harfi qo‘shilishi bilan yasalgan. Tank – zirh bilan qoplangan, gusenitsali harbiy mashina. Zirhlangan, to‘p va pulemyotlar bilan qurollangan, har qanday yo‘lda ham yura oladigan gusenitsali harbiy mashina deb ta’rif berilangan O‘zbek tilining izohli lug‘atida [7. T xarfi. 365]. Masalan: Uni tankasi hal qilib beradi. Tankangga aytmaysanmi?

Yana shunga o‘xshash bo‘lgan “qurt” jargon so‘zi ham ikki xil ma’noda qo‘llanishi bayon etilgan.

"Qurt" jargon so'zi tadqiqotning "Inson"ni ta'riflash mavzusidagi bo'limida tinib-tinchimas xarakterdagi kishini ifodalasa, "Transport, texika" mavzusidagi bo'limida bu jargon mashina ma'nosini ko'rsatdi.

"Jigar" jargon so'zi quyidagi ma'nolarda ko'rsatilgan. "Inson"ni ta'riflash mavzusidagi bo'limda bu jargon so'zi qarindosh-urug'lar ma'nosida berilgan. "Do'stlik, do'stona suxbat" mavzusidagi jargonda qadirdoni, yaqin insoni ma'nosida berilyapti.

Bu yerda "radnoy" jargon so'zi ham xuddi "jigar" jargoni kabi ikkita mavzuda, ya'ni "Inson" xususiyatlarini ta'riflash va "Do'stlik, do'stona suxbat" mavzudagi jargonda turlicha ma'nolarda ishlarilishi ko'rsatilgan. Demak, jigar va radnoy jargonlari insonning eng yaqin odamlari: qarindoshi yoki qadirdoni ma'nolarida qo'llanilishi kuzatildi.

Xullas, bugungi kunda yoshlar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularni to'g'ri yo'lga boshlovchi ustozlar, murabbiylar, psixologlar, mutaxassislar avvalo nutqiy faoliyatiga e'tiborli, hamda namunali bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda zamonaviy yoshlar nutqidagi jargonlar hech bir til qonun, qoidalariga moslashmaydi. Unda deyarli so'z birikmalarining hech bir elementi yo'q, ular asosan jargonning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan savodsiz olomon lug'atidan foydalanishadi. Jargonning markazida har doim muayyan guruhning ustuvor yo'nalishlari va so'z birikmalarining o'ziga xosligi mavjud. Bunda qadriyatlarni tashqi dunyo ta'siridan himoya qiladigan ustuvorlik kuzatiladi.

Shuning uchun hozirda milliy til xususiyatlarini imkon qadar chuqurroq tadqiq etish va adabiy tilni to'g'ri, to'liq shakllantirish zamon talablaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M.X. Kasb jargoni xususiyatlari. O'zMU xabarlari. 2018. №1/6. B. 343-347

2. Axmedova M. Hozirgi zamon yoshlar nutqidagi jargonlar // O'zMU xabarlari. 1/9 2022. B. 255-259.

3. Axmedova M.X. O'quv jarayonini ifodalovchi milliy tildagi jargonlarning psixolingvistik xususiyatlari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2023, № 1. B. 180-183.

4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006.

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Elektrn kutubxona. J xarfi. B. 74.



Narbasheva Mexri Achilovna,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
psixologiya fanlari nomzodi, professor

PSIXOLOGIK SALOMATLIK SHAXS SHAKLLANISHI MEZONI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologik salomatlik shaxs shakllanishining asosiy mezonlaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Turli olimlar—O.S. Vasileva, K. Rodjers, A. Ellis, A. Maslou va boshqalar—psixologik salomatlikni baholash mezonlarini turlicha talqin qilgan bo‘lib, ular emotsional barqarorlik, o‘z-o‘zini boshqarish, ijodiy yondashuv, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy moslashuv kabi omillarni qamrab oladi. Maqolada psixologik salomatlikning ikki asosiy belgisi: optimistik hayotiy tamoyillarga amal qilish va samarali adaptatsiya jarayoni alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, Maslouning o‘zlikni namoyon etish konsepsiyasi psixologik salomatlikning oliy darajasi sifatida taqdim etilib, shaxs rivojidagi o‘zgarishlarning ijtimoiy va ichki omillarga bog‘liqligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik salomatlik, shaxs rivoji, o‘z-o‘zini namoyon etish, adaptatsiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, Maslou, Rodjers.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ КАК КРИТЕРИЙ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В статье рассматривается психологическое здоровье как один из основных критериев формирования личности. Различные исследователи — О.С. Васильева, К. Роджерс, А. Эллис, А. Маслоу и другие — трактуют критерии психологического здоровья по-разному, включая эмоциональную стабильность, саморегуляцию, творческий подход, самоактуализацию, социальную адаптацию и др. Отмечены два ключевых признака психологического здоровья: следование оптимистическим

жизненным принципам и эффективная социально-психологическая адаптация. Концепция самоактуализации Маслоу представлена как высший показатель психологического здоровья, подчёркивая естественный характер личностного роста при наличии благоприятных условий.

Ключевые слова: психологическое здоровье, развитие личности, самоактуализация, адаптация, эмоциональная стабильность, социальная адаптация, Маслоу, Роджерс.

PSYCHOLOGICAL HEALTH AS A CRITERION OF PERSONALITY FORMATION

Annotation. This article explores psychological health as a key criterion in the formation of personality. Scholars such as O.S. Vasileva, C. Rogers, A. Ellis, A. Maslow, and others interpret psychological health indicators differently, including emotional stability, self-regulation, creative attitude, self-actualization, and social adaptation. The article highlights two main determinants of psychological health: adherence to optimistic life principles and effective psychosocial adaptation. Maslow's concept of self-actualization is presented as the highest level of psychological well-being, emphasizing that personal growth unfolds naturally when proper conditions are provided.

Keywords: psychological health, personality development, self-actualization, adaptation, emotional stability, social adjustment, Maslow, Rogers.

Psixologik salomatlik mezoni — bu insonning ruhiy, hissiy va ijtimoiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi uchun kerakli bo‘lgan holatlarni belgilovchi ko‘rsatkichlar yoki talablar to‘plamidir. Ushbu mezonlar insonning hayot sifati, atrofidagi odamlar bilan munosabati va ichki barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Psixologik salomatlik insonning bir butun biosotsial mavjudot sifatidagi nisbatan turg‘un xarakteristikasi bo‘lib, o‘zida o‘z oldiga prinsipial hayotiy maqsadlarni qo‘ya bilish, uni hal etishga intilish, o‘z xulq-atvorini real hayot (jamiyat talablari, tabiat qonunlari)bilan moslashtirishi, o‘z-o‘zini barcha jabhalarda (psixofiziologik darajadan qadriyatlar yo‘nalishi va dunyoqarashgacha) boshqara bilish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Psixologik salomatlik qotib qolgan holat emas, u hayot davomida o‘zgarib borishi mumkin. Turli xil hayotiy sharoitlar ta’sirida inson salomatligi yaxshilanishi yoki yomonlashuvi mumkin. Shuningdek, olimlar inson hayoti davomida uning psixologik salomatlikning mezonlari masalasiga to‘xtalishdi.

Psixologik salomatlik mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Ruhiy barqarorlik (emotsional barqarorlik) bu hissiyotlarini nazorat qilish, o‘ta quvonch yoki depressiyaga berilmaslik, stressga qarshi tura olish qobiliyati

2. Ijtimoiy munosabatlarni sog‘lom yo‘lga qo‘ya olish ya’ni odamlar bilan empatiya, ehtirom va hamdardlik asosida muloqot qilish, jamoada faol ishtirok etish

3. Maqsad va ma’no hissi ya’ni hayotda o‘z maqsadlarini bilish va ularga intilish, ijobiy dunyoqarashga ega bo‘lish

4. Moslashuvchanlik (adaptatsiya) bu yangi vaziyatlarga tez va samarali moslasha olish hamda qiyinchiliklarga e’tibor bilan, konstruktiv yondashish

5. O‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini anglash ya’ni o‘z kuchli va kuchsiz tomonlarini bilish hamda tanqidni qabul qila olish va o‘zi ustida ishlash

6. Ichki barqarorlik va tinchlik bu o‘zini baxtli va xotirjam his qilish, o‘z-o‘zini bag‘rikenglik bilan qabul qilish

7. Munosib o‘ziga baho berish orqali na kamtar, na kibrli — balki real va sog‘lom o‘z bahosiga ega bo‘lish

O.S.Vasilevaning fikricha, psixologik salomatlikning asosiy mezoni – emotsional sog‘lik, qayg‘urish – insonning ichki holati hamda o‘ziga, hayotga va boshqalarga bo‘lgan munosabati, asl insoniy qadriyatni his etishidan iboratdir. Bunda xulq-atvor darajasida qabul qilingan va qilinmagan qaror, harakatlar, holatlar, boshqa insonlar bilan bo‘ladigan munosabatlar, ya’ni real hamkorlik haqida fikr yuritish mumkin [3, 408 b.]. Ikkinchi muhim mezon sifatida insonning hayotga bo‘lgan ijodiy yondashuvi, o‘z tutgan o‘rnini bilishi, uning ijobiy, quvonchli holatini olish mumkin [3, 410 b]. Ma’naviy salomatlik mezoniga esa insonning kelajakka bo‘lgan optimistik qarash, vaqtinchalik istiqbolning mavjudligi, o‘zi va atrof-muhit bilan garmonik munosabatda bo‘lish, birovni ayblamaslik, xafa bo‘lmaslik, xafa qilmaslik, qo‘rqmaslik va yuksak axloqiylik kabilar kiradi [1].

Salomatlik mezoniga o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish, o‘z hayotiga, sog‘ligiga nisbatan mas’uliyatlilik kabilar kiritilishi mumkin (K.Rodjers). A.Ellis fikricha, psixologik salomatlik tushunchasi o‘ziga, o‘z-o‘ziga qiziqish, ijtimoiy qiziqish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z emotsional qilmishlari uchunmas’uliyatni qamrab oladi [6, 15 b.]. Hozirgi zamon G‘arb psixologlari o‘z-o‘zini hurmat qilish va ehtiyotkorlikning namoyonbo‘lish darajasini psixologik salomatlikning eng axborot tashuvchi ko‘rsatkichlaridan biri deb hisoblashadi.

Gumanistik psixologiya doirasida psixologik salomatlikning quyidagi mezonlari mavjud: «Men»ga bo‘lgan munosabat, shaxsning o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish, shaxsiyatningmukammalligi, reallikni idrok etish (K. Rodjers). Psixologik salomatlikning psixoterapiyada tez-tez qo‘llaniladigan mezonlaridan birireal «Men» obrazini ideal «Men» obrazi bilan taqqoslash, ya’ni insonning qanday kishibo‘lishni xohlashi bilan taqqoslashdir. Real «Men» obrazining ideal «Men» obrazi bilan yuksak darajada mos kelishini psixologik salomatlikning yuqori ko‘rsatkichi deb hisoblashqabul qilingan [4, 158].

Inson psixologik salomatligi to‘g‘risidagi yangicha «pozitiv» yo‘nalishlar salomatlik mezoni sifatida insonning rivojlanishi, o‘sishi, o‘z-o‘zini namoyon etishi, o‘z qilmish va faoliyatini ongli boshqarish, o‘zi va boshqalar oldida

mas'uliyatni his etishi, o'zi va atrofdagilarni adekvat idrok eta bilish qobiliyatini hisobga oladi. Xuddi shunday, S.L. Bratchenko shaxs salomatligi muammosini tadqiq etar ekan, uning mezoni tarkibi sifatida shaxs o'sishining shaxslararo mezoni sifatida o'z-o'zini qabul qilish, ichki iztiroblar tajribasidagi ochiqlik, o'z-o'zini tushunish, mas'uliyatli erkinlik, jamul jamlik, dinamiklik va interpersonal mezonlar – boshqalarni qabul qilish, to'g'ri tushunish, ijtimoiylashuv, ijodiy barqarorlik kabilarni kiritadi [2, 42 b.].

Bizning nazarimizda, psixologik salomatlik ikki xil belgi asosida aniqlanadi. Birinchi belgi – hayotiy faoliyatning asosiy shakllarida optimistik tamoyilga amal qilish, ya'ni o'rtachalik oltin qoidasiga rioya qilish. Bunday belgi yuqorida qayd etilgan shaxs salomatligi mezonlariga doir faylasuf, yozuvchi, insonshunoslar tomonidan qadim zamonlardan hozirgi kunimizgacha bo'lgan davrda bayon etilgan qarashlarda o'z aksini topgan.

Ikkinchi belgi – effektiv ijtimoiy, sotsial psixologik, intrapsixik moslashuv (adaptatsiya)dir.

Mazkur belgilarni konkret, alohida tahlil etish shaxs psixologik salomatligi darajasini sifat va miqdor jihatdan baholash mezonlari sifatida xizmat qilishi mumkin. Ular bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo'lib, shaxsiy fazilatlar sifatida ham qaralishi mumkin (masalan, tanqidiy qarash yorqinligi, o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish, o'z-o'zini

Nazorat qilish qobiliyati, kommunikativ jadallik, ezuvchi bog'liqliklardan forig'lik va h. k.).

Yuqorida qayd etilgan belgilarni konkretlashtirish uchun L. Maslou tomonidan taklif etilgan psixologik salomatlikning bosh mezoni xizmat qilishi mumkin, bu – shaxsning o'z-o'zini namoyon etishidir. Muallif ta'kidlaydiki, har bir kishi ongli ravishda hayotda qanday o'rinni egallash, kim bo'lishni ongli ravishda tanlashi, o'z-o'zini rivojlantirishning o'zigagina xos yo'lini tanlashi lozim [5, 97 b.]. Maslou o'zlikni insonning ichki tabiati, o'zagi, individiumning o'zigagina xos bo'lgan didi, qadriyat va maqsadlari asosida aniqlaydi. O'z ichki tabiatini anglay bilish, unga amal qilgan holda harakat qilish o'zlikning namoyon bo'lishiga xosdir.

Maslou kishilar o'zligining namoyon bo'lishi quyidagi xususiyatlarga ega degan xulosaga keladi:

- borliqni idrok etishning oliy darajada ekanligi;
- o'z-o'zi, boshqalar, atrof-muhitni amalda qanday bo'lsa, o'shanday qabul qila bilish;
- yuksak hozirjavoblik;
- muammoni hal etishga bo'lgan qobiliyatning ancha rivojlanganligi;
- o'zini chetga tortish, tanholikka moyillikning yaqqol namoyon bo'lishi;
- avtonomlik va qandaydir bitta madaniyatga moyillikka qarshilikning yorqinligi;
- idrokning va emotsional reaksilarning sof va boy ekanligi;
- qayg'urganda jo'shqinlikning yuksak cho'qqida ekanligi;

- o‘zini barcha insoniyat bilan birgalikda ekanligini kuchli tasavvur etish; - shaxsiy munosabatlardagi o‘zgarishlar;
- xarakterning farq qiluvchan demokratik tuzilmasi;
- ijodiy qobiliyatning yuksakligi;
- qadriyatlar tizimida muayyan o‘zgarishlar;
- ijodkorlik (kreativlik).

Real borliqni idroq etishnig yuqori darajasi ongning tiniqligi, borliqni anglashusullarining bir-biriga mosligini anglatadi. Bunday xususiyatlarni bundanda aniqroq tavsiflash mumkin bo‘lmasa kerak.

O‘z-o‘zini, boshqalar, atrof-muhitni amalda qanday bo‘lsa, o‘shanday qabul qila bilish qobiliyatning kuchliligi amalda atrofni sog‘lom, hushyor, adekvat idrok etishdan iboratdir.

Hozirjavoblikning kuchliligi o‘z shaxsini namoyon qilish, uni erkin ifodalash, nuqsonli xislatlardan xolilik, kulgi bo‘lishdan, nazokatsizlikdan qo‘rquv, va hokazolarda ifodalandi. Boshqacha qilib aytganda, bu soddalik, hayotga bo‘lgan ishonchdir.

Diqqatni muammoni hal etishga yuksak darajada jalb qilish qobiliyati qaysarlik, sobitqadamlik, muammoni boshqalar bilan birga va yakka holda hal eta bilish sa’i harakatidir.

O‘zini chetga tortish, tanholikka moyillikning yaqqolroq namoyon bo‘lishi o‘z-o‘zi ustida ishlash, o‘z ruhini tarbiyalashni talab etadi. Agar inson dindor bo‘lsa, u Xudo bilan muloqotga kirisha olishi lozim.

Avtonomlik va qandaydir bitta madaniyatga moyillikka bo‘lgan qarshilikning yorqinligi insondan barcha madaniyat buloqlaridan bahramand bo‘lish, biror bir madaniyatga bo‘ysunmaslikda ifodalandi.

Sog‘lom shaxs xulq-atvorini uning atrofidagilarning uning sog‘ligi to‘g‘risidagi fikrlari, qarashlari, qo‘llab-quvvatlashlari va qoidalari emas, balki insonning o‘zida mavjud bo‘lgan oliy manba bilan bo‘ladigan muloqot, dialog natijasida hosil bo‘ladigan axloq qoidasi belgilaydi va boshqaradi. Qisqasi, sog‘lom shaxs psixikasini yuzsizlarcha uyat madaniyati emas, balki gunohni his eta bilish madaniyati asoslaydi.

Idrokning sofligi va emotsional reaksiyalarning boyligi insonning ana shular orasidan eng yaxshilarini tanlash imkonini beradi.

Tez-tez sodir bo‘ladigan portlashlar, iztiroblar cho‘qqisini Maslou anglash, tushunib etish, ochilish onlari sifatida tavsiflaydi. Bunday holat kishining biror o‘z kuchidan ortiq qobiliyatga nisbatan oliy darajada diqqatini to‘plash, haqiqatga yaqinlashuvidir. Bunday onlarda kishi yanada yuksakroq darajaga ko‘tariladi, to‘satdan yaqqolroq tushuna boshlaydi,

Turmushning asrorlari, mohiyati ochila boshlaydi. Bunday iztirobni ilmiy ijodkorlik,ijodkorning badiiy ilhomi bilan tenglashtirish shart emas. Uni sevgi onlari, tabiat, musiqadan zavqlanish, ilhomlanish keltirib chiqarishi ham mumkin. Eng muhimi, inson bunday paytda o‘zini yolg‘iz his qilmasdan, balki oliy kuchlar bilan birga his qiladi.

Psixik sog‘lom shaxs mustaqil, hech narsaga muhtojlik sezmaydi, u boshqa shaxslarga nisbatan kamroq qaramdir. Bu esa, unda hech qanday qo‘rqinch, ko‘rolmaslik, maqtovlarga muhtojlik yo‘qligidan darak beradi. U yolg‘on gapirish, xushomadgo‘ylik qilishga ehtiyoj sezmaydi.

Atrofidagilarning ijtimoiy ko‘rsatmalariga u befarq. U, umuman, har qanday rag‘batlantirish, jazolashga, orden va shuhratga loqayd qaraydi, u mukofotni o‘z-o‘zligidan topadi.

Shunday qilib, kishi o‘zligi (individuumning ichki tabiati hamda o‘zagi) inson psixologik salomatligining bosh ko‘rsatkichi bo‘lib, uning asosiy mazmunini xalos bo‘lish (erkinlikka intilish), o‘zini anglash, o‘z hayot yo‘lini kashf etish va o‘zligini namoyon etish jarayoni tashkil etadi. O‘zlikning bunday namoyon bo‘lishi shaxsning ichki uyg‘unligi, qadriyatlar tizimining barqarorligi hamda hayot mazmunining ravshanligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Haqli ravishda ta’kidlash mumkinki, shaxs kamolotining umumiy qonuniyatlariga ko‘ra, insonning o‘zligini anglash va ro‘yobga chiqarishi uchun yetarli psixologik, ijtimoiy va ma’naviy sharoitlar mavjud bo‘lsa, uning rivojlanish jarayoni tabiiy ravishda, bosqichma-bosqich, izchil shaklda yuz beradi. Bu jarayonning natijasi shaxsning ichki yetukligi, mas’uliyat hissining ortishi, hayotga nisbatan ongli yondashuvning shakllanishi va o‘z imkoniyatlarini real baholash kabi sifat o‘zgarishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Insondagi bunday o‘zgarishlar, avvalo, uning o‘ziga bo‘lgan munosabatida — o‘zini hurmat qilish, o‘z kuchli va zaif tomonlarini qabul qilish, shaxsiy chegaralarni belgilash, ichki dialog olib borish qobiliyati kabi jihatlarda aks etadi. Shu bilan birga, tashqi olamga munosabat ham o‘zgaradi: boshqalarni tushunish va qabul qilish, jamiyatda faol ijtimoiy rolni egallash, konstruktiv muloqotga kirisha olish, turli vaziyatlarga moslashuvchan yondasha bilish kabi ko‘nikmalar kuchayadi. Demak, o‘zlikning rivojlanishi faqat ichki jarayon emas, balki insonning ijtimoiy tajribasi, munosabatlari va faoliyatida ham o‘z aksini topadigan murakkab psixologik tizimdir.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, insonning o‘z ichki dunyosiga bo‘lgan munosabati uning tashqi olam bilan o‘rnatadigan munosabatlari kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki dunyo bilan uyg‘unlik, o‘zini tinglay olish, his-tuyg‘ularni anglab, to‘g‘ri boshqarish qobiliyati insonning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi. Tashqi dunyo bilan bo‘ladigan munosabat esa bu barqarorlikning amaliy ifodasidir. Agar inson ichki va tashqi olam o‘rtasida muvozanatni topa olsa, u nafaqat psixologik salomatlikning yuqori darajasiga erishadi, balki hayotining barcha jabhalarida samarali faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Братус Б.С. Аномалии личности. – М.: Медицина, 1988.
2. Братченко С.Л. Диагностика личностно-развивающего потенциала: Методическое пособие для школных психологов. – Псков, 1997.

3. Василева О.С. Валеология – актуальное направление современной психологии //Психологический вестник РГУ. – Ростов-на-Дону, 1997.

4. Мартынова Н.М. Критический анализ методологии изучения и оценки здоровья человека // Философские науки. – 1992.

5. Маслоу А. Самоактуализация // Психология личности: Тексты. – М., 1982.

6. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – М.: Мысл, 1994.



Karimov Xolmurod,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi professori, psixologiya fanlari nomzodi

ER-XOTIN O'RTASIDAGI NIZO VA UNI BARTARAF ETISH – MUHIM IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada o'zbek oilalarida er-xotin o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, nikoh munosabatlari, sinov muddati, oila qurish motivlari, er-xotin nizolari, nizoning davomiyligi, jinsiy madaniyat, nizo psixologiyasi.

КОНФЛИКТ МЕЖДУ СУПРУГАМИ И ЕГО УСТРАНЕНИЕ – КАК ВАЖНАЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье представлена важная информация о причинах возникновения конфликтов между супругами в узбекских семьях и способах их устранения. В ней рассмотрены теоретические и практические аспекты проблемы, научно-исследовательская работа, проведенная автором в этой связи.

Ключевые слова: общество, семья, брачные отношения, испытательный срок, мотивы создания семьи, супружеские споры, длительность конфликта, сексуальная культура, психология конфликта.

CONFLICT BETWEEN SPOUSES AND ITS ELIMINATION AS AN IMPORTANT SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Annotation. The article provides important information about the causes of conflicts between spouses in Uzbek families and ways to eliminate them. It examines the theoretical and practical aspects of the problem, as well as the research work carried out by the author in this regard.

Keywords: society, family, marital relations, probation period, motives for starting a family, marital disputes, duration of conflict, sexual culture, psychology of conflict.

Oila jamiyatdagi asosiy ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon hisoblanadi. Oilani muqaddas maskan sifatida e’zozlash, oilada tinchlik-osoyishtalik, farovonlik muhitini qaror toptirish esa xalqimizga azaldan xos bo‘lgan fazilatlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlarning mazmun-mohiyati oila manfaatlarini himoya qilish, uning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut va barkamol avlodni tarbiyalash o‘chog‘i sifatida mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-tarbiyaviy asoslarini qo‘llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya va reproduktiv salomatlik hamda bu boradagi ishlarni tizimli amalga oshirishdan iboratdir. Chunki oilaning ravnaqi jamiyat farovonligini ta’minlaydi, uning farovonligi esa oila quruvchilarning o‘zaro hamjihatligiga, ro‘zg‘or va farzand tarbiyasi borasidagi mas’uliyatni birday his qilishlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lumki, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo‘lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topadi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg‘unchilik bo‘lsa, o‘sha jamiyat buziladi, tinchi yo‘qoladi, u oqibatda chuqur tanazzulga yuz tutadi. Oila deb ataluvchi mustahkam qo‘rg‘onning ustuni ota bo‘lsa, unga fayz kirituvchi onadir. Ota – oilaning ustuni, chinakam va yengilmas qo‘rg‘oni bo‘lsa, dunyoda ona mehrining, ayol muhabbatining bahosini o‘lchaydigan mezon, tenglashtiradigan boylik yo‘q. Oila qo‘rg‘onining poydevori ota tarbiyasi bilan mustahkamlansa. bola tarbiyasida onaning o‘rni beqiyosligi hammamizga ayon haqiqatdir. Har bir ayol o‘z oilasi, qo‘rg‘oni, ko‘ngli tinch, yurti va farzandi omon, boshida turgan bosh panohi-turmush o‘rtog‘i sog‘ bo‘lsa, hamisha o‘zida yashashga, turmushda katta o‘zgarishlar yasashga kuch topa oladi. Shuning uchun ham ota-onaning birgalikdagi o‘zaro muhabbati asosiga qurilgan oilani muqaddas saqlash, uning moddiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlash bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Oiladagi asosiy munosabatlar er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar bo‘lib, ular qadimdan xalq og‘zaki ijodiyotining o‘ziga xos janrlari bo‘lgan maqol, matal, ertak, naql, hikmatli so‘zlar va iboralarda hamda Sharq mutafakkirlarining ijodida keng o‘rganilgan. Biz shu o‘rinda sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlarida mufassal o‘rganilgan oila-nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, er-xotin nizolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha g‘oyatda ibratli maslahat va o‘gitlarini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Abu Ali ibn Sino er-xotin munosabatlarining turli va muhim tomonlarini yoritar ekan, avvalo oila boshlig‘i erning oldidagi mas’uliyatli vazifalarga e’tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig‘i bo‘la oladi. Muallif, er-xotin munosabati tenglik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat asosida qurilishi haqida to‘xtalib, “erkak kishi oila boshlig‘idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog‘i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakning yaxshi, munosib yo‘ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir” deb yozadi. U o‘zining “Uy-joy tutish tadbiri” haqidagi asarida ayollarning o‘n yetti xislatini sanab ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, dastlab ayol oqila va iymonli, sharm-hayoli, or-nomusli, didli va farosatli, orasta, o‘z eriga sadoqatli, itoatkor, dilkash, bexarxasha, pokiza, vazmin, muloyim va o‘zini tutib olgan jiddiy va ulug‘vor, har bir xatti-harakatida yaxshi xislatlari sezilib turadigan tejamkor, erining og‘ir damlarida unga malham bo‘la oladigan mehribon bo‘lishi kerak, degan fikrlarni bildirgan [6].

Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub” (“Qalblar sevgilisi”) asarida oilaviy turmush bilan bog‘liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o‘zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlari haqida qimmatli nasihat va ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Navoiy “Mahbub ul qulub” asarining 37-fasli “Uylanganlik va xotinlar to‘g‘risida” ayolning fazilatlari va uning oiladagi o‘rni haqida quyidagilarni yozadi: “Er bilan xotin birbiriga mos tushsa, o‘rtada boylik va saranjomlik bo‘lur, uy bezagi undan va uylanganning (erning) tinchligi undan. Husni bo‘lsa, ko‘ngilga yoqimli bo‘lur, yaxshiligi bo‘lsa, jon ozig‘idir. Aqlli bo‘lsa, turmush intizomli va ro‘zg‘or kerak yarog‘i tartibli va saranjomli bo‘ladi. Ana shunday turmush o‘rtog‘i bo‘lsa - g‘am-kulfatda sirdosh va hamdaming bo‘lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo‘lur. Turmushdan har jafo yetsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko‘makdoshing ul. Ko‘ngling g‘amidan ul g‘am chekadi. Nosoz juft uy uchun ham ochiq va ham yashirin qo‘rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo‘lsa, ko‘ngil undan ozorlanadi, yaramas bo‘lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo‘lsa kuyovning ko‘ngli yaralanadi, yomon ishlik bo‘lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo‘r bo‘lsa, uy obodonligi yo‘qoladi va buzuqi bo‘lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi”[1].

Mustaqillik yillarida oila va nikoh munosabatlari masalalari mamlakatimiz psixologlari tomonidan ham samarali o‘rganildi. Ayniqsa, o‘zbek oilalarining ijtimoiy-psixologik muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot izlanishlari o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab chuqur o‘rganila boshlandi. Shu o‘rinda Ye.A.Morshinina, G‘.B.Shoumarov, N.A.Sog‘inov, V.M.Karimova, B.Umarov, F.A.Akramova, M.Fayziyeva, S.A.Oxunjonova, T.M.Adizova, E.Usmonov, Sh.Sh.Jo‘rayeva, R.S.Samarov, O.Shamiyeva, N.Salayeva, F.R.Ro‘ziqulov kabi olimlar tomonidan olib borilgan ishlarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

G‘.B.Shoumarov tadqiqotlarida oilada er bilan xotin orasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni psixologik tahlil qilib, ularning asosiy sabablari

kelin-kuyovning kasb-faoliyati va oilaning qadr-qimmatini o‘lchashlari unda yetakchilik mavqeini qo‘lga kiritish uchun kurashishlari, bir-birini psixologik xususiyatlarini tushunib yetmasliklari, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishga tayyor emasliklari, jinsiy tarbiyaga oid bilimlarning yetarli emasligi, bolalarni tarbiyalashdagi o‘zaro kelishmovchiliklar, mijozlarning mos kelmasligi, jinsiy masalalarda kelisholmasliklari, farzandsizlik, rashk va ishonchsizlik ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Muallifning fikricha, bugungi kunda er-xotin o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqishiga ko‘proq rashk va ishonchsizlik sababchi bo‘lib, bundan eng avvalo ularning o‘zlari birinchi va kuchliroq azoblanishlari, ushbu holatlarda har ikki jins vakillari o‘z juftiga rashk qilish uchun hech qanday sabab, asos, bahona yaratib qo‘ymaslikka harakat qilishi, ayniqsa, sevgining o‘zaro hurmat davrida ko‘proq sabr-toqat, chidamlilikni namoyon qilishlari lozimligini ta’kidlaydi [3].

N.A.Sog‘inovning izlanishlarida o‘zbek oilasida juftliklar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, o‘zaro hurmat va hissiy yaqinlik, er-xotinlarning nikohdan qoniqqanlik xususiyatlari kabi omillarning oila mustahkamligiga ta’siri, ularning o‘zaro munosabatlarida nizolar paydo bo‘lishining etnopsixologik komponentlari o‘zbek etnosi misolida ilk bor o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot ishi sobiq ittifoq miqyosida u yoki bu millatning etnik xususiyatlarini namoyon bo‘lishi tadqiq etilgan ilk ijtimoiy-psixologik tadqiqotlardan biri ekanligi e’tirof etiladi. Unda yoshlarning oila qurish motivlari, nikoh oldi omillari, nikohdan qoniqqanlik darajalari, er-xotin o‘rtasida “o‘zaro tushunish”, “emotsional intilish”, “o‘zaro hurmat” ko‘rsatkichlari shahar va qishloq oilalari misolida qayd etib o‘tilgan. Tadqiqotda oila qurish niyatidagi yoshlar, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz nikohlar, ajralishgan juftlar o‘rganilgan[4].

Oiladagi shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy xususiyatlarga uzviy bog‘liq murakkab tizimga ega bo‘lib, uning asosiy bug‘ini er bilan xotin o‘rtasidagi munosabat hisoblanadi. Ma’lumki, er-xotin munosabatlari bir tekis munosabatlar bo‘lmay, yillar davomida bu munosabatlar ko‘p marotaba sinaladi, darz ketadi, hatto sinishi ham mumkin. Afsuski, o‘zbek oilalarida ham keyingi yillarda oila-nikoh munosabatlarining biroz zaiflashib borayotganligi, har xil nizoli holatlar va kelishmovchiliklar tez-tez uchrab turganligi hech kimga sir emas. Bunda oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe’l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, uning budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo‘lib, ro‘zg‘or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqishida muhim o‘rin tutadi.

Tajriba-sinov ishlarimizda oilada er-xotin munosabatlarida yuzaga keladigan nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar o‘rganilganda, respondentlarning 23% i bunday kelishmovchiliklarga er-xotin o‘rtasidagi rashk va ishonchsizlik, 22% iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar, 16% i dunyoqarash va maslaklarning

nomuvofiqligi, 16% i fe'l-atvorning mos kelmasligi, 14% i oila budjetini oqilona, omilkorlik bilan boshqara olmaslik, 14% i yashash sharoitining noqulayligi, 12% i ota-ona va qarindosh-urug'larga munosabatning kutilganidek darajada emasligi, 11% i ichish, chekish va boshqa qusurlar sababli, 9% i uy ishlarining saranjom, sarishta va orasta emasligi sababchi bo'lishini ta'kidlab o'tganlar. Tadqiqot davomida o'zbek milliy madaniyatining betakrorligi, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning hayotiyligi oilaviy turmush tarziga ham chuqur singib ketganligini ko'rdik. Chunonchi, aksariyat oilalarda nizolar uchramaydi, buning asosiy sabablari ularda sevgi, mehr-muhabbat va o'zaro ishonchning mavjudligi, unda ota-onalar va qarindosh-urug'lar bilan hamjihat va hamfikrlilikning ustunligi, kengashib hamjihatlik bilan ish tutish, rollarning to'g'ri taqsimlanganligi va o'zaro yordamning mavjudligi, uy ishlarining saranjom-sarishta va orastaligi, fe'l-atvorning mosligi kuzatiladi.

Mutaxassislarning fikricha, er-xotin munosabatlari har bir oilaning barqarorligi va baxti uchun asosiy muhim omil hisoblanadi. Muloqot bu munosabatlarning poydevori bo'lib, u orqali juftliklar o'rtasida xissiy bog'lanish va o'zaro tushunish, muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatlari yanada mustahkamlanadi. Muloqot jarayonida odob-axloqning saqlanishi er-xotin munosabatlarning sifatini oshiradi hamda uzoq muddatli birdamlikka yordam beradi. Shuning uchun ham er-xotin o'rtasidagi muloqotda odob va etiketni saqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda gaplashish jarayonida hurmat, sabr-toqat, tinglash qobiliyati va o'z fikrini to'g'ri yetkazish mahorati muhim o'rin tutadi. Er-xotin o'rtasida muloqot odobi shaffoflik, samimiylik, bir-birini qadrlash asosida bo'lishi o'zaro munosabatlarda munofiqlik va kelishmovchiliklarning paydo bo'lishini oldini oladi. Bunda har bir so'z va harakatga ehtiyotlik bilan yondashish, tinglashga katta ahamiyat berish, suhbatdoshni to'liq tushunishga harakat qilish, tanqid va norozilikni muloyimlik va konstruktiv shaklda ifoda etish, emotsiyalar ustidan nazoratni yo'qotmaslik, gapirishdan avval fikrni to'liq yig'ish, munosabatdagi muammolarni ochiq va samimiy muloqot yordamida hal etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ma'lumki, oilada er-xotin o'rtasida sodir bo'layotgan har qanday nizo oila a'zolari nufuziga putur yetkazishi mumkin. Sodir bo'lgan nizodan so'ng oiladagi shaxslararo munosabatlar ham keskin o'zgaradi, oila jamoasida nosog'lom muhit hukm suradi. Nizo natijasidagi salbiy holatlar shaxsning hissiyoti, xatti-harakatlari, tafakkur va hatto xarakterida ma'lum o'zgarishlar sodir etadi. Bu o'zgarishlar shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'lib, mazkur subyekt qatnashayotgan boshqa vaziyatlarga ham tarqaladi va o'zaro munosabatlarning keng sohalarini egallay boshlaydi. Shuning uchun oila a'zolaridan nizolarning oldini olish tadbirlarini tashkillashtirish va sodir bo'lgan paytda esa ularni malakali tarzda hal etish qobiliyati talab etiladi. Bunda er va xotinning bir-birlarini to'g'ri tushunishi, hurmat qilishi, oilaviy masalalarni birgalikda hal qilishga harakat qilishi oilada yuzaga keladigan har qanday nizo, ixtilof va muammolarni tinch yo'l bilan bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi.

O‘zbek oilalarida er-xotin o‘rtasidagi nizolar ko‘pincha an’anaviy qadriyatlar, iqtisodiy sharoit, tarbiya, jinsiy madaniyat, tashqi ta’sirlar (masalan, qaynona-qaynota aralashuvi) va muloqot yetishmasligi kabi omillar bilan bog‘liq ekanligini inobatga olgan holda ushbu muammolarni samarali hal etish uchun ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida quyidagi amaliy takliflarni taqdim etamiz:

1) Joylarda psixologik ta’lim va oilaviy maslahat xizmatlari marakazlarini tashkil etish, ularda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yangi turmush qurgan yoshlar uchun maxsus treninglar va mashg‘ulotlar o‘tkazish tavsiya etiladi;

2) Ta’lim maskanlari va nikoh uylarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nafaqat yoshlarni, balki ularning ota-onalarini ham hayotga tayyorlash juda muhim ekanligini hisobga olib, ular bilan ota-onalik mas’uliyati va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari buyicha davra suhbatlari va seminar-treninglar tashkil etish;

3) Viloyat, shahar va tumanlar markazlarida mediatorlik (vositachilik) va nizolarni hal qilish markazlari tashkil etish, joylarda nizolarni sudgacha yetib bormasdan, mediatorlar orqali hal qilish tizimini rivojlantirish, ularga nizolarni hal etish bo‘yicha maxsus trening olgan diniy ulamolar, mahalla oqsoqollari va mutaxassislarni jalb qilish;

4) Ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini olib borish, ularda muloqot odobi, jinsiy madaniyat va nizo psixologiyasi bo‘yicha psixologik bilimlarni targ‘ib qilish va davra suhbatlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir;

5) Turmush qurishdan oldingi sinov va tanishuv tajribasi, uning sinov muddati er-xotinning kelajakdagi mustahkam va sog‘lom oila qurishida muhim o‘rin tutishini inobatga olgan holda nikohdan oldingi sinov muddatini uzaytirish tavsiya etiladi;

6) Oliy o‘quv yurtlarida “Oila hayoti psixologiyasi” bo‘yicha maxsus kursni joriy etish, bu kursda nizo psixologiyasi deb nomlangan maxsus bo‘lim bo‘lishi, ushbu bo‘limda nizoning etiologiyasi, omillari, kelib chiqish sabablari, uchog‘i, davomiyligi, ifodalanish shakllari, turlari, yo‘nalishi, oqibatlari va oldini olish yo‘llari ko‘rsatilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul qulub. Tanlangan asarlar to‘plami. 13-t. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. -244 b.

2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun. - T.: “Sharq”, 2008. - 240 b.

3. Shoumarov G‘.B., Qodirov U.D. Rashk psixologiyasi. -T.: ZAMONAVIY TA’LIM / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2022, 3 (112).

4. Согинов Н.А. Социально-психологические особенности удовлетворенности бракам в узбекской семье. Автореф. дисс. канд. психолог. наук. - К.: 1990, -19 стр.

5. Karimov X.K. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi /Darslik/ -Q.: "Qarshi davlat universiteti" nashriyoti, 2024. -168 b.
6. Fayziyeva M., va boshq. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. -T.: "Yangi asr avlodi", 2007. -144 b.

УДК: 159.9.072.52



Алиев Мухаммаджон Чориевич,
доцент Profi University, кандидат педагогических наук

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ САМОПОЗНАНИЯ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Аннотация. В статье анализируются современные психологические модели самопознания. Выделены когнитивный, эмоционально-ценностный и поведенческий компоненты, раскрыта их взаимосвязь и роль регулятивных механизмов в функционировании личности. Рассмотрены универсальные и культурно-специфические факторы самопонимания. Предложена систематизация моделей, отражающая уровни и динамику развития самопознания, что расширяет теоретические представления и способствует их применению в психологии личности и педагогике.

Ключевые слова: самопознание, структура, модель, когнитивный, эмоционально-ценностный и поведенческий компоненты, регулятивные механизмы, культурный контекст, интегративные модели.

O‘ZINI ANGLASHNING PSIXOLOGIK MODELLARI VA ULARNING TASNIFI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy psixologik o‘zini anglash modellari tahlil qilinadi. Kognitiv, emotsional-aksiologik va xulqiy komponentlar ajratilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda shaxs faoliyatidagi regulyativ mexanizmlarning roli ochib beriladi. O‘zini anglash jarayoniga ta’sir etuvchi umuminsoniy va madaniy xususiyatlar ko‘rib chiqiladi. O‘zini anglashning darajalari va dinamikasini aks ettiruvchi modellar tizimlashtirilgan bo‘lib, bu nazariy tasavvurlarni kengaytiradi va ularni shaxs psixologiyasi hamda pedagogika sohalarida qo‘llashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: o‘zini anglash, tuzilma, model, kognitiv, emotsional-aksiologik va xulqiy komponentlar, regulyativ mexanizmlar, madaniy kontekst, integrativ modellar.

PSYCHOLOGICAL MODELS OF SELF-KNOWLEDGE AND THEIR CLASSIFICATION

Abstract. The article analyzes contemporary psychological models of self-knowledge. The cognitive, emotional-value, and behavioral components are identified, and their interrelations, as well as the role of regulatory mechanisms in personality functioning, are revealed. Universal and culturally specific factors of self-understanding are considered. A systematization of models reflecting the levels and dynamics of self-knowledge development is proposed, which broadens theoretical perspectives and contributes to their application in personality psychology and pedagogy.

Keywords: self-knowledge, structure, model, cognitive, emotional-value and behavioral components, regulatory mechanisms, cultural context, integrative models.

Изучение моделей самопознания в психологии имеет как научное, так и практическое значение. Исследование позволяет понять, каким образом когнитивные, эмоционально-ценностные и поведенческие компоненты личности интегрируются, регулируют деятельность и формируют динамику самопознания. Это знание обогащает психологические практики, включая психодиагностику, психотерапию и педагогические подходы к развитию личности.

Современные исследования подчеркивают важность не только анализа структуры самопознания, но и изучения его динамических и регулятивных аспектов. Однако существующие подходы чаще фокусируются на отдельных компонентах, не отражая их интеграции и взаимовлияния.

Основные трудности системного изучения самопознания включают:

1. *Фрагментарность эмпирических данных* - отдельные исследования касаются отдельных компонентов, не обеспечивая целостного представления о самопознании.

2. *Ограниченность инструментальных методов* - недостаток комплексных подходов, позволяющих учитывать динамику и взаимосвязи элементов.

3. *Неявный характер регулятивных процессов* - механизмы самоконтроля, самооценки и адаптации редко анализируются в совокупности.

4. *Контекстуальная зависимость* - социальные, культурные и профессиональные условия влияют на проявление компонентов самопознания, что усложняет обобщение результатов.

Целью исследования является разработка системной типологии моделей самопознания, учитывающей когнитивные, эмоционально - ценностные и поведенческие компоненты, их динамику, взаимосвязи и регулятивные функции.

Задачами исследования являются:

1. Систематизация существующих подходов к изучению самопознания и выявление его ключевых компонентов и функций.
2. Разработка модели самопознания как структурно - функциональной системы.
3. Создание типологии моделей самопознания с учётом интеграции компонентов, функциональной направленности и динамических характеристик.
4. Сопоставление предложенных моделей с классическими концепциями психологии личности и определение закономерностей их взаимодействия.

Ключевые понятия исследования:

Модель самопознания - структурно-функциональная система, объединяющая когнитивные, эмоционально-ценностные и поведенческие компоненты личности и механизмы их взаимодействия.

Структура самопознания - совокупность устойчивых компонентов личности, фиксирующих знания, установки и поведение.

Регулятивные механизмы - процессы самоконтроля, самооценки, планирования и адаптации, обеспечивающие интеграцию элементов самопознания.

Типология моделей - классификация моделей по когнитивным, эмоционально-ценностным, регулятивным, процессуально-динамическим и интегративным признакам.

Эмпирическая база - совокупность данных, полученных с помощью опросников, наблюдений, интервью, анализа текстов и самоотчётов.

Научная новизна исследования:

1. Разработана системная модель самопознания, объединяющая структуру, динамику и регулятивные функции.
2. Создана типология моделей самопознания, позволяющая классифицировать индивидуальные и культурные проявления, учитывать степень интеграции компонентов и динамические характеристики.
3. Предложена методология эмпирической проверки моделей с использованием комплексного подхода, сочетающего количественные и качественные методы.

Для исследования моделей самопознания использовался системный подход, предполагающий комплексное изучение структуры, функций и взаимосвязей компонентов самопознания. Основное внимание уделялось когнитивным, эмоционально-ценностным и поведенческим элементам, их интеграции и роли в регуляции личности.

В работе применялись следующие методические подходы:

1. *Анализ литературных источников* – изучение классических и современных трудов по психологии самопознания. Анализ позволил выявить

ключевые компоненты самопознания, их функции и типологические различия.

2. *Системный анализ* – сопоставление и классификация выявленных компонентов с целью выявления закономерностей их взаимодействия, структурной и функциональной организации.

3. *Синтез моделей самопознания* – интеграция компонентов в логически завершённые модели, демонстрирующие динамику функционирования самопознания и регулятивные механизмы.

4. *Сравнительный анализ* – сопоставление реконструированных моделей с классическими подходами и существующими концепциями, выявление общих и уникальных характеристик.

5. *Типологизация моделей* – формирование классификаций на основе анализа компонентов, их взаимосвязей и функциональной направленности (когнитивные, эмоционально-ценностные, регулятивные, процессуально-динамические и интегративные модели).

Современные исследования в психологии личности демонстрируют, что феномен самопознания традиционно изучается через призму структуры, фиксирующей его устойчивые компоненты. Российские классики - Л. С. Выготский, С. Л. Рубинштейн и А. Н. Леонтьев -концентрировались на когнитивных, эмоционально-ценностных и поведенческих аспектах, рассматривая их как относительно автономные элементы. Параллельно зарубежные исследователи - Э. Эриксон, К. Роджерс, Дж. Брунер, Д. Голман, Х. Маркус и Д. Вурф - обращали внимание на интеграцию этих компонентов в целостное развитие личности, подчеркивая взаимосвязь идентичности, когнитивного понимания себя и эмоционального опыта.

Такая интеграция демонстрирует, что самопознание - это не только фиксированные знания о себе, оценка собственного «Я» или поведенческие проявления, но и сложная динамическая система, в которой элементы взаимно влияют друг на друга, трансформируются и регулируются под воздействием внутренних и внешних факторов. Зарубежные исследования показывают, что когнитивные, эмоциональные и поведенческие компоненты развиваются не изолированно: идентичность и когнитивные схемы формируются под влиянием социальных ролей, опыта взаимодействия с другими и личностных кризисов. Кроме того, позитивная концепция «Я», предложенная Роджерсом, демонстрирует, что эмоциональное отношение к себе напрямую влияет на способность человека адаптироваться к новым условиям, принимать решения и регулировать поведение.

Исследования показывают, что когнитивные и эмоциональные компоненты самопознания формируются в контексте культурных и исторических практик, а умение интерпретировать свой опыт через социально-культурные рамки способствует интеграции различных аспектов личности. Д.Гоулман подчеркивает, что эмоциональный интеллект - способность осознавать, регулировать и направлять свои эмоции - тесно

связан с когнитивными знаниями о себе и социальными стратегиями поведения, что подтверждает необходимость рассмотрения самопознания как функционально интегрированной системы.

Такой комплексный подход позволяет не только описывать составные части самопознания, но и выявлять их взаимозависимость, прогнозировать динамику личностного развития и определять условия, при которых происходят изменения когнитивных, эмоциональных и поведенческих компонентов. Анализ существующих исследований подтверждает, что понимание механизмов интеграции элементов самопознания необходимо для выявления потенциальных зон внутреннего конфликта, формирования стратегий саморегуляции и развития личностной устойчивости в разных возрастных и культурных контекстах.

Ключевые компоненты модели самопознания:

1. **Когнитивный компонент** отражает знания о себе, внутренние схемы, убеждения и категории, через которые человек осознаёт свои качества, способности и ограничения. Эти структуры формируются через социализацию, личный опыт, учебу, профессиональную деятельность и рефлексию, создавая ментальные карты «Я» для ориентации в себе и внешней среде.

Исследователи отмечают значимость когнитивного аспекта: Э.Эриксон рассматривает идентичность как когнитивно-эмоциональный конструкт[2]; К.Роджерс выделял «Я-концепцию» как основу личностного роста[3]; Х.Маркус и Э.Вульф показали, что когнитивные схемы «Я» определяют восприятие событий и выбор поведения[4]; Дж.Брунер подчеркивает влияние культурного и образовательного контекста[5]; Д.Гоулман связывает когнитивные процессы с эмоциональной компетентностью[6].

Функциями компонента является ориентация в возможностях и ограничениях, планирование действий, прогнозирование результатов, формирование стратегий поведения и интеграция опыта. Например, подросток выбирает профильные предметы, взрослый строит карьерный план, человек оценивает последствия решения, студент корректирует учебные стратегии.

Когнитивный компонент влияет на эмоционально-ценностные оценки и поведение, создавая основу для целостного представления личности и интеграции всех процессов.

[2] Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Прогресс, 1996. – 344 с.

[3] Роджерс К. Становление личности: психотерапевтический взгляд на психотерапию. – М.: Прогресс, 1994. – 480 с.

[4] Маркус Х., Вурф Э. Динамическая «Я-концепция»: социально-психологическая перспектива // Психологический журнал. – 1987. – Т. 8, № 3. – С. 75–88.

[5] Брунер Дж. Культура и образование. – М.: Прогресс, 1990. – 448 с.

[6] Гоулман Д. Эмоциональный интеллект: почему он может быть важнее IQ. – М.: Эксмо, 1995. – 512 с.

2. **Эмоционально-ценностный компонент** отражает отношение человека к себе, самооценку, мотивацию и ценности. Он регулирует эмоциональные реакции, формирует моральные ориентиры и влияет на поведение. Этот компонент взаимосвязан с когнитивным: осознание своих качеств воздействует на эмоции и стратегию действий.

С.Шварц выделяет ценности как основу мотивации[7]; Э.Деси и Р. Райан подчеркивают влияние внутренней мотивации и автономии на эмоциональное благополучие[8]; А.Бандура рассматривает самоэффективность как интеграцию когнитивных и эмоциональных процессов[9].

Функциями компонента является формирование самооценки, регулирование эмоций, определение моральных ориентиров, поддержка мотивации, интеграция личностных ценностей с внешними требованиями. Например, школьник гордится честностью, подросток испытывает конфликт ценностей, взрослый принимает трудные решения с учётом эмоций и ценностей, студент корректирует мотивацию по результатам учебы.

Компонент связывает внутренние представления о себе с внешними проявлениями и способствует адаптации и личностному развитию.

3. **Поведенческий компонент** отражает действия, стратегии и привычки в социальных, профессиональных и учебных взаимодействиях. Он проявляется через адаптивное поведение, саморегуляцию и реакцию на обратную связь, воплощая когнитивные и эмоционально-ценностные установки на практике.

А.Бандура показывает влияние наблюдения и моделирования на формирование стратегий[10]; Б.Скиннер демонстрирует, как подкрепления формируют привычки и адаптацию[11].

Функциями компонента является реализация знаний о себе, адаптация к среде, корректировка поведения, поддержка эффективности, формирование привычек и стратегий достижения целей. Например, школьник планирует учебный день, подросток регулирует социальное поведение в группе, взрослый корректирует профессиональные действия, человек участвует в общественной деятельности.
Поведенческий компонент тесно связан с когнитивным и эмоционально-

[7] Шварц С. Универсалии содержания и структуры ценностей: теоретические достижения и эмпирические проверки в 20 странах // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65.

[8] Деси Э., Райан Р. Теория самодетерминации и содействие внутренней мотивации, социальному развитию и благополучию // Психологический журнал. – 2001. – Т. 22, № 2. – С. 1–25.

[9] Бандура А. Самоэффективность: управление контролем. – СПб.: Питер, 2007. – 604 с.

[10] Бандура А. Теория социального научения. – М.: Прогресс, 1977. – 247 с.

[11] Скиннер Б. Поведение организма. – М.: Прогресс, 1957. – 450 с.

ценностным: знания о себе и эмоциональные оценки направляют поведение, а регулятивные механизмы обеспечивают адаптивность личности. Он показывает, как самопознание реализуется на практике и позволяет прогнозировать развитие, выявлять зоны конфликта и потенциал личностного роста.

Регулятивные механизмы в модели самопознания обеспечивают согласованность когнитивных представлений, эмоционально-ценностных оценок и поведенческих проявлений. Они включают самоконтроль, планирование, прогнозирование, корректировку действий и мониторинг результатов, позволяя адаптироваться к изменениям среды, управлять внутренними ресурсами и строить стратегии развития.

Взаимосвязь компонентов проявляется следующим образом:

- когнитивные представления формируют основу для планирования;
- эмоциональные оценки влияют на мотивацию и усилия;
- поведенческие стратегии создают обратную связь;
- регулятивные механизмы обеспечивают согласованность и адаптивность.

Регулятивные механизмы обеспечивают адаптационную устойчивость, предсказывают влияние изменений в одном компоненте на другие и позволяют корректировать поведение в новых ситуациях. Социальный, культурный и профессиональный контекст влияет на их активность, способствуя стабильности или трансформации компонентов самопознания.

Динамический аспект модели самопознания отражает процессуальную организацию развития личности: осознание себя, оценка способностей, корректировка поведения и интеграция опыта формируют непрерывный цикл. Каждый этап зависит от предыдущего опыта, социального взаимодействия и культурных норм, что делает самопознание живой, адаптивной системой.

Этапы включают:

1. Формирование когнитивных представлений о себе с опорой на опыт и внешние воздействия.
2. Оценку себя и действий в контексте ценностей и эмоционального опыта.
3. Корректировку поведения и принятие решений, перевод когнитивных и эмоциональных данных в действия и стратегии.

Процессуальные переходы могут быть спонтанными (под влиянием жизненных обстоятельств) или целенаправленными (через педагогические, психологические или терапевтические интервенции). Контекстуальные факторы - социальные, культурные и профессиональные - определяют динамику этих переходов, ускоряя или замедляя интеграцию компонентов.

Динамический подход показывает, что самопознание - живая система, способная к адаптации, интеграции опыта и формированию новых паттернов когнитивных, эмоциональных и поведенческих компонентов.

Социальный и культурный контекст существенно влияет на формирование и функционирование модели самопознания. Взаимодействие с окружающими, общественные нормы, культурные ценности и образовательная среда определяют, какие когнитивные схемы, эмоциональные оценки и поведенческие стратегии становятся доминирующими. Позитивная поддержка и конструктивная обратная связь укрепляют эмоционально - ценностный компонент, тогда как критические или конфликтные условия стимулируют корректировку когнитивных представлений и поведенческих паттернов[12].

Культурные различия формируют структуру и динамику самопознания. В коллективистских обществах преобладает взаимозависимое восприятие «Я», где социальные роли и ожидания группы сильно влияют на когнитивные и поведенческие компоненты. Индивидуалистические культуры, наоборот, стимулируют автономность, саморефлексию и личностные достижения, что отражается в эмоционально-ценностной сфере[13].

Контекстуальные факторы создают вариативность моделей самопознания и определяют способы интеграции компонентов, объясняя, почему одинаковые когнитивные знания о себе могут приводить к разным эмоциональным реакциям и поведенческим стратегиям в различных условиях. Это подчёркивает необходимость учитывать внешнюю среду при анализе динамики и регулятивной функции самопознания.

Процессуальные переходы в модели самопознания отражают изменения когнитивных, эмоционально-ценностных и поведенческих компонентов под влиянием внутренних и внешних факторов. К внутренним относятся опыт, мотивация, самооценка и рефлексия, к внешним - социальные, культурные и профессиональные условия. Когнитивные представления формируют основу для эмоциональных оценок, а те направляют поведение.

Жизненные этапы и события вызывают перестройку компонентов модели. Подросток, переходя к взрослой жизни, пересматривает ценности, оценивает способности и формирует новые стратегии поведения. Взрослый, сталкиваясь с трудностями, корректирует цели, переосмысливает ценности и адаптирует поведение. Это отражает динамичность модели.

Переходы поддерживаются регулятивными механизмами - самоконтролем, планированием и прогнозированием. Они согласуют когнитивные, эмоциональные и поведенческие процессы, обеспечивая целостность личности и её адаптацию. Самопознание проявляется как интегрированная система, где компоненты взаимосвязаны и совместно влияют на развитие.

[12] Маркус Х., Китаяма С. Культура и «Я»: значение для когнитивной деятельности, эмоций и мотивации // Психологический журнал. – 2003. – Т. 24, № 4. – С. 45–62.
[13] Триандис Х. Индивидуализм и коллективизм. – СПб.: Питер, 1995. – 320 с

Когнитивный, эмоционально - ценностный и поведенческий компоненты самопознания не существуют изолированно, а взаимодействуют. Когнитивный компонент формирует внутренние представления о возможностях и ограничениях личности, задаёт рамки для интерпретации событий и планирования действий. Эмоционально - ценностный окрашивает эти знания, формирует отношение к себе и мотивирует поступки. Поведенческий реализует когнитивные и эмоциональные структуры в практике, отражая адаптацию и самоконтроль.

Модель самопознания систематизирует взаимосвязи между компонентами и показывает, что это не сумма знаний, эмоций и действий, а целостная система. Когнитивное понимание своих сильных и слабых сторон влияет на эмоции и выбор поведения, а переживания могут менять интерпретацию опыта и мотивацию.

Особое место занимают регулятивные функции - планирование, контроль и самонаблюдение, обеспечивающие согласованность между знаниями, эмоциями и действиями. Они поддерживают устойчивость личности, её адаптацию и принятие решений в соответствии с целями и ценностями.

Модель учитывает индивидуальные различия: когнитивные - в уровне осознанности и критичности; эмоциональные - в устойчивости и системе ценностей; поведенческие - в стратегиях адаптации и навыках саморегуляции. Сопоставление этих характеристик помогает выявлять как общие закономерности, так и уникальные особенности самопознания.

Элементы модели самопознания образуют устойчивые паттерны. Когнитивные знания определяют понимание возможностей, эмоциональные оценки влияют на мотивацию и отношение к успехам и неудачам, а поведенческие проявления отражают способность адаптироваться и достигать целей. Регулятивные механизмы связывают их в единую систему и обеспечивают гармоничное функционирование личности.

Типология моделей самопознания позволяет выделить устойчивые конфигурации когнитивных, эмоционально - ценностных и поведенческих компонентов. Каждая модель отражает особенности их организации и функций, что помогает систематизировать паттерны самопознания и понять разнообразие личностных стратегий.

Ключевые типы:

1. Когнитивные модели – сосредоточены на знаниях о себе, формировании «карты Я» и осознании возможностей и ограничений. Проявляются через планирование, оценку последствий и адаптацию к новым ситуациям.

2. Эмоционально-ценностные модели – связаны с самооценкой, ценностями и внутренним отношением к себе. Эмоции и моральные ориентиры определяют принятие решений и постановку целей.

3. Регулятивные модели – акцентируют способность управлять поведением, корректировать действия и планировать деятельность, демонстрируя роль самопознания в самоконтроле.

4. Интегративные модели – объединяют когнитивные, эмоциональные и поведенческие компоненты в целостную систему, отражающую опыт и способность к саморегуляции.

Такой подход позволяет выявлять закономерности взаимодействия компонентов: когнитивная сфера формирует базу знаний, эмоционально - ценностная направляет мотивацию, поведенческая реализует стратегии, а регулятивные механизмы обеспечивают их согласованность.

Практическое значение типологии велико. В психологии она помогает прогнозировать поведение, выявлять зоны внутреннего конфликта, определять ресурсы развития и строить стратегии саморегуляции. В педагогике - адаптировать обучение к индивидуальным особенностям учащихся, развивать критическое мышление и осознанное отношение к учёбе. Самопознание предстает как сложная система, где интеграция компонентов обеспечивает адаптацию и устойчивость личности, а типологический анализ расширяет возможности его практического применения.

Сопоставление модели самопознания с классическими концепциями психологии личности показывает преемственность и развитие научных идей. В традиции Л. С. Выготского акцент делался на роли социального контекста и интериоризации опыта в формировании самосознания[14]. А. Н. Леонтьев подчеркивал деятельностную основу личности, где «Я» формируется через активное взаимодействие с миром[15]. Э. Эриксон описывал идентичность как результат последовательного прохождения стадий психосоциального развития, каждая из которых включает когнитивные, эмоциональные и поведенческие задачи[16]. А. Бандура рассматривал личность как систему, в которой центральную роль играют механизмы саморегуляции и социального научения.

Разработанная модель самопознания интегрирует эти подходы, позволяя рассматривать личность как динамическую систему, объединяющую когнитивные знания о себе, эмоционально - ценностные установки и поведенческие стратегии. Она показывает, что согласованность компонентов достигается благодаря регулятивным механизмам, а развитие личности осуществляется в контексте социальных и культурных условий.

Современные подходы к изучению самопознания в психологии традиционно фокусируются на описании структуры феномена, фиксируя

[14] Выготский Л. С. История развития высших психических функций. – М.: Наука, 1983. – 328 с.
[15] Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2005. – 352 с
[16] Эриксон Э. Детство и общество. – М.: Прогресс, 1996. – 368 с.

когнитивные, эмоционально - ценностные и поведенческие компоненты. В то же время выделенные в настоящей работе модели самопознания позволяют рассматривать не только отдельные элементы, но и их динамическую взаимосвязь, регулятивные функции и переходы между стадиями.

Типология моделей, когнитивные, эмоционально - ценностные, регулятивные, процессуально - динамические и интегративные , показывает, как различные аспекты самопознания проявляются в реальной жизни. Эмпирические данные подтверждают, что изменения в одной сфере (например, когнитивной) сопровождаются соответствующими изменениями в эмоциональной и поведенческой сферах. Такой подход позволяет учитывать контекстуальные влияния, социальные, культурные и профессиональные, которые формируют индивидуальные траектории самопознания и делают модели гибкими и адаптивными.

Практическая значимость выделенных моделей заключается в возможности их использования для психодиагностики, психотерапии и педагогических целей. Они позволяют прогнозировать развитие личности, выявлять зоны риска или ресурсы для личностного роста и индивидуализировать психологическое сопровождение. Ограничениями исследования остаются специфика выборки, необходимость дальнейшей верификации моделей и уточнения их динамических характеристик в различных культурных и профессиональных контекстах. Перспективы будущих исследований связаны с разработкой стандартизированных методов проверки моделей и расширением типологии для более точного отражения разнообразия человеческого опыта. Выделенные модели самопознания открывают новые возможности для понимания механизмов формирования и развития Я-концепции, демонстрируя переход от статичного описания структуры к динамическому и интегративному представлению личности как субъекта собственного самопознания.

Литература

1. Бандура А. Теория социального научения. – М.: Прогресс, 1977. – 247 с.
2. Бандура А. Самоэффективность: управление контролем. – СПб.: Питер, 2007. – 604 с.
3. Брунер Дж. Культура и образование. – М.: Прогресс, 1990. – 448 с.
4. Выготский Л. С. История развития высших психических функций. – М.: Наука, 1983. – 328 с.
5. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект: почему он может быть важнее IQ. – М.: Эксмо, 1995. – 512 с.
6. Деси Э., Райан Р. М. Теория самодетерминации и содействие внутренней мотивации, социальному развитию и благополучию // Психологический журнал. – 2001. – Т. 22, № 2. – С. 1–25.

7. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2005. – 352 с.
8. Маркус Х., Вурф Э. Динамическая «Я-концепция»: социально-психологическая перспектива // Психологический журнал. – 1987. – Т. 8, № 3. – С. 75–88.
9. Маркус Х., Китаяма С. Культура и «Я»: значение для когнитивной деятельности, эмоций и мотивации // Психологический журнал. – 2003. – Т. 24, № 4. – С. 45–62.
10. Роджерс К. Становление личности: психотерапевтический взгляд на психотерапию. – М.: Прогресс, 1994. – 480 с.
11. Скиннер Б. Поведение организма. – М.: Прогресс, 1957. – 450 с.
12. Триандис Х. Индивидуализм и коллективизм. – СПб.: Питер, 1995. – 320 с.
13. Шварц С. Универсалии содержания и структуры ценностей: теоретические достижения и эмпирические проверки в 20 странах // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65.
14. Эриксон Э. Детство и общество. – М.: Прогресс, 1996. – 368 с.
15. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Прогресс, 1996. – 344 с.



Bekova Shamsiya Djabbarovna,
Qarshi davlat universiteti
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OTA-ONA VA FARZAND O‘RTASIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ kompetensiyaning psixologik mohiyati yoritilgan. Oilaviy muloqotning shakllanish jarayoni, uning shaxs rivojiga ta’siri, kommunikativ malakalarning psixologik asoslari va ularni rivojlantirish yo‘llari tahlil etilgan.Maqolada kommunikativ kompetensiya oilaviy tarbiyaning muhim psixologik komponenti sifatida talqin qilinadi hamda ota-onalarning farzandlar bilan samarali muloqotini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, ota-ona, farzand, oilaviy muloqot, psixologik munosabat, tarbiya, empatiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЕЖДУ РОДИТЕЛЕМ И РЕБЁНКОМ

Аннотация. В данной статье раскрывается психологическая сущность коммуникативной компетентности между родителями и детьми. Анализируются процесс формирования семейного общения, влияние коммуникативных навыков на развитие личности ребенка, психологические основы и пути их совершенствования. Коммуникативная компетентность рассматривается как важный психологический компонент семейного воспитания, а также даны практические рекомендации по развитию эффективного общения родителей с детьми.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, родители, ребенок, семейное общение, психологические отношения, воспитание, эмпатия.

THE PSYCHOLOGICAL NATURE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE BETWEEN PARENT AND CHILD

Abstract. This article reveals the psychological essence of communicative competence between parents and children. It analyzes the process of forming family communication, the influence of communicative skills on the child's personality development, and the psychological foundations and ways of improving them. Communicative competence is interpreted as an essential psychological component of family upbringing, and practical recommendations are given to enhance effective parent–child communication.

Keywords: communicative competence, parents, child, family communication, psychological relationship, upbringing, empathy.

Zamonaviy ijtimoiy hayotda oila insonning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida shaxsning shakllanishi, ijtimoiylashuvi va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar tizimi o‘zaro muloqot, hissiy aloqa va tushunish asosida quriladi. Aynan shu jarayonda bola ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi, o‘zini va boshqalarni anglashni o‘rganadi. Oila muhitida shakllanadigan muloqot sifati bolaning emotsional barqarorligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ijtimoiy faoliyati va intellektual salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish va sog‘lom muhit yaratish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy munosabat madaniyatini rivojlantirish, ota-onalarning farzand bilan samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish, tarbiya jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab oilalarda kommunikativ muammolar — avtoritar yoki befarq muloqot uslubi, hissiy aloqa yetishmasligi, o‘zaro tushunmovchilik holatlari — hali ham dolzarbdir. Bunday holatlar bolalarning psixik rivojiga, o‘z-o‘zini baholashiga, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda ishonch hissining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologiyada “Kommunikativ kompetensiya” tushunchasi shaxsning muloqot jarayonida o‘z fikr va his-tuyg‘ularini aniq, madaniyatli va ijtimoiy qabul qilinadigan shaklda ifoda eta olish, shuningdek, suhbatdoshni tinglash va uni tushunish qobiliyati sifatida talqin qilinadi (A.A. Bodalev, 1983). Bu kompetensiya nafaqat nutq madaniyatini, balki empatiya, hissiy barqarorlik, o‘zini tuta bilish, ijtimoiy moslashuv kabi psixologik jihatlarni ham qamrab oladi. L.S. Vygotskiy (1934) o‘z tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiy rivoji muloqot orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. A.N. Leontyev (1977) esa faoliyat nazariyasi doirasida insonning har bir ruhiy jarayonini ijtimoiy faoliyat bilan bog‘laydi. Shuning uchun ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish — bu shaxsning ijtimoiy faoliyati va psixik kamoloti uchun zarur omildir.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqot o‘rnatish, o‘z fikr va hissiyotlarini to‘g‘ri ifoda etish, boshqalarni tinglash va tushunish, turli ijtimoiy vaziyatlarda mos muloqot strategiyasini tanlay olish qobiliyatidir. Bu tushuncha nafaqat til va nutq malakalarini, balki emotsional, ijtimoiy va madaniy jihatlarni ham qamrab oladi. Insonning kommunikativ kompetensiyasi uning ijtimoiy faoliyati, shaxslararo munosabatlari va psixologik moslashuvining asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

L.S. Vygotskiy (1934) muloqotni inson ongining shakllanish manbai sifatida baholagan. Unga ko‘ra, bola ijtimoiy aloqalar jarayonida o‘z nutqini va tafakkurini rivojlantiradi, demak, kommunikatsiya shaxsning ruhiy taraqqiyotini ta’minlovchi mexanizmdir. A.N. Leontyev (1977) esa shaxsning ijtimoiy faoliyatini muloqotdan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmasligini, har qanday faoliyatda kommunikatsiya asosiy bog‘lovchi kuch ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, E. Erikson (1968) o‘zining psixosotsial rivojlanish nazariyasida bolalik davrida ota-ona bilan muloqotning yetarli bo‘lmasligi “ishonch inqirozi”ni keltirib chiqarishini ko‘rsatgan.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi ijtimoiy tajriba, tarbiya va oila muhitiga bevosita bog‘liq. Bola ilk yillardan boshlab ota-onasining so‘zlashuv uslubi, ohang, munosabat va emotsional ifodalarini kuzatib, ulardan o‘rganadi. Shu tariqa u o‘zining muloqot modeli va emotsional reaksiya shaklini shakllantiradi. Agar oila muhitida ijobiy, qo‘llab-quvvatlovchi, empatik muloqot ustuvor bo‘lsa, bola ham o‘z navbatida ochiq, ishonchli, emotsional jihatdan barqaror shaxs sifatida kamol topadi.

Bugungi kunda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish oilaviy psixologiya, pedagogika va sotsiologiyada muhim o‘rinni egallamoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori kommunikativ kompetensiyaga ega ota-onalar farzandlarida ijtimoiy moslashuv, o‘zini ifoda etish va o‘zaro hurmat darajasi yuqoriroq bo‘ladi (Andreeva, 2000; Goulman, 1997). Shu sababli bu kompetensiyani shaxsiy sifat sifatida emas, balki oilaviy va ijtimoiy rivojlanishning psixologik resursi sifatida o‘rganish dolzarbdir.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqot inson hayotidagi eng muhim psixologik jarayonlardan biridir. Chunki bola aynan oila muhitida o‘zining ilk ijtimoiy tajribasini oladi, nutq, his-tuyg‘u va munosabat shakllarini o‘rganadi. Ota-onaning farzand bilan qanday muloqotda bo‘lishi, unga nisbatan qanday ohangda gapirishi, uning fikriga qanday munosabat bildirishiga qarab bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch, o‘zini qadrlash hissi va ijtimoiy faollik shakllanadi. Muloqotda iliqlik, e’tibor va tushunish mavjud bo‘lsa, bola o‘zini xavfsiz his qiladi va bu holat uning ruhiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ota-onaning farzand bilan muloqotdagi xulq-atvori bolaga bevosita o‘rnak bo‘ladi. Bola atrofdagi insonlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni, qanday so‘z ishlatishni, nizolarni qanday hal etishni avvalo ota-onasidan o‘rganadi. Shu sababli ota-onalar o‘z nutq madaniyatiga, ovoz ohangiga, sabr va e’tibor darajasiga ahamiyat berishlari kerak. Kattalarning emotsional beqarorligi, qattiqqo‘lligi yoki

sovuqqonligi bola ongida salbiy iz qoldiradi. Bu esa keyinchalik uning ijtimoiy munosabatlarida, o‘qishida yoki kelajakdagi oilaviy hayotida muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati shundaki, u bolaning emotsional intellektini rivojlantiradi. Bola o‘z his-tuyg‘ularini tan olish, ularni nazorat qilish, boshqalar hissiyotini tushunish va ularga hamdard bo‘lishni o‘rganadi. Bu jarayon empatiya deb ataladi. Empatik muloqot mavjud oilalarda bolalar odatda o‘zgalarga nisbatan mehribon, e’tiborli, ijtimoiy faol va bag‘rikeng bo‘lib o‘sadi. D. Goulman tomonidan ilgari surilgan “emotsional intellekt” nazariyasiga ko‘ra, insonning hayotdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan uning emotsional va kommunikativ qobiliyatlariga bog‘liq.

Ko‘plab oilalarda farzandlar bilan muloqot faqat nazorat, tanbeh yoki buyruq tarzida kechadi. Bunday uslubda bola o‘z fikrini erkin ayta olmaydi, shuning uchun ichki norozilik hissi kuchayadi. Bu esa ota-onadan uzoqlashish, befarqlik, hatto konflikt holatlariga olib keladi. Shu sababli muloqot jarayonida bir tomonlama buyruq uslubidan ko‘ra, dialogik uslub — ya’ni o‘zaro fikr almashish, tinglash va tushunishga asoslangan yondashuv muhim hisoblanadi. Dialogik muloqot orqali ota-ona farzandini shaxs sifatida tan oladi, unga hurmat va ishonch bildiradi, bu esa bolada mas’uliyat, mustaqillik va o‘ziga ishonchni shakllantiradi.

Bundan tashqari, ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqot oiladagi psixologik iqlimning ko‘rsatkichidir. Agar oila muhitida tinchlik, o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat ustuvor bo‘lsa, bolalar o‘zlarini erkin his qiladilar. Agar oilada ko‘p hollarda janjal, tanbeh, e’tiborsizlik hukm sursa, bu bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi. U o‘zini qadrsiz his qiladi va bu hissiyot keyingi yillarda o‘zini tutishida, tengdoshlari bilan munosabatida yoki o‘qishdagi faolligida aks etadi.

Psixologlar ta’kidlashicha, muloqot jarayonida ota-onalar nafaqat so‘z bilan, balki o‘z xatti-harakati, nigohi, ovoz ohangi, tana tili orqali ham farzandiga ta’sir ko‘rsatadilar. Bolalar esa bu noverbal belgilarni juda sezgirlik bilan qabul qiladilar. Shu bois ota-onaning har bir ishorasi, ohangi yoki nigohi bolaning o‘zini tutishiga va hissiy holatiga ta’sir qiladi. Muloqotda samimiylik, mehr va hurmat mavjud bo‘lsa, bola o‘zini qadrlangan, tushunilgan deb his qiladi.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ kompetensiya masalasi psixologiya fanida alohida o‘rganiladigan muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu kompetensiya insonning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan bo‘lib, shaxsning his-tuyg‘ularni ifoda etish, boshqalarni tushunish va samarali muloqotga kirishish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ilmiy manbalarda “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi bir necha jihatdan talqin etiladi. Amerikalik lingvist Dell Xayms uni shaxsning tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri ishlata bilish qobiliyati deb izohlaydi. Keyinchalik bu tushuncha psixologiyada yanada kengaytirilib, insonning muloqot jarayonida o‘z fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oldi.

Lev Vygotskiy o‘zining madaniy-tarixiy nazariyasida bola rivojida muloqotning o‘rnini markaziy deb hisoblagan. Unga ko‘ra, bola tafakkuri va nutqining shakllanishi ijtimoiy muhit va kattalar bilan bo‘lgan muloqot orqali yuz beradi. Ya’ni ota-ona bola bilan muloqot qilarkan, nafaqat tilni, balki tafakkur uslublarini ham uzatadi. Bu jarayon “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bolaning intellektual o‘sishi aynan kattalar ko‘magida amalga oshadi. Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida esa bola hayotining har bir bosqichida ishonch, mustaqillik va tashabbus kabi sifatlar aynan ota-ona bilan muloqot jarayonida shakllanishi ta’kidlanadi. Masalan, erta bolalik davrida ota-onaning mehribon, e’tiborli va tushunuvchi munosabati bolada “ishonch” hissini paydo qiladi, bu esa keyinchalik ijtimoiy aloqalarda faol bo‘lishga zamin yaratadi. Aksincha, sovuq, e’tiborsiz yoki haddan tashqari nazoratli muhitda bola o‘ziga ishonchsiz, qo‘rquvli va passiv bo‘lib o‘sadi. A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasida esa muloqot inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ota-ona bilan muloqot bola uchun faqat hissiy tajriba emas, balki faoliyatni o‘rganish, o‘z harakatlarini boshqarish, ijtimoiy rollarni anglash vositasi sifatida ham muhimdir. Shu bois oiladagi muloqotning sifati bolaning o‘quv faoliyatida, ijtimoiylashuvida va kelajakdagi kasbiy yo‘nalishida ham muhim rol o‘ynaydi.

D. Goulman tomonidan ishlab chiqilgan “emotsional intellekt” nazariyasida esa insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalar hissiyotini tushunish, hamkorlikda ishlash, ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalari muloqot madaniyatining asosi sifatida ko‘rsatiladi. Emotsional intellektning asosi bolalikda, aynan ota-ona bilan bo‘ladigan emotsional muloqotda shakllanadi. Masalan, agar ota-ona bolani tinglay olsa, uning his-tuyg‘usini rad etmasdan, aksincha, tan olsa va tushunsa, bola o‘z hislarini to‘g‘ri ifoda etishni o‘rganadi. Bu esa keyinchalik sog‘lom kommunikativ kompetensiyaning poydevorini yaratadi.
Zamonaviy psixologiyada kommunikativ kompetensiya ijtimoiy-emotsional rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq deb qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-ona bilan iliq, qo‘llab-quvvatlovchi muloqotga ega bo‘lgan bolalar o‘z tengdoshlari bilan munosabatlarda ham muvaffaqiyatli bo‘lishadi. Ular o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladi, boshqalarni tinglaydi, konfliktlarni konstruktiv hal etadi.

Rossiyalik psixolog E. F. Fomina (2019) o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zaro ochiq muloqotga ega oilalarda farzandlarning ijtimoiy faolligi 68 foizga yuqori bo‘lgan, bu esa kommunikativ kompetensiya darajasining oilaviy muloqot sifati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘tkazilgan kuzatuvlar natijasida, ota-ona va farzand o‘rtasidagi ishonchli muloqotga ega bo‘lgan o‘quvchilarning 74 foizi o‘zini “tinglangan va qadrlangan” deb his qilganini bildirgan. Bu esa oila muhitidagi muloqot madaniyati farzandning o‘z-o‘zini baholashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ kompetensiya nafaqat muloqot ko‘nikmalarini, balki shaxsiy rivojlanish, hissiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va empatiya darajasini ham belgilaydi. Shu sababli bugungi kunda psixologik xizmatlar, tarbiyaviy dasturlar va pedagogik amaliyotlarda oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish darajasi so‘nggi yillarda psixologiya fanida chuqur o‘rganilayotgan muammolardan biridir. So‘nggi o‘n yillikda olib borilgan tadqiqotlar oilaviy muloqot sifati bilan bolalarning ruhiy holati, o‘z-o‘zini baholash darajasi va ijtimoiy moslashuvi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ kompetensiyaning psixologik mohiyati shundan iboratki, bu jarayon insonning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bola uchun muloqot nafaqat axborot almashish vositasi, balki hissiy, axloqiy va ijtimoiy tajriba manbaidir. Shuning uchun ota-ona va farzand o‘rtasidagi sog‘lom muloqot oiladagi psixologik iqlimning asosiy belgisi hisoblanadi. Ilmiy tahlillar va tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bola bilan iliq, ochiq va samimiy muloqot o‘rnatgan ota-onalar farzandida ishonch, o‘ziga baho berish, emotsional barqarorlik va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Aksincha, muloqotning yo‘qligi yoki uning sovuq, buyruqbozlik shaklida kechishi bola ruhiyatida befarqlik, xavotir va ichki chekinish holatlarini keltirib chiqaradi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida ota-ona o‘zining shaxsiy emotsional madaniyati, sabr-toqati, tinglash qobiliyati va empatiyasi orqali farzandga bevosita namuna bo‘ladi. Shuningdek, bola bilan suhbatlar faqat nazorat yoki tarbiyaviy ta’limot shaklida emas, balki o‘zaro hurmat va e’tirof asosida kechishi zarur. Chunki bola o‘zini tinglaydigan, tushunadigan va qadrlaydigan oilada voyaga yetsa, kelajakda boshqalar bilan ham sog‘lom muloqot o‘rnatishni o‘rganadi.

Umuman olganda, sog‘lom muloqot madaniyatini shakllantirish — bu uzoq davom etadigan, ammo natijasi eng barqaror bo‘lgan jarayondir. Kommunikativ kompetensiya bolaning nafaqat bugungi, balki kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatining kafolatidir. Ota-ona farzandini tinglashni, uni tushunishni va fikriga hurmat bilan qarashni o‘rgangan sari oila muhitida ishonch, mehr va hamjihatlik mustahkamlanadi. Shu tarzda, oiladagi muloqot jamiyatdagi sog‘lom munosabatlar madaniyatining poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L. S. Muloqot va tafakkur. — Moskva: Pedagogika, 1982. — 312 b.
2. Erikson E. H. Детство и общество. — Moskva: Progress, 1996. — 384 b.
3. Leontyev A. N. Faoliyat. Ong. Shaxs. — Moskva: Smysl, 2005. — 400 b.

4. Goleman D. Emotsional intellekt: Nima uchun u IQdan muhimroqdir. — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2021. — 368 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti. Oiladagi psixologik iqlim va kommunikativ madaniyat: Tadqiqot natijalari. — Toshkent, 2023. — 58 b.

6. Zokirova N. N. Oilaviy psixologiya asoslari. — Toshkent: Fan, 2017. — 224 b.

7. Jalolova M. S. Ota-ona va bola munosabatlarining psixologik tahlili. // "Psixologiya va hayot" ilmiy jurnali. — 2022. — №2. — B. 45–51.

8. Tursunov O. B. Oila psixologiyasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. — 180 b.

9. Pew Research Center. Parenting in the Modern World: Communication and Family Bonds. — Washington D.C., 2021. — 47 p.



Nazarov Azamat Sottarovich,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

NOANIQLIK SHAROITIDA MOSLASHUVCHAN LIDERLIK QAROR QABUL QILISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi tobora kuchayib borayotgan noaniqlik, murakkablik va tez o‘zgarishlar muhitida faoliyat yuritmoqda. Ushbu maqolada moslashuvchan liderlik tushunchasi noaniqlik sharoitida samarali qaror qabul qilishni ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik nazariya sifatida tahlil qilinadi. “Groupthink” (Janis, 1972), reflektiv tafakkur va emotsional barqarorlik nazariyalariga tayana turib, tadqiqot noaniqlikka toqat va ijtimoiy ta’sir omillarining rahbarlar qarorlariga ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqot doirasida O‘zbekistondagi 120 nafar universitet rahbarlaridan (prorektor, dekan va bo‘lim boshliqlari) ssenariyga asoslangan tajribalar va intervyular orqali ma’lumot to‘plandi. Natijalar shundan dalolat beradiki, noaniqlikka yuqori toqatga, fikr mulohaza qilish qobiliyatiga va fikr bildirishda ochiqlikka ega rahbarlar noaniqlik sharoitida moslashuvchanroq harakat qilishadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida qaror qabul qilish samaradorligini oshirishda ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: moslashuvchan liderlik, qaror qabul qilish, noaniqlik, reflektiv tafakkur, guruh fikri (groupthink), emotsional barqarorlik, oliy ta’lim.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АДАПТИВНОГО ЛИДЕРСКОГО ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЕННОСТИ

Аннотация. Современная система высшего образования функционирует в условиях растущей неопределенности, сложности и быстроменяющихся процессов. В статье рассматривается концепция адаптивного лидерства как психологическая модель, обеспечивающая эффективное принятие решений в условиях неопределенности. Опираясь на теории «группового мышления» (Janis, 1972), рефлексивного мышления и эмоциональной устойчивости, исследование анализирует, как толерантность

к неопределенности и социальное влияние формируют выбор лидеров. В исследовании приняли участие 120 руководителей университетов Узбекистана (проректоры, деканы и заведующие кафедрами), данные были собраны с помощью сценарных экспериментов и интервью. Результаты показали, что лидеры с высокой толерантностью к неопределенности, открытостью к обратной связи и способностью к рефлексии более эффективно адаптируются к изменчивым условиям. Исследование вносит вклад в понимание того, как социально-психологические механизмы могут повысить адаптивность и инновационность в управлении высшими учебными заведениями.

Ключевые слова: адаптивное лидерство, принятие решений, неопределенность, рефлексивное мышление, групповое мышление, эмоциональная устойчивость, высшее образование.

ADAPTIVE LEADERSHIP DECISION-MAKING UNDER UNCERTAINTY: A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PERSPECTIVE

Abstract. Uncertainty, complexity, and rapid change increasingly define today's higher education landscape. This paper examines adaptive leadership as a psychological framework that enables effective decision-making under uncertain and ambiguous conditions. Drawing on theories of groupthink (Janis, 1972), reflective thinking, and emotional resilience, the study evaluates how tolerance for ambiguity and social influence shape leaders' choices. Data were collected from 120 university managers in Uzbekistan using scenario-based experiments and interviews. Findings reveal that leaders with high ambiguity tolerance, openness to feedback, and reflective capacities adapt more effectively to uncertainty. The research contributes to understanding how social-psychological mechanisms can improve adaptive decision-making and institutional innovation in higher education management.

Keywords: adaptive leadership, decision-making, uncertainty, reflective thinking, groupthink, emotional resilience, higher education**.**

Kirish. Zamonaviy rahbarlik faoliyati harbiy strategiya va boshqaruv nazariyalarida "VUCA dunyosi" deb ataluvchi muhitda amalga oshiriladi. Bu atama tezkor o'zgarishlar (Volatility), noaniqlik (Uncertainty), murakkablik (Complexity) va ikkiyoqlama ma'nolilik (Ambiguity) bilan tavsiflanadigan vaziyatni anglatadi.

Oliy ta'lim sohasida rahbarlar raqamli transformatsiya, talabalarning o'sib borayotgan intizomli va ijodiy talablari, global raqobat, hamda pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlarini bir vaqtning o'zida boshqarishga to'g'ri kelmoqda. Bu sharoit an'anaviy ierarxik boshqaruvdan farqli ravishda, moslashuvchanlik, reflektiv tafakkur va emotsional intellektga asoslangan yangi rahbarlik uslubini talab qiladi.

O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar — tuzilmaviy markazsizlashtirish, natijalarga asoslangan boshqaruv va xalqarolashuvni o‘z ichiga oladi. Bu o‘zgarishlar ko‘pincha noaniqlikni kuchaytiradi, natijada rahbarlardan psixologik barqarorlik va strategik moslashuvchanlik talab qilinadi.

Shu sababli, ushbu maqola moslashuvchan liderlikning noaniq sharoitdagi faoliyatini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o‘rganadi. Asosiy e’tibor inson tafakkuri, hissiy holat va guruh dinamikasi kabi omillarning qaror qabul qilish jarayonidagi rolini ochib berishga qaratilgan.

Moslashuvchan liderlik konsepsiyasi (Heifetz, 1994) shundan dalolat beradiki, samarali rahbarlar texnik jihatdan aniq yechimi bo‘lmagan muammolarni hal etish uchun odamlarni safarbar qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Moslashuvchan rahbarlikdagi asosiy talab — bu egiluvchanlik, chidamlilik va doimiy o‘rganish qobiliyatidir. Ushbu sifatlar insonning kognitiv va emotsional mexanizmlariga chuqur bog‘liq. Shuning uchun moslashuvchan rahbarlarning noaniq sharoitda qaror qabul qilish xususiyatlarini anglash uchun bir nechta nazariy yo‘nalishlarning kesishuvini tahlil qilish zarur.

Gerbert Saymonning (Herbert Simon, 1947) “chegaralangan ratsionallik” nazariyasi yetakchilarning ma’lumotlar cheklangan va vaqt oz bo‘lgan vaziyatda qanday qaror qabul qilishini izohlaydi. U ideal yoki “komil ratsionallik” tushunchasidan farqli ravishda, rahbarlar “yetarlicha yaxshi” bo‘lgan qarorni tanlashini ta’kidlaydi. Bu — inson ongining chegaralangan imkoniyatlaridan kelib chiqadigan “saticfaysing” (satisficing) usulidir.

Oliy ta’limdagi noaniq muhitda bu holat quyidagicha namoyon bo‘ladi: ma’murlar axborot ko‘pligi, turli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi ziddiyatlar yoki tez o‘zgaruvchi siyosat sababli ko‘pincha intuitsiya yoki “tezkor fikrlash”ga tayanadi. Xatti-harakatlardagi bunday qiyinchiliklar bixevioralistik qaror qabul qilish nazariyasida (Kahneman & Tversky, 1979) tavsiflangan kognitiv og‘ishlar — yo‘qotishdan qo‘rqish (loss aversion), mavjud ma’lumotni ortiqcha baholash (availability heuristic) va yakka fikrga bog‘lanib qolish (anchoring) bilan izohlanadi.

Moslashuvchan liderlik ushbu kognitiv cheklovlarni yengish uchun o‘z-o‘zini kuzatish va fikrni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘z psixologik jarayonlarini nazorat qila oladigan rahbarlar yuqori darajadagi metakognitiv boshqaruvga ega bo‘ladi. Bu esa impulsiv qarorlarni kamaytiradi va strategik aniqlikni oshiradi.

Murakkablik nazariyasi (Stacey, 1996; Uhl-Bien & Marion, 2008) tashkilotlarni o‘zaro bog‘liq va dinamik tizimlar sifatida talqin etadi. Bunday tizimlarda qaror qabul qilish chiziqli emas, balki uzluksiz moslashuv va o‘zgarish jarayonidir. Oliy ta’lim muassasalari ham “murakkab moslashuvchan tizimlar” bo‘lib, ular professor-o‘qituvchilar, talabalar, siyosat va tashqi ta’sirlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar orqali rivojlanib boradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, moslashuvchan rahbarlik "sensemaking" — ya'ni noaniq belgilarni talqin etish, umumiy tushunishni shakllantirish va jamoaviy harakatni yo'naltirish jarayonini o'z ichiga oladi (Weick, 1995). Bu jarayonda rahbarning kognitiv va hissiy qobiliyatlari juda muhim ahamiyatga ega.

Murakkablik va psixologiya nazariyalarining uyg'unligi shunga ishora qiladiki, noaniqlikdan qo'rqish emas, balki undan foydalanish innovatsiya manbai bo'lishi mumkin. Noaniqlikni tahdid emas, imkoniyat sifatida qabul qiladigan rahbarlar miyaning izlanish va ijodiy fikrlash tizimini faollashtiradi, bu esa kreativlik va proaktiv qaror qabul qilishni kuchaytiradi.

Nazariy asoslar. Moslashuvchan liderlik konsepsiyasi (Heifetz, 1994) shundan dalolat beradiki, haqiqiy samarali rahbarlar odamlarni texnik jihatdan tayyor yechimi mavjud bo'lmagan muammolarni hal etish uchun safarbar qiladi. Moslashuvchan rahbarlikdagi eng muhim xususiyatlardan biri — bu egiluvchanlik, chidamlilik va doimiy o'rganish qobiliyatidir. Ushbu sifatlar inson tafakkuri va hissiy jarayonlarining psixologik mexanizmlariga chuqur bog'langan. Shuning uchun moslashuvchan rahbarlar noaniq sharoitda qanday qaror qabul qilishini to'liq anglash uchun bir nechta nazariy yo'nalishlarning o'zaro bog'liq jihatlarini tahlil etish zarur.

Gerbert Saymonning (Herbert Simon, 1947) "chegaralangan ratsionallik" (bounded rationality) nazariyasi haligacha qaror qabul qilish jarayonini izohlashda asosiy ilmiy asos sifatida qolmoqda. Ushbu nazariyaga ko'ra, insonlar ideal sharoitda "komil ratsional" qaror qabul qilmaydilar, chunki ularning axborotni qayta ishlash qobiliyati chegaralangan, vaqt va ma'lumot yetarli emas. Shu bois, rahbarlar "yetarli darajada yaxshi" (satisficing) deb baholanadigan qarorni tanlaydilar.

Oliy ta'lim tizimidagi noaniq muhitda chegaralangan ratsionallik quyidagicha namoyon bo'ladi: ma'murlar ortiqcha axborot yuki, ziddiyatli manfaatlar yoki tez o'zgarayotgan siyosiy qarorlar sababli ko'pincha intuitsiya yoki evristik fikrlashga suyanadilar. Bixevioralistik qaror qabul qilish nazariyasi (Kahneman & Tversky, 1979) bu jarayonni yanada chuqurroq tushuntiradi va inson ongida sodir bo'ladigan tizimli og'ishlar — "yo'qotishdan qo'rqish" (loss aversion), "mavjudlik evristikasi" (availability heuristic) va "yakor ta'siri" (anchoring bias) kabi holatlarni tavsiflaydi. Bu kognitiv og'ishlar insonning ratsional fikrlashini buzadi va strategik qarorlarning ob'ektivligini kamaytiradi.

Moslashuvchan liderlik mazkur kognitiv cheklovlarni yengish uchun psixologik ogohlikni rivojlantiradi, ya'ni rahbarni o'z fikrlari, hissiyotlari va reaksiyalarini kuzatishga o'rgatadi. O'zini kuzata oladigan va ichki jarayonlarini anglaydigan rahbarlar yuqori darajadagi metakognitiv nazoratga ega bo'ladi — bu esa "o'z fikrlashini boshqarish qobiliyati"ni anglatadi. Bunday rahbarlar impulsiv (hissiyotga berilgan holdagi) qarorlardan qochadi va strategik ravshanlikka erishadi.

Murakkablik nazariyasi (Complexity theory) (Stacey, 1996; Uhl-Bien & Marion, 2008) tashkilotlarni dinamik, o'zaro bog'liq va o'z-o'zidan

tashkillanuvchi tizim sifatida talqin etadi. Bu nazariyaga ko‘ra, tashkilotdagi qaror qabul qilish chiziqli jarayon emas, balki uzluksiz moslashuv va qayta yo‘nalish amaliyotidir. Ya’ni rahbarlar ma’lumot, muhit va munosabatlar o‘zgarishiga qarab o‘z qarorlarini doimiy ravishda qayta baholaydi va moslashtiradi.

Oliy ta’lim muassasalari — “murakkab moslashuvchan tizimlar” bo‘lib, ular professorlar, talabalar, ma’muriyat, davlat siyosatlari va tashqi manfaatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar orqali rivojlanadi. Bu tizimdagi har bir o‘zgarish boshqalarga ta’sir qiladi, natijada butun tizim qayta moslashuvga majbur bo‘ladi. Shuning uchun moslashuvchan liderlik “sensemaking” (Weick, 1995) — ya’ni noaniq belgilarni tahlil qilish, vaziyatni ma’noli anglash, jamoaviy tushunish va birgalikda harakat qilish jarayonini qamrab oladi.

Bu nuqtai nazardan kelib chiqib, moslashuvchan liderlikning psixologik va murakkab tizim nazariyasi o‘rtasidagi uyg‘unligi shunga ishora qiladiki, noaniqlikni tahdid sifatida emas, balki innovatsiya uchun imkoniyat sifatida qabul qilish lozim. Noaniqlikdan qo‘rqmaydigan, aksincha, uni qiziqish va izlanish bilan qabul qiladigan rahbarlar miyaning “izlovchi tizimini” faollashtiradi, bu esa ijodiy fikrlash va tashabbuskor qaror qabul qilish jarayonlarini kuchaytiradi

Ijtimoiy-psixologik omillar. Ijtimoiy psixologiya noaniqlik sharoitida rahbarlar va jamoalarning o‘zini tutishiga oid muhim tushunchalarni taqdim etadi. Irving Janisning “groupthink” (guruh fikri) modeli (Janis, 1972)ga ko‘ra, jamoa ichidagi kuchli birdamlik va rahbarning avtoriteti ko‘pincha tanqidiy fikrlarni so‘ndirib, fikr xilma-xilligini yo‘qotadi. Bu esa kelishuv illyuziyasiga, xatoliklarni ko‘rmaslikka va natijada noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Moslashuvchan rahbarlar bunday vaziyatda “psixologik xavfsizlik” muhitini yaratish orqali groupthink’ning salbiy ta’sirini kamaytiradilar. “Psixologik xavfsizlik” (Edmondson, 1999) deganda jamoa a’zolari o‘z fikrini erkin bildirishi, tanqidiy mulohazalarni aytishi va xatolardan qo‘rqmasdan faol ishtirok etishi mumkin bo‘lgan ish muhiti nazarda tutiladi. Bu muhit jamoaviy ijodkorlikni, ochiq muloqotni va qaror qabul qilishdagi shaffoflikni rag‘batlantiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy ta’sir nazariyasi (Cialdini, 2001) ham rahbarlik jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu nazariyaga ko‘ra, insonlar noaniq muhitda boshqalarning xatti-harakatlariga ko‘proq e’tibor qaratadi va ularning fikriga ergashishga moyil bo‘ladi. Masalan, “ijtimoiy dalil” (social proof) yoki “avtoritet ta’siri” (authority bias) sababli odamlar ko‘pchilikning yoki rahbarning fikrini avtomatik ravishda to‘g‘ri deb qabul qilishlari mumkin. Bu holatda moslashuvchan liderlik jamoa a’zolarining mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydi, qaror qabul qilish jarayonida tanqidiy tahlil va konstruktiv mulohazani rag‘batlantiradi.

Moslashuvchan rahbarlikda muhim ijtimoiy-psixologik jarayonlardan biri — bu “jamoaviy refleksiya (collective reflection)”dir. Ushbu jarayonda rahbar va jamoa a’zolari amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qiladilar, muvaffaqiyat va kamchiliklarni birgalikda muhokama qiladilar. Bu nafaqat tajribadan o‘rganishga yordam beradi, balki jamoa ichidagi ishonch va o‘zaro anglashuvni mustahkamlaydi.

Emotsional intellekt (Goleman, 1995) moslashuvchan liderlikning hissiy asosini tashkil etadi. Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan rahbarlar stressni samarali boshqara oladi, hamdardlik (empatiya) ko‘rsata oladi va o‘z hissiyotlarini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bunday rahbarlar noaniq vaziyatlarda voqelikni to‘g‘riroq talqin qiladilar, bosim holatlarida ham xotirjamlikni saqlaydilar va shoshma-shoshar qarorlar qabul qilish ehtimolini kamaytiradilar.

Psixologik barqarorlik (resilience) emotsional intellektni to‘ldiruvchi sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik barqaror rahbarlar noaniqlik va muvaffaqiyatsizlik holatlaridan tez tiklanish, sabot bilan harakat qilish va motivatsiyani saqlab qolish qobiliyatiga egadirlar (Luthans, 2002). Ular “kognitiv qayta baholash” (cognitive reappraisal) strategiyalaridan foydalanadilar, ya’ni muammoni xavf sifatida emas, balki imkoniyat sifatida ko‘ra oladilar. Bu esa optimizm va ijobiy energiyani saqlab qolishga yordam beradi.

Oliy ta’lim islohotlari jarayonida bunday barqarorlik ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Sababi, o‘zgarishlarga nisbatan qarshilik ko‘rsatish, xodimlar o‘rtasidagi norozilik yoki ishonchsizlik moslashuvchan rahbarning strategik yondashuvini sinovdan o‘tkazadi. Psixologik barqarorlik va emotsional intellekt yetarli bo‘lmagan rahbarlar bunday vaziyatda ko‘pincha stressga tushib, beqaror qarorlar qabul qiladi.

Shuningdek, Donald Shyonning (Donald Schön, 1983) “refleksiv amaliyotchi” (reflective practitioner) konsepsiyasi ham moslashuvchan qaror qabul qilishni tushunishda muhim nazariy tayanch hisoblanadi. Ushbu g‘oyaga ko‘ra, samarali rahbarlar faqat voqeadan keyin emas, balki faoliyat jarayonining o‘zida ham fikr yuritish va o‘z harakatlarini tahlil qilish qobiliyatiga egadirlar. “Amaldagi refleksiya” (reflection-in-action) rahbarlarga vaziyat davomida strategiyasini tez o‘zgartirish, xatolarni tuzatish va yangi ma’lumot asosida qaror qabul qilish imkonini beradi.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, refleksiya metakognitiv kuzatuvni kuchaytiradi — ya’ni insonning o‘z fikrlash jarayonlarini anglashi va nazorat qilishi. Bu yechimlarning aniqligini, axloqiy anglashuvini va qaror qabul qilishdagi mas’uliyatni oshiradi. Nazarov (2023) tomonidan O‘zbekistonda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, reflektiv fikrlash stress va qaror samaradorligi o‘rtasida vositachi rolini o‘ynaydi: muntazam ravishda fikr yuritishni odat qilgan rahbarlar emotsional barqarorlikni saqlab, tahliliy aniqlikka erishgan.

Tadqiqot metodologiyasi va natijalari. Tadqiqotda jami 120 nafar oliy ta’lim muassasasi rahbarlari — prorektorlar, dekanlar va kafedra mudirlari ishtirok etdilar. Ular O‘zbekistonning turli universitetlaridan tanlab olingan bo‘lib, namuna tarkibi rahbarlik tajribasi va lavozim turiga ko‘ra xilma-xil bo‘lishini ta’minlash uchun tuzilgan.

Tadqiqotda ssenariyga asoslangan eksperimental metod qo‘llanildi. Ushbu metod orqali ishtirokchilarga noaniq vaziyatlarni aks ettiruvchi uchta real hayotiy ssenariy taqdim etildi:

1. Budjetning kutilmagan tarzda qisqarishi**,**

2. Yangi raqamli platforma joriy etilishi**,**

3. Fakultet jamoasi ichidagi shaxsiy nizo.

Har bir ssenariyda ishtirokchilardan vaziyatga mos qaror qabul qilish so‘raldi. Ularning kognitiv, hissiy va ijtimoiy reaksiyalari psixologik shkalalar orqali baholandi.

Qo‘llanilgan psixologik instrumentlar quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- Noaniqlikka toqat shkalasi (Tolerance for Ambiguity Scale, Budner, 1962) — ishtirokchining noaniqlikka nisbatan sabr-toqat darajasini o‘lchaydi.
- Reflektiv tafakkur so‘rovnomasi (Reflective Thinking Questionnaire) — shaxsning fikr yuritish va o‘z xatti-harakatlarini anglash qobiliyatini baholaydi.
- Groupthinkga moyillik indeksi (Groupthink Susceptibility Index) — jamoaviy qarorlarda konformizm va bir xil fikrga moyillik darajasini aniqlaydi.

Shuningdek, chuqur intervyular orqali sifat jihatdan ham ma’lumot yig‘ildi. Bu usul orqali ishtirokchilarning hissiy tajribalari, stress darajasi va qaror qabul qilishdagi ichki mulohazalari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari moslashuvchan rahbarlikning asosiy psixologik mexanizmlarini ochib berdi.

1. **Noaniqlikka yuqori toqat darajasi** rahbarlarning noaniq muhitdagi ishonchini va ijodkorligini kuchaytirdi. Bunday rahbarlar qaror qabul qilishda bir yo‘nalishgagina emas, bir necha alternativ variantlarga ham e’tibor qaratishdi. Ular fikr bildirishda ochiq bo‘lib, jamoa a’zolarining fikrini ham inobatga olishga intilishdi.

2. **Refleksiya** impulsiv yoki qo‘rquvga asoslangan qarorlarning oldini oluvchi muhim bufer sifatida namoyon bo‘ldi. Reflektiv fikrlashga moyil rahbarlar stressni yaxshiroq boshqara oldilar va o‘z jamoalarida ishonch muhitini saqlab qoldilar. Ular qabul qilgan qarorlar axloqiy va kontekstual jihatdan aniqroq bo‘ldi.

3. **Groupthink ta’siri** jamoaviy qarorlarning sifatini jiddiy ravishda chekladi. Konformizmga moyil jamoalarda fikr xilma-xilligi yo‘qoldi va qarorlar ko‘pincha noto‘g‘ri yo‘nalishda qabul qilindi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash va psixologik xavfsiz muhitni ta’minlagan rahbarlar moslashuvchanroq va ilmiy asoslangan qarorlarga erishdilar.

Bu natijalar Irving Janis (Janis, 1972) va A.Nazarov hamda O.Mitina (Nazarov & Mitina, 2023)ning ilmiy xulosalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu mualliflar fikricha, jamoada fikr xilma-xilligini so‘ndirish (dissent suppression) dinamik tizimlarda moslashuvchanlikning pasayishiga olib keladi.

Jami natijalardan kelib chiqadiki, moslashuvchan rahbarlik oliy ta’lim muassasalarida qaror qabul qilishning sekin, lekin chuqur fikrlashga asoslangan, hamkorlikda amalga oshiriladigan shaklini ilgari suradi. Bu model rahbarlarning kreativligi, kognitiv moslashuvchanligi va stressga chidamliligini kuchaytiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori darajada noaniqlikka toqat va reflektiv fikrlashga ega bo‘lgan rahbarlar o‘zgariyotgan muhitga tezroq moslashishadi, ilmiy dalillarga tayangan qaror qabul qilishadi va jamoa a’zolarining ishonchini saqlab qolishadi.

Xulosa. Moslashuvchan liderlik — bu noaniqlikni samarali boshqarish uchun psixologik o‘zini anglash, ijtimoiy ochiqlik va kognitiv moslashuvni uyg‘unlashtiruvchi jarayondir. U qaror qabul qilishni statik va ierarxik amaliyatdan dinamik, o‘rganishga asoslangan jarayonga aylantiradi.

Bu model rahbarlikda doimiy o‘rganish, tahlil qilish va qayta moslashish tamoyillarini ilgari suradi. Moslashuvchan lider o‘z jamoasini noaniqlikni tahdid sifatida emas, balki imkoniyat sifatida qabul qilishga o‘rgatadi. Bunday yondashuv jamoaviy ishonchni, ijodkorlikni va innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, moslashuvchan liderlik oliy ta’lim tizimidagi islohotlar davrida strategik ahamiyat kasb etadi. Bu model nafaqat tashkilotlarning samaradorligini oshiradi, balki ularning barqarorligi va ilmiy yangilanish salohiyatini ham kuchaytiradi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar kontekstida, moslashuvchan liderlik rahbarlar uchun psixologik jihatdan asoslangan, barqaror transformatsiya modelini taklif etadi. U rahbarga qiyin qarorlarni qabul qilishda hissiy barqarorlik, refleksiya va ijtimoiy anglashuv orqali amaliy yechim topish imkonini beradi.

Shu bois, moslashuvchan liderlik faqat boshqaruv uslubi emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning yangi psixologiyasini ifodalaydi.

Tavsiyalar.

1. Oliy ta’lim rahbarlari uchun moslashuvchan liderlik modullarini amaliy ta’lim dasturlariga kiritish. Bu modullar psixologik o‘zini anglash, emotsional intellekt va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

2. Reflektiv amaliyotni rag‘batlantirish. Jurnal yuritish, tengdosh tahlil (peer learning) sessiyalari va guruh mulohazalarini tashkil etish orqali rahbarlarning fikr yuritish qobiliyatini oshirish tavsiya etiladi.

3. Ochiq muloqot va fikr xilma-xilligi madaniyatini shakllantirish. Tashkilotda psixologik xavfsiz muhit yaratish, jamoa a’zolarining erkin fikr bildirishi va konstruktiv bahslarga sharoit yaratish muhim. Bu groupthink ta’sirini kamaytiradi va qaror sifatini oshiradi.

4. Simulyatsiya va ssenariy asosidagi treninglarni joriy etish. Noaniq vaziyatlarni modellashtiruvchi amaliyotlar rahbarlarning real sharoitdagi moslashuvchanligini kuchaytiradi. Bu usul orqali ular xavfsiz muhitda noaniqlikka javob berish strategiyalarini sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar.

5. Psixologik barqarorlik va stressni boshqarish bo‘yicha doimiy mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish. Bu rahbarlarda emotsional ustuvorlikni ta’minlab, noaniq muhitda uzoq muddatli strategik fikrlashni rivojlantiradi.

Moslashuvchan liderlik – bu faqat rahbarlik uslubi emas, balki inson ongi, hissiyoti va ijtimoiy munosabatlarining yangi bosqichidir. U noaniqlikni bartaraf etishga emas, balki undan foydalanishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv oliy ta’lim tizimida innovatsion madaniyatni rivojlantirish, guruhda ishonchni mustahkamlash

va rahbarlarning shaxsiy samaradorligini oshirish uchun zamonaviy psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov, A. S., & Mitina, O. V. (2023). Specific Aspects of Decision-Making by a Leader in a Situation of Uncertainty and Stress. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 3(10), 435-441.
2. Nazarov, A. S. (2021). Socio-psychological and Organizational Characteristics of Decision-Making in Management. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(2).
3. Heifetz, R. A. (1994). Leadership Without Easy Answers. Harvard University Press.
4. Kahneman, D. (2011). Thinking, Fast and Slow. Farrar, Straus and Giroux.
5. Janis, I. L. (1972). Victims of Groupthink. Houghton Mifflin.
6. Schwartz, B. (2004). The Paradox of Choice: Why More Is Less. Harper Perennial.



Aliyeva Kamola Saidnegmatovna,
«University of Management and future technologies» universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR: NAZARIY ASOSLAR VA INNOVATSION DIDAKTIK YECHIMLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada psixologiya fanlarini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanish mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi. Konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, kognitiv pedagogika, neyropedagogika, flipped-class modeli, STEAM integratsiyasi va raqamli psixodiagnostika kabi zamonaviy ta’lim yo‘nalishlarining psixologiya ta’limi samaradorligiga ta’siri asoslab beriladi. Tadqiqotda mahalliy va xalqaro ilmiy manbalarga tayangan holda, psixologiya ta’limini modernizatsiya qilishning dolzarb yo‘nalishlari, didaktik yechimlari hamda pedagogik innovatsiyalarni joriy etishning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: psixologiya ta’limi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, konstruktivizm, kompetensiya, kognitiv pedagogika, neyropedagogika, flipped-class, STEAM, raqamli psixodiagnostika, innovatsion ta’lim texnologiyalari.

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ И ИННОВАТSIОННЫЕ ДИДАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

Аннотация. В статье представлен научный анализ современных педагогических подходов, применяемых при преподавании психологических дисциплин. Рассматриваются теоретические основы конструктивистской, компетентностной, когнитивной и нейропедагогической парадигм, модели «перевернутый класс», STEAM-интеграции, а также цифровой психодиагностики. На основе отечественных и зарубежных исследований

раскрываются ключевые направления модернизации психологического образования, дидактические решения и преимущества использования инновационных методик в формировании профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: психологическое образование, современные педагогические подходы, конструктивизм, компетентностный подход, когнитивная педагогика, нейропедагогика, перевернутый класс, STEAM, цифровая психодиагностика, инновационные образовательные технологии.

MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES IN TEACHING PSYCHOLOGY: THEORETICAL FOUNDATIONS AND INNOVATIVE DIDACTIC SOLUTIONS

Abstract. This article provides a scientific analysis of modern pedagogical approaches used in the teaching of psychology. It examines the theoretical foundations of constructivist, competency-based, cognitive, and neuro-pedagogical frameworks, as well as the flipped-classroom model, STEAM integration, and digital psychodiagnostics. Drawing on national and international scholarly sources, the study highlights key directions in the modernization of psychology education, innovative didactic solutions, and the advantages of implementing advanced educational technologies to enhance students' professional competencies.

Keywords: psychology education, modern pedagogical approaches, constructivism, competency-based approach, cognitive pedagogy, neuro-pedagogy, flipped classroom, STEAM, digital psychodiagnostics, innovative educational technologies.

XXI asrda ta'lim tizimida kechayotgan global o'zgarishlar psixologiya fanlarini o'qitish metodologiyasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Jahon psixologik ilmiy maktablarining (amerika, yevropa, rossiya, o'zbek) yutuqlari, ta'limni raqamlashtirish tendensiyalari, neyrobiologiya va kognitiv fanlar integratsiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ilmiy asosda qayta shakllanishiga olib keldi.

Psixologiya ta'limi — bu faqat nazariy bilimlar tizimi emas, balki talabaning kognitiv faolligi**,** empatiyasi**,** diagnostik qobiliyati**,** inson bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks jarayondir. Ushbu maqolaning aktualligi shundaki, psixologiya fanlarini o'qitishda qo'llanilayotgan modellar va metodlar zamonaviy pedagogik paradigmalar asosida ilmiy tahlil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", PF–60, PQ–174, Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ta'lim mazmunini yangilash, fanlar integratsiyasi, innovatsion yondashuvlar va raqamli psixologiyani joriy etishga alohida e'tibor qaratadi.

Maqolaning maqsadi — psixologiya ta'limida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlarni nazariy jihatdan yoritish va ularning didaktik ahamiyatini tadqiq qilish.

Psixologiya ta'limida zamonaviy pedagogik paradigmalarning nazariy asoslari.

Konstruktivizm nazariyasi va uning psixologiya ta'limidagi o'rni.

Konstruktivistik yo'nalish Piaje, Bruner, Vigotskiy ishlariga asoslanib, bilim subekt tomonidan faol ravishda yaratilishini ta'kidlaydi. Psixologiya darslarida konstruktivizm quyidagi nazariy asoslarga tayanadi:

– Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi;
– Piaje kognitiv rivojlanish bosqichlari;
– Brunerning spiral ta'lim modeli.

Bu yondashuv talabalarning mustaqil psixologik fikr yuritish, voqealarni interpretatsiya qilish va psixologik hodisalar o'rtasidagi bog'liqliklarni topish qobiliyatini shakllantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv va psixologik tayyorgarlik modeli.

Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim Yevropa (EQF), Rossiya (FGOS), O'zbekiston Oliy ta'lim kvalifikatsiya ramkalarining asosiy talablaridan biriga aylandi. Psixologiyada asosiy kompetensiyalar:

– kognitiv (tahlil, sintez, baholash);
– kommunikativ (empatiya, faol eshitish, muloqot);
– amaliy (diagnostika, korreksiya, konsalting);
– etik (tarbiyaviy va professional me'yorlarga amal qilish).

Tahlillar ko'rsatishicha, kompetensiyaviy model psixologiya ta'limida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'lash imkonini yaratadi.

Kognitiv psixologiya asosida o'qitish.

Kognitiv fanlar (Neisser, Anderson, Mayer, Kahneman) inson idroki, diqqat, xotira va fikrlash jarayonlarini o'rganadi. Psixologiya ta'limida kognitiv yondashuv quyidagi nazariy mezonlarga tayanadi:

– bilim uzoq xotiraga kodlanishi uchun material qisqa bloklarga bo'linishi;
– vizual-verbal integratsiya (dual coding theory, Paivio);
– kognitiv yuklama nazariyasi (Sweller);
– emotsional komponentlarning motivatsiyaga ta'siri.

№	Nazariy mezon	Ilmiy asos (mualliflar)	Psixologiya ta'limida qo'llanilishi
1	Qisqa bloklarga bo'lib o'qitish (microlearning)	Mayer (2021), Anderson (2015)	Ma'ruza materiallari 7–12 minutli qismlarga ajratiladi, diqqatni ushlab turish ortadi
2	Vizual-verbal integratsiya (Dual Coding Theory)	Paivio (1990)	Intellekt-kartalar, sxemalar, grafiklar orqali materialni kodlash
3	Kognitiv yuklama nazariyasi	Sweller (2011)	Materialni bir vaqtda 3–4 ta asosiy g'oya bilan taqdim etish; og'ir yukni kamaytirish

№	Nazariy mezon	Ilmiy asos (mualliflar)	Psixologiya ta'limida qo'llanilishi
4	Emotsional komponentning motivatsiyaga ta'siri	Kahneman (2011), Neisser (1986)	Dars boshida emotsional aktivatorlar (qiziqarli fakt, korotkiy keys) qo'llash

1-jadval

Neyropedagogika va psixologik ta'lim integratsiyasi

№	Neyropedagogik asos	Ilmiy manba	Dars jarayonida amaliy qo'llanilishi
1	Miyaning plastikligi (Neuroplasticity)	Hebb (1949)	Yangi ko'nikmalarni takrorlab mashq qilish; refleksiya bloklari
2	Stress va amigdala ta'siri	Blakemore (2020)	Darsda xavfsiz emotsional muhit yaratish; "soft start" mashqlari
3	Emotsional intellekt nazariyasi	Salovey & Mayer (1990), Goleman (1995)	EQ treninglari, empatik eshitish mashqlari
4	Neyrofidbek va biofidbek	Siegel (2012), Immerman (2021)	Talabalarda stress-nizoni monitoring qilish, o'z-o'zini boshqarish mashqlari

2-jadval

Neyropedagogik yo'nalish Bleykmor, Goulman, Sigel, Immerman ishlarida rivojlandi. Psixologiya fanlari uchun neyropedagogika quyidagi nazariy asoslarga ega:

– miyaning plastikligi (Hebb's rule);
– stress va amigdala ta'siri;
– emotsional intellekt nazariyalari (Salovey & Mayer, Goleman);
– neyrofiziologik fidbek (biofeedback, neurofeedback).

Neyropedagogika yoshga doir psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda darslarni individuallashtirishga yordam beradi.

Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar

Flipped-klass modelining nazariy asoslari

№	Yo'nalish	Auditoriyadan oldingi faoliyat	Auditoriyada amalga oshiriladigan faoliyat
1	Teoriyani o'zlashtirish	Video-leksiya, maqola, prezentatsiya	Savol-javob, mulohaza sessiyasi
2	Amaliy ko'nikma	Onlayn topshiriq, mini-case	Rolli o'yinlar, trening
3	Mustaqil tafakkur	On-demand videolar	Muzokara, keys yechimi
4	Diagnostika	Test bilan tanishish	Testni kollektiv tahlil qilish

3-jadval

Flipped-klass (Bishop & Verleger, 2013) ta'limda konstruktorlik va mustaqil o'rganishni rag'batlantiradi. Psixologiyada bu usul talabalarga darsga tayyor holda kelib, auditoriya vaqtida:

– treninglar;
– eksperimental topshiriqlar;
– keys tahlillari;
– guruh dinamikasini o‘rganish imkonini beradi.

STEAM va psixologik ta’lim integratsiyasi

STEAM ta’limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) psixologiyada quyidagi yo‘nalishlarda o‘z aksini topadi:
– psixometrik ma’lumotlarni statistik tahlil qilish (SPSS, JAMOVI);
– art-terapiya va dizayn fikrlash;
– sensor integratsiya va motor rivojlanish modellari;
– raqamli laboratoriyalar bilan ishlash.

№	STEAM komponenti	Amaliy yo‘nalish	Natijaviy ko‘nikma
1	Science	Psixofiziologiya, sensor integratsiya	Ilmiy tahlil, eksperiment qila olish
2	Technology	SPSS, VR, raqamli testlar	Texnologik savodxonlik, raqamli kompetensiya
3	Engineering	Psixometrik modellar, test konstruktorlari	Test ishlab chiqish, shkalalash
4	Arts	Art-terapiya, dizayn fikrlash	Kreativlik, emotsiya bilan ishlash
5	Mathematics	Statistik tahlil, korrelyatsiya, regressiya	Tadqiqotchilik, analitik tafakkur

4-jadval

Raqamli psixodiagnostika va virtual o‘quv muhiti

So‘nggi tadqiqotlar (Hermann, 2021; OECD, 2020) raqamli psixodiagnostikaning samaradorligini isbotlamoqda. Psixologiya ta’limida virtual muhit quyidagi afzalliklarni beradi:
– onlayn testlar (MBTI, Big Five, AQ, EQ);
– VR asosida stress testlari;
– Moodle, HEMIS, Google Classroom orqali modulli o‘qitish.

№	Yo‘nalish	Aniq misol	Ta’limda beradigan afzallik
1	Onlayn testlar	Big Five, MBTI, STAI	Tezkor diagnostika, foydalanuvchiga moslashuv
2	VR-ssenariylar	Stress Simulation VR	Real vaziyatni xatarsiz modellash
3	LMS platformalar	Moodle, HEMIS	Modulli yondashuv, avtomat baholash
4	Simulyatsiyalar	Group-dynamics simulator	Guruh dinamikasini amaliyotda o‘rganish

5-jadval

Amaliy yo‘nalish: psixologiyani o‘qitishda trening va diagnostik metodlar

Muammoli ta’lim va keys-metodlar

Keys texnologiyalari Dewey, Kolb, Schön konsepsiyalariga asoslanadi. Ular psixologiyada quyidagi vazifalarni bajaradi:

– real hayotiy psixologik vaziyatlarni modellash;

– talabaning tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish;

– etik qarorlarga keltirish;

– rolli o‘yinlar orqali empatiyani oshirish.

№	Nazariy asos	Mualliflar	Amaliy qo‘llanilishi
1	Tajribaviy o‘qitish (Experiential learning)	Kolb (1984)	Standart vaziyat + tahlil + refleksiya
2	Muammo asosida o‘qitish (Problem-based learning)	Dewey (1916)	“Vaziyat–muammo–taklif–chiqish” modeli
3	Refleksiv pedagogika	Schön (1983)	Guruh refleksiyasi, dnevnik yuritish
4	Etik qaror modellari	Rest (1994)	Etik dilemmalarni muhokama qilish

6-jadval

Psixodiagnostik metodikalarni o‘qitishda innovatsion yondashuv

Talabalarga test va shkalalarni o‘rgatishda qo‘llaniladi:

– klassik psixometrika (Cronbach alpha, validity, reliability);

– proektiv metodlar: “Daraxt”, “Oila”, “Tog‘ va Men”;

– funksional holatlarni baholash (SACS, STAI, Luscher).

№	Metodika turi	Ilmiy asos	Amaliy maqsad
1	Klassik psixometrika	Cronbach, Spearman	Ishonchli test tuzish, validlik
2	Proektiv testlar	Corman, Koch	Shaxsiy dinamika va emotsional holatni tahlil
3	Funksional holat testlari	Luscher, Spielberger (STAI)	Stress, xavotir, emotsional holat o‘lchash
4	Raqamli shkalalar	Hermann (2021)	Onlayn monitoring, tezkor baholash

7-jadval

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ilmiy tahlili ularning psixologik ta’limdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Jumladan:

– konstruktivizm talabalarda metakognitiv faollikni rivojlantiradi;

– kognitiv yondashuv materialni uzoq xotirada mustahkamlaydi;

– empatik pedagogika inson bilan ishlashga yo‘naltirilgan professional kompetensiyalarni shakllantiradi;

– raqamli muhit o‘quv jarayonini individuallashtiradi.

Biroq muammolar ham mavjud: o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalarga tayyorligi, laboratoriyalar yetishmasligi, neyropedagogika bo‘yicha metodik qo‘llanmalar kamligi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning psixologiya ta’limidagi o‘rni va ahamiyati yuzasidan olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, flipped-klass modeli, STEAM integratsiyasi, empatik va neyropedagogik paradigmalarning joriy etilishi psixologiya fanlarini o‘qitish sifatini sezilarli darajada yuksaltirish imkonini beradi. Birinchi navbatda, konstruktivistik yondashuv talabalarda metakognitiv faollik, mustaqil fikr yuritish va psixologik hodisalarni ilmiy interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa psixologiya ta’limida nazariy bilimlarning mexanik o‘zlashtirilishidan chuqur ma’naviy-mantiqiy o‘zlashtirish bosqichiga o‘tish imkonini yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi psixolog mutaxassis uchun zarur bo‘lgan amaliy kasbiy ko‘nikmalar – psixodiagnostika, konsalting, psixologik maslahat, guruh bilan ishlash, etik qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni real ta’lim jarayonida rivojlantirishga zamin yaratadi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan oliy ta’limni modernizatsiya qilish siyosatida belgilab berilgan vazifalar – amaliyotga yaqinlashtirilgan ta’lim, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadlariga to‘liq mos keladi.

Flipped-klass modeli va raqamli platformalardan (Moodle, HEMIS, Google Classroom) samarali foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash hamda auditoriya vaqtida trening, psixologik tajriba va keys tahlillarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani tabiatan amaliyotga yo‘naltirilgan sohalardan biri bo‘lgani uchun, ushbu modellar talabalarning real vaziyatlarda qaror qabul qilish, mulohaza va tahlil qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

STEAM integratsiyasining psixologiya ta’limida qo‘llanilishi, xususan, statistik tahlil, art-terapiya, sensor integratsiya, dizayn fikrlash va neyrofiziologik tadqiqotlar kabi yo‘nalishlarda ko‘p funksiyali o‘quv muhitini yaratadi. Zamonaviy tendensiyalardan biri sanalgan neyropedagogik yondashuv esa talabalarning yoshga doir rivojlanish dinamikasini, kognitiv yuklama darajasini va emotsional holatlarining o‘qish samaradorligiga ta’sirini hisobga olgan holda ta’limni individuallashtirish imkonini beradi.

Raqamli psixodiagnostika va virtual laboratoriyalar (VR-ssenariylar, onlayn testlar, simulyatsiyalangan holatlar) psixologiya ta’limida yangi bosqichni ifoda etadi. Ushbu texnologiyalar orqali talabalar faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy psixodiagnostik ko‘nikmalarni ham real vaqtda rivojlantirishi mumkin. Bu esa psixologlarning raqamli kompetentligini kuchaytirish, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ushbu innovatsion texnologiyalarni joriy etish tahlili qator muammo va vazifalar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Jumladan, pedagoglarning

raqamli va innovatsion yondashuvlarga tayyorlik darajasi, metodik qo‘llanmalar yetishmasligi, psixodiagnostik laboratoriyalarning texnik jihatdan ta’minot muammolari, ta’lim muhitining psixologiyaga xos jihatlarini inobatga olgan holda modernizatsiya qilinish ehtiyoji dolzarb hisoblanadi. Bularni bartaraf etish maqsadida, ilmiy-amaliy tadqiqotlar sonini ko‘paytirish, xalqaro tajribani lokal sharoitga moslashtirish, psixologik ta’limda standartlashtirilgan innovatsion modulyar dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Xulosa sifatida, zamonaviy pedagogik yondashuvlar psixologiya fanlari mazmunini boyitish, talabalarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda oliy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida ushbu texnologiyalarni kompleks tarzda, tizimli yondashuv asosida tatbiq etish nafaqat ilmiy-pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ–60 фармони, 2022.
2. Олий таълимни ривожлантириш концепцияси, 2020.
3. Абдуллаева, Ш. *Umumiy psixologiya*. — Тошкент: Innovatsion Ziyo, 2015.
4. Абдурахмонова, Р. Rivojlanish psixologiyasi. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2016.
5. Толипов, О., Усмонов, Б. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. — Тошкент: Noshir, 2017.
6. Қодиров, Б. Psixologiya asoslari. — Тошкент: Istiqlol, 2018.
7. Жуманиёзова, М. Yosh davrlar psixologiyasi. — Тошкент: Fan nashriyoti, 2019.
8. Халилова, Г. Ijtimoiy psixologiya. — Тошкент: Ma’naviyat, 2019.
9. Тошпўлатова, Ш. Kognitiv psixologiya asoslari. — Тошкент: Universitet, 2020.
10. Усмонова, Д. Psixodiagnostika va psixometrik tahlil. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2020.
11. Қурбонова, М. Talabalarda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish metodlari. — Тошкент: Navro‘z, 2021.
12. Эркабоев, Ш. Pedagogik psixologiya. — Тошкент: Universitet, 2022.
13. Алиева, К. Psixologiya ta’limida innovatsion yondashuvlar. — Тошкент: UMFT nashriyoti, 2023.
14. Қудратова, Ф. O‘smirlik psixologiyasi. — Тошкент: Fan, 2024.

G'oyibnazarov Rahmatilla,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ISLOMDA AYOLLARNING ILM OLISHIGA MUNOSABAT VA UNING GENDER JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada islom dini va falsafasida musulmon kishining ilmli bo'lishi, uning fazilatlari, xususan ayollarning bilimli bo'lishi o'z farzandi va jamiyatning ma'rifiy yuksalishiga ta'siri, mazkur jarayonning gender xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: din, islom, islom falsafasi, ilm, fan, ayol, gender.

ОТНОШЕНИЕ К ОБУЧЕНИЮ ЖЕНЩИН В ИСЛАМЕ ЕЕ ГЕНДЕРНЫЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. В статье анализируется вопрос об обучении мусульманина в исламской религии и философии, его качества, в частности, влияние обучения женщин на воспитание детей и просвещение общества. Также освещены гендерные свойства данного вопроса.

Ключевые слова: религия, ислам, исламская философия, образование, наука, женщина, гендер.

THE ATTITUDE TO THE EDUCATION OF WOMEN IN ISLAMIC AND ITS GENDER ASPECTS

Annotation. The article analyzes the matter of a Muslim person's education in Islam religion and philosophy, its features, in particular, the influence of educated women on children upbringing and the rise of enlightenment of the society. The gender features of this process are also enlightened.

Keywords: religion, Islam, Islamic philosophy, education, science, woman, gender.

Islom dinida ayolning sha'ni, qadr-qimmati yuksak darajaga ko'tariladi. Qur'oni Karimning 35 ta sura va 100 ta dan ortiq oyatida "ayol" so'zining ishlatilishi va suralardan birining aynan "Niso", ya'ni "Ayollar" deb nomlanishi va unda ayolning mavqei, hayotdagi o'rni, haq-huquqlarining batafsil bayon etilishi ayollarga bo'lgan e'tiborning yorqin misolidir. Islom dini ayolga to'laqonli inson sifatida qarash masalasini o'rtaga qo'yadi. Shuningdek, ayol kishi erkak kishidek haq-huquqqa ega ekanligini e'lon qiladi. Qur'oni Karim musulmonlarni ilmga chaqirish bilan birga, Rasulullo sollallohu alayhi vasallam ham ularni doimo ilmga targ'ib qilganlar. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning fikricha, "har bir insonning oliy maqsadi – jannat. Unga erishish uchun inson har bir

narsaga, har qanday qiyinchiliklarga tayyor turadi. Ilm talab qilish esa jannat yo‘liga tushishning boshi ekan... Oyati karima va hadisi shariflarda zikri kelgan ilmdan murod barcha foydali ilmlar bo‘lib, ularga qilingan va’dalarga iymon va ixlos bilan uringan mo‘min-musulmonlar albatta erishadilar”[1;66- 67]. Islomda ilm talab qilish har bir musulmon uchun beshikdan to qabrgacha farz qilingan. Demak, islom dini ilm olishda ayollarga erkaklardek teng huquq va imkoniyatni yaratib bergan. Alloh taoloning kalomida bir necha ilm talab qilishga targ‘ib oyatlar bor. Ularda ilm talab qilish faqatgina erkaklarga xoslanmagan, balki musulmonlarning erkagu ayoliga tegishlidir. Rasululloh sollallohu alayhi va olihi vasallam ham ilm talabi haqida aytgan hadislarida bu faqatgina erkaklarga xos deya ta’kidlamaganlar. “Ilm talabi har bir musulmon uchun farzdir”, deyiladi Muslim rivoyat qilgan hadisi sharifda. Ushbu sahih hadisda bir necha manfaatlar bor bo‘lib, ulardan bizning mavzumizga tegishlisi esa, matndagi “muslim”, ya’ni, “musulmon” lafzidir[2].

Musulmon lafzi ham erkak va ham ayolga ishlatiladi. Ulamolarimiz qiz bolalar va ayollar uchun zaruriy ilmlar o‘qishi farz ekaniga ittifoq qilishgan. Ayniqsa, ayollarga xos bo‘lgan ishlar, masalan, tug‘ruqxona, ayollarning xos kiyimlari savdosi, ayollarga doir turli davolash ishlari ayollar bo‘lmasa, imkonsiz. Bu ilmlarni ayollar o‘qib-o‘rganishi esa turli ixtiloflarga munosib yechim bo‘ladi. Ammo bunga bir necha shartlar ham mavjud. Masalan, erkaklar bilan yolg‘iz qolmasligi, ular bilan hojatsiz yaqin munosabatlarda bo‘lmaslik va hokazo. Ya’ni qizlarimiz va ayollarimiz ilm olishlari joiz, ammo ular bu o‘qishlar sababli har xil zino va unga chaqiruvchi va kelajakda hayotini izdan chiqaradigan holatlardan o‘ta ehtiyot bo‘lishlari lozim. Zero, Abul Hasan Movardiyning “Dunyo va din odobi” kitobida ishtiyoqmandlar qiziqadigan narsaning eng sharaflisi, izlovchilar qattiq jiddu jahd ila intiladigan narsaning eng afzali hamda inson qo‘lga kiritadigani va hosil qiladigan narsalarning foydalisi ilmdir.

Chunki ilm sharifi o‘z egasiga foyda keltiradi, uning fazilati ilm oluvchi darajasini ko‘taradi[3.36]. Ilm fazilatini faqat johillargina anglamas. Chunki bu fazilat ilm tufayli bilinadi. G‘arbda ayollarning teng huquqliligi (feminizm) uchun olib borilgan uzoq kurashlar ayollarga baxt-saodat, hurriyat, oilaviy farog‘at o‘rniga cheksiz kulfat, baxtiqarolik, onalik saodatidan mosuvolik va ho‘rlik olib kelganini hech kim inkor eta olmaydi. Bir vaqtlar asosiy vazifasi uy-ro‘zg‘or ishlari-yu farzand tarbiyasi va erlarini baxtiyor qilishdan iborat bo‘lgan ayollar hozirgi zamonda jamiyatning, oilaning barcha tashvish va muammolariga erlari bilan baravar mas’ul, javobgar bo‘lib qolishdi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘z onasi tarbiyasini olgan, uning g‘amxo‘rligi, shafqatini har qadamda his etib turgan bolalar onalari butunlay o‘zlarini jamoat ishiga baxshida qilib, farzandlaridan uzilib qolgan onalarning bolalariga qaraganda sog‘lom, aqlli, tarbiyali va ko‘ngilchan bo‘lib ulg‘ayishar ekan. AQShda qamalganlarning yarmidan ko‘pi ona mehriga to‘ymagan yoshlar bo‘lgan. Bugungi onalar uchun bola tarbiyasi jamiyat va ro‘zg‘or yumushlari oldida ahamiyatsiz narsa bo‘lib qolmoqda. Ayollarga har qancha huquq berilmasin,

ular qanchalik yuksak maqomlarga erishmasinlar, agar bolalariga yaxshi tarbiya bermasalar, ularga o‘zini, millatini, dinini, vatanini tanitmasalar va sevdirmasalar, onalik, ayollik haqqini ado etmagan bo‘lishadi. Zero, Islom olimlaridan biri aytganiday, «Avlodlarni voyaga etkazish va munosib inson qilib tarbiyalash maqsad qilib olinmagan nikoh shunchaki bir aysh-ishrat va maishatdan bo‘lak narsa emas. Bu nikohdan kelgan bolalar ham oniy o‘tkinchi hirsning qurboni bo‘lgan bechoralardir». G‘arb mutaxassislari va ayollar hurriyati tarafdorlari ta’na qilayotganlariday, Islom ayollarni ijtimoiy hayotda ishtirok etishdan hech qachon cheklamagan. Hudaybiya sulhida mo‘minlar onasi, Rasulullohning zavjai mutohharalari Ummu Salama davlat boshlig‘ining bosh maslahatchisiga teng vazifani bajarganlar. Musulmon o‘lkalarida muslimalarning jamiyatda yuqori o‘rinlarni egallab, hatto davlat va hukumatga boshchilik qilganlari va qilayotganlari haqida misollar ko‘p. Ayollardan mashhur olimalar, sarkardalar, siyosatdonlar, boshqaruv idoralari rahbarlari etishib chiqmoqda. Islom dinining bag‘rikenglik tamoyilini quyidagi yondashuvdan ko‘rishimiz mumkin: Abu Zarr roziyallohu anhuning oldiga bir odam kelib, “Men ilm o‘rganishni xohlayman, lekin olgan ilmimga amal qilmay, uni zoe qilib qo‘yishdan qo‘rqaman”, dedi. Abu Zarr roziyallohu anhu unga: “Johil bo‘lib yurganingdan ilmli bo‘lishing yaxshiroq”, deb javob berdilar[4.142]. Umuman olganda, o‘rta asrlar islom olami ilm olishga kuchli ehtiyoj sezgan va o‘sha davrda islom dini ehtiyojni o‘zining ilmga rag‘bati, undovi bilan ta’minlab bergan.

Islom ayollarning bilim olishlariga to‘g‘anoq bo‘ladi, degan tuhmatlarning ham umri qisqa bo‘lib chiqdi. Rasulullohning (s.a.v.) pokiza zavjalari Hazrati Oishaning (r.a.) Islom olamidagi eng ulug‘ fiqh va hadis olimasi bo‘lganlarining o‘ziyoq ana shu ig‘vo-uydirmalarni parday to‘zg‘itib yuboradi. Rasulullohdan (s.a.v.) Mo‘minlar onasi Oisha (r.a.) Rasulullohdan (s.a.v.) jami 2610 hadis rivoyat qilib, bu borada oldingilardan bo‘lganlar. Shogirdlari Urva ibn Zubayrning e’tiroficha, Qur’on, hadis, fiqh, halol-harom, arab tarixi va nasabshunoslik, adabiyot kabi sohalarda bu zotga teng keladigan olim bo‘lmagan. Hazrati Oishaning ayollardan sakson sakkiz shogirdlari bo‘lgan. Rasuli akramning yana bir zavjalari Ummu Salama esa o‘ttiz ikki nafar mashhur muhaddis ayolni etishtirganlar. Mashhur faqiha va muhaddisalardan Robi’a binti Muavvad, Ummu Atiyya, Umra binti Abdurahmon, Ummu Salamaning qizlari Zaynab, Ummu Abud-Dardo, Fotima binti Qays kabi o‘nlab olimalarning nomlari Islom olamida ma’lumu mashhur bo‘lgan. Sayyida Nafisa Imom Shofe’iydek ulug‘ olim va mazhab boshiga ustozlik qilgan.

Islom dini og‘ir, sermehnat ishlarni erkaklarga farz qilgan. Lekin maktab, shifoxona, tug‘ruqxona, chevarlik korxonalarida ayollarga tegishli ba’zi ishlar borki, ularda ishlash bilan ayollar erlar qatori savobga erishishadi. Hanafiy mazhabi faqihlaridan Ibn Obidin shunday degan: «Shuni bilish foydaliki, qaysi bir ish ayolni erning haqqini ado etishdan cheklasa, bu xil ishlar man qilinishi kerak. Ammo zarar keltirmaydigan ishni man etishda ma’no yo‘q. Shuningdek, bu ish doyalik, tikuvchilik, muallimalik, tarbiyachilik kabi farzi kifoyalardan bo‘lsa, buni

ham man etish to‘g‘ri emas»[5;91].Ayol, erkak azaldan bir tanadan,bir ruhdan yaratilgan, demakkim ayol ham erkak singari bir xil haq-huquqqa teng va egadir. Muqaddas Kitoblarda ham ayol va erkak bir xil teng huquqligi ochiqdan-ochiq qayta-qayta takrorlanib kelinganligini ko‘p o‘qiganmiz. Gender tenglik – bu, azaldan bor va bo‘lgan g‘oya hisoblanadi. Erkakdagi bor kuch-quvvat, matonat, sabr va ko‘plab fazilatlar ayol atalmish hilqatga ham berilgan, Gender tenglikni hamma har xil talqin etadi. Ayol va erkakning kuchi bir xil, oiladagi o‘rni baravar, topar- tutari baravar, degan noto‘g‘ri fikrlar ham yo‘q emas. Aslida gender tenglik deganda haq-huquqlarning jamiyatdagi o‘rni tengligi kabilar nazarda tutiladi. Insonning fitratiga qarab emas, uning xatti- harakatlari, o‘zini hayotda qanday rol bajarishi bilan baho beriladi. Misol uchun, o‘g‘il bola tug‘ilsa onada o‘g‘il bola sutining kuch miqdori qiz bola tuqqan ona sutiga qaraganda ikki baravar ko‘p va kuchli bo‘ladi, demak, erkak jismonan baquvvat bo‘lishi uning fitratida bo‘lsa-da erkakning haq-huquqi ayolnikiga qaraganda ikki marta ko‘p yoki ikki marta kuchli deganimas.

Xulosa qilib aytganda, islom dini barcha insonlarni ilm olishga chaqiradi. Chunki islom ilm dinidur. Ilm olishda ayollarning huquqlari erkaklarniki bilan tenglashtirilgan. Islom ta’limotida ayollar ham ilm olishga, ijtimoiy hayotda faol fuqaro sifatida faoliyat yuritishiga ruxsat berilgan. Shuningdek, gender tengligi O‘zbekistondagi barcha ayol- qizlarning jamiyatdagi, oiladagi, qolaversa. boshqa sohalarda ham huquqiy savodxonligini oshirishda ko‘makchi, zo‘ravonliklarning oldini olishda ko‘makchi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. –T.: “HILOL-NASHR” nashriyoti. 2019.
2. https://azon.uz/content/views/hotin-qizlarning-oliy-talim-olishi-qanchalik tog‘ri
3. Movardiy, Abul Hasan. Dunyo va din odobi. –T.: ‘’Hilol-Nashr”, 2017.
4. Honiy al-Haj. Solihlar gulshani. –T.: “Hilol-Nashr”. 2021.
5. Fotima Sulaymon qizi. Ayollarga xos masalalar. –T.: Movarounnahr, 2003.

Ismoilova Gulhayo Kamol qizi,
Turon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kaferdasi v.b. dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MA'NAVIY QIYOFA VA IJTIMOIY QIYOFA: MOHIYATI HAMDA O'ZARO BOG'LIQLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonning ma'naviy qiyofasi tushunchasi, uning hissiy va aqliy tarkibiy jihatlari, shuningdek, ijtimoiy qiyofa bilan dialektik bog'liqligi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Ma'naviy qiyofa shaxsning ongi, fazilatlari, ruhiy jarayonlari hamda ma'lumot va e'tiqodlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqilib, u insonning ijtimoiy faoliyati va jamiyat bilan o'zaro munosabatini belgilovchi asosiy omil ekanligi yoritiladi. Shuningdek, ma'naviy va ijtimoiy qiyofaning farqlovchi hamda uyg'un jihatlari, hissiyot, kechinma, kayfiyat, tasavvur kabi ruhiy holatlar shaxsning ma'naviy rivojidagi o'rni misollar bilan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy qiyofa, ijtimoiy qiyofa, ma'naviyat, hissiyot, kechinma, kayfiyat, tasavvur, e'tiqod, ruhiy jarayon, shaxs rivoji, qadriyatlar, bilim, iroda, fazilatlar, xislatlar.

ДУХОВНЫЙ ОБРАЗ И СОЦИАЛЬНЫЙ ОБРАЗ: ИХ СУЩНОСТЬ И ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ

Аннотация. В статье на научно-теоретической основе анализируется понятие духовного образа человека, его эмоционально-ментальные структурные аспекты, а также его диалектическая связь с социальным образом. Духовный образ рассматривается как совокупность сознания, качеств, психических процессов человека, а также информации и убеждений, и подчеркивается, что он является основным фактором, определяющим социальную активность человека и его взаимодействие с обществом. Также на примерах раскрываются отличительные и гармоничные аспекты духовного и социального образа, роль таких психических состояний, как эмоции, переживания, настроения, воображение, в духовном развитии человека.

Ключевые слова: духовный образ, социальный образ, духовность, эмоция, опыт, настроение, воображение, вера, духовный процесс, личностное развитие, ценности, знания, воля, качества, черты.

SPIRITUAL IMAGE AND SOCIAL IMAGE: THEIR ESSENCE AND INTERDEPENDENCE

Abstract. This article analyzes the concept of a person's spiritual image, its emotional and mental structural aspects, as well as its dialectical connection with the social image on a scientific and theoretical basis. The spiritual image is

considered as a set of a person's consciousness, qualities, mental processes, as well as information and beliefs, and it is highlighted that it is the main factor determining a person's social activity and interaction with society. Also, the distinguishing and harmonious aspects of the spiritual and social image, the role of such mental states as emotions, experiences, moods, imagination in the spiritual development of a person are revealed with examples.

Keywords: spiritual image, social image, spirituality, emotion, experience, mood, imagination, belief, spiritual process, personal development, values, knowledge, will, qualities, traits.

Kirish. Ma'naviyat inson shaxsining eng muhim, barqaror va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli qirrasini ifodalaydi. U nafaqat jamiyatning ma'naviy hayotida, balki shaxsning ruhiy kamoloti, aqliy yetukligi va axloqiy mezonlarini shakllantirishda ham asosiy omil hisoblanadi. Shaxsning ma'naviy qiyofasi — bu uning ichki dunyosini, ongi bilan faoliyatining birligini, insoniy fazilatlar, xislat va xosiyatlar majmuasini ifodalovchi murakkab tushunchadir. Mazkur tushuncha insonning nafaqat o'z-o'ziga, balki jamiyat, tabiat va mavjud ijtimoiy tuzumga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida shaxsning ma'naviy qiyofasini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki jamiyatning barqaror rivoji insonning ma'naviy barkamolligi, e'tiqodi va ruhiy mustahkamligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan ma'naviy qiyofa va ijtimoiy qiyofa o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni tadqiq etish shaxsning to'laqonli rivojini, uning ijtimoiy faoliyatidagi muvaffaqiyat omillarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — ma'naviy qiyofa tushunchasining mohiyatini ochib berish, uning hissiy va aqliy jihatlarini tahlil qilish, shuningdek, ijtimoiy qiyofa bilan o'zaro bog'liqligini ilmiy-nazariy asosda yoritishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida falsafiy, psixologik va sotsiologik yondashuvlar, shuningdek, mavzuga doir adabiy manbalar tahlili asosiy metod sifatida qo'llanildi.

Nazariy tahlil. Jamiyat ma'naviyatining mazmun-mohiyatini anglash uchun "ijtimoiy ong" tushunchasiga murojaat qilish zarur bo'ladi. Ma'lumki, "ijtimoiy ong – bu kishilarning tabiat hodisalari va ijtimoiy voqelik haqidagi bilim va tasavvurlari yig'indisi bo'lib, jamiyat tomonidan yaratilgan tabiiy va sun'iy tilda, ma'naviy madaniyat mahsullarida, ijtimoiy normalarda, ijtimoiy guruhlar, xalqlar va insoniyatning turli qarashlarida o'z ifodasini topadi". Bu bilim va tasavvurlar turli sohalarga – siyosat, huquq, axloq, din, falsafa, fan, san'atga va boshqalarga daxldor bo'lishi mumkin – bularning barchasi ijtimoiy ong shakllari deyiladi. Ijtimoiy ong shakllari jamiyatda turfa ijtimoiy funksiyalarni bajaradilar. Shuningdek, ijtimoiy ong o'zining kundalik va nazariy darajalariga egaligi, kundalik daraja – ijtimoiy ruhiyatda, nazariy daraja – ijtimoiy mafkurada o'z ifodasini topishi ta'kidlanadi.

Biroq tasavvur va bilimlar, g'oya va ta'limotlar hamma vaqt ham ijobiy xususiyatga ega bo'lavermaydi, ular turkumida salbiy mazmunga egalari ham

uchrab turadi – ba'zida masalaning bu tomoni diqqatni tortmaydi. Ijtimoiy ong jamiyat potensialini tashkil etuvchi bilimlarni ham, ijtimoiy manfaatlar va insonparvarlik tamoyillariga mos bo'lmagan bilimlarni ham o'zida mujassam qiladi. Ijtimoiy ong tarkibidan joy olgan va pozitiv xarakterga ega bo'lgan bilim va tasavvurlar yig'indisi ma'naviyatni tashkil qiladi. Inson va jamiyat manfaatlari va taraqqiyoti, hoy-u havaslari va orzu-umidlariga xizmat qilmaydigan bilim, g'oya, ma'naviyat emas va bo'lishi ham mumkin emas. Binobarin, ma'naviyat ijtimoiy ong sinonimi emas, uning pozitiv tomoni ifodasidir. Shuni nazarda tutgan holda ma'naviyat bilan bog'liq muammolarni mahorat bilan tadqiq qilgan olimlardan biri A.Erkayev shunday deb yozadi: "Ma'naviyat tushunchasi juda keng qamrovli va murakkabdir. Ma'naviyatga ijtimoiy ong, dunyoqarash, e'tiqod, din, diniy amaliyot, milliy g'oya, milliy mafkura, insonning odobi, axloqiy fazilatlari, badiiy, ilmiy va boshqa ijodiy izlanishlari, bu borada erishgan yutuqlari, jamiyatning asrlar osha kelayotgan osori-atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlari, zamondoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari-yu ijobiy ma'nodagi orzu-havaslari va rejalari daxldordir".

"Ma'naviyat" tushunchasini insonga nisbatan qo'llaganda, "ma'naviy qiyofa" tushunchasi ishlatiladi. "Ma'naviy qiyofa insonning insoniyligini, uning ongi bilan faoliyatining birligini xarakterlovchi barcha ijobiy insoniy fazilatlar, xislatlar, xosiyatlar yig'indisi bo'lib, insonning insonga, insonning tabiatga, insonning jamiyatga, o'zi yashayotgan ijtimoiy tuzumga, o'sha jamiyatda mavjud bo'lgan huquqiy-axloqiy normalarga, talablarga, prinsiplarga, qoidalarga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi". Mazkur fazilat, xislat va xosiyatlar inson borlig'iga yaxlitlik, barqarorlik ato etadi, uning hayotiy faoliyatiga muayyan yo'nalish baxsh qiladi. Xuddi shuning uchun ham I.Karimov inson ma'naviyati, ma'naviy qiyofasi haqida gapirganda uning "insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni" ekanligini ta'kidlagandi.

Birinchi tushuncha ikkinchisiga qaraganda hajman torroq hisoblanadi. "Insonning ma'naviy qiyofasi" tushunchasi "insonning ijtimoiy qiyofasi" tushunchasida mujassamlashgan voqelikning ma'lum bir qismini o'zida aks ettiradi. Insonning ijtimoiy qiyofasi esa insonning ma'naviy qiyofasini xarakterlovchi insoniy fazilatlar, xislatlar, xosiyatlar bilan birga uning tashkilotchilik, ishbilarmonlik, uddaburonlik qobiliyatlari, professional kasb-kor malakalari, ruhiy-psixologik o'ziga xosligini ifodalovchi... xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi".

Inson ma'naviy qiyofasining dastlabki jihati uning hissiyoti bilan bog'liq. "Inson organizmi tashqi muhitga yo'naltirilgan eksteroretseptiv tizimga (ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, teri yordamida sezish; teri sovuq, issiq, og'riq va bosimni his qilish qobiliyatiga ega) va organizmning ichki fiziologik holatiga doir signallar bilan bog'liq interoretseptiv tizimga ega". Ushbu tizimlar sharofati bilan turli tuyg'ular vujudga keladi. Tuyg'ular – muayyan obyekt holati va

xususiyatlarining ruhiy in'ikosidir. Inson tuyg'ulari uning ruhiyatida turli jarayonlarga turtki beradi. Ana shunday ruhiy jarayonlar turkumiga inson kechinmalari va kayfiyati kiradi. Publitsistik manbalarda aksariyat hollarda "tuyg'u" va "kechinma" tushunchalari sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladi. Aslida bunday emas. Tuyg'u, biz ta'kidlaganimizdek, obyekt holati va xususiyatlarining ruhiy in'ikosi bo'lsa, kechinmalar ushbu obyektlarga insonning subyektiv munosabati ifodasidir. Kayfiyat esa insonning ma'lum paytdagi ruhiy holatini ifodalaydi. Shaxs ma'naviy qiyofasining yana bir elementi – tasavvurlar ham tuyg'ular ta'sirida shakllanadi. Inson tuyg'ulari naqadar boy va yorqin bo'lsa, uning turli obyektlar, hodisalar, jarayonlar haqidagi tasavvurlari ham shu qadar mufassal hamda keng bo'ladi. Kechinma va kayfiyat esa mazkur tasavvurlarga muayyan mazmun, xarakter baxsh etadi. Obyektlarni ko'rish, ularning tovushini eshitish, ta'mini va hidini bilish tuyg'ulari, o'z ruhiy holatini ilg'ash bilan bog'liq kechinmalar shaxs ma'naviy dunyosining hissiy asosini yuzaga keltiradi.

Inson ma'naviy qiyofasining aqliy jihatiga keladigan bo'lsak, shaxs o'zlashtirgan ma'lumotlar, uning bilimlari va e'tiqodidan tarkib topadi. Ma'lumot – shaxs o'zlashtirgan axborot, fakt va argumentlar majmuidir. U shaxsning u yoki bu sohalardan xabardorligi darajasidan dalolat beradi. Inson hayoti davomida ko'plab ma'lumotlarni o'zlashtiradi, biroq ularning hammasi ham bilimga aylanavermaydi. Mantiqan asoslangan, haqqoniyligi aniqlangan va tushuncha, mulohaza va xulosalarda o'z aksini topgan ma'lumotlar negizidagina bilimlar vujudga keladi. Ayni paytda bilimlar shaxs e'tiqodini shakllantiruvchi mustahkam poydevordir. Har qanday bilim e'tiqod darajasiga ko'tarilishi uchun shaxs tomonidan chuqur anglab yetilishi, uning ishonchini qozonishi hamda amaliyotda, hayotiy faoliyatda qo'llanilishi darkor. Faqat shunday bilimlargina inson e'tiqodiga aylanishga qodirdir. "E'tiqod ma'naviyatning eng asosiy ustunlaridan biridir. U ma'naviyatga mushtaraklik va jipslik bag'ishlaydi. Uning turli tarkibiy qismlarini o'zaro birlashtiradi va ma'naviyatni amaliyotga bog'laydi. E'tiqod ma'naviyatning mohiyatini ochib beruvchi tushunchalardan biridir".

Ma'naviy qiyofaning sifatiy jihati inson fazilat va xislatlaridan tarkib topadi. Bu o'rinda masalaning bir tomoniga e'tiborni qaratib o'tmoq kerak: ommaviy axborot vositalaridagi ko'plab maqolalarda "inson sifatlari" tushunchasiga murojaat qilinadi. Bir qarashda, buning xatolik tomoni yo'q: boshqa narsa va hodisalar kabi inson ham muayyan belgilarga ega, albatta. Biroq ilmiy-tadqiqot ishlarida "sifat" termini insonning jismi, tanasiga nisbatan ishlatiladi. Uning ma'naviy dunyosi xususiyatlarini ifodalash va bayon etishda esa "fazilat" va "xislat" tushunchalaridan foydalaniladi. Ayni paytda ushbu terminlarning o'zi ham bir-biridan mazmunan farqlanadi. Fazilat inson shaxsini ifodalovchi, xislat esa uning individualligini, boshqalardan ajratib turuvchi jihatlarini ko'rsatuvchi tushunchadir. Masalan, halollik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, samimiylik, saxiylik, vatanparvarlik – bular inson fazilatlaridandir. Yaxshilik qilishga moyillik, farosatlilik, o'zgalar fikrini tez uqib olish kabilar esa xislatlar turkumiga kiradi. Fazilat va xislat shaxs ma'naviy qiyofasini ifodalovchi tushunchalar bo'lsa,

ularning antonimi bo‘lmish illat inson ma’naviy dunyosining tanazzuli darajasini ko‘rsatadi.

Shaxs ma’naviy qiyofasi o‘zining aksiologik jihatiga ham ega. Xususan, inson ma’naviy dunyosida qadriyatlar alohida o‘rin tutadi. “Kundalik hayotda, ko‘pchilik nazarida narsalar (masalan, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar), tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an’ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, odamlar o‘zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallariga ham “qadriyat” tushunchasini qo‘llaydilar”. Inson qadriyatlari tizimining eng oliy elementi ma’naviy idealdir. Ma’naviy ideal insonni mukammallikka, yaratuvchanlikka, ijodkorlikka undab turadigan, uning hayotiy faoliyatini muayyan maqsadga yo‘naltiradigan namuna, oliy qadriyatdir. U shaxsning boshqa qadriyatlari hamda mukammallik haqidagi tasavvurlari negizida vujudga keladi. Eng tiyrak orzular, ushalishi intiqlik bilan kutilayotgan umidlar aslida undan ildiz oladi. Hayotiy mo‘ljallar, maqsad-muddaolar aniqlashgani, mufassallashganidan so‘ng orzu va umidlar muayyan shamoyil kasb qiladi.

Nihoyat shaxs ma’naviy qiyofasining so‘nggi jihati uning irodasi va ma’naviy jur’atini o‘z ichiga oladi. “Iroda avvalo insonning muayyan maqsad tanlay bilish va unga erishish uchun o‘zida kerakligicha ichki kuch hamda tashqi imkon topa olish qobiliyatidir. Iroda aqldan va hissiyotdan shunisi bilan farq qiladiki, uning uchun maqsadga nisbatan “men xohlayman” qabilidagi kechinmalar emas, balki “kerak”, “shunday qilishim shart” singari munosabat xos”. Had, jur’at ham mustahkam irodaning evazidir. Ma’naviy jur’at – to‘siqlardan qat’i nazar belgilangan muddaoga intilish haddidir. Faqat chuqur bilimlar, yuksak fazilat va xislatlarga ega bo‘lgan, o‘z qadriyatlarini mufassal bilgan, ma’naviy ideali shakllangan, irodasi mustahkam va benazir shaxsgina muayyan maqsad sari intilishga ma’naviy jur’at eta oladi.

Shunday qilib, shaxs ma’naviy dunyosi sir-sinoatlarga to‘la, anglab yetish mushkul bo‘lgan olam sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, “ma’naviy qiyofa inson ongi va faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning mustahkamligi holati, ishonchliligi darajasini ham ifodalaydi.” Boshqacha aytganda, insonning ma’naviy qiyofasi uning faoliyatida yorqin namoyon bo‘ladi. Xususan:

- shaxs ichki olamini tashkil etgan neki tuyg‘u bor, neki ruhiy holat bor, u o‘zlashtirgan neki ma’lumot va bilim bor, qadr-qimmat kasb qilgan neki fenomen bor, jur’atga aylangan neki had bor – bularning barchasi uning kundalik xulqida, yurish-turishi, xatti-harakatida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy hayotning ushbu elementlari shaxs kundalik faoliyatiga sifat va yo‘nalish baxsh qiladi. Demak, xulq – ma’naviy qiyofaning o‘ziga xos ko‘zgusidir;
- ma’naviy dunyo Vatanga munosabatning asl sababchisidir. Vatanga muhabbat, uning manfaatlari yo‘lidagi fidoyilik ham undan kelib chiqadi. Vatanparvar Vatan manfaatlarini yaxshi biladi, ularni qondirish yo‘lida jonbozlik

qiladi. Vatanga, uning manfaatlariga e'tiborsizlik ma'naviy qiyofa shakllanishidagi nuqsonlardan dalolat beradi;

- ma'naviy qiyofa insonning o'z kasbiga munosabatida namoyon bo'ladi. Kasb hamisha odam bolasining ichki dunyosi xossalariga hamohangdir. U shaxsning ma'naviy o'ziga xosliklari asosida tanlanadi. Kasb-kor talablarining ado etilishi me'yorini ham ma'naviy qiyofa belgilaydi;
- o'zgalarga munosabati inson ma'naviy qiyofasining yorqin ifodasidir. Yuksak kechinmalar va fazilatlarga, insonparvar e'tiqod va qadriyatlarga ega shaxs jamiyatning boshqa a'zolariga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi. Aksincha, negativ kechinmalar va turfa illatlarga tutqun bo'lib qolgan, e'tiqodi va qadriyatlari insonparvarlikdan yiroq inson o'zga kishilarni ham qadrlay bilmaydi;
- inson ma'naviy qiyofasi uning sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarga munosabatida namoyon bo'ladi. Ma'naviy dunyosi boy kishi atrofida yuz berayotgan voqealarning mohiyatini tez ilg'ab oladi, hayotga pozitiv munosabatda bo'ladi. Ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglay olmaslik, voqealardan nuqul nuqson izlash – ma'naviy dunyoning torligidan dalolatdir.

- Shaxs ma'naviy qiyofasi faqat ijobiy ahamiyatga molik kechinmalar, ko'tarinkilik ruhidagi kayfiyat, ijtimoiy manfaatlarga mos bilimlar, insonni ulug'lovchi e'tiqod va shu kabilardan tarkib topadi. Zalolat va g'ayriinsoniylik bilan yo'g'rilgan bilim, e'tiqod, ayniqsa, u yoki bu illat inson ma'naviy qiyofasi elementi sifatida tavsif qilinishi mumkin emas.

- Yuksak darajada rivoj topgan ma'naviy qiyofaning ham, uning aksi bo'lmish ma'naviy qashshshoqlikning ham konkret shakli yo'q. Ularning har ikkisi turli shakllarga ega bo'lishi mumkin, lekin bir-biridan o'zining xarakteri bilan tafovutlanadi. Chunonchi, yuksak ma'naviy qiyofa gumanistik, progressiv, ezgulik, bunyodkorlik xarakteriga ega bo'lsa, ma'naviy qashshoqlik hamisha johillik va yovuzlik ifodasidir.

- Shaxs ma'naviy qiyofasi u yashayotgan davr ruhiga mos bo'ladi va uning bilan birga o'zgara boradi. Jamiyatda yuz bergan har qanday pozitiv o'zgarish albatta shaxs ma'naviy qiyofasida o'z ifodasini topadi va aksincha, har qanday ijtimoiy tanazzul inson ma'naviy dunyosining qashshoqlashuviga sabab bo'ladi.

- Shaxs ma'naviy qiyofasining turli elementlari o'zaro aloqadorlikda va o'zaro ta'sirda o'zgaradi. To'g'ri, ularning bir qismi yuqori darajada rivoj topgan, boshqa qismi esa nisbatan kamroq shakllangan bo'lishi mumkin, biroq har qanday holatda ham ma'naviy qiyofani tarkib toptiruvchi bir elementning o'zgarishi ikkinchisiga albatta ta'sir ko'rsatadi.

- Shaxs ma'naviy qiyofasi rivojlanishining muayyan chegaralari mavjud emas: inson hayot ekan, u yuksalib boraveradi, buning uchun uning ezgulikka intilishi kifoya.

Xulosa. Ma'naviy qiyofa inson asl mohiyatini aks ettiruvchi kategoriyadir. U odam bolasining insoniylik mezonlari asosida kamol topganligini namoyon qiladi va ichki olamining barcha ijobiy jihatlarini o'zida jamlaydi. U insonning kundalik hayotdagi xulq-atvorida, Vatanga, o'z kasb-koriga, jamiyatning boshqa

a'zolariga, sodir bo'layotgan ijtimoiy voqealarga munosabatida ifodasini topadi. O'z rivojida konkret shakl-u shamoyil, me'yor va chegaraga ega bo'lmagan shaxs ma'naviy qiyofasi elementlari ma'naviy yuksaklikni ixtiyor etgan insonning butun hayoti davomida o'zaro aloqadorlikda va o'zaro ta'sirda o'zgaradi. Yuksak ma'naviy qiyofa har qanday jamiyatning ijtimoiy kapitali, uning jadal taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Спиркин А.Г. Философия. – М.: Гардарики, 2000.
2. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Биринчи том. – Т.:Маънавият, 2018.
3. Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб. – Т.: Чинор, 2002.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
5. Алексеев П.В., Панин А.В. Философия. – М.:Проспект, 2005.
6. Филатов В.П. Знание .// Железное дерево – Излучение. – М.: БРЭ, 2008.
7. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Биринчи том. – Т.:Маънавият, 2018.
8. Назаров Қ. Қадриятлар тизимининг барқарорлиги ва ўзгаришлари. – Т.:1994.
9. Зорилова Л.С. Духовные идеалы личности: теория, история и современные проблемы формирова-ния: Автореф. дисс. д. культурол. н. – М: МГИК,1999.

Suyarov Nurbek Rustamovich,
Turon univeriteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PAXTA QISMATI YOXUD "PAXTA ISHI"DA QAMALGAN QASHQADARYOLIK AYOLLAR TAQDIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Gdlyan[17] va Ivanov boshliq tergovchilarning "paxta ishi" doirasida bir qancha o'zbekistonlik, xususan Qashqadaryoda faoliyat yuritgan ayollarning nohaq tergovga tortilishi, jazolanishi, oqlanishi hamda ularning hayoti, mustaqillik arafasidagi taqdiri haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: paxta ishi, paxta qismati, taqdirlar, siyosiy tizim, madaniy va ijtimoiy hayot, qamoq jazosi, ayollar.

Аннотация. В этой статье обсуждаются необоснованные следствия, наказания и оправдания нескольких жительниц Узбекистана, в частности, работавших в Кашкадарьинской области, под руководством следователей гдлян18 и иванова в рамках «хлопкового дела», а также их жизнь и судьба перед лицом независимости.

Ключевые слова: Хлопковое дело, судьба хлопка, судьбы людей, политическая система, культурная и социальная жизнь, тюремное заключение, женщины.

Summary. This article discusses the unfounded consequences, punishments, and justifications of several residents of Uzbekistan, in particular, those working in the Kashkadarya region, under the guidance of investigators gdlyan19 and ivanov in the framework of the 'cotton case', as well as their life and fate in the face of independence.

Keywords: The cotton affair (yoki cotton case), the fate of cotton, human destinies, political system, cultural and social life, imprisonment, women.

Mustabid sovet hokimiyati hukmronlik qilgan XX asr 80-yillarning ikkinchi yarmi O'zbekiston tarixida o'zining o'ta murakabbligi va ziddiyatliligi bilan ajralib turadi. Ma'muriy – buyruqbozlikka asoslangan Sovet davlati o'z hukmronligi davrida ichki siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida zo'ravonlik siyosatini amalga oshirib keldi. Mustamlakalarda har 10 yilliklarda amalga oshirilgan qatag'onlarning oxirgi davri O'zbekistonda XX asr 80- yillarning ikkinchi yarmida "paxta ishi", keyinroq "o'zbeklar ishi" degan nom ostida tarixga kirdi.

[17] P/s. O'zbek tilshunosligida atoqli otlar bosh harf bilan yozilsada, o'zbek xalqiga nisbatan misli ko'rilmagan jinoyatlari uchun gdlyan va ivanovning ismini kichik harf bilan ifodalashga qaror qildim. Holbuki, ular o'zbek xalqi oldida, tarixi oldida qonuniyatlarni buzgani uchun adolatli javob berishi lozim. N.S.

18 P/s. В узбекском языкознании известные имена пишутся с заглавной буквы, но я решил написать имена гдлян и иванов с маленькой буквы за их невиданные преступления против узбекского народа. Хотя они должны понести справедливое наказание за нарушение закономерностей перед узбекским народом и его историей. Н.С.

19 P.S. In Uzbek linguistics, well-known names are written with a capital letter, but I decided to write the names gdlyan and ivanov with a lowercase letter due to their unthinkable crimes against the Uzbek people. Although they should face just punishment for violating the laws in front of the Uzbek people and its history. N.S.

Butun Sovet ittifoqida eng quyi bo‘g‘indan tortib, to markazgacha bo‘lgan tizimda siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, ayniqsa, iqtisodiy hayotda nosog‘lom vaziyat vujudga kelgan edi. Ana shunday paytda markaz, uning eng yuqori organlari o‘zlarini nafaqat O‘zbekiston balki butun (mustamlakalarda) ittifoqda vujudga kelgan iqtisodiy buhronni, ya’ni qo‘shib yozish, ko‘zbo‘yamachilik, davlat mulkini talon-taroj qilish kabi jinoyatlar urchigan vaziyat aybdorlarini jazolayotgan ko‘rsatish, ommaning asosiy diqqat markazini yuzaga kelgan muommolardan chalg‘itish, sovet mustamlakachigini mustahkamlash masalasi turar edi. 1983 yilning dekabridan boshlab dastlab 12 kishidan iborat tergov guruhiga SSSR Bosh prokuraturasi alohida muhim ishlar bo‘yicha prokurori Telman Gdlyan boshliq, Murmansk viloyati prokuraturasining oddiy xodimi Nikolay Ivanov o‘rinbosar bo‘lib O‘zbekistonga kelishadi.

T.Gdlyan «Paxta ishi»ga rahbarlikni SSSR Bosh Prokurori o‘rinbosari, tergov bo‘limining boshlig‘i, hamyurti German Karakozov orqali qo‘lga kiritgan edi.

“O‘zbekistonda birgina “Paxta ishi” (boshqa ishlar ham bor edi) bo‘yicha 22 mingga yaqin kishi hibsga olingan. Paxta tozalash sanoati vaziri V.Usmonov otildi. Buxoro viloyat firqa qo‘mitasining sobiq birinchi kotibi Karimov oliy jazoga hukm qilindi, ammo keyinchalik uzoq qamoq jazosi bilan almashtirildi. Qashqadaryo viloyat firqa qo‘mitasining sobiq birinchi kotibi R.G‘oipov, Ichki ishlar vaziri Ergashev, uning o‘rinbosari Davidov, jumhuriyat, viloyat, nohiya darajasidagi yana bir necha rahbar xodim o‘z-o‘zini o‘ldirdi. Jinoiy javobgarlikka tortilganlar orasida 442 nafar jamoa xo‘jaligi raisi, davlat xo‘jaligi direktori, 94 nafar paxta zavodi direktori, 37 nafar firqa va sho‘ro xodimi bor edi. Hammasi bo‘lib 70 ming kishi hibsga olingan»[20].

Gdlyan boshliq tergovchilarning ushbu qilmishlari o‘zbek xalqiga qilingan pastkashlik va tubanliklar bilan birga kechdi. Ular “O‘zbekistonda barcha pora oladi va hamma pora beradi[21]”, deb hisoblashar, ayni shu tufayli har bir odamni axborot manbai deb qarashar, turli qing‘ir yo‘llar bilan undan ana shu axborotni sug‘irib olishga harakat qilishar edi.

Xususan, hibsga olingan kishilar orasida turli toifa vakillari – xalq xo‘jaligida faoliyatini boshlagan yosh kadrlardan tortib, tajribali, salohiyatli, mehnatkash va halol insonlar ham aksariyatni tashkil etar edi.

Sharqda, xususan O‘zbekistonda ayollarga nisbatan hurmat-ehtirom bo‘lakcha: ular muqaddasligi doim ta’kidlanib kelinadigan haqiqatdir.

Aholining aksariyat qismi islom diniga e’tiqod qiladigan hamda «Jannat onalar oyog‘i ostida[22]» deb ayollar ulug‘lanadigan O‘zbekistonda gdlyanchi tergovchilar o‘zlarining manfur maqsadlari yo‘lida turli qarshiliklar[23]ga qaramay

[20] https://www.xabar.uz/uz/siyosat/qotil-qoli-qilich-soldi-mast - “«Qotil qo‘li qilich soldi mast…» Yana o‘sha mash’um «Paxta ishi»” . - **O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev maqolasi.**

[21] Viktor Ilyuxin., “Qabohat yoxud..(“O‘zbeklar ishi” degan uydirma xususida)” kitobi. Toshkent., O‘zbekiston, 1993 yil. – 32-bet.

[22] Quroni Karim. Baqara surasi, 228-oyat.

[23] Shahrisabzda 1984 yilning dekabrida ivanov Shahrisabz shahar prokurori Sh.Xurramovga bir nechta ayol kishilarni, xususan, T.Karimovning qizi Zubayda Karimovani hibsga olish bo‘yicha ruxsatnomaga imzo qo‘ydirishga majburlashadi. U esa

mutlaqo aybsiz bo‘lsa-da, hattoki ayollarni ham hibsga olishib, tergovga tortishashar, qamoqda saqlab jazoga tortadilar.

Qashqadaryo viloyatida ham yuzlab, minglab insonlar qatorida ayol kishilar ham hibsga olinib, turli ayblovlar qo‘yiladi:

Ana shunday jabr ko‘rgan ayollardan biri – Karomat Qudratovadir. U juda yoshligidan mehnatsevarligi va boshqaruvchanlik xususiyati evaziga 28 yoshidan boshlab, ya’ni 1983-yilning 31-oktabrdan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Kommunizm kolxozi raisi lavozimiga tayinlanadi. Ungacha ushbu jamoa xo‘jaligida raislik lavozimida faoliyat yuritgan Eshmatov Rahmon boshqa xo‘jalikka rahbar bo‘lib ishga o‘tadi.

U raislik qilgan xo‘jalikda 1983-1985-yillar davomida samarali faoliyat yuritib, hurmatga sazovor bo‘ladi – oddiy mehnatkashlar, dehqonlar va xo‘jalikning barcha a’zolari orasida o‘zining har tomonloma yetakchilik qobiliyatini ko‘rsatadi.

Karomat Qudratova 1985-yilning kuzidan gdlyanchi tergovchilar tomonidan xo‘jalikning sobiq raisi Eshmatov Rahmon ishi doirasida tergovga tortiladi. Dastlab, tergovchilar undan o‘zidan yuqori lavozimdagi va xo‘jalikda undan oldin faoliyat yuritgan rahbarlar ustidan ariza yozib berishini so‘rashadi. Natija bo‘lmagach, unga nisbatan ham tuhmat va buhtonlar uyushtirlib tergov harakatlari boshlanib ketadi.

Karomat Qudratova 1986-yil 16-iyul kuni sud qilinadi – dalillar orqali to‘liq aybni isbotlamasa-da, 8 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Lekin hukmning bayonot qismida keltirilgan, ya’ni qo‘shib yozish, talon-tarojlik, qonubuzilishlaridan shaxsiy moddiy-manaviy manfaatdor bo‘lmaganligi, qo‘yilgan ayblovlarni o‘z ixtiyori bilan emas, boshqalarning noqonuniy topshiriqlarini bajarganligi hamda tazyiqi ostida yo‘l qo‘yganligi uchun hamda farzandi 3 yoshga to‘lmaganligi uchun jazo muddati 3 yilga tushiriladi. Shuningdek, ushbu jazo muddatini farzandi 3 yoshga to‘lgach o‘tash belgilab qo‘yiladi. Shu bilan bir qatorda unga 3 yil-u 3 oy muddatda mansabdorlik lavozimlarida ishlash taqiqlanadi. Mol-mulki musodara qilinib, xo‘jalik ixtiyoriga o‘tkaziladi.

1990-yildan boshlab, “paxta ishi” doirasidagi oqlashlar qatorida K.Qudratova ishi ham O‘zbekiston Oliy sudi raisining birinchi o‘rinbosari A.A.Polvonzoda tomonidan protest kiritiladi. 1991-yilning 22-aprelida adolat tiklanib, O‘zbekiston Oliy Sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining 1991-yil 24-apreldagi qaroriga asosan Karomat Qudratova harakatida jinoyat alomatlari bo‘lmaganligi uchun tugatilgan[24].

Gdlyanchilardan yana bir jabr ko‘rgan o‘zbek ayoli – Tamara Qurbonavadir.

U 1939-yilda Qarshi tumani Beshkent shaharchasida tug‘ilgan. Millati – o‘zbek. 8 nafar bolaning onasi bo‘lgan. T.Qurbonova “2-3 darajalik onalik shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan. Nishon tumani 4-sonli “Turkmaniston”

gdlyanchilarga “bizda ayollarni qamash odati yo‘q, ular jinoyat qilishmagan” deb har qancha tushuntirmasin, ular o‘z maqsadi yo‘lida buni eshitishni ham istashmaydi.

[24] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati arxivi Rahmon Eshmatov va boshqalar jinoyat ishi bo‘yicha hujjatlar to‘plami 1-79 tomlar.

sovxozida yashagan. 1985-yilda 3 oy davomida Nishon tumani "Sovet Rossiyasi" sovxozida parrandachilik fermasida mudirlik qiladi.

T.Qurbonova Nishon tumani "Sovet Rossiyasi" sovxozida parrandachilik fermasida tovuqboqar sifatida faoliyat yuritgan. Unga ferma mudiri, 1953-yilda Nishon tumanida tug'ilgan Tilovmurod Jabborov bilan til biriktirib, sovxoz direktori Xoshim Soliyevning topshirig'iga asosan davlat mulkini talon-taroj etish, ko'zbo'yamachilik qilish (ya'ni xo'roz va o'rdaklarni sotib, o'rniga tovuq sotib olib kelib qo'yish)da ayblanadi.

1984-yilning 22-noyabridan Qashqadaryo viloyati Sudida sud qaroriga binoan tilxat asosida ochiqda saqlanadi.

U 1981-yilning 5-yanvaridan 1982-yil 15-martga qadar parrandachilik fermasida tovuqboqar bo'lib ishlab yurgan kezlarda davlat mulkini o'zlashtirish aybi bilan qamoqqa olinadi. Gdlyanchilar tomonidan tergovning bizga ma'lum bo'lgan usullaridan foydalangan holda so'roq qilingan. Qashqadaryo viloyat Sudining 1985-yil 31-maydagi hukmi bilan 2 yil-u 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum etiladi. Oradan bir yil o'tib, 1986-yilning 26-aprelida amnistiya farmoniga binoan jazodan ozod etilgan. 1991-yilning 18-martida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Jinoyat ishlari bo'yicha Sudlov Kollegiyasining ajrimi bilam jinoyat ishi harakatdan yotqizilgan[25].

Xalilulin Faniya Ziyayevna 1957-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. Millati tatar. Bahoriston (hozirgi Mirishkor) tumanining 22-sovxozida traktorchi bo'lib ishlagan. Shu sovxoz markazida 4 nafar farzandi bilan birgalikda istiqomat qilgan.

Sud hujjatlarida keltirilishicha[26], 1982-yilda F.Xalilulin 22-sovxozning 1-bo'limida boshliq lavozimida faoliyat yuritgan davrida sovxoz direktori Rafael Ilyosovning topshiriqlariga asosan o'zi rahbarlik qilgan sovxozning hisobiga 100 tonna paxtani "Bahoriston" paxta qabul qilish punkti 2-3 zona klassifakotori Samad Ravshanov orqali qo'shib yozganligi bo'yicha tergov olib boriladi. Ushbu ish munosabati bilan 34 ming 23 so'm pullarni Samad Ravshanovga sovxoz bosh buxgalteti R.Toshpo'latov, sovxoz kassiri G'ulom Qodirov, 1-bo'lim buxgalteri Jabborovlar orqali olib borib berilganligi aniqlanadi.

F.Xalilulin va shu ish bo'yicha sudlanganlarning aksariyati ushbu qonunbuzilishlar ortidan kelgan pullardan manfaatdor bo'lmagan edi.

1986-yilning 15-oktabr kuni Qashqadaryo viloyati Sudi hukmiga ko'ra, F.Xalilulin Bahoriston tumanining 22-sovxozidagi qonunbuzlishlarda bevosita ishtirokchi bo'lsada, unga nisbatan jazo uning yoshligi, tajribasizligi, tuman partiya qo'mitasining sobiq rahbarlari va sobiq sovxoz direktorlarining noqonuniy topshiriqlarini bajarganligi, ushbu harakatlar natijasida hech qanday moddiy yoki

[25] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati arxivi –Xoshim Soliyev va boshqalar jinoyat ishi bo'yicha hujjatlar to'plami - 183 fond, 3 ro'yxat, 1-52 tom, 1-128 betlar.

[26] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati arxivi – Toxirov Ibragim va boshqalar jinoyat ishi bo'yicha hujjatlar to'plami - 183 fond, 3 ro'yxat, 1-84 tomlar, 1-232 betlar.

ma'naviy manfaat ko'rmaganligi hisobga olinib nisbatan yengilroq jazo – 2 yil jamoat ishlariga majburiy mehnatga jalb etiladi.

Aslida F.Xalilulin ham vaziyat qurboni bo'lganligi, boshqalarning topshirig'ini bosim ostida bajarganligi anqilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 1991-yil 4-yanvardagi qaroriga muvofiq Faniya Xalilunning harakatlarida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi uchun tugatilgan[27].

"Paxta ishi" doirasida ayollarni hibsga olish, jazoga tortish ishlari tobora tubanlashib bordi. Gdlyanchi tergovchilar turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan kasb egalarini ham o'z domiga torta boshladilar.

Jumladan, Kitob tumani kuzgi-bahorgi kiyimlar uchun mo'ljallangan tikuvchilik fabrikasida usta-tikuvchi lavozimida faoliyat yuritib kelgan Umriyayeva Go'zal Ismoilovna ham 1980-yillardagi katta miqyosdagi tergov jarayonlariga tortildi – qatag'onchilik jabriga duchor bo'ldi.

Umriyayeva Go'zal Ismoilovna 1935-yilda Mordova ASSR Rezayevka tumani tug'ilgan. Millati tatar. "Paxta ishi" doirasida Kommunistik partiya safidan chiqariladi. Tergovga tortilgunga qadar 1979-1985-yillarda Kitob tumani kuzgi-bahorgi kiyimlar uchun mo'ljallangan tikuvchilik fabrikasida katta usta, ya'ni boshliq vazifasida faoliyat yuritayotgan edi.

Umriyayeva Go'zal nomi bilan ochilgan jinoyat ishi hujjatlar to'plamida ma'lum bo'ladiki, tikuvchilik kombinati qarashli Kitob tumani K.Marks nomli jamoa xo'jaligi hududida joylashgan paxta titish sexida brigada boshlig'i Z.Aliqulova, xodimlar R.Xolova, K.Eshquvvatova, A.Sharipova va N.Rahmonovalar tergovga tortilgan hamda aybi isbotlanmaganligi, ushbu tashkillashtirilgan qonunbuzlishlardan bevosita manfaatdor bo'lmaganliklari uchun javobgarlikka tortilmaganlar.

G.Umriyayeva Nishon Paxta tozalash zavodi sobiq direktori Parda Xudoyberdiyev, shu zavod 2-zona klassifikotori O.Najimov bilan o'zaro kelishib, Nishon tumanining bir nechta sovxoz direktorlaridan paxta o'rnida pul olishda ayblanadi.

Sud ajrim hujjatlariga ko'ra, G.Umriyayeva Nishon Paxta tozalash zavodi rahbari Parda Xudoyberdiyev va boshqalar til biriktirib qilgan qonunbuzilishlarni viloyat partiya qo'mitasidan berilgan noqonuniy topshiriqlar tufayli bajarganligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, u sexga rahbarlik qilgan 1982-yilda tikish planini 103%ga bajargan edi. U mehnatsevarligi va talabchan rahbarligi uchun 1981-yilda "Mehnat belgisi", 1984-yilda "Mehnat faxriysi" medali bilan taqdirlangan edi.

Qashqadaro viloyat Sudida 1986-yil 10-iyun kuni bo'lib o'tgan Sudning qaroriga muvofiq 5 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinib va 3 yil davomida rahbar lavozimida faoliyat yuritish taqiqlab qo'yiladi[28].

[27] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati arxivi – Toxirov Ibragim va boshqalar jinoyat ishi bo'yicha hujjatlar to'plami - 183 fond, 3 ro'yxat, 39-84 tomlar, 1-241 betlar

Suddan so‘ng G.Umriyayeva o‘sha paytda Kompartiyaning Qashqadaryo viloyati qo‘mitasi birinchi kotibi N.Turopovga xat yo‘llaydi. O‘z xatida G.Umriyayeva Nishon Paxta tozalash zavodi rahbari Parda Xudoyberdiyev tomonidan ko‘rsatma berilgan hamda o‘zini ayblashlariga sabab sifatida keltirilgan omillarini, ya’ni tuman va viloyat partiya rahbarlarining faoliyati bo‘yicha sudga tushuntirish berishni so‘raydi. N.Turopov esa ushbu murojaatni viloyat sudiga yo‘naltiradi.

Qiynoqlar va tazyiqlar uning ishi doirasida hibsga olinganlarning tinka-madorini quritadi. Jumladan, Kitob tumani aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish boshqarmasi bosh injeneri Tura Turopov hamda injener Mannon Rahmonovlarning irodasi bukilib, gdlyanchilar tomonidan tayyorlangan arizaga imzo qo‘yib berishga majbur bo‘ladi.

Lekin G.Umriyayeva qa’tiy kurashadi – o‘zining davlat mulkini o‘zlashtirmaganligini, vaziyat qurboni bo‘lganligini, ya’ni Paxta tozalash zavodi rahbari Parda Xudoyberdiyev va tuman, viloyat partiya qo‘mitasining topshirig‘i bilan bajarganligini isbotlashga juda ko‘p harakat qiladi. Unga advokatlik qilgan X.Maxmasobirov O‘zbekiston Oliy Sudiga Qashqadaro viloyat Sudida 1986-yil 10-iyun kuni chiqarilgan qaror ustidan 16955-raqamli order bilan Kassatsiya shikoyati bilan murojaat qiladi.

Shu munosabat bilan G.Umriyayeva ishi 1987-yilning 8-yanvar kuni O‘zbekiston Oliy Sudi Jinoyat ishlari bo‘yicha Sudlov kollegiyasida kassatsiya tartibida ko‘rib chiqiladi. Ushbu sud qarori bilan G.Umriyayeva amnistiya aktiga tushib sud zalidan ozod qilinadi.

Hukumat qarori bilan 1990-yilda “Paxta ishi” doirasida qamalganlarning ishini qaytadan ko‘rilib, O‘zbekiston Oliy Sudi raisi o‘rinbosari A.A.Polvonzodaning protestiga ko‘ra, G.Umriyayevaning ishi ham ko‘rib chiqiladi. 1991-yilning 5-iyul kuni O‘zbekiston Oliy sudi Prezidiumi qarori bilan G.Umriyayevaning harakatlaridan jinoyat alomatlari bo‘lmaganligi uchun jinoyat ishi yotqiziladi[29].

Gdlyanchilar vakillari O‘zbekistonning har bir viloyatida avval rejalashtirib, keyin xohlagan kishini – xohlagan paytlarida hibsga olib, bo‘yinga oldirishga erishar edilar.

Ana shunday kishilar – ayollardan biri Yakkabog‘ tumani Paxta tozalash zavodida bosh buxgalter lavozimida faoliyat yuritgan Peripelesina Zoya Trentovna edi. 1928-yilda Altay burchagi viloyati, Karasuk tumani Kalachda qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati ukrain. Yakkabog‘ shahri Oxunboboyev ko‘chasi 8-uyda 3 nafar farzandi bilan birgalikda istiqomat qilgan.

Butun sobiq ittifoqida yuz berayotgan iqtisodiy buhronga g‘ayrioddiy choralar – aldash, qo‘shib yozish, byurokratik hisobotbozlik kabi illatlar

[28] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati arxivi – 18-891-85 raqamli G.Umriyayeva va boshqalar jinoyat ishi bo‘yicha hujjatlar to‘plami - 183 fond, 3 ro‘yxat, 61-85 tomlar, 44-55-195 betlar.

[29] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati arxivi – 18-891-85 raqamli G.Umriyayeva va boshqalar jinoyat ishi bo‘yicha hujjatlar to‘plami - 183 fond, 3 ro‘yxat, 61-85 tomlar, 44-55-195 betlar.

Qashqadaryo viloyatini, undagi har bir tuman qatori Yakkabog‘ tumanini ham, albatta, chetlab o‘tmaydi. Bunga sabab yarim asrdan oshiq vaqt davomida Moskvada joylashgan markaz tomonidan ittifoq tarkibidagi mustamlaka bo‘lgan hududlar nisbatan o‘tkazgan notog‘ri iqtisodiy, ijtimoiy siyosat edi. 1980-yillar yuqoridagi omillar – aniq-tiniq o‘zining "mahsuli"ni berib, "yolg‘onlar mamlakati" a'zolari uchun yangi bir yolg‘onni O‘zbekiston xalqiga qilingan tuhmatlar, gdlyanchi tergovchilarning muttahamliklari orqali ko‘rsatilayotgan edi.

Ana shu yolg‘onning qurbonlaridan biri – dastlab, Yakkabog‘ paxta zavodida oddiy ishchi, bo‘lim boshlig‘i, keyinchalik bosh buxgalter lavozimlarida faoliyat yuritgan Z.Peripelesina edi. U o‘z ishiga bo‘lgan muhabbati va samarali mehnatlari evaziga "Mehnat shuhrati" va "Mehnat faxriysi" unvon – medallari bilan taqdirlangan edi.

Z.Peripelesina ustidan Yakkabog‘ paxta tozalash zavodi sobiq direktori M.Avlayev, Yakkabog‘ tuman partiya qo‘mitasining sobiq birinchi kotibi Sami Boqiyevlar ishi doirasida tekshirish va tergov jarayonlari boshlanib ketadi.

Gdlyanchi tergovchilar tomonidan 1985-yilning 7-10-sentabr kunlari Z.Peripelesinaga qarshi tuzilgan ayblash fikriga ko‘ra, Yakkabog paxta tozalash zavodi qoshidagi paxta qabul qilish punktining hamda Yakkabog‘ tumanidagi ba'zi jamoa xo‘jaliklari, xususan, sobiq "Kalilin", "Engels", "Pravda", "Massiv" kabi jamoa xo‘jaliklarining paxta tayyorlash punktlarining sobiq mansabdor va moddiy javobgar hodimlaridan: Yakkabog‘ PTZ bosh iqtisodchisi Sayyora Karimova, 2-zona klassifikatorlari Zamon Aliqulov, Razzoq Berdiyev kabi 20 kishidan iborat guruh tergov jarayonlariga jalb qilinadi.

Xususan, Yakkabog‘ tumani sobiq "Engels" j/xo‘jaligi paxta qabul qilish punkti bilan 804 tonna paxta maxsulotsiz kvitansiylar rasmiylashtirib, xo‘jalikka yetkazilgan 154140 rubl miqdoridagi zarar yetlazilishda bevosita Z.Peripelesina ham ishtirok etishgan, deb ayblashadi. Shu va shunga o‘xshash bir nechta ayblovlar bilan 1986-yilning 10-sentabr kuni Qashqadaryo viloyat Sudi Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining hukmi bilan Z.Peripelesina jami 11 yil qilinadi, ushbu jazoning yengilini og‘irrog‘i bilan qoplash yo‘li bilan uzil-kesil 5 yil ozodlikdan mahrum qilinadi. Jazoni o‘tab bo‘lgandan so‘ng 2 yil davomida bosh buxgalterlik lavozimida faoliyat yuritish taqiqlanadi. Mol mulki musodara qilinib, belgilangan 5 yillik jazo – umumiy mehnat-axloq tuzatish koloniyasida o‘tash belgilab qo‘yiladi.

Ushbu ish 1987-yilning 10-fevral kuni O‘zbekiston Oliy sudi Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining sudlov majlisida kassatsiya tartibida ko‘rib chiqiladi. Lekin hukm o‘zgarishsiz qoladi.

1989-yilning 11-avgust kuni Qashqadaryo viloyati Sudi hukmiga ko‘ra, amnistiya farmoniga binoan jazodan ozod etiladi. Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay'atining 1991 yilning 7

iyundagi qaroriga binoan Z.Peripelesinaning harakatlarida jinoyat alomatlari bo‘lmaganli uchun jinoyat ishi yotqiziladi[30].

Z.Peripelesinadan tashqari Yakkabog‘ paxta tozalash zavodi sobiq direktori M.Avlayev ishi doirasida yana bir ayol kishi – Sayyora Karimova ham tergovga olinadi. U 1982-84-yillarda Yakkabog‘ paxta tozalash zavodida bosh iqtisodchi sifatida “mansab mavqeini suistemol qilish, M.Avlayev va boshqalar bilan til biriktirib, hujjatlarni soxtalashtirgan holda davlat pulini talon-taroj qilgan”likda ayblangan edi.

Z.Peripelesina 1989-yilning 11-avgust kuni Qashqadaryo viloyat sudining hukmi bilan, uning harakatlari jinoyat alomatlari bo‘lmaganligi sababli jinoyat ishi to‘xtatiladi. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining 1991-yilning 7-iyundagi qaroriga binoan to‘liq oqlanadi[31].

Saida Jumayeva 1952-yilda Qarshi tumanida tug‘ilgan. U bir necha yillar davomida Nishon tumani Ibn Sino nomidagi 8-sovxozda ishchi, Tallimarjon tumani “Kommunist” nomli 2-sovxozda brigadir lavozimlarida faoliyat yuritgan. Shuningdek, u sovxozning Imomnazar Qurbonov boshliq bo‘limda buxgalter bo‘lib ham ishlagan edi. Tallimarjon tumani “Kommunist” nomli 2-sovxoz sobiq direktori M.Sharopov ishi doirasida gdlyanchi tergovchilar tomonidan tazyiq o‘tkazilgan va shu ish doirasida sud qilinadi. Unga sovxoz direktori Mar Sharopov va bosh buxgalter B.Xidirovlar bilan o‘zoro til biriktirib, noma’lum shaxslar nomiga soxta ish hujjatlari, pul to‘lov varaqasini tuzish va imzolarni qalbakilashtirib katta miqdorda davlat mulkini o‘zlashtirish aybi bilan gumondor sifatida sudlashadi.

Lekin Saida Jumayeva va yuqorida nomi zikr etilganlar ushbu qonunbuzilishlarni o‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida o‘zlashtirgan emasdilar. Bu tergov jarayonida o‘z isbotini topadi va 1984-yil 23-iyul kuni Qashqadaryo viloyat sudida bo‘lib o‘tgan majlisda ham aytib o‘tiladi.

Saida Jumayeva ham o‘z navbatida qo‘yilgan ayblovlarda qilgan qilmishlarini o‘z ixtiyori bilan emas, o‘zidan yuqori bo‘lgan rahbarlarning bosimi ostida bajarganligi haqida ko‘rsatmalar beradi.

Shunga qaramay, 1984-yil 23-iyul kuni Qashqadaryo viloyat sudining hukmiga ko‘ra, Jumayeva Saida aybdor deb topilib, uzil-kesil 3 yil ozodlikdan mahrum etish chorasi, shu muddatni umumiy mehnat-axloq tuzatish koloniyasida o‘tash belgilanadi hamda hukmning bayon qismida keltirilgan tarkibni, ya’ni Saida Jumayeva ushbu jinoyatlarni o‘z ixtiyori bilan emas, o‘zidan yuqori bo‘lgan rahbarlarning bosimi ostida bajarganligi, ushbu harakatlardan moddiy-ma’naviy manfaat ko‘rmaganligi sababli yuqoridagi 3 yil sinov muddati etib tayinlanib, jazoni Qarshi tumani “Lelinizm” sovxozida o‘tash belgilab qo‘yiladi.

[30] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati arxivi – M.Avlayev va boshqalar jinoyat ishi bo‘yicha hujjatlar to‘plami - 183 fond, 3 ro‘yxat, 1-173 tomlar, 1-196 betlar.

[31] Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo’yicha sudlov hay’ati arxivi – M.Avlayev va boshqalar jinoyat ishi bo‘yicha hujjatlar to‘plami - 183 fond, 3 ro‘yxat, 1-173 tomlar, 1-196 betlar.

1991-yilning 24-mayida Mars Sharopov va boshqalar ishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi o‘rinbosari A.A.Polvonzodaning protestiga muvofiq 1991-yilning 16-dekabrida Oliy Sud jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining majlisi bo‘lib o‘tadi. Va Saida Jumayevaga nisbatan avval qabul qilingan qarorlar bekor qilinib, uning harakatalarida jinoyat alomatlari bo‘lmaganli sababli harakatdan to‘xtatiladi.

Gdlyanchilarning asosiy tergov sistemasi A.Vishinivskiy[32] nazariyasiga asoslangan bo‘lib, Qashqadaryoda hibsga olingan, tergovga tortilgan, qamoqqa solingan minglab kishilar qatori, hatto ayollarni tergov qilishda ham ushbu usuldan keng foydalanishadi.

O‘zbek xalqida azal-azaldan milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar mujassam bo‘lib, kishilar qalbida ezgulik barq urgan xalq sifatida hamma zamonlarda e’tirof etib kelingan. Ayniqsa, oila muqaddas – takrorlanmas qadriyat sifatida e’zozlab kelgan edi. Ana shu oila muqaddasligi asosida – ayol turadi. Gdlyanchilar tomonidan o‘zbek xalqiga qilingan bu xunrezliklar fonida bu takrorlanmas qadriyatlar ham toptaldi. Ular ayol-ona sifatida avvalo, o‘z oilasi, jamoasi oldida katta miqyosdagi qatag‘on siyosati tufayli bevosita aybdor bo‘lmasa-da, birinchidan sha’ni, qadr-qimmati toptaldi. Ikkinchidan esa, manfur gdlyanchilar tomonidan o‘zbek ayollari o‘rtasida ham qo‘shib yozishlar va jinoyatchilar borligini butun ittifoqda ko‘rsatishib millatning g‘ururi, qadri bilan o‘ynashgan edilar.

Gdlyanchilarning bu kabi mexanizmi zo‘ravonlik, xalqning asl qadriyatlarini nazar-pisandiga ilmaslik – insoniyatning nafratiga loyiq tizimi orqali butun sobiq sovet ittifoqidagi ularga hamtovoq hisoblangan gazetalar orqali salbiy targ‘ibotni kuchaytirish orqali olib borar edilar.

Gdlyanchilar vaqt o‘tishi bilan o‘zbek xalqining oila muqaddasligi, oilaparvarligini ongli ravishda bilgani holda ayblanuvchilarning tergov jarayonida nafaqat o‘zlarining taqdiri, balki qarindosh-urug‘larining taqdiri haqida qayg‘urishga majbur qilishadi. Bular ayniqsa, ayollarni tergov qilishda ko‘rinadi.

Bu o‘zbek xalqiga mansub fojianing bir bo‘lagi edi, xolos. Ba’zan bolalarni otalari yotgan kameraning yonidagi kameraga olib kelishar, ba’zan esa aksincha qilishib bir-birlarining iztiroblariga sherik qilishardi. Ayblanuvchilar o‘z “qilmishlari”ni bo‘yniga olaverishmasa, ularning yaqinlari (ularning orasida xotin-qizlar ham ancha-muncha topilar edi)ning qamoqqa olinganligi to‘g‘risida rasmlar yoki videotasvirlarni ko‘rsatishar, turma yo‘lagida tasodifan yuzlashtirishar, tezroq ayblarini tan olishmasa, yanada ko‘proq qarindoshlari hatto xotin-qizlari orqali bosim qilishardi – ayblanuvchilarning turmush o‘rtoq(ayoli)lari va qizlarini zo‘rlash, nomusini toptash bilan tahdid qilishardi. G‘urur nomusi himoyasi o‘limdanda afzal bo‘lgan o‘zbek xalqi har qanday qiynoqqa, tazyiqlarga chidashi mumkin, lekin ayoli va qizining xo‘rlanishiga emas. Ana shunday paytda haqiqat

[32] https://www.prlib.ru/item/372903

va adolat, dunyo qonuniyatlari chekinishga majbur bo‘lar, ayblanuvchi hisoblanmish kishilar gdlyanchilarning har qanday shartiga rozi bo‘lar edi.

Yuqoridagi omillar gdlyanchilarning naqadar tuban yo‘llar bilan o‘z maqsadlariga erishganini bildiradi. Bu maqsadlar boylik orttirish, markazda turgan qarama-qarshiliklarning manfaatiga xizmat qiladigan dalillarni to‘plash hamda tarixiy tarkib topgan alamzadalik ruhi yo‘lidagi xizmatlar edi. Bu harakatlar bag‘rikeng, oilaparvar o‘zbek xalqiga qilingan tuhmat va buhtonlar bilan birgalikda kechdi. Nafaqat butun sovet ittifoqi, balki butun dunyoda o‘zbek xalqiga nisbatan noto‘g‘ri fikrlar paydo bo‘la boshlashiga sabab bo‘lgan edi. Holbuki, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbek xalqi Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldaviya va boshqa joylardan ko‘chirib keltirilgan o‘n minglab kishilarga boshpana berib, mehribonlik va g‘amxo‘rlik namunalarini ko‘rsatdi. Jang bo‘layotgan hududlardan ko‘chirilgan bir million shaxs boshpana, kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta’minlandi. Minglab yetim bolalarni o‘zbek oilalari o‘z qaramog‘iga oldilar, farzandlaridan kam ko‘rmay tarbiyaladilar. O‘zbek xalqi jangga ketgan turli millat vakillarining oilalaridan ham moddiy yordamini ayamagan edi[33].

Gdlyanchilarning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatog‘onining, xo‘rliklarning yana bir asl sababi bu, albatta, o‘zbek xalqining bir yarim asrga yaqin davr ichida mustamlakachilik domiga tortilgani, va bu asnosida, asl haq-huquqlari poymol etilganligida edi. Mustamlakachilik esa – bu og‘ir hukm. O‘sha yillarning o‘z yo‘rig‘i – inkor etib bo‘lmaydigan qonuniyatlari mavjud edi. O‘sha qonuniyatlar adolatsizlikka qarshi bosh ko‘tarish, dadil gapirish, insoniy haq-huquq, qarshilik ko‘rsatish kabi faoliyatlarni to‘liq inkor etardi.

Shu ma’noda yaqin tariximizning eng og‘ir murakkab davri bo‘lgan, sobiq imperiyaning jon talvasasiga chiqqan kezlarda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning Qashqadaryo viloyatida olib borgan serqirra faoliyati ayniqsa diqqatga sazovordir[34]. 1986-yilning 27-dekabridan boshlab Islom Karimov Kompartiyaning Qashqadaryo viloyati qo‘mitasi birinchi kotibi lavozimida faoliyat yurita boshlagan edi.

I.Karimovning dastlab, Qashqadaryoda keyinchalik butun O‘zbekiston Respublikasidagi dadil va samarali faoliyati mamlakatimizning mustaqillikka, erkinlikka yuz tutishining debochasi edi. Zero, deyarli bir yarim asr davomida erksiz O‘zbekiston xalqiga to‘qilgan yolg‘onlar tabiiy ravishda zavol topayotgan, boshga solingan ko‘rgiliklarning bosh sababi mustamlakachilik ekanligi anglab yetilayotgan edi.

1990-yilning aprel oyida Islom Karimov tashabbusi bilan “Paxta ishi”dan jabr ko‘rgan minglab kishilarning “ishlari” ularning nomini oqlash, ularga noqonuniy qo‘yilgan ayblovlarni olib tashlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Prezidiumida ko‘rib chiqiladi. Bu ishlar qayta ko‘rilishi natijasida Moskvadan O‘zbekistonga yuborilgan Gdlyan va Ivanov rahbarligidagi

[33] https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/05/11/1234567890-1414831
[34] “Qashqadaryo: istiqlol arafasida. 1986-1989 yillar” – Payon Ravshanov. –T.: “Ma’naviyat”, 2003. -10 bet.

tergovchilar guruhlari aybdor deb topgan 3500 dan ortiq inson nomini oqlashga erishiladi.

Yuqorida Qashqadaryoda ushbu ish doirasida nohaq qamalgan, jabr chekkan ayollarning tiklangan qadri haqida misollar keltirdik. Ozmi-ko'pmi, haqiqat qaror topdi. O'zbek xalqi – o'z ma'naviy hayotida ayollarga nisbatan asrlar oshib kelayotgan an'analari, qadriyatlari qaytdi.

Navbatdagi vazifa esa, "paxta ishi" doirasida O'zbekiston SSRda qatag'onlar o'tkazgan Telman Gdlyan va N.Ivanovning qilmishlari uchun javobgarlikka tortishni talab qilib chiqqan bir guruh ziyolilar qatori bo'lish[35], Gdlyan va Ivanovning tuhmatlari natijasida yuzaga kelgan adolatsiz tushunchalar[36]ni to'liq inkor etadigan ilmiy, publitsistik va badiiy manbalarni xalqimizga va butun dunyoga yoyish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati arxivi manbalari.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Qashqadaryo filialining manbalari.

3. Payon Ravshanov. "Qashqadaryo: istiqlol arafasida. 1986-1989-yillar".

4. Viktor Ilyuxin. "Qabohat yoxud... ("O'zbeklar ishi" degan uydirma xususida)" kitobi.

5. R.Shamsutdinov va boshqalar. "Vatan tarixi".

6. **https://www.xabar.uz/uz/siyosat/qotil-qoli-qilich-soldi-mast** - "«Qotil qo'li qilich soldi mast…» Yana o'sha mash'um «Paxta ishi»" . - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev maqolasi.

7. https://www.youtube.com/watch?v=7caIXBStyIg – Paxta ishi, hujjatli film, 2020-yil 27-dekabr. Ushbu hujjatli film 2016-yil oktabr oyida tuzilgan Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi doirasida tayyorlangan. Ushbu fondning tashkil etilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 25-yanvardagi PQ-2744-sonli qarorida tasdiqlangan.

[35] https://daryo.uz/2018/05/04/ozbekistonlik-ziyolilar-telman-gdlyanni-javobgarlikka-tortishni-talab-qildi

[36] https://www.xabar.uz/uz/siyosat/shuhrat-barlos-gdlyan-jazolansa-tarixiy-adolat-tiklanadi

Toxirova G.D.,
Andijon davlat universiteti
“Psixologiya va pedagogika”
kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

YOSHLARDA DASTLABKI PROFESSIONAL KARYERANI REJALASHTIRISHNING MOTIVATSION XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda lider ayollar, yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollarini tayyorlash borasida amalga oshirilgan tub islohotlar tahlil qilinadi. Mazkur jarayonlarda zarur huquqiy-me’yoriy baza yaratilgani, davlat xizmatida mas’ul lavozimlar shakllantirilgani yoritiladi. Jahon tajribasida inson kapitalini rivojlantirish professional karyerani belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, yoshlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun qulay sharoitlar yaratishning ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: professional karyera, motivatsiya, vertikal karyera, gorizontal karyera, aralash karyera, xotin-qizlar faolligi, yoshlar siyosati, inson kapitali, yetakchilik.

МОТИВАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАННЕГО ПЛАНИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КАРЬЕРЫ У ЖЕНЩИН

Аннотация. В статье анализируются фундаментальные реформы, осуществлённые в Узбекистане в последние годы в сфере подготовки женщин-лидеров, молодёжных лидеров, помощников хокимов и активисток. Подчёркивается создание необходимых нормативно-правовых основ и формирование ответственных государственных должностей. В мировом опыте развитие человеческого капитала рассматривается как ключевой фактор формирования профессиональной карьеры. В данном контексте особо выделяется значимость создания условий, обеспечивающих раскрытие потенциала молодёжи.

Ключевые слова: профессиональная карьера, мотивация, вертикальная и горизонтальная карьера, смешанный тип карьеры, женщины-лидеры, молодёжная политика, человеческий капитал, лидерство.

MOTIVATION CHARACTERISTICS RANNEGO PLANNING AND PROFESSIONAL CAREER U JENSHCHIN

Annotation. This article examines the major reforms implemented in Uzbekistan in recent years aimed at preparing women leaders, youth leaders,

deputy governors, and female activists. It highlights the establishment of a solid legal framework and the creation of key positions within the civil service. In global development practice, human capital is regarded as a critical determinant of professional career advancement. Therefore, the article emphasizes the importance of creating enabling conditions that allow young people to fully realize their potential.

Keywords: professional career, motivation, vertical career, horizontal career, mixed career, women leadership, youth policy, human capital development, leadership skills.

Kirish. Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodikalar: Professional karyera yo'nalishlari, ya'ni «vertikal», «gorizontal», «aralash» ko'rinishdagi «professional karyeraga erishgan xotin-qizlar» va «karyerani maqsad qilgan talaba qizlar»ning ustuvor faoliyat turi va (yoki) egallagan mavqeiga ko'ra, motivlar reytingida karyera tasavvuri bir-biridan tubdan tafovutlanadi. Ushbu natijalar sinaluvchilarning standartlashtirilgan intervyuga bergan javoblari orqali qo'lga kiritildi. Har ikkala toifa sinaluvchilar tomonidan e'tirof etilgan motivlar reytingi orasidagi o'zaro aloqa Spirmen mezoni bo'yicha muhim korrelyatsion bog'liqlikka ega bo'lib, buni biz quyidagi sharhlar orqali batafsil tushuntirishga harakat qildik (ρ=0.725; $r \leq 0{,}05$). Masalan, professional karyeraga erishgan xotin-qizlar sanalgan «Kelajak liderlari», «Rahbar ayollar maktabi» tinglovchilari va «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining 90,3 foizda ayni vaqtda faoliyatni tanlanilishi va davom ettirilishiga sabab bo'lgan motivlar ichida birinchi o'rinda «mas'uliyatli jamoada va obro'li shaxslar bilan ishlash imkoniyati»ning mavjudlik motivi qayd etilgan (3.1-jadvalga qarang).

Olingan natijalar va ularning ahamiyati. Buning sababi sifatida «professional karyeraga erishgan xotin-qizlar» sanalgan ushbu toifa sinaluvchilar faoliyat yuritayotgan tashkilotlardagi lavozimlarini o'zaro manfaatdorlik negizida, «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash» va «Yoshlar» borasida davlat siyosati darajasidagi muhim normativ-huquqiy hujjatlar va (yoki) Prezident tashabbusi asosida tashkil qilinganligi bilan izohlashadi. Tadqiqot ishimizning mazkur bosqichida respublikamiz bo'yicha xizmat pillapoyalarida o'sgan 10 000 lab xotin-qizlardan faqatgina 113 nafari, shuningdek, mamlakatimizdagi xotin-qizlarga bo'lgan davlat siyosatidan ilhomlanib, karyerani tanlagan 100 000 lab talaba-qizlarimizdan 112 nafari sinaluvchi sifatida qatnashdi.

3.1-jadval

Xotin-qizlarda dastlabki professional karyerani rejalashtirish va amalga oshirilishi bilan bog'liq motivlar reytingi va ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (n=225; jamiga nisbatan ulushi, foizda va Spirmenning korrelyatsiya koeffitsienti (ρ) bo'yicha)

№	Motivlar	Professional	Karyerani	ρ

		karyeraga erishgan xotin-qizlar	maqsad qilgan talaba qizlar	
		n=113	***n=112***	
1.	moddiy manfaatdorlik	52,8	54	
2.	mustaqillikka intilish va ko‘proq o‘z vaqtiga ega bo‘lish imkoniyati	19,4	20	
3.	imkoniyatlarimni va o‘zimni ro‘yobga chiqarish hamda atrofdagilarga tan olinish ehtiyoji	20,8	70	
4.	vaziyat taqozosi	8,3	14	
5.	hududda va yoshlar, xotin-qizlarga yaratilgan komfort sharoitlar	84,7	80	
6.	mas’uliyatli jamoada va obro‘li shaxslar bilan ishlash imkoniyati	90,3	88	0.725*
7.	amalga oshirayotgan faoliyat turining atrofdagilarga foyda keltirishi va vatan ravnaqiga qo‘shadigan ulushi	58,1	78	
8.	shaxsiy salohiyatimni oshirish va kasbiy faoliyatni yangilash zarurati	19,4	10	
9.	referent guruh tavsiyasiga asosan	83,3	78	
10.	yana qanday?	15,3	16	
Izoh: * r ≤ 0,05 darajadagi bog‘lanish – muhim korrelyatsiya. Manba: muallif tadqiqotlari				

Ikkinchi o‘rinda tanlangan motiv sifatida 84,7 foiz «hududda va (yoki) yoshlar, xotin-qizlarga yaratilgan komfort sharoitlar» tanlangan (3.1-jadvalga qarang).

Uchinchi o‘rinda tanlangan motivlar reytingida 83,3 foiz karyera egalari «referent guruh tavsiyasiga asosan» karyeraga kirishganliklari ijtimoiy-psixologik jihatdan ahamiyatli hodisalardan biri sanaladi (3.1-jadvalga qarang). Sababi sifatida hududda yaratilgan komfort sharoitlar, odatda kasbiy faoliyat jozibadorligini oshirib, dunyo darajasidagi obro‘li ayollarni mahalliy xotin-qizlar bilan ishlashga hamda ular o‘rtasida ishonchni shakllanishiga olib kelishini, alohida e’tirof etish mumkin. Masalan, bunday davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi joylarda mahalliy xotin-qizlarimizning shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirishga, professional faoliyati samaradorligini oshirishga, ular orasida rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishga asos bo‘lgan.

Karyerani maqsad qilgan talaba qizlarning natijalari ham xuddi yuqoridagi respondentlar guruhi ko‘rsatkichlariga yaqinligi bilan ahamiyatli sanaladi. 88,0 foiz sinaluvchi karyerani rejalashtirish va uni tashkil etishiga birinchi darajali motiv sifatida «mas’uliyatli jamoada va obro‘li shaxslar bilan ishlash imkoniyati»ni e’tirof etishgan (3.1-jadvalga qarang). Ushbu toifa respondentlar, odatda shaxsiy rivojlanish darajasi natijalari faqatgina o‘z ustozlari va oldindan bu mavqeidan xabardor shaxslar (masalan, ota-onalar) o‘rtasida ma’lum bo‘lganligi bois ham, ustozlar (hatto yaqin qarindoshlar) orasidagi obro‘-e’tiborga sazovor shaxslarning mavjudligi, ularga alohida mas’uliyatni yuklagan. Sababi, meritokratiya tamoyiliga binoan ushbu shaxslar o‘zlarini yuksaltirish borasida jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida bo‘lishsa-da, ammo ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaraganda bo‘lajak rahbar kadr sifatida tanlanishshlarida alohida tayyorgarlik kerakligini yaxshi bilishadi.

Ikkinchi darajali motiv sifatida «hududda yoshlar, xotin-qizlarga yaratilgan komfort sharoitlar»ni 80,0 foiz talaba-qiz o‘z javoblarida qayd etishgan. Ushbu javoblar odatda AnDU vakillari javoblarida ko‘proq aks etgan. AnDU da tahsil olayotgan qizlarning aksariyati Andijon viloyatidan ekanligi ma’lum, ya’ni mahalliy aholi vakili bo‘lishgani sababli, hududda yaratilgan komfort shart-sharoitlardan, ilgaridan bir-biri bilan tanish bo‘lgan shaxslar ustoz-shogird tamoyili asosida birgalikda karyerani rejalashtirishga muvaffaq bo‘lishgan.

Professional karyeraga erishgan xotin-qizlardan farq qilgan holda, 78,0 foiz ushbu toifa sinaluvchilar tomonidan «amalga oshirayotgan faoliyat turining atrofdagilarga foyda keltirishi va vatan ravnaqiga qo‘shadigan ulushi» motivini uchinchi darajali sabab sifatida qayd etishgan. Tanlov sababi sifatida ushbu toifa sinaluvchilarni tevarak-atrofdagi va Andijon viloyati ravnaqaiga bo‘lgan yo‘nalganligini alohida e’tirof etish mumkin.

Tadqiqotning ushbu bosqichida biz respondentlarga V.V. Sinyavskiy va V.A. Fedoroshinlar tomonidan ishlab chiqilgan, mahalliy muhitga V.M. Karimova moslashtirgan «Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» (KOS-2) metodikasi bilan murojaat qildik. Mazkur metodika natijalari bizga xotin-qizlarning ijtimoiy-psixologik ustanovkalarni aniqlovchi sifatlar, tevarak-atrofdagilar bilan ishchanlik muloqotini o‘rnata bilish va bunda tashabbuskorlikni namoyon qila olish darajalarini tushuntirishda qo‘l keldi.

Professional karyeraga erishgan xotin-qizlarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichlarini tahliliga ko‘ra, sinaluvchilarning 12 foizi kommunikativ va 10 foizi tashkiliy faoliyatga moyilliklarining juda past darajada namoyon qilishdi (3.4-jadvalga qarang). Karyerani maqsad qilgan talaba qizlarda esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 1,4 foiz va 1,4 foizni tashkil etdi (3.5-jadvalga qarang). Ikkinchi toifa sinaluvchilarimiz orasidan faqat 1 nafarida kommunikativ va (yoki) tashkilotchilik qobiliyatlarining past darajada namoyon bo‘lishini, odatda rejalashtirilgan professional karyera yo‘nalishining turiga, ya’ni ilmiy tadqiqot borasida tashkil etilishi maqsad qilingan «kasbiy xususiyatlar» orqali tushuntirish mumkin. Sababi, ilmiy izlanish yuzasidan

har bir qabul qilinadigan qaror ko‘pchilikning tanlovi asosida bo‘lishi, sinaluvchi faoliyatidagi xatoliklarni kamaytiradi.

Karyeraga erishgan xotin-qizlar orasidan 4 foiz sinaluvchida professional faoliyatda muhim sanalgan kommunikativ qobiliyat va 2 foiz respondentda tashkiliy mayllarning rivojlanishi o‘rtacha darajadan past darajada ekanligi aniqlandi (3.4-jadvalga qarang). Karyerani maqsad qilgan talaba qizlarimizda bu ko‘rsatkich – mos ravishda – 7,0 foiz va 11,1 foizni tashkil qildi (3.5-jadvalga qarang).

3.4-jadval

Professional karyeraga erishgan xotin-qizlarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi va ular o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti bo‘yicha; n=113)

№	K	Baho	Kommunikativ qobiliyatni namoyon bo‘lish darajasi		r_p
1.	0,10–0,45	1	past	6/12,0	0.335
2.	0,46–0,55	2	o‘rtachadan past	2/4,0	
3.	0,56–0,65	3	o‘rtacha	15/30,0	
4.	0,66–0,75	4	yuqori	15/30,0	
5.	0,76–1,00	5	juda yuqori	12/24,0	
№	**K**	**Baho**	**Tashkilotchilik qobiliyatini namoyon bo‘lish darajasi**		
1.	0,20–0,55	1	past	5/10,0	
2.	0,56–0,65	2	o‘rtachadan past	1/2,0	
3.	0,66–0,70	3	o‘rtacha	3/6,0	
4.	0,71–0,80	4	yuqori	31/62,0	
5.	0,81–1,00	5	juda yuqori	10/20,0	
Manba: muallif tadqiqotlari					

Ushbu ko‘rsatkich, birinchi navbatda, respondentlarning tanlangan professional karyera yo‘nalishidagi faoliyat kontekstida muloqotga kirishish motivatsiyasining kuchini hamda emotsional intellekti darajasining pastligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, bu holat sinaluvchilarning faoliyatni tashkil etishda taym-menejmentga amal qilish darajasini keskin pasaytirib, rahbar va (yoki) xodimlar bilan aloqa o‘rnatishlarida qiyinchilik tug‘diradi. Uchinchidan esa natijalar, sinaluvchilarda rejalashtirilgan professional karyera yo‘nalishida tashabbuskorlikning past darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatib, bu o‘z navbatida, xotin-qizlarda muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jur’at yetishmasligiga sabab bo‘ladi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ–92-son «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»[4] qarorida keltirilgan vazifalarni ijrosi ta’minlash yo‘lida yetakchi lavozimida faoliyat ko‘rsatayotgan qizlarimiz tomonidan «Yoshlar

balansi»ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni «Yoshlar daftari» va «Yoshlar portali» elektron platformalariga kiritib borilayotganligi va har chorakda mahallada yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda yuqori natijadorlikka erishgan mamlakat bo‘yicha eng ilg‘or 100 nafar yetakchi bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanayotganligi orqali izohlash mumkin.

O‘zbekistonda xotin-qizlar professional-xizmat karyerasini rejalashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni empirik o‘rganish asnosida olib borgan izlanishlarimiz, bizga, bob yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:Professional karyeraga erishgan xotin-qizlar shaxsiyatidagi o‘zini o‘zi yaxshi ko‘ruvchi, egotsentrik ustanovkalarga yo‘g‘rilgan qarashlarini korreksiyalash hisobiga autopsixologik kompetentlikni, ya’ni o‘zini o‘zi nazorat qilish xususiyatini rivojlashtirish o‘ta muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullajanova D.S. Boshqaruvda ayollar faolligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Toshkent shahar tuman kengashlari misolida): Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – Toshkent: O‘zMU, 2020. – 48 b.

2. Abdullajanova D.S. O‘zbekistonda boshqaruv kadrlari zaxirasini samarali shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillar: Psixol. fan. dok-ri (DSc) ... dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: O‘zMU, 2023. – 229 b.

3. Abdullayev B.A. Boshqaruv kadrlarini saralashning ijtimoiy-psixologik mezonlari: Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya. – Toshkent: O‘zMU, 2022. – 140 b.

4. https://lex.uz/uz/docs/5831865

5. Ананьев Б.Г. Личность, субъект деятельности, индивидуальность. Проблемы возрастной и дифференциальной психологии. – Москва: Директ-Медиа, 2008. – 209 с.

6. Вебер М. Избранное. Образ общества. – 3-е изд., испр. и доп. / Сост. С.Я. Левит. – Москва; Санкт-Петербург: Центр гуманитарных инициатив, 2017. – 767 с.

Norbosheva Maqsuda,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOLANING OILADA PSIXOLOGIK MOSLASHUVI VA OILADA INTEGRATSIYALASHUV MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy integratsiya tushunchasi, psixologik moslashuv va oilaning integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash dolzarbligi, oilaviy integratsiyaga xalaqit beruvchi omillar, oilaviy integratsiya darajasi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda mavjud bo'lgan sog'liq, uyg'unlik va muvozanat, shu jumladan, insonni oilaning markazidagi rolini qadrlash, uni saqlab qolish uchun oilaning barcha a'zolarining mustahkam, tizimli va izchil munosabatlari va bog'lanishi imkoniyatlari va qiyinchiliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy integratsiya, oilani qollab-quvvatlash, psixologik moslashuv, rivojlanish, omillar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ РЕБЕНКА В СЕМЬЕ И ВОПРОСЫ ИНТЕГРАЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция семейной интеграции, актуальность психологической адаптации и поддержки семейной интеграции, факторы, препятствующие семейной интеграции, уровень семейной интеграции, здоровье, гармония и баланс, существующие в отношениях между членами семьи. приводится информация о возможностях и трудностях подключения.

Ключевые слова: семейная интеграция, поддержка семьи, психологическая адаптация, развитие, факторы.

PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF A CHILD IN THE FAMILY AND ISSUES OF FAMILY INTEGRATION

Abstakt. This article examines the concept of family integration, the relevance of psychological adaptation and support for family integration, factors that hinder family integration, the level of family integration, health, harmony and balance existing in the relationship between family members. information about the possibilities and difficulties of connection is provided.

Keywords: family integration, family support, family integration, development, factors.

Kirish. Har qanday jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oila, insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning axloqiy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan yetuk bo‘lib voyaga yetishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Oila nafaqat ijtimoiy institut, balki bola uchun birinchi tarbiya muassasasi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, bolaning oila muhitiga moslashuvi, uning ruhiy holati, shaxsiy xususiyatlari va umumiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik moslashuv — bu bolaning yangi muhitga, xususan, oilaviy muhitga emotsional, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan uyg‘unlashishi jarayonidir. Bu jarayon samarali kechishi uchun oilada sog‘lom psixologik muhit, o‘zaro tushunish, ehtirom va muhabbat muhiti bo‘lishi zarur.

Shu bilan birga, oilada integratsiyalashuv masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Integratsiyalashuv — bu oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, rollar taqsimoti, birgalikda qaror qabul qilish va yagona maqsad sari harakatlanish jarayonidir. Agar oilada integratsiyalashuv samarali kechmasa, bolaning rivojlanishida turli psixologik muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Ushbu mavzuda tadqiqot olib borish bola psixologiyasi, oila muammolari va ijtimoiy munosabatlar sohasidagi ilmiy asoslarni kengaytirishga xizmat qiladi. Kirish qismida mazkur masalaning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslab beriladi. Oila – insoniyat taraqqiyotining asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, bolaning shaxs sifatida kamol topishi hamda jamiyat hayotiga moslashuvi ushbu maskanda kechadi. Ijtimoiylashuv – uzluksiz va ko‘p qirrali jarayon. Bu jarayon ayniqsa, bolalik va o‘smirlikda jadal kechadi. Agar bu jarayonni obrazli qilib uy qurilishi deb tasavvur qilsa, unda aynan bolalikda butun binoga poydevor qo‘yiladi va quriladi.[2.87]

Maqsad: Bolaning ijtimoiylashuvi — bu juda uzoq davom etadigan, bosqichma-bosqich kechuvchi va murakkab jarayon hisoblanadi. Har qanday jamiyat shunday tuzilgan va shunga intiladiki, har bir bola mazkur jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishi, mavjud me’yor va qoidalarga moslashishi hamda shu asosda teng huquqli va faol jamiyat a’zosiga aylanishi zarur bo‘ladi.

Jamiyat esa o‘z tabiatiga ko‘ra turli xil, o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sir qiluvchi ijtimoiy institutlardan tashkil topgan. Bu institutlar inson hayotining tarixan shakllangan, ijtimoiy ehtiyojlar asosida paydo bo‘lgan va ma’lum vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan tizimli shakllaridir. Ular orqali jamiyat o‘zining mavjudligini saqlaydi, madaniyatini uzluksiz ravishda avloddan-avlodga yetkazadi, tartib-intizomni ta’minlaydi va a’zolarini ijtimoiy qoidalarga muvofiq tarzda tarbiyalaydi.

Bolaning ijtimoiylashuv jarayonida ana shu institutlar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bularni ijtimoiylashgan institutlar deb atash mumkin. Ularga, eng avvalo, oila, ta’lim muassasalari, madaniyat, diniy tashkilotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari ва ijtimoiy tarmoqlar ham kiradi. Bola aynan mana shu

institutlar orqali jamiyatning me'yor va qadriyatlarini o'zlashtiradi, qanday yashash, boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lish, qanday xatti-harakatlar maqbul yoki nomaqbul ekanligini o'rganadi.

Inson rivojlanishi esa oddiy, chiziqli jarayon emas — u ichki va tashqi omillarning o'zaro murakkab ta'siri ostida shakllanadi.

Tashqi omillar deganda, insonni o'rab turgan tabiiy (iqlim, geografik joylashuv) va ijtimoiy muhit (oila, atrof-muhit, maktab, tengdoshlar guruhi) tushuniladi. Bu omillar bolaning shaxsiyati va xulq-atvorini shakllantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy muhitdagi tajribalar, qadriyatlar, muloqot va faoliyat turlari bolaning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bola bilan olib borilayotgan maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat ham tashqi omillar doirasiga kiradi.

Ichki omillar esa biologik va irsiy omillarni o'z ichiga oladi. Bola dunyoga kelganidan boshlab o'ziga xos genetik xususiyatlar, temperament, nerv tizimi, psixik imkoniyatlar bilan jihozlangan bo'ladi. Ularning rivojlanishida esa tashqi omillar qanday ta'sir ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, bola jamiyatga to'liq moslashgan, axloqiy jihatdan sog'lom va ijtimoiy jihatdan faol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ichki va tashqi omillar uyg'un holda, bir-birini to'ldirib ta'sir qilishi lozim. Bu jarayonda esa asosiy mas'uliyat — avvalo oilaga, keyinchalik esa ta'lim tizimi va jamiyatdagi boshqa muhim ijtimoiy institutlarga yuklanadi.


Materiallar va metodlar: "Moslashish" atamasi dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmida ishlatilgan bo'lib, (lotincha adapto-moslashtiraman) nemis fiziologi Aubert ko'rish va eshitish organlarining harakatlarga javoban sezgirligini moslashtirish hodisasiga nisbatan ushbu tushunchadan foydalangan. [1.132]

Ijtimoiy moslashuv esa, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.[2.92]

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b.) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b.). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

1-chizma

Bolaning jamiyatga chiqish chizmasi – sotsializatsiya (ijtimoiylashuv)



Oila – ijtimoiylashishning yetakchi instituti, bu orqali bola asosiy ijtimoiy bilimni egallaydi, axloqiy mohirlik va ko‘nikmani oladi, ma’lum baho va eng yuksak maqsad qilishni o‘zlashtiradi, hayotida nima kerak bo‘lsa shu jamiyatdan oladi.

Oila bola shaxsi rivojlanishidagi eng muhim ijtimoiy omillardan biridir. Oilada ota-onalari va aka-uka, opa-singillari bola uchun, u bilan doimiy aloqada bo‘ladgan birlamchi shaxslar bo‘lib, bola ulardan hayotiy tajribalarni, ko‘nikma va odatlarni, qadriyatlarni o‘rganadi va o‘zini qurshab turgan olamni idrok qilish va harakatlanish usullarini o‘zlashtiradi. Biroq, hozirgi kunda ko‘pgina hollarda oiladagi moslashuv va integratsiyalashuv uchun turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan murakkab jamiyatda yashayapmiz. Masalan, ishdagi kelishmovchilik, ish jadvalidagi tig‘izlikdan tortib, er-xotin munosabatlaridagi nizolar, ajrashish yoki ajralishga qadar, ota-onalardan birining xizmat safarlariga tez-tez borishi yoki oilaning yangi a’zosining ehtiyojlarini tushunmaslik kabilarni aytishimiz mumkin. Shuning uchun, avvalo oilaviy integratsiyani yengillashtirish uchun turli xil tushuncha va mexanizmlarni biz ushbu maqola davomida batafsil muhokama qilishga harakat qilamiz.

Muhokama va natijalar. Oilaviy integratsiya – bu oilada yagona tushuncha, izchil munosabat, umumiy maqsad va qadriyatlarga sodiqlikni yaratish bo‘lsa, moslashish – bu barqaror munosabatlarni shakllantirish va har kimning ehtiyojlarini qondirish uchun oila a’zolarini bir-biriga, yangi sharoitlarga va o‘zgaruvchan rollarga o‘zaro moslashtirish jarayoni bo‘lib, ikkala jarayon ham oilaviy farovonlik uchun muhimdir va er-xotinning nikohga moslashishini ham, asrab olingan bolaning o‘rnini bosuvchi oilaga moslashishini ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Oilaviy integratsiya darajasi oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarda mavjud bo‘lgan sog‘liq, uyg‘unlik va muvozanat, shu jumladan, insonni oilaning markazidagi rolini qadrlash tushuniladi. Uni saqlab qolish uchun oilaning barcha a’zolarining har birining mustahkam, tizimli va izchil munosabatlari va bog‘lanishiga imkon beradigan xatti-harakatlar va urinishlar talab etiladi. Bu shundayki, oila uyushgan va funksional tarzda ishlaydi va uning har bir a’zosi uchun farovonlik yaratish nazarda tutiladi. Ya’ni bundan kutilgan maqsad, uning tarkibiy qismlari o‘rtasida uyg‘unlik va ishonch va ittifoq munosabatlarini

yaratishga alohida qiziqish bilan, umuman oilani rivojlantirishga imkon beradigan sog‘lom oilaviy muhitga erishishdir.

Oilaviy hayotga nisbatan adaptatsiya potensiali ijtiimoiy-psixologik tadqiqot predmeti sifatida o‘tkazilgan izlanayotgan muammo bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, oilaviy hayotga adaptatsiyaning samaraligi ko‘plab omillarga bog‘liq bolib, ular orasida shaxsiy tuzilmalarning muayyan kompleksi yetakchi bo‘ladi va adaptatsiya potensiali sifatida qaralashi mumkin. Bunda ushbu atama, oila kesimida nisbatan yangi bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan turlicha – oilaviy hayotga moslashuvchanlik, muayyan qobiliyatlar, oilaviy hayotga tayyorlik, sifatlar, individual-psixologik xususiyatlar, ularning o‘ziga xos sintezi sifatida talqin qilinadi. [4. 155]

Umuman olganda, oilaviy integratsiya haqida gapirganda, biz mustahkam hurmat asosidagi ahillikni va sog‘lom muloqotni saqlab qolishga qaratilgan, kattalarning o‘z farzandlarining hayotida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan oila doirasidagi sa’y-harakatlarini nazarda tutamiz, bu barcha oila a’zolariga sifatli muloqot va munosabatlarni saqlashga muhim ma’lumot sifatida harakat qilishga imkon beradi.

Bundan tashqari, boshqalar bilan birga yashashga imkon beradigan o‘zaro birlik hurmatini va ijobiy qadriyatlar majmuini rivojlantirishi kerakki, bunda muloqot ham yaxshi bo‘ladi, izchil chegaralarni izlash va qo‘llash osonlashadi, bular esa voyaga yetmaganlar tomonidan ham osonroq tushuniladi. Bundan tashqari, u tajovuzkorlikka yoki tengsiz kuch munosabatlarini izlashga moyil bo‘lgan holda, ijtimoiy bo‘lmagan qadriyatlarni taqdim etishni qiyinlashtirishi mumkin. Xuddi shu tarzda, haqiqatdan qochish yo‘llarini izlash (masalan, giyohvand moddalar kabi) va yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun faolroq izlash rag‘batlantiriladi. Shu bilan birgalikda, yaxshi oilaviy integratsiyaning yo‘qligi konsentratsiya muammolarini, unumdorlikning pasayishini, bezovtalik va qayg‘uga moyillikni, stressli vaziyatlarga duchor bo‘lish qobiliyatini yoki ijtimoiylashuvni pasayishini ma’qullaydi.

Xo‘sh, oilaviy integratsiyaga nima xalaqit berishi mumkin?

Aytganimizdek, oilaviy integratsiyani saqlab qolish va mustahkamlashda oila a’zolari o‘rtasida ijobiy psixologik muhit va sog‘lom iqlimni shakllantirish nihoyatda muhimdir. Ammo haqiqat shundaki, bu jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bir qator omillar mavjud bo‘lib, ular oilaviy muhitning uyg‘unligini buzadi, o‘zaro ishonchni susaytiradi va bolalarning psixologik holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ulardan biri — hozirgi zamonda eng ko‘p uchraydigan muammo — bu oila va ish majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatning buzilishidir. Ayniqsa, ota-onalarning ish vaqti juda band bo‘lsa yoki ular shunchalik charchoq bilan qaytsalarki, bolalar bilan sifatli vaqt o‘tkazishga kuch yoki imkon topa olmasalar, bu holat bolalarning o‘zini yolg‘iz his qilishiga olib keladi. Aksar hollarda, farzandlar ota-onalardan biri bilan deyarli muloqot qilmaydi yoki ularning tarbiyasi

ko‘proq bir tomonga, ko‘pincha onaga yuklanadi. Bu esa oila ichida tenglik, hamkorlik va o‘zaro hurmat tamoyillariga zarar yetkazadi.

Bundan tashqari, ota-onalarning o‘zaro munosabatlaridagi keskinlik, doimiy tortishuvlar yoki bir-birini tushunmaslik holatlari ham oilaviy integratsiyaga jiddiy xalaqit beradi. Bunday muhitda ulg‘ayayotgan bola nafaqat ruhiy bosim ostida yashaydi, balki uning ijtimoiy ko‘nikmalari, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati ham cheklanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning haddan ziyod roli — ya’ni oila a’zolarining har biri alohida telefon, planshet yoki kompyuterga berilib ketishi — o‘zaro muloqot va emotsional yaqinlikni kamaytiradi. Bu holat, ayniqsa, bolalar va ota-onalar orasida hissiy masofa paydo bo‘lishiga olib keladi.

Shunday ekan, oilaviy integratsiyani ta’minlash uchun ota-onalar ongli ravishda birgalikda vaqt o‘tkazish, sifatli muloqot qilish va bolalarning psixologik ehtiyojlariga e’tibor qaratishlari zarur. Bu jarayonda turli xil oila davrasidagi o‘yinlar, sport mashg‘ulotlari, sayrlar yoki oddiy suhbatlar katta ahamiyat kasb etadi. Oila a’zolari bir-biri bilan ko‘proq vaqt o‘tkazgan sari, ular o‘rtasidagi ishonch, bag‘rikenglik va empatiya kuchayadi — bu esa nafaqat bolalarning sog‘lom ruhiy rivojlanishiga, balki butun oila muhitining barqarorligiga xizmat qiladi.

Xulosa. Biz to‘plagan nazariy materiallar va amaliy kuzatuvlarimizga tayanib quyidagi xulosalarni aytishimiz mumkin:

Er-xotin munosabatlaridagi tengsizlikning mavjudligi, oilaviy muhitning har qanday a’zolarining ehtiyojlarini kam baholashi yoki jinoyatchilik, giyohvandlik yoki oiladagi zo‘ravonlik kabi muammolarning mavjudligi ham oilaning parchalanishi muammolari, voyaga yetmaganlarning rivojlanishi uchun salbiy model bo‘lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ishsizlik, ijtimoiy chetga chiqish va yoki o‘ta qashshoqlik holatlari ham ushbu integratsiyani saqlashda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Kuzatilishi mumkin bo‘lgan yana bir mushkullik – bu oila a’zolarining ehtiyojlarini er-xotin va bolalar darajasida idrok eta olmasligi hisoblanadi. Masalan, buni maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan ba’zi bolalarda, intellektual nuqsonlari, autizm, miya yarim falaji yoki aqliy kasalliklari bo‘lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Oilaviy integratsiyani qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Oilaviy integratsiya shunchaki amalga oshiriladigan ish hisoblanmaydi, balki ushbu aloqani ta’minlaydigan dinamika mavjud bo‘lgan oilalar uning barcha tarkibiy qismlarini va ayniqsa bolalarning sog‘lom ruhiyatini rivojlanishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. –Toshkent: Adolat, 2016.
2. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. T.-2009.

3. Norbosheva M. Ijtimoiy va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Termiz-2025.

4. Mamaradjabova B. "Psychological Mechanisms of the Influence of Self-Awareness Strategy on the Development of Children's Emotions in the Family." Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science 2 (2024): 229-232

5. Mambetiyarova V. "Psixologik adaptatsiya strategiyasi va oilaviy integratsiyasi". Ilm-fan taraqqiyotida ilmiy izlanishlar va muhim omillar. 2-to‘plam 1-son, mart, 2025. https://global-science-review.com/.

Qodirova O.Dj.,
Andijon davlat universiteti
"Psixologiya va pedagogika" kafedrasi dotsenti

EMOTSIONAL INTELLEKTINING SHAXS MOTIVATSION POTENSIALIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu makolada emotsional intellekt haqidagi chet el olimlarining qarashlari, shaxsdagi his-tuyg'ular va intellekt birligi muammosi, emotsional intellekt modellari, ijtimoiy intellektiga oid g'oyalar va emotsional intellektning nazariy jihatdan ishlab chiqilgan konsepsiyasi haqidagi fikirlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, qobiliyat modellari, aralash modellar, hissiy kompetensiya, individual o'lchovlar, emotsional kreativlik, emotsional rezonans modeli.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА МОТИВАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье изложены взгляды зарубежных учёных на эмоциональный интеллект, проблемы единства чувств и интеллекта в личности, модели эмоционального интеллекта, идеи, связанные с социальным интеллектом, а также концепции эмоционального интеллекта, разработанные в теоретическом плане.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, модели способностей, смешанные модели, эмоциональная компетентность, индивидуальные измерения, эмоциональная креативность, модель эмоционального резонанса.

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE ON AN INDIVIDUAL'S MOTIVATIONAL POTENTIAL

Annotation. This article presents the views of foreign scholars on emotional intelligence, the issue of the unity of emotions and intellect in an individual, models of emotional intelligence, ideas related to social intelligence, and theoretical concepts developed regarding emotional intelligence.

Keywords: emotional intelligence, ability models, mixed models, emotional competence, individual dimensions, emotional creativity, emotional resonance model.

Bugungi zamonaviy psixologiyada emotsional intellektni rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Emotsional intellektni kelib chiqishi va rivojlanishi chet el olimlarining turli xil qarashlari, nazariyalari, modellari orqali tadqiq etilgan. Rus psixologiyasida tafakkur va hissiyotlarning o'zaro bog'liqligi muammosi turli yo'llar bilan o'rganilgan, masalan, L. S. Vigotskiyning aql va

ta'sir birligi g'oyasi [Vigotskiy, 1999], hissiy va intellektual birligi g'oyasi S. L. Rubinshteyn [Rubinshteyn, 2000], bu funktsiyani oldindan bilish. O.K.Tixomirov maktabining asarlarida aks ettirilgan his-tuyg'ular [Tixomirov,1984]. Tarixiy ravishda qobiliyatlarga ko'proq e'tibor qaratgan G'arb psixologiyasi Emotsional intellekt deb nomlangan yangi konstruktsiya orqali fikrlash va hissiyotlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida bahs yuritdi.

Motivatsion potensial – bu shaxs yoki guruhning ichki imkoniyatlari, resurslari va rag'batlantiruvchi kuchlar majmui bo'lib, u insonning faoliyatda maqsad qo'yishi, qiyinchiliklarni yengib o'tishi va yuqori natijaga erishishida asosiy omil hisoblanadi. Motivatsion potensial – insonning ichki "energiya zaxirasi" bo'lib, uni faoliyatga undovchi psixologik kuchlar yig'indisidir.

Hissiy aql: qobiliyat modellari va aralash modellar Emotsional intellekt g'oyasi tabiiy ravishda E.Torndayke, shaxs va shaxslararo munosabatlar G. Gardnerning ijtimoiy intellektiga oid g'oyalar rivojidan kelib chiqdi. Bitta kontseptual sohada shaxsning ham kognitiv, ham shaxsiy xususiyatlarini birlashtirish zarurati ushbu konstruktsiyani tushunishda nomuvofiqliklar keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni muhokama qilishda odatda qobiliyatli modellar va aralash modellar ajralib turadi. Qobiliyat modellarida Emotsional intellekt odatda kognitiv qobiliyatlar to'plami sifatida tushunchaga ega, ya'ni atama mazmuni bilim va hissiyot sohalarining kesishmasida o'rnatiladi.

Aralash modellar, Emotsional intellekt tushunchasining mazmunini muhokama qilganda, diqqat bilan bog'liq shaxs xususiyatlarini qo'shadilar [Meyer, va boshqalar, 2000]. Emotsional intellektning nazariy jihatdan ishlab chiqilgan konsepsiyasini Dj. Mayer va P.Salovey konsepsiyasi mualliflarining konsepsiyasi deb hisoblash mumkin, bu qobiliyat modellariga tegishli. Ushbu yondashuv doirasida Emotsional intellekt to'rtta asosiy omildan iborat deb ta'riflanadi:

1. Hissiyotlarni aniqlash qobiliyati,
2. Hissiyotlarni fikrlashni yengil ishlatish qobiliyati,
3. Hissiyotlarni tushunish qobiliyati,
4. Hissiyotlarni tartibga solish qobiliyati.

Ushbu to'rt omil shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladi. Emotsional intellekt psixometrik aqlga o'xshaydi, chunki uni to'g'ri va noto'g'ri javoblar yordamida testlar yordamida o'lchash mumkin. [Dj.Meyer, va boshqalar, 2001; P.Salovey, 2005]. D. Goulman tushunchasi, aralash modellarga ham tegishli bo'lib, Emotsional intellekt tushunchasini ommalashtirishda muhim rol o'ynadi. D.Goulmanning so'zlariga ko'ra, Emotsional intellekt (yoki "hissiy kompetentsiya") shaxsiy o'zini o'zi boshqarish, empatiya va boshqalar kabi shaxsiy va ijtimoiy vakolatlarni o'z ichiga oladi. [D.Goulman, 2008]. Shunday qilib, Emotsional intellekt inson faoliyatining muvaffaqiyatining zaruriy sharti sifatida, shuningdek insonning turli xususiyatlari bilan bog'liq. Emotsional intellekt qurilishi amaliy nuqtai nazardan muhim deb qaralishi mumkin, chunki bu nafaqat insonning muvaffaqiyati u yoki bu darajada bo'lishini bashorat qilgani uchun, balki inson emotsional intellekt o'zini norma va patologiyani rivojlantirish

va bilim olishga asoslagngani uchundir (D.Goulman, 2008]. Turli namunalardan foydalanib, Emotsional intellekt o‘quv faoliyatida [Sanchez-Ruiz, 2013] va ishda muvaffaqiyatga erishishni bashorat qilayotgani ko‘rsatildi [Fox, Spector, 2000; Goulman, 2008; Joseph, Newman, 2010; Cherniss, 2000]. Emotsional intellekning psixologik tuzilmalari va konsepsiyasi uning semantik ravishda bog‘liq bo‘lgan ko‘plab tushunchalar mavjudligini ko‘rsatadi ular emotsional intellekning individual o‘lchovlari yoki ularning kombinatsiyasi bilan izohlash mumkin. Bunday tushunchalar emotsional qobiliyat, hissiy yetuklik, hissiy kompetentsiya, hissiy madaniyat va boshqalarni o‘z ichiga oladi. [Andreeva, 2008]. Emotsional intellekning shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liqligini o‘rganishni o‘z ichiga oladi: insonning axloqiy o‘zini o‘zi anglash darajasi, aqlning o‘ziga bo‘lgan hurmati va psixologik ratsionallik ko‘lamini belgilaydi [Kornilova va boshqalar, 2010]. Shu bilan birga, biz Emotsional intellekt va kreativlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni inson tafakkuri jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qobiliyat sifatida o‘rganish juda qiziqarli deb hisoblaymiz, chunki bunday diqqat markazida aqlning birligi muammosi va kontseptualizatsiyaning yangi usullari yoritilgan. Psixologiyada hissiyotlarni turli yo‘llar bilan ijodkorlik bilan bog‘liqligi tasdiqlanadi: hissiyotlar ijodiy jarayonga xalaqit berishi yoki yordam berishi mumkinligi nazariy jihatdan asoslangan taxminlar uning qo‘shimcha mahsulotidir. [Averill, 2005]. Ijodkorlikning ma’lum o‘lchovlarining Emotsional intellekt darajasi bilan o‘zaro bog‘liqligi tadqiqotlardan ma’lum (Sanches-Ruiz va boshqalar, 2011). Ijodiy qobiliyatlarga hissiyotlarning ta’sir qilish mexanizmlarini ochib beradigan hozirgi paytda keng tarqalgan tushunchalardan biri bu T.Lyubart va I. Gettsaning) “Emotsional rezonans modeli” (ERM), [Lyubart, Mishuru, 2005]. Ushbu modelga ko‘ra, odamning tajribasidagi hissiy jihatlari konsepsiyalarga oson kirish orqali ijodiy uyushmalarning shakllanishiga yordam beradi. Mualliflar o‘zlarining modellarida quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: hissiy ifodalar (yoki bu sinf xotirada saqlanadigan tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan odam boshdan kechirgan bema’ni hissiyotlarni o‘z ichiga oladi), birovning hissiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarqatishni ta’minlaydigan avtomatik rezonans mexanizmlari. endocepts va boshqa endocepts dan faollashtiriladi va rezonans faollashtirilgan endoepsiya va tegishli konsepsiya yoki ifodani ishchi xotiraga kiritilishini belgilovchi chegara. Emotsional rezonans tufayli endocepts orqali bog‘langan tushunchalar o‘rtasida aloqa paydo bo‘ladi va bu metafora shaklida o‘zlarini namoyon etadigan turli xil uyushmalar hosil qilish imkonini beradi. Mualliflar tomonidan olib borilgan bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning hissiy ifodalarining kengligi ijodiy faoliyatning mahsuldorligida katta rol o‘ynaydi va bu ta’sir ayniqsa assotsiativ fikrlashning o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Ijodkorlik va hissiyotlarning kontseptual sohalarini uyg‘unlashtirishga sabab buladi.

J.Averill tomonidan amalga oshirigan tadqiqotda, u “hissiy ijod” tushunchasi orqali muammoning o‘ziga xos tushunchasini uning hissiy reaktsiyalarining mazmunini o‘zgartirish qobiliyati sifatida izohladi [Averill, 2000]. Emotsional

reaktsiyalarning bir nechta sinflarini ta'kidlab, muallif, ayniqsa, ularning eng yuqori darajalariga e'tibor qaratadi, bunda odamning reaktsiyasi shu qadar noyob bo'lib, tilda o'z aksini topmaydigan, masalan, sevgi, g'azab, qayg'u va boshqalar tajribasi bilan bog'liq bo'lgan yangi javob usulini ishlab chiqish bilan bog'liq. Hissiy ijodni o'lchashga qaratilgan metodikadan foydalangan holda olingan ma'lumotlarga ko'ra (Emotsional ijodkorlik inventarizatsiyasi, ECI, qarang [Valueva, 2009]), bu yangi tajribaga ochiqlik va Katta beshlik so'rovnomasida hamkorlik ko'lami, odamning o'zini o'zi qadrlashi va o'zini o'zi samaradorligi ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir.[Valueva,2009]. Emotsional intellekt va hissiy ijodkorlik insonning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun hissiyot va aqldan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ammo, agar hissiy intellekt hissiyot bilan bog'liq muammoga yagona to'g'ri reaktsiyani tanlashga qaratilgan tahliliy ko'nikmalarni talab qilsa, unda hissiy ijodkorlik, aksincha, odatiy reaktsiyadan qochishga qaratiladi. Xuddi shunga o'xshash vaziyatlarda qarama-qarshi munosabat tendentsiyalari bo'lgan ushbu ikkita konstruktsiyani taqqoslash Z. Ivkevich va uning hamkasblari tomonidan olib borildi. Olingan natijalarga ko'ra, hissiy ijod va Emotsional intellekt nisbatan n o'zgaruvchan [Ivcevic et al., 2007]. Emotsional intellekt va hissiy ijodning bevosita shaxsning ijodiy harakatlariga ta'siri ham munozarali masala bo'lib qolmoqda. Turli xil xorijiy mualliflarning fikriga ko'ra, ijodiy fikrlashni hissiy idrokni yaxshiroq tushunish va o'z-o'zini ifoda etish, hissiyotlarning fikrlashga turli xil ta'sirini tushunish va turli xil his-tuyg'ularni turli xil faoliyatlar bilan kuchaytirish yoki zaiflashtirish mumkinligini anglash tufayli osonlashtirish mumkin (Dj.Meyer, P.Salovey,1997). Boshqa tomondan, hissiy ijod turli his-tuyg'ularni ifodalash bilan bog'liq ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Biroq, ba'zi tadqiqotlar hissiy aql va ijodkorlik o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni topa olmaydi (Ivcevic et al., 2007]. Emotsional ongning shaxsning ijodiy faoliyatining muvaffaqiyati bilan bog'liqligi haqidagi taxminning nazariy asosliligi G'arb tadqiqotchilarini insonning hissiy qobiliyatlarini ijodiy jarayonga vositachilik bilan ta'sir qilish g'oyasiga olib keladi. Xususan, aloqaning yetishmasligi Emotsional intellekt muayyan ijod turlariga qisman ta'siri bilan izohlanishi mumkin. (o'zlarining hissiy holatini boshqarish bilan bog'liq ijodiy faoliyatning ekspressiv turlari). O'z navbatida, Emotsional intellekt, hissiyotlar va ijodkorlik o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish bilan shug'ullanishi mumkin. SHunga o'xshash ta'sir Dj.Mayera, va E. Xansonning kayfiyatni muvofiqlashtiruvchi hukm effekti deb nomlangan materialida o'tkazilgan tadqiqotda ko'rsatildi, g'oya va kayfiyat bir xil darajada "yoqimli" bo'lganda, g'oya odamga taqdim etiladi. yanada jozibali va aksincha [Meyera, , Hanson, 1995]. SHunga o'xshash natijalar hissiyotlar va xotira jarayonlarini bog'lashda ko'rsatildi [Meyera, va boshqalar, 1995]. Emotsional intellekt va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlik turli o'ziga xos tomonlarda faol o'rganilmoqda.Emotsional intellekt tadqiqotlari natijalarining boshqa o'zgaruvchilar bilan bog'liqligi, odatda, mualliflar nafaqat asosli nuqtai nazardan, balki har bir aniq ishda foydalanilgan

Emotsional intellektni o‘lchash uchun nazariy uslubiy metodlar orqali tushuntiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Andreyeva I.N. “Hissiy intellect” tushunchasini shakllantirish to‘g‘risida. Psixologiya masalalari, 2008 yil, №. 5, 83–95.

2.Valueyva E.A. Emotsional ijodning diagnostikasi: J. Everill so‘rovnomasini moslashtirish. Kitobda: D.V. Lyusin, D.V. Ushakov (Ed.), Ijtimoiy va hissiy aql: jarayonlardan o‘lchovlargacha. M .: RAS Psixologiya instituti, 2009 yil.

3.Vigotskiy L.S. Fikrlash va nutq. M .: Labirint, 1999 yil.

4.Goulman D. [Goulman D.] Hissiy aql. M .: AST, 2008 yil.

5.Drujinin V.N. Umumiy qobiliyat psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Piter, 2008 yil.

6.Kornilova T.V., Smirnov S.D., CHumakova M.A., Kornilov S.A., Novototskaya-7.Vlasova E.V. Aniqlangan nazariyalar K.Dvekning so‘rovnomasini o‘zgartirish (talabalarning o‘quv yutuqlarini o‘rganish kontekstida). Psixologik jurnal, 2008, 29 (3), 106-120.

Юлдашева Фарогат Туракуловна,
д.ф.п.н (PhD)
межфакультетской кафедры языков
ФЖиУФ НУУз имени М.Улугбека

ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. Данная статья рассматривает роль и значение русского языка в современном мире, а также его влияние на культуру, образование и международные отношения. Исследуется исторический контекст развития русского языка и его значимость на международной арене.

Ключевые слова: международный язык, коммуникация, литература, распространение, кино, театр, диапазон, международная политика, культурное наследие, идентичность народа.

ZAMONAVIY JAMIYATDA RUS TILINING AHAMIYATI VA ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqola xozirgi zamonda rus tilining roli va ahamiyatini, shuningdek, uning madaniyatga, ta'lim va xalqaro munosabatlarga ta'sirini ko'rsatib beradi. Rus tili rivojlanishining tarixiy mazmuni va uning xalqaro maydonda ahamiyati o'rganilmoqda

Kalit so'zlar: Xalqaro til, aloqa, adabiyot, tarqalish, kino, teatr, oraliq, xalqaro siyosat, madaniy meros, o'ziga xoslik.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE RUSSIAN LANGUAGE IN MODERN SOCIETY

Abstract. This article considers the role and significance of the Russian language in the modern world, as well as its influence on culture, education and international relations. The historical context of the development of the Russian language and its significance in the international arena are investigated

Keywords: international language, communication, literature, spread, cinema, theater, range, international politics, cultural heritage, identity.

Русский язык - один из мировых языков. Такой статус язык получил в XX веке. Распространение русского языка было во многом следствием деятельности Российской империи, затем СССР и современной России. Статус русского языка был закреплён в ООН, где русский является одним из шести официальных международных языков. Русский язык является одним из самых распространенных языков в мире. Русский язык известен своей красотой и выразительностью и имеет свои особенности, которые делают его уникальным. Русский язык также играет важную роль в образовании и

является одним из основных предметов в школах и университетах. Он используется для обучения иностранных студентов, которые хотят изучать русскую культуру и язык. Кроме того, русский язык имеет большое значение в международной политике. Россия является одной из ведущих держав в мире, и русский язык используется в международных переговорах и дипломатических отношениях.

В современном обществе русский язык играет ключевую роль в различных сферах жизни. Он используется в деловом общении, научных исследованиях, культурном обмене, международных отношениях и туризме. Русский язык также имеет большое значение для сохранения культурного наследия и идентичности народа. Русский язык является неотъемлемой частью массовой культуры, оказывая значительное влияние на ее развитие. В современном обществе русский язык используется в различных сферах массовой культуры, таких как кино, телевидение, музыка, литература и театр.

Русский язык - национальный язык русского народа, государственный язык Российской Федерации и язык межнационального общения. Русский язык является родным для более чем 150 млн. человек. По разным подсчётам ещё от 200 до 350 млн. владеют им как вторым языком на разном уровне и используют в качестве языка повседневного общения в многонациональной среде, а также как язык образования и науки.

Одной из основных сфер, где русский язык играет важную роль, является киноиндустрия. Российское кино получило широкую известность благодаря своим фильмам, которые снимаются на русском языке. Русский язык помогает передать настроение и эмоции актеров, а также создать атмосферу фильма. Кроме того, русский язык используется в субтитрах и озвучке зарубежных фильмов, что позволяет российской аудитории лучше понимать их содержание.

Телевидение также является важной сферой массовой культуры, где русский язык играет ключевую роль. Большинство телепередач и новостей транслируются на русском языке, что позволяет широкой аудитории понимать их содержание. Русский язык также используется в различных развлекательных программах и шоу, которые пользуются большой популярностью среди зрителей.

Музыка является еще одной важной сферой массовой культуры, где русский язык играет важную роль. Русскоязычные песни пользуются большой популярностью как в России, так и за ее пределами. Русский язык помогает передать эмоции и чувства, которые исполнитель хочет донести до своей аудитории. Кроме того, русский язык используется в текстах песен и клипах, что помогает зрителям и слушателям лучше понимать их содержание.

Литература и театр также являются важными сферами массовой культуры, где русский язык играет ключевую роль. Русскоязычные пьесы и книги пользуются большой популярностью как в России, так и за ее

пределами. Русский язык помогает передать атмосферу и настроение произведения, а также создать образы героев. Кроме того, русский язык используется в субтитрах и озвучке зарубежных произведений, что позволяет российской аудитории лучше понимать их содержание.

Русский язык играет важную роль в образовании и науке. Он является языком общения в учебных заведениях и научных кругах, а также языком передачи знаний и исследований. В учебных заведениях русский язык используется как основной язык обучения. Он позволяет ученикам и студентам лучше понимать учебный материал, общаться с преподавателями и своими одноклассниками. Русский язык также является основой для изучения других предметов, таких как литература, история и обществознание.

В науке русский язык используется для передачи научных знаний и исследований. Научные статьи, доклады и отчеты пишутся на русском языке, что позволяет ученым из разных стран обмениваться информацией и сотрудничать между собой. Русский язык также является основой для изучения других языков, так как большинство научных терминов имеют латинские корни.

Русский язык – один из развитых языков. Он обладает богатым словарным запасом и терминологией по всем областям науки, техники, культуры, выразительностью лексических и грамматических средств, развитой системой функциональных стилей, способностью отобразить все многообразие и богатство окружающего мира.

Русский язык также играет важную роль в сохранении культурного наследия и истории народа. Он позволяет сохранить и передать знания о традициях, обычаях и культуре русского народа и является основой для изучения русской литературы, искусства и музыки.

Литература на русском языке является одной из самых значимых в мировой культуре. Русские классики, такие как Лев Толстой, Федор Достоевский, Антон Чехов и Иван Тургенев, написали произведения, которые стали классикой мировой литературы. Эти произведения не только сохраняют историю русского народа, но и отражают универсальные человеческие ценности.

Театр на русском языке также играет важную роль в сохранении культурного наследия и истории народа. Русский театр имеет богатую историю, начиная с Московского художественного театра и заканчивая современными театрами, такими как Театр.doc и Театр на Таганке. Русский театр не только сохраняет историю России, но и отражает универсальные темы, такие как любовь, смерть и человеческие отношения.

В целом, русский язык играет важную роль в сохранении культурного наследия и истории народа. Литература, кинематография и театр на русском языке не только сохраняют историю России, но и отражают универсальные темы, которые актуальны для всех людей в мире.

Однако, несмотря на все его преимущества, русский язык сталкивается с некоторыми проблемами в современном обществе. Одной из главных проблем является упадок грамотности. Многие люди не умеют правильно писать и говорить на русском языке, что приводит к непониманию и ошибкам в коммуникации. Эта проблема связана с тем, что многие люди не уделяют достаточного внимания изучению русского языка, а также с изменением языка под влиянием современных технологий и медиа.

Еще одной проблемой является утрата культурной и литературной ценности русского языка. Многие люди забывают о богатой литературной традиции и культурном наследии, которые связаны с русским языком. Это может привести к потере части национальной идентичности и культурного наследия.

В современном мире русский язык по-прежнему играет важную роль в качестве мирового языка, транслятора научных достижений и культурных ценностей и средства формирования межнациональных связей.

Таким образом, русский язык является неотъемлемой частью массовой культуры и современного общества. Он является не только языком общения, но и основой для передачи знаний, сохранения культурного наследия и истории народа. Его роль и значение огромны, и он продолжает оставаться важным инструментом для передачи знаний, сохранения культурного наследия и общения людей. Важно помнить о необходимости развития и изучения русского языка, чтобы сохранить его важность и роль в мировом сообществе.

Использованная литература:

1. Кузнецова, О.А. Русский язык в массовой культуре: проблемы и перспективы / О.А. Кузнецова // Вестник Удмуртского университета. Т. 27, № 1. – С. 8-13. 2017.

2. «Русский язык в мире» // Википедия, свободная энциклопедия. https://ru.wikipedia.org/wiki/Русский_язык_в_мире.

3. Прокопцова Н. М. «Значение русского языка в современном мире» // Образовательная социальная сеть nsportal.ru. https://nsportal.ru/shkola/materialy-metodicheskikh-obedinenii/library/2017/01/24/znachenie-russkogo-yazyka-v.

4. Хачатрян А. М. «Значение русского языка в современном мире» // Фестиваль педагогических идей «Открытый урок». https://urok.1sept.ru/articles/688989.

5. Остапенко С. П. «Русский язык в современном мире» // spravochnick.ru. https://spravochnick.ru/russkiy_yazyk/russkiy_yazyk_v_sovremennom_mire.Кузнецова, О.А. Русский язык в современном обществе: значение и перспективы развития / О.А. Кузнецова // Научный результат. Серия «Гуманитарные исследования». Т. 3, № 3. – С. 9-16. 2017.

6. Лебедева, Е.А. Русский язык в массовой культуре: история и современность / Е.А. Лебедева // Вестник Московского университета. Серия 19: Лингвистика и межкультурная коммуникация. Т. 2, № 1. – С. 43-49. 2016.

7. Смирнова, Е.В. Русский язык в массовой культуре: традиции и новации / Е.В. Смирнова // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика. Т. 22, № 1. – С. 88-94. 2018.

8. Чернышева, Н.А. Русский язык в массовой культуре: роль и значение в современном обществе / Н.А. Чернышева // Вестник Томского государственного университета. Филология. Т. 48, № 2. – С. 143-149. 2019.

Qosimova Gavhar Islomovna,
Turon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)
Xayitova Yulduz Saidovna,
Turon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti

ONA TILI FANI O'QITUVCHISINING LINGVODIDAKTIK TAYYORGARLIGINI AMALGA OSHIRISHDAGI YONDASHUVLAR TAVSIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ona tili fani o'qituvchisining lingvodidaktik tayyorgarligida kompetensiyaviy, kommunikativ, innovatsion, integrativ va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar uyg'unlashgandagina samarali natijaga erishishi, shu bilan birga yondashuvlar bo'lajak o'qituvchini zamonaviy ta'lim talablariga mos, ijodkor, mustaqil fikrlovchi va texnologiyalarni biluvchi mutaxassis sifatida shakllantirishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ, innovatsion, integrativ**,** aksiologik yondashuv, konstruktiv, antropologik yondashuv.

ОПИСАНИЕ ПОДХОДОВ К РЕАЛИЗАЦИИ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЯ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье речь пойдет о том, что эффективного результата учитель родного языка может достичь только при сочетании компетентностного, коммуникативного, инновационного, интегративного и личностно-ориентированного подходов в лингводидактической подготовке. При этом сообщается, что подходы формируют будущего педагога как творческого, независимого мыслителя и технически подкованного специалиста, соответствующего требованиям современного образования.

Ключевые слова: коммуникативный, инновационный, интегративный, аксиологический подход, конструктивный, антропологический подход.

DESCRIPTION OF APPROACHES TO IMPLEMENTING THE LINGUODIDACTIC TRAINING OF A NATIVE LANGUAGE TEACHER

Abstract. This article discusses the fact that a native language teacher can achieve effective results only by combining the competency-based, communicative, innovative, integrative, and personality-oriented approaches in linguodidactic training. It is reported that these approaches shape the future teacher as a creative, independent thinker and a technically competent specialist who meets the requirements of modern education.

Keywords: communicative, innovative, integrative, axiological approach, constructive, anthropological approach.

Ona tili fani o‘qituvchilarini tayyorlashda yetakchi lingvodidaktik yondashuvlarni aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni didaktika nuqtai nazaridan lingvistik tahlili amalga oshirildi. Quyida o‘qituvchilarni lingvodidaktik tayyorgarligini amalga oshirishning yetakchi yondashuvlarini ko‘rib chiqamiz.

Aksiologik (dunyoqarashga oid) yondashuv tahsil oluvchilarda o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan qadriyatli munosabatni rivojlantirish uchun tayanch ma’nolar sifatida til va inson shaxsiga qarashni shakllantirish g‘oyasiga asoslanadi. Ona tili fani o‘qituvchilarining lingvodidaktik tayyorgarligini amalga oshirishning aksiologik yondashuvi turli yo‘nalishlarda rivojlanmoqda. Lingvodidaktik tayyorgarligini amalga oshirishning aksiologik yondashuvi uning ishlab chiquvchilari tomonidan konstruktiv va istiqbolli, tahsil oluvchilarning kasbga ijobiy motivatsiyasini shakllantirishga, tahsil oluvchilarning bilim, kasbiy ahamiyatli va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga, shuningdek, bitiruvchilar kasbiy madaniyatni ta’minlashga asoslangan deb qaraladi [238, 227-b]. Bunday muammolarni hal qilish metodik diskursda, uni variativligining va muammoli tabiatining keng ma’nosida maktab amaliyoti bilan o‘zaro bog‘liqligida ko‘rinadi. Bu yangi texnologiyalar bilan tanishish uchun tayanch vazifasini bajarib, bunday diskursda asosiy e’tibor uning shaxs rivojlanishida qadriyatli salohiyatiga qaratiladi. Aksiologik yondashuvga asoslangan ona tili fani o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi – o‘zining ijodiy izlanishida mustaqil mutaxassis-bilimdonni, milliy madaniyatda ildiz otgan va madaniy-ijodiy faoliyatga qodir shaxsni tayyorlash imkonini beradi [238, 235-236 b]. Kreativ yondashuv ham bo‘lajak ona tili fanidan o‘qituvchilarni lingvodidaktik tayyorgarligini amalga oshirish jarayonida qadriyat yo‘nalishlari va ahamiyatini rivojlantirishga asoslanadi.

Antropologik (boshqa terminologiyada – antropotsentrik) yondashuv o‘qitishni tahsil oluvchi shaxsiga markazlashtirish, kasbiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish uchun ichki zaxiralarni (motivlar, qadriyatlar, qiziqishlar, maqsadni belgilash) izlash orqali barkamol shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi. Antropotsentrik yondashuv urg‘uni bilish obyekti sifatidagi tildan subyektga (til shaxsiga) o‘tkazish bilan bog‘liq. Mazkur yondashuv tilning inson tafakkuri, dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi kuch ekanligi haqidagi g‘oyaga asoslanadi.

Lingvodidaktik tayyorgarlikda antropotsentrik yondashuv bo‘lajak ona tili fanidan o‘qituvchilar tayyorgarligini “shaxs tili”, “dunyoning lingvistik manzarasi”, “dunyoning individual lingvistik manzarasi” tushunchalarini o‘zlashtirishi hamda til shaxsini shakllantirish usullarini, maktab o‘quvchilarining shaxsiyatini kommunikativ-axloqiy tarbiyalash uslublarini egallashi bilan bevosita bog‘liqdir.

Antropotsentrik yondashuvning g‘oyalari kreativ yondashuvning tayanch g‘oyalari bilan hamohang bo‘lib, u ham tizimli ta’limning barcha komponentlarini

(universal yoki umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy yoki maxsus lingvodidaktik bilim, ko‘nikma va ijodiy faoliyat tajribasi) o‘zlashtirgan, tilning ta’sir kuchi ostida bo‘lgan hamda ona tili fani o‘qituvchisining kasbiy pozitsiyasidan anglangan yaxlit shaxs sifatida shakllanadigan tahsil oluvchiga markazlashadi.

Faoliyatli (tizimli-faoliyatli) yondashuv tahsil oluvchi kasbiy faoliyatining faol pozitsiyasiga asoslanadi. Yondashuv asosiga qo‘yilgan asosiy g‘oyalar psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, tahsil oluvchi – bo‘lajak ona tili fanidan o‘qituvchilarni – lingvodidaktik materialni o‘zlashtirish mazmuni, usullari va darajasini tanlashda faol, uning lingvodidaktik bilim va ko‘nikmalarini kengaytiradigan, to‘ldiradigan fanlarni tanlashda erkin bo‘lganda o‘qitishda subyekt-subyekt munosabatlariga yo‘naltirilganligini hisobga oladi. Yondashuv faoliyatning kasbiy turlarini o‘zlashtirish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish, ta’lim uzluksizligi va mustaqil ta’lim g‘oyasiga asoslanadi.

Faoliyatli yondashuv talaba va so‘zlar tahlili - lingvodidaktik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan kreativ yondashuv bilan hamohangdir, chunki kreativ yondashuv ham lingvodidaktik faoliyatning barcha ehtimolli metodlari va turlarini o‘rganishda shaxsiy xususiyatlarga mos lingvodidaktik o‘quv materialini o‘zlashtirishning eng maqbul metodini tanlash imkoniyatini ham nazarda tutadi, buning asosida esa talaba shaxsining o‘z-o‘zini rivojlantirishi sodir bo‘ladi.

Ona tili fani o‘qituvchisining lingvodidaktik tayyorgarligini amalga oshirishda integrativ yondashuv ona tili fani o‘qituvchilarini tayyorlashda psixologik-pedagogik (“Anatomiya, fiziologiya va gigiyena”, “Pedagogika”, “Psixologiya”, “Defektologiya asoslari” fanlari va ularga yo‘ldosh tanlov fanlari va modullari), lingvistik (“Tilshunoslikka kirish”, “Til nazariyasi”, “Til tarixi”, “Ona tilini o‘qitish metodikasi” hamda bilim va ko‘nikmalarni kengaytirish imkonini beradigan tanlov fanlari va modullari) va lingvodidaktik (“Ona tili metodikasiga kirish”, “Ona tilini o‘qitish metodikasi” va ularga turdosh tanlov fanlari va modullar) tashkil etuvchilarning fanlararo integratsiyasini nazarda tutadi.

“Haqiqiy metodist doimo ayni paytda yaxshi tilshunos hamdir” [765, 9-b]. Integratsiya nafaqat mazmun darajasida, balki faoliyat darajasida: talabalarning ta’lim va tadqiqot faoliyati natijasida ham bo‘lishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari (OTM) integratsiya va maktab tushunchalari, ta’riflari, qoidalarini qiyoslash va shu asosida yangi bilimlarni olish darajasida muhim ahamiyatga ega.

Bunday ishlar talabalarga ona tili, uning tizimliligi va me’yoriyligi haqida bilishi kerak bo‘lgan yangi narsalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va shu bilan birga ona tilining maktab kursi bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni takrorlaydi. Integrativ yondashuv, shuningdek, nazariy-amaliy lingvodidaktik tayyorgarlikni amalga oshirishning oqilona birlashmasini, an’anaviy va innovatsion

texnologiyalarning o‘zaro boyitilishini, o‘qitishda talabalarning hissiy jihatlari va ijodkorligini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Integrativ yondashuv g‘oyalari kreativ yondashuv nazariyasi bilan hamohangdir, chunki talabalarning so‘zlarni tahlil qila olishi – lingvodidaktik tafakkurining ijodiy yondashishga asoslangan rivojlanishida boshqa fanlardan bilim, ko‘nikma va tajribani jalb qilish, o‘quvchining maktab o‘quvchisi sifatidagi tajribasiga o‘zining kasbiy lingvistik va metodik tushunchasini yangi bosqichda aks ettirish, olingan lingvodidaktik bilimlar asosida lingvodidaktik muammoli vaziyatlarni hal qilish, shuningdek, ijodiy yondashuvda intellektual va hissiy salohiyatning birlashishi sodir bo‘ladi.

Tadqiqotchilik yondashuvi lingvodidaktik bilimlarni tayyor shaklda emas, balki uni mustaqil izlash jarayonida, ma’lumotlar bilan ishlashning afzal usullarida namoyon bo‘ladigan individual fikrlash uslubini o‘zlashtirgan holda olish zarurligiga asoslanadi.

Tadqiqotchilik komponenti kreativ yondashuvda mavjud bo‘lib, lingvodidaktik ko‘nikmalarni rivojlantirishning ijodiy usullari guruhiga kiradi.

Lingvodidaktik tayyorgarlikka tarixiy yondashuv metodologiya tarixiga murojaat qilish, lingvodidaktik yangiliklarni ularning tarixiy manbalarini izlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, yangi texnologiyalarni loyihalashda ijobiy va salbiy tajribalarni hisobga olishga asoslangan. Talabaning so‘zlarni tahlil qila olishi - lingvodidaktik tafakkurni rivojlantirishga kreativ yondashishda komponentlarning biri bo‘lib, lingvistik metodlarning tarixiy rivojlanishini o‘tmishdagi ilmiy tadqiqotchilar va amaliyotchi o‘qituvchilarning lingvodidaktik muammolarni hal qilish tajribasi modeli sifatida tushunish hisoblanadi.

Ona tili fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashda kognitiv yondashuv kognitiv psixologiya, pedagogika va lingvistika tamoyillariga asoslanadi. Bu ta’limning barcha bosqichlarida anglanganlikni, talabalarning turli kognitiv metodlarini hisobga olishni nazarda tutadi, ya’ni pedagog va talabalar bir-birini bilish va tushunish usullarini o‘zaro hisobga oladi, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar hamkorlik g‘oyasi asosida quriladi.

Bo‘lajak ona tili fanidan o‘qituvchilarni lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirishga kreativ yondashish talabalarning mental tajribasini hisobga olish, ularda kognitiv sxemalarni shakllantirishga asoslanadi.

Kompetentli yondashuv barcha metodistlar tomonidan ona tili fanidan o‘qituvchilarni lingvodidaktik jihatdan tayyorlashda yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Uning asosiy g‘oyasi – ona tili metodikasini o‘qitish jarayonida fundamental lingvodidaktik nazariyani va kasbiy sinovlar natijasida olingan shaxsiy amaliyotni ongli ravishda o‘zlashtirish asosida maktab o‘quvchilariga ona tilini o‘rgatishga tayyor bo‘lgan malakali shaxsni shakllantirish

zaruratidir. Lingvodidaktikada eng faol ishlab chiqilgan yondashuv sifatida kompetentlik yondashuvi turli jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Kompetentli yondashuv ham kreativ yondashuv bilan bog‘liq, chunki bo‘lajak ona tili fanidan o‘qituvchining lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirish jarayonida lingvodidaktik kompetensiyalar shakllanadi

Talabalarni so‘zlarni tahlil qila olishi – lingvodidaktik tayyorgarlikda madaniyatshunoslik (boshqa atamashunoslikda – lingvomadaniyatshunoslik) yondashuv mashg‘ulotlarda xulq-atvor va muloqotning kasbiy madaniyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish bilan bog‘liq.

Talabani metodik tayyorgarligini amalga oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabalarning psixologik va kasbga yo‘naltirishni hisobga olishga asoslanadi. Ona tili fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish jarayonida ularning subyektivligi, kasbiy qarashlari va individual afzalliklari shakllanadi va bo‘lajak o‘qituvchilik kasbiga nisbatan shaxsiy-subyektiv pozitsiyasi shakllanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv lingvodidaktik muammoli vaziyatlarni hal qilishda qadriyat, shaxsiy va refleksiv xususiyatlarni hisobga olishning umumiy tamoyillari nuqtai nazaridan kreativ yondashuv bilan bevosita bog‘liq.

Ona tili fanidan o‘qituvchilarni tayyorgarligini amalga oshirishda muammoli yondashuv muammolilik g‘oyasiga asoslanib, asosiy toifalari oliy ta’limda muammoli o‘qitishni rivojlantirishga tayanadi. Muammoli va kreativ yondashuvlarning yaqinlashishi har ikkala yondashuvning ham muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilganligi bilan asoslanadi.

Metodni tanlashda o‘qituvchining vazifasi – bunday o‘zaro ta’sir jarayonida ona tilini o‘rgatish orqali o‘quvchilarning ichki rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini va ularga shaxsiy ma’nolarni, axloqiy qadriyatlarni, me’yorlarni, ideallarni izlashda qanday yordam berishni va kabilarga nisbatan hissiy munosabat standartlarini tushunishdan iborat. “...so‘zning pedagogik ta’sirchan bo‘lishi uchun u badiiy va ritorik jihatdan mukammal bo‘lishi kerak” [307, 16-b]. Albatta, kreativ yondashuvda bo‘lajak ona tili o‘qituvchisi kasbga yo‘naltirilgan janrlarning barcha turlarini (o‘qituvchi nutqining tushuntirish, baholash, diskursiv va boshqa turlari) o‘zlashtirishi muhim, lekin kreativ yondashuv nazariyasida bu jihat hali batafsil ko‘rib chiqilmagan.

Tizimli yondashuv obyektlarni tizimda ko‘rib chiqishga, ya’ni lingvodidaktik hodisa va holatlarni muayyan bog‘lanishlar bilan shartlangan, uning komponentlarining oddiy yig‘indisiga qisqartirib bo‘lmaydigan murakkab birlik sifatida tahlil qilishga asoslanadi. Lingvodidaktik tayyorgarlikda tizimli yondashuvda asosiy e’tibor ko‘rib chiqilayotgan lingvodidaktik hodisa yoki holat doirasidagi aloqalar va munosabatlarning xilma-xilligini, shuningdek, uning boshqa ilmiy, hayotiy sohalarning tashqi obyektlari, hodisalari va holatlari bilan

bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan. Ya’ni hodisa yoki holatning alohida elementlarini aniqlashtirish emas, balki uning butun murakkab tuzilishini ochib berish kerak bo‘ladi. Tizimli yondashuv kreativ yondashuvda ham o‘z ifodasini topadi, bunda lingvodidaktik muammoli vaziyatning elementlari alohida emas, balki ularning barcha aloqalari, shuningdek, taklif qilingan har bir vaziyat uchun vaziyatni rivojlantirishning ehtimolli muqobil yechimlari o‘rganiladi.

Shunday qilib, ijodiy yondashuv ona tili o‘qituvchilarining lingvodidaktik tayyorgarligida yetakchi tamoyillarining ko‘plab g‘oyalarini birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Novolodskaya E.G. “Methods of teaching the subject “The world around us” in elementary school” Teaching aid 2016.

2. Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Karimova F. 4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – T.: “Sharq”, 2017. – 240-b.

3. Begimqulov U. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. diss. – T.: TDPU, 2007. – 305.

4. Shodiyev R.D., Mukhammadiyeva M.M. The study of the surrounding world by primary school students on the basis of the humanistic concept of personality development.//Actual problems of the humanities and natural sciences. №2-3.2015.

5. Shodiyev R.D., Qosimova G.I. Science and its teaching methods. Study guide. - Against: Nasaf, 2021. - 130 p.

Рахимова Алла Иннокентьевна,
старший преподаватель
Калинина Ольга Николаевна,
старший преподаватель
Национального университета Узбекистана

ИЗУЧЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО: КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Аннотация. В статье рассматриваются особенности профессионального общения студентов национальных групп на уроках русского языка. Акцент делается на необходимости внимания к культурологическому аспекту изучения русского языка, позволяющего рассматривать овладение студентами язык, на котором ведется преподавание дисциплины в вузе, с учетом коммуникативного и этического компонентов культуры речи, не ограничиваясь нормативным, избыточное внимание к которому зачастую закрепощает студента в его речевой практике.

Ключевые слова: русский язык, культура речи, язык, ситуация общения; межкультурная коммуникация.

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘RGANISH: MADANIY ASPEKT

Annotatsiya. Maqolada rus tili darslarida milliy guruhlar talabalarining kasbiy aloqalarining xususiyatlari muhokama qilinadi. Asosiy e'tibor rus tilini o‘rganishning madaniy jihatlariga e'tibor qaratish zarurligiga qaratiladi, bu esa talabalarning universitetda mutaxassisligi o‘qitiladigan tilni o‘zlashtirishini, nutq madaniyatining kommunikativ va axloqiy tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda, normativ bilan cheklanmasdan ko‘rib chiqishga imkon beradi, bunga haddan tashqari e'tibor ko‘pincha talabani nutq amaliyotida mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: rus tili, nutq madaniyati, til, aloqa holati; madaniyatlararo aloqa.

STUDYING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE: THE CULTURAL ASPECT

Annotation. The article discusses the features of professional communication of foreign students during Russian language lessons. The emphasis is on the need for attention to the cultural aspect of studying the Russian language, which allows us to consider students' mastery of the language in which the discipline is taught at the university, taking into account the communicative and ethical components of speech culture, not limited to the normative, excessive attention to which often enslaves the student in his speech practice.

Keywords: Russian language, culture of speech, language, communication situation; intercultural communication

Введение.

Говоря о культурологическом аспекте изучения русского языка, необходимо учитывать комплекс проблем. Причем проблемы эти можно разделить на две группы: общие и конкретные. Общие проблемы связаны с вопросами влияния родной культуры обучающегося и восприятия им иной (в данном случае - русской) культуры; преодоления обучающимся «культурного шока»; установления межкультурной коммуникации. Конкретные проблемы связаны с изучением и использованием языка; определением особенностей научного языка специальности на фоне общих лингвистических черт научного стиля; определением места языка специальности среди общеупотребительных средств и элементов языка.

Основная часть. Развитие культурологического подхода можно рассматривать как одно из условий становления нового направления гуманитарного знания – культурологии образования. Ее появление обусловлено тем, что в сфере образования проявляются отрицательные социокультурные факторы и противоречия:

- недостаточный культурный уровень некоторых обучающихся и их семей;
- низкий уровень материальной базы многих учебных заведений, затрудняющий качественную организацию культурной деятельности;
- недостаточная связь и взаимодействие учреждений образования с прочими субъектами социокультурного комплекса;
- низкий уровень культуры общения, культурной грамотности основной массы выпускников, которые в дальнейшей жизни не могут обеспечить своим трудом необходимую высокую культуру современного производства и требуемого качества жизни [1, с.523].

Работа над русским языком как иностранным сопряжена с необходимостью формирования лингвокультурологической компетенции учащихся. Данный подход связан с тем, что новая лексика, как правило, изучается в контексте новой для учащихся культурной ситуации. Для того, чтобы полученные знания учащийся мог применить не только на языковом, но и на речевом уровне, а также (что самое главное) мог вывести свое знание и умение в коммуникацию, ему необходимо дать сведения культурологического характера.

Таким образом, работа над языком должна вестись на трех уровнях: языковом, речевом, коммуникативном, — и по следующим направлениям: работа над лексикой; работа над грамматикой в части выстраивания высказывания по модели и переноса модели в речевую практику студента при наполнении модели новым содержанием; работа над историко-культурным компонентом, в части объяснения студентам особенностей культуры эпохи [2, с.3]..

При работе над языком необходимо также учитывать, что специальная лексика сочетается в высказываниях с общеупотребительной лексикой, а общеупотребительные слова могут становиться специальными, изменяя при этом свое значение (взять, прочитать, записать, связь, транспорт).

Студентов необходимо познакомить с основными достопримечательностями страны и города, в котором они учатся; с музеями, метрополитен, площадь Независимости, сквер Амира Тимура, Ташкентская телебашня; поговорить с инженерами, строителями, о которых идет речь на уроке и которые студенты могут посетить с педагогом или самостоятельно.

Практика работы показала, что те новые термины, понятия, явления, с которыми студенты сталкиваются с первых же дней обучения в вузе, требуют от них владения общей языковой базой на уровне, не ниже ТРКИ-2. А это в реальных условиях подготовки оказывается труднодостижимым результатом, так как количество часов на изучение русского языка в период учебы на подготовительном отделении не позволяет обеспечить должный уровень языковой и речевой компетенции студентов. В связи с этим язык специальности в необходимом объеме становится возможным привлекать лишь на старших курсах при условии продолжительного обучения студента в стенах университета (с 1-го курса). В этих условиях возрастает роль именно культурологического компонента обучения русскому языку. Поскольку данный ракурс позволяет заинтересовать студента и мотивировать его на изучение новых слов и речевых моделей. Возможны различные ситуации использования языка с: учебная аудитория, библиотеки, музеи, концертный зал, Русский драматический театр, внепубличная деятельность студента. Так, изучение текста и создание текста на русском языке в научном стиле происходит как в учебном классе, так и при самостоятельной работе студента. Современный урок – культурологический феномен, созданный педагогической мыслью; продукт восхождения человечества к бесконечному процессу познания и осмысления мира [3, с.23].

В учебном кабинете в процессе общения с педагогом происходит постановка педагогом профессиональных задач перед студентом. Ситуация смягчена инструментом-посредником (возможность показа вместо словесного объяснения). Однако в полной мере не может заменить необходимые словесные выражения. Культурологический аспект общения в учебном классе представлен необходимостью дать студенту понятие о традиции, особенностях стиля, творчества конкретного поэта или писателя; используется оценочная лексика: в частности, чтобы студент мог понять степень своей профессиональной компетентности при работе над произведением («гораздо лучше» и пр.); при этом студент учится понимать и воспринимать принятые в иной (по отношению к его родной) культуре способы выражения оценки действий друг друга; неотъемлемой составляющей профессионального общения является и соотношение вербальных и невербальных элементов речи (культура речи).

Музей. Ситуация включена в общелингвистическую и культурную компетенцию студента. Предполагается умение выбрать необходимый музей; приобрести билет; узнать о местонахождении музея и добраться до него к нужному времени. Общение с различными категориями незнакомых людей (билетеры, гиды (объясняющие на русском языке), гардеробщики, буфетчицы, распорядители в зале, другие слушатели) усложняет ситуацию, поскольку студент попадает в реальную языковую и речевую среду, где сталкивается с необходимостью самостоятельно в потоке речи вычленять необходимые речевые конструкции и понимать их смыслы. Во время посещения музея или театра ситуация общения возникает в случае контакта с другими слушателями (по инициативе студента-иностранца - реже; по инициативе слушателя-соседа - чаще). И хотя данная речевая ситуация может расцениваться как необязательная, коммуникативная неудача в данном случае существенно понижает самооценку студента, поскольку именно подобные ситуации создают переход с языкового и речевого уровней владения языком в коммуникацию, что является целью изучения иностранного языка.

Студент, находясь в инокультурной ситуации, испытывает «культурный шок», который провоцируется и различными бытовыми ситуациями, например, отсутствием горячей воды. Хотя иногда, неожиданно это неудобство сами студенты пытаются поставить себе на службу.

Заключение. Изучение русского языка как иностранного невозможно без опоры на культурологический подход, поскольку процесс овладения языком напрямую связан с пониманием культуры народа — носителя этого языка. Язык представляет собой не только систему грамматических правил, но и сложное социокультурное явление, в котором отражены история, традиции, ценности и мировоззрение народа. Поэтому при изучении русского языка иностранные студенты сталкиваются с двумя группами проблем: общими (культурный шок, восприятие иной картины мира, адаптация к чужой культуре) и конкретными (лексика, грамматика, научный стиль, терминология, особенности профессионального общения).

Практика обучения показывает, что успешное освоение языка возможно лишь при формировании у студентов лингвокультурологической компетенции. Это предполагает работу на трех уровнях: языковом, речевом и коммуникативном. Введение новых слов, понятий и речевых моделей должно происходить в контексте культурных реалий, которые помогают студенту понять смысл и сферу употребления языковых единиц. Культурологический комментарий делает процесс обучения более содержательным и мотивирующим.

Особую роль играет знакомство студентов с реальной культурной средой: музеями, театрами, библиотеками, историческими объектами. В таких условиях студент попадает в естественную речевую ситуацию, где ему необходимо самостоятельно вычленять ключевые речевые конструкции,

понимать речь носителей языка и вступать в коммуникацию. Эти ситуации нередко вызывают «культурный шок», однако именно они обеспечивают переход от владения языковой системой к реальному общению — главной цели изучения иностранного языка.

Наблюдения показывают, что на первоначальном этапе студенты испытывают трудности с освоением профессиональной терминологии, поскольку еще не владеют достаточной общей языковой базой. Поэтому особую значимость приобретает культурологический компонент, который усиливает интерес к языку и способствует лучшему пониманию его структур и смыслов.

Таким образом, культурологический подход в обучении русскому языку:

- облегчает адаптацию студентов к новой языковой и культурной среде;
- развивает их коммуникативную компетентность;
- повышает мотивацию к изучению языка;
- делает образовательный процесс более гуманистическим и личностно ориентированным;
- обеспечивает более глубокое и осмысленное освоение русского языка.

Возвращение образования в пространство культуры становится важным условием повышения его качества. Такое понимание позволяет сохранить гуманитарный и антропологический характер образования, обеспечивая гармоничное развитие личности и успешное вхождение студента в новую культурно-языковую среду.

Литература:

1. Арипова А., Убайдуллаев С., Махмудхужаев Ж., Бобохонов Ш. Идея совершенной и всесторонне развитой личности как социокультурный феномен в развитии человека Science and Education 2 (4), 522-526

2. Бурханова Ф. Б., Родионова С. Е. Внедрение инновационных активных и интерактивных методов обучения и образовательных технологий в российских вузах: современное состояние и проблемы [Электронный ресурс]: // Вестник Башкирск. ун-та. 2012. №4.

3. Белякова Н.Н., Демьянова Е.М., Котвицкая Э.С. Идем в музыкальный театр. Учебное пособие по лингвокультурологии для студентов-иностранцев. СПб., 2005.

4. Глазкова Т.В. Изучение языка специальности на уроке русского языка как иностранного в музыкальном ВУЗе: культурологический аспект [Электронный ресурс] // Язык и текст. 2014. Том 1. № 3

5. Гальскова, Н. Д. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика / Н. Д. Гальскова, Н. И. Гез. М.: Academia, 2008.- 336 с.

Шакарова Ф.Д.,
преподаватель национального университета Узбекистана
Ядгарова Г.И.,
преподаватель национального университета Узбекистана

ФОРМА КОНТРОЛЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РКИ – ТЕСТИРОВАНИЕ (на примере функционирования LMS)

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы применения одной из форм контроля знаний – тестирования – на занятиях русского языка как иностранного. Авторы акцентируют внимание на разработку вопросов для тестирования РКИ, также на основные требования к составлению тестовых заданий. Отмечается, что при тестировании индивидуализация контроля позволяет справедливо оценить каждого студента по единым критериям.

Ключевые слова: тестирование, метод, тест, образование, русский язык как иностранный, дистанционная система LMS.

ASSESSMENT METHOD IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE – TESTING (based on the functioning of an LMS)

Abstract. The article discusses the application of one of the forms of knowledge control – testing – in the classroom of Russian as a foreign language. The authors focus on the development of questions for RCT testing, as well as on the basic requirements for the preparation of test tasks. It is noted that during testing, the individualization of control makes it possible to fairly evaluate each student according to uniform criteria.

Keywords: testing, method, test, education, Russian as a foreign language, remote LMS system.

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA NAZORAT SHAKLI – TEST SINOVI (LMS tizimidan foydalanish misolida)

Annotatsiya. Maqolada chet tili sifatida o‘qitiladigan rus tili darslarida bilimlarni nazorat qilish shakllaridan birini – testni qo‘llash masalalari ko‘rib chiqiladi. Mualliflar RCT sinovlari uchun savollarni ishlab chiqishga, shuningdek test topshiriqlarini tayyorlashga qo‘yiladigan asosiy talablarga e'tibor qaratadilar. Ta’kidlanishicha, sinov paytida nazoratni individuallashtirish har bir talabani yagona mezonlarga muvofiq adolatli baholashga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: sinov, usul, test, ta’lim, rus tili chet tili sifatida, LMS masofaviy tizimi.

Основное отличие теста от традиционной контрольной работы состоит в том, что он всегда предполагает измерение. Поэтому оценка, выставляемая по итогам тестирования, отличается большей объективностью и независимостью от возможного субъективизма учителя, чем оценка за выполнение традиционной контрольной работы, которая всегда субъективна, поскольку основана на впечатлении преподавателя. Тестирование на занятиях по русскому языку как иностранному (далее – РКИ) становится все более популярным методом проверки знаний по лексике и грамматике, так как тесты обладают очевидными преимуществами перед другими методами педагогического контроля. Во-первых, это мобильность контроля при помощи ёмких тестовых заданий, что выражается в минимальных затратах времени, усилий и средств, при этом индивидуализация контроля позволяет справедливо оценить каждого студента по единым критериям. Во-вторых, позволяет проверить знания обучающихся по разным темам изучаемой дисциплины. Тестирование как форма контроля стимулирует активность и внимание учащихся на занятии, повышает их ответственность при выполнении учебных заданий [1, с. 58]. Данная форма работы проводится для выявления уровня достижения в определенном виде деятельности, способностей к определенному виду деятельности, трудностей в овладении тем или иным видом деятельности и возможных способов их преодоления. С развитием информационных технологий тесты приобрели широкую популярность. Этот метод оценки знаний в современном мире широко используется в дистанционных системах образования, например в LMS.

Первоначальным этапом разработки теста является определение цели тестирования. Тест может проводиться для оценки: а) уровня знаний в начале обучения (входящий тест); б) усвоения знаний в течение обучения (тренировочный тест); в) знаний, умений и навыков после изучения темы, раздела (тематический/ промежуточный тест); г) умений и навыков в конце обучения (итоговый тест). Так, входящий контроль позволяет выявить до начала обучения реальный уровень знаний обучаемого, в соответствии с которым будет определяться содержание, объем, методы и формы обучения. Решение этой задачи может потребовать немало времени, но ее можно упростить, проведя входящее тестирование. Задания, используемые в тренировочный тесте, позволяют проверить начальный уровень сформированности знаний, получить сведения о качестве усвоения учащимися учебного материала. На основе информации, получаемой с помощью тренировочных тестов, преподаватель корректирует обучающую и учебно-познавательную деятельность студентов, а в случае необходимости использует новые методы и средства обучения. Не менее важную роль в применении тренировочных тестов играет самодиагностика, которая позволяет студенту быстро обнаружить пробелы в собственных знаниях и ликвидировать их. Для проверки уровня усвоения материала после изучения отдельных тем, разделов применяется тематический (промежуточный) тест.

К тестам, выполняющим контролирующую функцию, относятся два основных вида: тесты, проверяющие наличие у обучаемых определенного уровня коммуникативной компетенции, и тесты, проверяющие овладение учащимися конкретным языковым материалом и отдельными речевыми умениями за определенный период обучения. Первый вид теста можно соотнести с итоговым контролем, проводимым в конце курса обучения, второй вид – с промежуточным контролем, осуществляемым по окончании определенного цикла занятий.

В дистанционной системе LMS существует многообразие типовых тестовых вопросов. При разработке банка тестовых заданий необходимо учитывать ряд требований, которые позволят повысить качество системы проверки знаний. Кроме того, требуется принимать во внимание технические возможности средств автоматизации тестирования, применяемых в организации.

При составлении вопросов тестовых заданий по дисциплине «Русский язык как иностранный» целесообразно руководствоваться следующими требованиями.

1. Общее количество вопросов должно быть не менее 300.
2. Тестовые задания должны быть сгруппированы по модулям (в курсе должно быть не менее 3 модулей).
3. База тестовых заданий должна охватывать все дидактические единицы курса и предусматривать проверку всех приобретаемых студентами компетенций.
4. Необходимо использовать тестовые задания различных типов (открытого, закрытого типа, на соответствие, верно-неверно, эссе и др.)
5. Кроме текста, в вопросы должны быть включены рисунки, графики, диаграммы, схемы, видео- или аудиофрагменты.
6. В каждом вопросе должно определённое количество слов.
7. Необходимо предусматривать от 4 до 6 вариантов ответов, из которых правильным может быть только один.
8. Время на ответ на один вопрос не должно превышать одной минуты.
9. Тестовые задания должны быть представлены в форме краткого суждения, сформулированы ясным, чётким языком и исключать неоднозначность заключения тестируемого на требования задания.
10. Все задания в банке тестовых заданий должны быть уникальны, самостоятельны и логически не связаны друг с другом.
11. Задания и варианты ответов не должны содержать подсказки к правильному ответу.
12. В вариантах ответов не допускается использование выражений типа «все ответы верны», «нет правильных вариантов ответа» и т.п.

Этот тип вопросов интересен тем, что не возможен в бумажном варианте теста. Для создания надежного и работающего теста в системе LMS. необходимо, чтобы он соответствовал следующим требованиям:

– простота синтаксических конструкций и содержание минимального количество информации;

– наличие четкой формулировки перед каждым вопросом (для студентов англоязычных групп желателен перевод заданий на английский язык);

– указание типа вопроса в системе перед каждым заданием; – разнообразие типовых тестовых заданий. Основная роль тестирования в преподавании РКИ заключается в обратной связи (в широком смысле) и в контроле (в узком смысле), и чем теснее взаимосвязаны тестирование и учебный процесс, тем эффективнее учебный процесс и качественнее тестирование [2, с. 70].

Преимущество тестирования состоит в том, что оно позволяет проверять одновременно всех учащихся группы; выполнение теста занимает немного времени, что делает возможным его проведение практически на любом занятии; при выполнении теста все учащиеся поставлены в равные условия – они работают в одно и то же время с одинаковым по объему и сложности материалом, что исключает влияние на оценку их ответов такого фактора, как везение/невезение; тест дает возможность включать большой объем материала и контролировать не только его усвоение, но и наличие отдельных умений пользования им. Перечисленные и некоторые другие характеристики тестов, безусловно, свидетельствуют о целесообразности их использования в учебном процессе. У тестирования как средства контроля в обучении РКИ есть не только преимущества, но и недостатки, к которым следует отнести невозможность контроля за правильностью речи студентов; невозможность учета психофизиологического состояния учащихся на момент контроля; случайность выбора правильного варианта ответа [3, с. 354]. Главная отличительная черта теста – объективность и качественность оценивания результатов, которые достигаются за счет стандартизации процедуры тестирования, а также стандартизации и проверки показателей качеств заданий и тестов в целом.

Необходимо отметить, что использование тестов исключает возможность возникновения конфликтов из-за несогласия с оценкой, способствуя тем самым установлению доверия как между студентами, так и между преподавателем и студентом. Качество тестов, используемых в учебном процессе, является одним из важнейших методов контроля знаний. Во избежание необъективной оценки знаний студентов необходимо использовать только статистически обоснованные тестовые задания, прошедшие предварительное тестирование и обладающие достаточным уровнем достоверности и надежности.

Подводя итог сказанному, следует отметить, что в настоящее время тестирование является неотъемлемым компонентом процесса обучения РКИ и постоянно используется как текущий, промежуточный и итоговый контроль знаний студентов. Технология подготовки и проведения

тестирования меняется в зависимости от типа и вида тестовых заданий. При соблюдении всех требований, предъявляемых к их составлению, при знании психолого-педагогических условий и нравственных норм тестирования обучение РКИ станет более успешным.

Литература:

1. Аванесов В.С. Форма тестовых заданий [Текст]: / В. С. Аванесов // Учебное пособие. Второе издание - М.: Центр Тестирования, 2005. – 155 с.

2. Aripova A.K. INNOVATIVE EDUCATIONAL METHODS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A SPECIALISTЕвразийский журнал академических исследований 3 (1 Part 6), 69-75

3. Hasanova A.A. TEACHING AND STUDYING THE HISTORY OF THE UZBEK LANGUAGE - AS A COMPLEX ETHNOGENETIC PROCESS Multidisciplinary Research IJMR 9 (11), 352-355

4. Белозёрова С.И., Белозеров О.И. ОРГАНИЗАЦИЯ КОНТРОЛЯ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ В LMS MOODLE // Современные проблемы науки и образования. – 2018. – № 6.

5. Чумак Л.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного / Л.Н. Чумак. – Мн.: БГУ, 2009. – 304 с.

6. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю., Моисеева М. В., Петров А. В. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования : учеб. пособие для студ. пед. вузов. – М., 2000. – С.65-66.

Qurbonova Gulnoza Abduholiq qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti
"Amaliy ingliz tili" kafedrasi katta o'qituvchisi

GIDRONIMLARNING STRUKTUR-SEMANIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada gidronimlarning struktur va semantik jihatdan tahlili, ularning shakllanish mexanizmlari hamda etnolingvistik asoslari keng ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududidagi suv obyektlari nomlarining kelib chiqishida qadimiy turkiy, fors-tojik, arab va ba'zi hollarda yunoncha elementlarning ishtiroki kuzatiladi. Tadqiqotda gidronimlarning morfologik modeli, so'z yasovchi vositalar, semantik toifalar hamda ularning tarixiy qatlamlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, gidronimlarning xalq tafakkuri, geografik muhit va ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda isbotlangan. Maqola natijalari o'zbek toponimik tizimini chuqurroq o'rganish, lingvokulturologik tahlillarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gidronim, toponimika, struktur tahlil, semantika, etimologiya, geografik nom, lingvokulturologiya, milliy identitet.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГИДРОНИМОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются структурные и семантические особенности гидронимов, их морфологические модели, лексико-семантические слои и этимологические источники. Гидронимы, являясь важной частью топонимики, отражают исторические, культурные и языковые процессы народов Средней Азии. В исследовании анализируется влияние тюркских, персидско-таджикских и арабских элементов на формирование узбекских гидронимов, определяются основные структурные типы: прилагательное + существительное, существительное + существительное и аффиксальные образования.

Предлагается семантическая классификация гидронимов по признакам цвета, природных свойств, пространственных характеристик и этнокультурных факторов. Работа основана на структурном, семантическом и этнолингвистическом методах анализа. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию языкового и культурного наследия, отражённого в гидронимической системе Узбекистана.

Ключевые слова: гидроним, топонимика, структура, семантика, этимология, языковая культура, географические названия, этнолингвистика.

STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF HYDRONYMS

Annotation. This article examines the structural and semantic characteristics of hydronyms, focusing on their morphological models, lexical-semantic layers,

and etymological origins. Hydronyms, as an integral part of toponymy, preserve valuable information about the history, culture, and linguistic development of the peoples of Central Asia. The study analyzes the influence of Turkic, Persian-Tajik, and Arabic elements in the formation of Uzbek hydronyms and identifies the main structural types such as adjective + noun, noun + noun, and affixal formations. Furthermore, the semantic classification of hydronyms is proposed based on color, physical features, spatial attributes, and ethnocultural factors. The research is based on structural, semantic, and ethnolinguistic methods. The findings contribute to the broader understanding of the linguistic landscape of Uzbekistan and the cultural memory reflected in hydronymic systems.

Keywords: hydronym, toponymy, structure, semantics, etymology, linguistic culture, geographical names, ethnolinguistics.

Kirish. Gidronimlar — geografik nomlarning eng qadimiy, barqaror va informatsion jihatdan eng boy qatlamlaridan biridir. Ular nafaqat suv obyektlarini ifodalovchi nomlar, balki xalqning tarixiy xotirasi, tabiatni idrok etish uslubi, dunyoqarashi va til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichidir. Har bir gidronim o‘zida ma’lum bir tarixiy, madaniy va ijtimoiy ma’lumotni mujassam etadi, shu bois ular xalqning milliy o‘zligini aks ettiruvchi “til yodgorliklari” sifatida qadrlanadi.

Gidronimlar orqali ma’lum hududdagi qadimiy aholi manzilgohlari, etnik guruhlarning ko‘chish yo‘nalishlari, madaniy aloqalari hamda tabiiy muhitga munosabatini aniqlash mumkin. Ularning tarkibi, tuzilishi va semantik xususiyatlari til tarixini, xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini hamda mintaqaning ekologik va madaniy rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston toponimik tizimi gidronimlarga nihoyatda boy: mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat hududida 11 mingdan ortiq suv obyektlari (daryo, ko‘l, ariq, soy, buloq, kanallar va h.k.) nomlari qayd etilgan bo‘lib, ularning katta qismi qadimiy davrlarga borib taqaladi (Eshonqulov, 2015). Masalan, Amudaryo va Sirdaryo nomlari eramizdan avvalgi davrlarda shakllangan bo‘lib, ularning qadimgi shakllari — “*Oxos*” (Amudaryo) va “*Yaksart*” (Sirdaryo) — haqida yunon manbalarida ham ma’lumotlar uchraydi. Bu esa Markaziy Osiyo hududidagi gidronimlarning qadimiy sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tilshunos olimlar (Qosimov, 1992; Superanskaya, 1985; Matveyev, 2006) gidronimlarni faqat geografik obyekt nomi sifatida emas, balki xalq tafakkuri, estetik didi va atrof-muhitni qabul qilish uslubini ifodalovchi lingvokulturologik model sifatida baholaydilar. Shuningdek, gidronimlarning shakllanishida tabiat hodisalari, rang, shakl, harakat, fazo, shaxs va ramziy tushunchalar kabi semantik maydonlar muhim rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, gidronimlarning struktur-semantik tahlili tilshunoslikning bir necha yo‘nalishlari — onomastika, etimologiya, semasiologiya va etnolingvistika bilan uzviy aloqada olib boriladi. Bu tahlil usuli orqali nafaqat gidronimlarning grammatik va semantik tuzilmasi o‘rganiladi, balki ularning

orqasida yashiringan tarixiy-madaniy mazmun, xalq dunyoqarashi va mintaqaviy xususiyatlar ham ochib beriladi.

Demak, gidronimlarni o‘rganish O‘zbekistonning til tarixini, madaniy merosini va xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini ilmiy asosda tadqiq etishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Gidronimlarning struktur tahlili:

1.Struktur tahlil gidronimlarning morfemik tarkibini, yasovchi affikslarni, so‘z birikmalari modelini aniqlashga qaratiladi. O‘zbek tilida gidronimlar asosan so‘z birikmalari, soddalashtirilgan birliklar yoki kompozit birliklar ko‘rinishida ifodalanadi.

Struktur modellarning asosiy turlari:

1. Sifat + ot:
   - Oqbuloq (oq + buloq) — rang va obyekt;
   - Qorasuv (qora + suv) — rang va obyekt.
2. Ot + ot:
   - Sirdaryo (Sir + daryo) — o‘lka + obyekt;
   - Amudaryo (Amu + daryo) — shahar + obyekt.
3. Ot + suffiks:
   - So‘xsoy, Ko‘ksuv, Zarafshon (–shon “sochuvchi, taratuvchi”).

Struktur jihatdan tahlil natijasi:

O‘zbekiston gidronimlarining 48% i sifat+ot, 37% i ot+ot, 15% i esa suffiksli hosila shakllardan tashkil topgan (Jo‘raev, 2010). Bu esa gidronimlar yaratishda tasviriy va belgilovchi elementlarning ustunligini ko‘rsatadi.

2. Semantik tahlil

Gidronimlarning ma’nosi ularning qanday tabiiy yoki madaniy belgiga asoslanganiga bog‘liq. Ular semantik jihatdan quyidagi toifalarga ajratiladi:

Semantik guruh	**Misollar**	**Izoh**
Rang bildiruvchi	Oqbuloq, Qorasuv, Ko‘ksuv	Suvning rangi yoki tiniqligi bilan bog‘liq
Tabiiy belgi	Issiqko‘l, Sovuqsoy, Qaynarbuloq	Suvning harorati yoki holatini bildiradi
Fazoviy-belgili	Pastsoy, Uzunsuv	Oqim yo‘nalishi yoki geografik holatni ifodalaydi
Madaniy-etnik	Bobosuv, Shayxariq, Qo‘ng‘irotsoy	Shaxs, urug‘ yoki tarixiy guruh bilan bog‘langan
Metaforik	Zarafshon (“oltin sochuvchi”)	Ramziy yoki poetik ma’no

O‘zbek gidronimlari semantik jihatdan denotativ (bevosita obyekt belgisi) va konnotativ (ramziy, estetik yoki diniy ma’no) turlarga ajraladi. Masalan, “Ko‘ksuv” gidronimi “ko‘k” rang orqali tinchlik, osoyishtalikni anglatadi — bu xalqning dunyoqarashi bilan bog‘liq semantik qatlamdir.

3. Etnolingvistik va tarixiy tahlil

Ko‘plab gidronimlar xalqning tarixiy joylashuvi va etnik tarkibiga doir izlarni o‘zida saqlaydi. Masalan:

- Amudaryo — qadimiy "Amul" (hozirgi Turkmenobod) shaharidan olingan, "Amu orqali o‘tuvchi daryo" ma’nosida;
- Sirdaryo — qadimiy "Sir" o‘lkasining nomidan olingan;
- Zarafshon — forscha "zar" (oltin) va "afshon" (sochuvchi) elementlaridan tashkil topgan, qadimda daryo yuvib chiqargan oltin zarralari sababli shunday nomlangan.

Bu gidronimlarda til qatlamlari aralashuvi kuzatiladi: turkiy asos (soy, suv, buloq) va fors-tojik elementlari (zar, afshon, rud) o‘zaro qo‘shilib, yangi shakllarni hosil qilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi gidronimlarning 60% i turkiy, 30% i fors-tojik, 5% i arabcha va 5% i boshqa manbalardan olingan (Matyoqubov, 2018). Bu esa O‘zbekiston hududida turli madaniyatlar va tillarning tarixiy aloqalarini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Metodologiya

Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlarga asoslandi:

1. Struktur-metodik yondashuv: gidronimlarning morfemik modeli, yasovchi affikslar (-soy, -suv, -buloq, -rud, -ariq) tizimli tahlil qilindi.
2. Semantik tahlil: gidronimlarning lug‘aviy ma’nolari, metaforik va ramziy qatlamlari aniqlanib, tematik klassifikatsiya ishlab chiqildi.
3. Etnolingvistik tahlil: nomlarning xalq madaniyati, tarixiy voqealar va e’tiqod bilan bog‘liqligi o‘rganildi.
4. Qiyosiy-lingvistik tahlil: o‘zbek gidronimlari qirg‘iz, qozoq, turkman va tatar tillaridagi suv nomlari bilan solishtirildi. Masalan, "Ko‘ksuv" – "Koksu" (qozoq.), "Aksuv" – "Akbulaq" kabi mosliklar umumturkiy ildizlarni ko‘rsatadi.
5. Statistik metod: 500 dan ortiq gidronim namunalari asosida struktur va semantik tasnif tuzildi.

Xulosa. Gidronimlarning struktur-semantik tahlili natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

O‘zbek gidronimlari ko‘p qatlamli lingvistik tizimni tashkil etadi. Ular turkiy, fors-tojik va arab tillarining tarixiy ta’sirini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu hodisa O‘zbekiston hududida kechgan ko‘p asrlik madaniy va etnik aloqalarning til tizimidagi aksidir.

Struktur jihatdan eng faol model – *sifat + ot* (masalan, *Oqbuloq*, *Qorasuv*, *Ko‘ksuv*) shaklidagi tuzilmalardir. Bu model xalqning tabiatni idrok etish va tasvirlashda rang, holat, fazo kabi belgilarni asosiy nominativ omil sifatida qo‘llashini ko‘rsatadi.

Semantik tahlil gidronimlarda rang (oq, qora, ko‘k), holat (tiniq, sersuv), fazo (past, baland), shaxs (Avliyosuv, Ahmadsoy) va ramziy ma’nolar (muqaddaslik, poklik, hayot manbai) asosiy ma’no tayanchlari sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Etnolingvistik jihatdan, gidronimlar xalqning qadimiy joy nomlarini, etnik migratsiya yo‘nalishlarini, diniy va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi. Ular tarixiy xotiraning til orqali saqlanib qolgan shakli sifatida, millatning o‘z o‘tmishiga bo‘lgan ruhiy va ma’naviy bog‘liqligini ifoda etadi.

Tarixiy-lingvistik nuqtayi nazardan, gidronimlarni chuqur o‘rganish orqali til taraqqiyotining qadimiy bosqichlarini, xalq tafakkurining arxaik modellarini hamda joy nomlarining shakllanish mexanizmini qayta tiklash mumkin.

Umuman olganda, gidronimlar tildagi “madaniy xotira” sifatida nafaqat tarixiy ma’lumot manbai, balki xalqning dunyoqarashi, ekologik idroki va estetik didini ham aks ettiradi. Ularni o‘rganish — milliy identitetni mustahkamlash, tarixiy merosni asrash va zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. O‘zbek toponimikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1992.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek tilida toponimlarning struktur-semantik xususiyatlari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2010.
3. Matyoqubov M. Til va madaniyat: toponimlarning etnolingvistik tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Superanskaya A.V. Obshchaya toponimika. – Moskva: Nauka, 1985.
5. Eshonqulov J. O‘zbekiston gidronimlari va ularning kelib chiqishi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
6. Kretschmer P. Einleitung in die Geschichte der griechischen Sprache. – Berlin, 1896.
7. Alimova N. Toponimika va tarixiy geografiya o‘zaro bog‘liqligi. – Toshkent, 2020.
8. Pospelov E.M. Geograficheskiye nazvaniya mira. – Moskva: Russkiye slovari, 1998.
9. Gulnoza Qurbonova Abduholiq qizi. (2024). Hydronyms are a component of onomastics. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS, 1(1), 169–172. Retrieved from https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmdpl/article/view/190
10. THE STUDY OF ENGLISH HYDRONYMY AND STRUCTURE https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences5/article/view/748
11. http://americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/2729/2573
12. Ismoilov, B. (2011). *Gidronimlarning semantik tahlili va uning madaniy ahamiyati*. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
13. Jumanazarov, R. (2014). *Turkiy xalqlarning gidronimlari: Etimologik va semantik tahlil*. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
14. Markov, V. (2003). *Geographic Names and Their Etymology*. Moscow: Russian Academy of Sciences.

15. Gulnoza Qurbonova Abduholiq qizi. (2024). Hydronyms are a component of onomastics. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS, 1(1), 169–172. Retrieved from https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmdpl/article/view/190

16. https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences5/article/view/748

17. Gulnoza Qurbonova Abduholiq qizi. (2024). Hydronyms are a component of onomastics. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS, 1(1), 169–172. https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmdpl/article/view/190

18. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=wUPhn4YAAAAJ&citation_for_view=wUPhn4YAAAAJ:KlAtU1dfN6UC

19. Abduholiqovna Q. G. Development of the Concept "Knowledge" in English //Academicia Globe. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 91-94.

20. Abduholiqovna Q. G. Preliminary study of uzbek hydronymy on the roots //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 7. – С. 215-218.

21. Qurbonova, Gulnoza. "THE STUDY OF ENGLISH HYDRONYMY AND STRUCTURE." Philological issues are in the eyes of young researchers 1.1 (2023).

22. Qurbonova G. THE STUDY OF ENGLISH HYDRONYMY AND STRUCTURE //Philological issues are in the eyes of young researchers. – 2023. – Т. 1. – №. 1.

23. Rakhimova Shakhnoza Juraqulovna. (2024). CONCEPT IN LINGUOCULTUROLOGY AND THE UNIQUENESS OF THE CONCEPT OF "GRATITUDE". European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 23, 43–45. Retrieved from https://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/960



Amanova Sanobar Xamidjanovna,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

TALABALARDA KOPING-STRATEGIYA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda koping-strategiya shakllanishining psixologik determinantlari tahlil qilingan. Unda shaxsning stressli vaziyatlarga moslashuv darajasi, emotsional barqarorlik, o'zini nazorat qilish, irodaviy sifatlar hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash omillarining o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada talabalarning stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda motivatsion, kognitiv va affektiv omillarning o'rni psixologik nuqtai nazardan izohlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali koping-strategiya shaxsning ijobiy moslashuvi, ruhiy salomatligi va o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim psixologik mexanizm hisoblanadi.

Kalit so'zlar: koping-strategiya, psixologik determinantlar, stress, moslashuv, emotsional barqarorlik, talabalik davri, irodaviy sifatlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические детерминанты формирования копинг-стратегий у студентов. Рассматривается взаимосвязь уровня адаптации личности к стрессовым ситуациям, эмоциональной устойчивости, самоконтроля, волевых качеств и социальной поддержки. Также в статье раскрывается роль мотивационных, когнитивных и аффективных факторов в развитии навыков стрессоустойчивости студентов. Результаты исследования показывают, что эффективная копинг-стратегия является важным психологическим механизмом, обеспечивающим позитивную адаптацию, психическое здоровье и успешность учебной деятельности.

Ключевые слова: копинг-стратегия, психологические детерминанты, стресс, адаптация, эмоциональная устойчивость, студенчество, волевые качества.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF COPING STRATEGY FORMATION IN STUDENTS

Annotation. This article analyzes the psychological determinants of coping strategy formation among students. It explores the interrelation between an individual's level of adaptation to stressful situations, emotional stability, self-control, volitional qualities, and social support. The study also explains the psychological role of motivational, cognitive, and affective factors in developing students' stress management skills. The results indicate that an effective coping strategy serves as a key psychological mechanism ensuring positive adaptation, mental well-being, and academic success.

Keywords: coping strategy, psychological determinants, stress, adaptation, emotional stability, student period, volitional qualities.

Hozirga qadar koping xulq va uning mazmunini aniqlashtirish borasida ijtimoiy-psixologik, umumpsixologik hamda pedagogik-psixologik yo‘nalishlarda salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati koping-strategiyalarning alohida soha vakillari – o‘smirlar, tibbiy xodimlar, boshqaruv tizimidagi rahbarlar, ichki ishlar organlari xodimlari – faoliyati bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish bilan cheklanadi. Bu esa koping-strategiyalar mazmunining keng va murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lishiga qaramay, ayrim ijtimoiy guruhlar faoliyati doirasida tor doirada tahlil qilinganini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, bardosh berish, emotsional chidamlilik, murakkab vaziyatlarda moslasha olish, yengib o‘tish kabi kopingning asosiy tarkibiy xususiyatlarini talabalik davri bilan bog‘liq holda chuqur tahlil etish jarayonining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Talabalik hayoti o‘z ichiga mustaqil yashash sharoiti, kasbiy yo‘nalishni anglash, akademik mas'uliyat, shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi, vaqt va resurslar bilan bog‘liq bosimlarni qamrab olganligi bois, bu bosqichdagi koping-strategik xulqni o‘rganish muhim ilmiy zaruriyatga aylanadi.

Ta’kidlab o‘tish joizki, rus psixologiyasida bu masala bo‘yicha anchagina ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘lib, talabalarning stressga munosabati, ularning akademik moslashuvi, emotsional o‘zini boshqarish mexanizmlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmoqli o‘rin egallaydi. Ammo mahalliy psixologiya ilmida talabalarda koping-strategiyalarni o‘rganish masalasi deyarli tizimli tahlil qilinmagan, bu esa mavzuning ilmiy yangiligini bevosita tasdiqlaydi.

Shu boisdan, talabalik davrida o‘quv jarayoni bilan bog‘liq turli bosimlarga bardosh bera olish, stressni yengib o‘tish, tez moslasha olish, ekstremal

vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi xususiyatlarni tavsiflovchi koping-strategiyalar shakllanishini psixologik nuqtai nazardan chuqur o‘rganish zamonaviy psixologiya oldida turgan dolzarb ilmiy vazifalardan biriga aylanadi. Bunday o‘rganishlar nafaqat psixologik nazariyalarni boyitadi, balki talabalarni psixologik qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy metodikalar ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, talabalik faoliyatida koping-strategik xulqning samarali shakllanishi nihoyatda muhim bo‘lib, uning amaliy ahamiyati imtihon oldi zo‘riqish holatlarida, mustaqil yashash sharoitlariga moslashishda, akademik yuklamaning ortishi bilan yuzaga keladigan stress holatlarida, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog‘liq vaziyatlarda yaqqol seziladi.

Aslida koping xulq talaba shaxsining ijobiy faoliyat ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning yetarli darajada shakllangani ta’lim jarayonida paydo bo‘ladigan ko‘plab salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, kopingning samarali shakllanishiga yordam beruvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini psixodiagnostik usullar orqali baholash, koping xulqning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy shaxsiy sifatlarni ajratib ko‘rsatish zamonaviy psixologiya uchun nihoyatda muhim ilmiy yo‘nalishlar qatoriga kiradi.

Ayniqsa, talabalarda stressga bardoshlilik, o‘zini o‘zi boshqara olish, maqsad sari intilish, emotsional intellekt, shaxsiy mas’uliyat, irodaviy sifatlar va ijtimoiy kompetensiyalar kabi jihatlarning koping-strategiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, ularning rivojlanish mexanizmlarini ochib berish talabalarning psixologik farovonligini ta’minlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

N.S.Tatarnikovaning yozishicha, talabalik davri o‘z taqdirini o‘zi belgilash, ijtimoiy aloqalarni keng doirada o‘rnatish, mustaqil ishlash malakalarini o‘zlashtirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash, shaxsiy aloqalarni mustahkamlash, hayotiy strategiyalar va rejalarning paydo bo‘lishi, kasbiy ko‘nikma va malakalarni puxta egallash, ijtimoiy guruh sifatida rivojlanish kabilar bilan xarakterlanadi. Ushbu yondashuvga muvofiq, shaxsning to‘liq ijtimoiylashuvi va kasbiy tayyorgarligining eng muhim davri sifatida, talabalik davriga to‘g‘ri kelishini ko‘rish mumkin. Biroq, ta’lim olish jarayoni har doim ham, ijodiy imkoniyatlar va muvaffaqqiyatlar bilan kechadigan jarayon emas.

Qoidaga ko‘ra, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlari ko‘pincha, ularning hissiy sohasining xususiyatlariga, imtihon sharoitlarida muvaffaqqiyatga erishish va yaxshi natijalarni ko‘rsatish qobiliyatiga ham bog‘liq hisoblanadi. M.V.Juykovaning yozishicha, imtihon stress omili sifatida talabalarda psixologik stressni keltirib chiqaradigan, u ta’sir etuvchi omillar orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Imtihonlar bilan bog‘liq stressning oqibatlari, keyinchalik talabaning o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kid joizki, akademik muvaffaqqiyat nafaqat bilim darajaga, balki mashg‘ulot paytidagi talabalarning zo‘riqish holilik

holatiga ham uzviy bog‘liq sanaladi. Imtihon davri ko‘pchilik talabalar uchun juda og‘ir bo‘lganligi sababli, undagi stressni yengish muhim muammoga aylanadi. Ya’ni organizmda stress darajasining oshishi aqliy va somatik salomatlikka, ishlashga, kognitiv, hissiy va fiziologik jarayonlarning ko‘rsatkichlariga kuchli ta’sir qiladi.

Imtihon davrida talabalarning shaxsiy ko‘rsatkichlari va ularda kechayotgan stress darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni masalalari A.G.Ilyuxin tomonidan keng tadqiq etilgan. Muallifning ta’kidicha, imtihon topshirish sharoiti bilan bog‘liq vaziyatlarida, stress muhim nazariy va amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. Boshqacha aytganda, vaqt ichida psixologik stressni ta’minlaydigan imtihon holati, talabadan barcha psixofiziologik va psixo-emotsional resurslarni, shu jumladan qator yengish strategiyalarining safarbar eta bilishni talab etadi. Shuning uchun ham, imtihon sharoitida talabalarning yengish strategiyalarini o‘rganish va uning shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liqligini o‘rganish masalalari dolzarbdir. Imtihon paytida stressni boshdan kechirish darajasida turli mutaxassisliklar talabalari o‘rtasida sezilarli gender farqlarga egadir.

Y.A. Annekovaning qayd etishicha, o‘quv faoliyatida talabalar salbiyga nisbatan ijobiy kurash strategiyalaridan tez-tez foydalanadilar. Ya’ni imtihon stressi sharoitida, ularning harakatlari qiyin vaziyatni va o‘zlarining reaksiyalarini nazorat qilish va yuzaga kelgan stressni kamaytirishga qaratiladi. Stressli vaziyatni samarali yengish bo‘yicha, o‘z qobiliyatlarini haddan tashqari oshirib yuborishlari bilan ajralib turadi. Yigitlar va qizlar o‘zlarining salbiy tajribalarini yengish uchun foydalanadigan usullarda farqlarga ega bo‘ladi. Demak, yigitlar ko‘pincha, stressga xulq-atvor va kognitiv reaksiyalar, muammoni hal qilish uchun faol urinishlar bilan bog‘liq, kurash strategiyalari bilan murojaat qilishadi. Qizlar esa, ko‘pincha, muammolardan o‘zini chalg‘itish, kuchli his-tuyg‘ulardan qochish va ijtimoiy yordam izlashda kabi turdagi hissiy strategiyalardan foydalanadilar.

Y.L.Sorokinaning tadqiqotlariga ko‘ra, gumanitar yo‘nalishda ta’lim oluvchi talabalar, jinsidan qat’iy-nazar, texnika yo‘nalishdagi talabalarga qaraganda, hayotiy qiyin vaziyatlarda ijobiy his-tuyg‘ularni izlashga, ijtimoiy yordam olishga, almashtirish va chalg‘itish strategiyalaridan keng foydalanishga ancha ustun bo‘lishi aniqlangan. Mazkur qarashlarga muvofiq, imtihon vaqtida emotsional zo‘riqish darajasining oshishi ko‘proq, nochorlik va o‘ziga achinish tuyg‘ularining kuchayishiga, stressli vaziyatdan qochishga urinish, muammodan aqliy chalg‘ishga qodir emaslik, o‘zini o‘zi ayblash hissi kabilarda yaqqol namoyon bo‘lar ekan.

Xulosa qilib aytganda, Talabalik davri shaxsning psixologik yetilishi, ijtimoiylashuvi, kasbiy o‘zini anglash jarayonlari jadallik bilan kechadigan murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biridir. Mazkur davrning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, talabalar ko‘plab stress omillari, emotsional zo‘riqish, moslashuv qiyinchiliklari, kasbiy shubha, imtihon tahlikasi, ijtimoiy-psixologik bosim va mustaqil hayotga moslashuv singari holatlarga duch keladilar. Bunday sharoitda shaxsning koping-strategiyalari – ya’ni qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topish,

moslashish va stressni yengish bo‘yicha psixologik mexanizmlari – uning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biriga aylanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va rus psixologiyasida talabalarning koping-strategiyalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilgan bo‘lsa-da, mahalliy psixologiyada mazkur yo‘nalish hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Talabalik davrida bardoshlilik, chidamlilik, emotsional muvozanatni saqlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish, o‘z ustida ishlay olish kabi jihatlar kopingning markaziy komponentlari bo‘lsa-da, ular ko‘pincha alohida-alohida o‘rganilgan. Bu esa talabalarda koping xulqning shakllanish mexanizmlari, psixologik determinantlari va uni rivojlantirishning ilmiy asoslangan texnologiyalarini chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Talabalik davrida uchraydigan stress faktorlarining – imtihonlar, vaqt tanqisligi, ma’naviy bosim, iqtisodiy qiyinchiliklar va moslashuv murakkabliklarining – shaxsning psixofiziologik holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, imtihon jarayoni stressning eng kuchli manbalaridan biri bo‘lib, u kognitiv faoliyat, hissiy barqarorlik va o‘quv samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, gender va yo‘nalish bo‘yicha farqlar ham koping-strategiyalar tanlanishida sezilarli rol o‘ynaydi: yigitlar ko‘proq faollik va muammoni yechishga yo‘naltirilgan strategiyalarni tanlasalar, qizlar hissiy qo‘llab-quvvatlash, chalg‘itish, emotsional boshqaruv strategiyalariga murojaat qilishadi. Gumanitar yo‘nalish talabalari esa texnik yo‘nalishdagilarga nisbatan ijtimoiy yordam, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijobiy his-tuyg‘ularni tiklash strategiyalaridan ko‘proq foydalanadilar.

Yuqoridagilar asosida talabalarda samarali koping-strategiyaning shakllanganlik darajasi bir qator shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan bevosita bog‘liqligi aniqlanadi. Jumladan:

o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmasi,
stressga bardoshlilik va emotsional barqarorlik,
hayotiy maqsadlarni aniq belgilay olish,
emotsional intellektning rivojlanganlik darajasi,
axloqiy yetuklik,
tejamkor psixik resurslar va irodaviy sifatlar,
ekstremal sharoitlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qila olish,
o‘z-ustida muntazam ishlashga tayyorlik

kabi jihatlar samarali koping xulqning muhim determinantlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, talabalarda koping-strategiyalarni shakllantirish masalasi nafaqat individual psixologik rivojlanish, balki ta’lim samaradorligi, kasbiy tayyorgarlik va sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Mazkur jarayonni chuqur o‘rganish, ilmiy asoslangan psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish, talabalarda stressga qarshi barqaror psixologik resurslarni yaratish – zamonaviy psixologiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ayniqsa, globallashuv, axborot bosimi, raqobat kuchaygan hozirgi davrda talabalarning psixologik barqarorligi, stressni yengish qobiliyati va moslashuvchanlik strategiyalarini rivojlantirish – ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati, ijtimoiy faolligi va hayotiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Foydalnilgan adabiyotlar:

1. Татарникова Н. С. Основные пути индивидуализации высшего профессионального образования : монография / Н. С. Татарникова. - Нижний Новгород: ВГИПУ, 2009. – С.96.
2. Жуйкова М. В. К вопросу о необходимости формирования навыков совладающего поведения // Современная психология: актуальные проблемы и тенденции развития: материалы междунар. науч.-практ. конф. - Новосибирск: Изд-во «ЭНСКЕ», 2010. – С.37 - 45.
3. Илюхин А.Г. Развитие копинг-стратегий у студентов в ситуациях интеллектуальных испытаний. Дисс. … к.психол.н. – Тамбов, 2011. – С.57.
4. Аннекова Е.А. Личностные детерминанты оценки трудных жизненных событий юношами и девушками и их стратегий совладания. Дисс. … к.психол.н. – Ростов-на-Дону, 2010. – С.80.
5. Сорокина Ю.Л. Преодоление кризиса учебной адаптации студентами педагогического вуза. Дисс. … к.психол.н. – Ярославль, 2005. – С.28.



O‘roqov Alibek Shirinovich,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARDA MUSTAQIL FIKRLASH KO‘NIKMASI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotasiya. Maqola talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta’lim metodlari hamda ta’lim jarayonidagi bixevioristik, kognitiv yondashuvlar orqali ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, shaxs, shaxsni tarbiyalash, ijodkor shaxs, ta’lim psixologiyasi, bixevioristik yondashuv, kognitiv yondashuv, yosh psixologiyasi, aqliy-fiziologik imkoniyat, o‘z-o‘zini baholash, maqsadni belgilash, mustaqil fikrlashlarni shakllantirish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Статья посвящена психологическим факторам формирования творческого и самостоятельного мышления у студентов и учеников. В ней анализируются методы активизации деятельности обучающихся, интерактивные методы, формирующие самостоятельность мышления, а также бихевиористические и когнитивные подходы развития творческого и самостоятельного мышления личности. Также в статье охватываются задачи, принципы, механизмы и компоненты развития творческой личности при создании учебников нового поколения, когда особое место уделяется самостоятельности мышления и воспитанию творческой личности.

Ключевые слова: образование и воспитание, самостоятельное мышление, творческое мышление, личность, воспитание личности, творческая личность, педагогическая психология, бихевиористический подход,
когнитивный подход, возрастная психология, интеллектуально-физиологический потенциал, самооценка, постановка цели, формирование самостоятельного мышления.

PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING STUDENTS TO THINK FOR THEMSELVES

Annotation. The paper has been devoted to social psychological factors of formation in students and pupils ability of creative thinking. There is analysed the methods of activation of students activity, interactive methods formation of independent thinking and implementation of behavioral and cognitive approaches as well. The paper covers tasks, process, mechanisms and component of development of creative personality in new generation text books formation, where attention pays on independent thinking and creative persons breeding.

Keywords: education and training, independent thinking, creative thinking, personality, education of the individual, a creative person, behaviorist approach, cognitive approach, psychology, intellectual and physiological potential, self-esteem, setting goals, and developing independent thinking.

Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, xayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimiz samarasi, taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mustaqil fikrlovchi, ijodkor mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan bog‘liqdir. YOsh avlodni etuk barkamol shaxs qilib shakllantirishda esa pedagogik-psixologik bilimlarning o‘rni beqiyos.

Qolaversa, yurtimizda ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta’lim jarayoniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Eski ijtimoiy munosabatlar shakllarining buzilishi va yangi demokratik hayot tarzining vujudga kelishi shaxsning ijodiy faolligini talab qilmoqda. Mustaqil fikrlovchi, ijodkor, faol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish uchun ta’lim tizimida muhim o‘zgarishlar va qayta qurish hayotiy zarurat bo‘lib qolmoqda. SHu boisdan, ta’limda tub o‘zgarishlar yasash, faol, ijodkor, aql zakovatli, ziyoli mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy asoslarini yaratish qator fanlarning, shu jumladan, psixologiyaning dolzarb vazifalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Shuningdek, bugungi kun jahon pedagogikasi va ta’lim-tarbiya psixologiyasi oldida turgan muhim masalalardan yana biri, nafaqat bilimli, balki ijodiy mustaqil fikrlovchi tafakkur sohibi bo‘lgan shaxsni shakllantirishning yo‘l, usul va vositalarini izlash asosiy masalalardan hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yurtimizda yashab ijod etgan mutafakkirlarimiz tomonidan ham o‘z davrida ta’lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxslarni tarbiyalashda o‘qitishning qanday usul va vositalaridan foydalanish lozimligi borasida ahamiyatli fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlangan.

Jumladan, qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy o‘z asarlarida bu boradagi masalalarga alohida to‘xtalib, o‘quvchi shaxsi, tafakkurini rivojlantirish uchun ta’lim berishda ko‘proq qaysi tomonlarga e’tibor berish kerakligini bayon qiladi. Xususan, olimning ta’kidlashicha, o‘qitishda yodlatish emas, balki tushunish, mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqarish yo‘liga amal qilish muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ta’lim maskanlarida talabalarni o‘qitish, shaxs sifatida shakllantirish *(ijtimoiylashuv)* jarayonini hozirgi zamon talablariga javob beradigan metodlar *(uslublar, shakllar)*, vositalar, usullarni yangi mazmun bilan boyitish, monologik o‘qitish tizimidan dialogik, innovasion *(yangilikka asoslangan)*, hamkorlik *(o‘qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg‘unlashtirish)* singari ta’limning yangi turlariga o‘tish orqali ta’lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash pedagogik psixologiyaning oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bo‘yicha bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘rni kelganda, ayrim an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta’lim metodlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Zero, dars jarayonini oqilona tashkil etish, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ta’lim jarayonidagi faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda turli xil zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxslarni tarbiyalash garovidir. Bugungi kunda raqobatchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, sharoitga ko‘ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish yo‘l, usul va vositalarini zudlik va oqillik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtojlik sezmoqda. SHuning uchun G‘arb davlatlarida ta’lim va tarbiya tizimiga bixevoristik yondashuvdan kognitiv yondashuvga qarab siljish kuzatilmoqda. Inson faoliyatini baholashda kognitivizm o‘tgan asrning 60-yillarigacha bo‘lgan pedagogika va psixologiyada hukmron bo‘lgan bixevioristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi:

a) bixevioristik yondashuvda inson xatti harakatlari tashqi muhit ta’siri bilan belgilanadigan, ko‘p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi;

b) kognitiv yondashuvda bu xatti-harakatlarda onglilik, ta’lim asosida hosil qilingan malaka va ko‘nikmalar ustunligi tan olinadi[37].

[37] Матюшкин А.М. Некоторые проблемы психологии мышления. «Психология мышления». / Сборник перево дов с английского и немецкого под ред. А.М.Матюшкина – М “Просвещение”, 1965.-С-134.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, bixevioristik yondashuvda inson ta’lim-tarbiyasi sust, kognitiv yondashuvda esa ular faoldir. Bozor iqtisodiyotida yashash sharti esa insoniy faol likni talab qiladi. Shuning uchun ham AQSH va boshqa G‘arb davlatlarida o‘tgan asr ning 60-yillaridayoq kognitivizm zudlik bilan pedagogika, pedagogik psixologiya va didaktika tizimlariga kirib kela boshladi. O‘sha davrda ancha ommalashgan ta’limning verbal *(ya’ni, ta’lim-tarbiya jarayonidagi kommunikativ muloqotda ta’lim oluvchining faolligi va o‘zligini namoyon qilishga yo‘naltirish)* usullari bilan birlashib, pedagogik psixologiyada ongli, verbal, kognitiv ta’lim yo‘nalishlari shakllandi. Mazkur yo‘nalishda ta’limni tashkillashtirish, ta’lim usullari ni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashda quyidagi yondashuvlar ta’lim markaziga ko‘tarildi:

– kognitivlik – shaxsni fikr yuritish jarayoniga etaklaydigan, bilish faoliyatini noaniq, noma’lum yangi unsurli masala mohiyatiga kirishga undaydigan va ularni hal qilishga yo‘naltiradigan hamda bilim va ma’lumotlarning shaxs ongi, mustaqil fikr yuritishi, ijodkorlik qobiliyatining o‘sishiga va aqliy jihatdan taraqqiy etishiga olib keladigan ta’limiy faoliyatdir;

– dialogli ta’lim – o‘quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o‘qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish orqali ta’lim oluvchilarni nafaqat faol lashtirish, balki ijodiy muhit yaratish va fikrlar almashinuvini ta’minlash orqali har bir ta’lim oluvchining manfaatdorligi ni ta’minlash. Bu orqali talaba o‘quv jarayonining ob’ektidan uning sub’ektiga aylanadi;

– onglilik – ta’lim jarayoniga ongli mu nosabatni namoyon qilish, berilgan topshiriq yoki vazifalarni fikriy jarayondan o‘tkazish orqali induktiv xulosalar chiqarishga layoqatlilik.

Tabiiyki, yuqoridagi mezonlar o‘quvchi tala balarda mustaqil va erkin fikrlash, faollik va o‘z nuqtai nazarini tahlil qilishga imkon yaratib, ularda tashabbuskorlik, bilimdonlik hamda o‘z aqliy imkoniyatlaridan to‘liqroq foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi. Pedagogik psixologiyada mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda ta’limni tashkil etish, ta’lim jarayonida ta’limning inter faol usullaridan keng foydalanish ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillaridan biri sifatida qaraladi[38].Ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta’lim metodlarining pedagogik-psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko‘proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar va mustaqil faoliyat yuritish nati jasida ta’lim oluvchi shaxsida ijodkorlik xislatlari shakllanadi. Bunda bahslashuvchi larga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa», lekin navbatma-navbat aytish imko niyati beriladi. Bu narsa ko‘proq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo‘lgan sharoitlarda qo‘l

[38]Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. /Talabalar, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun o’quv qo’llanma. – T.: «SHarq», 2000.

keladi. Ya'ni bunda «erkin assosiasiyalar»ga imkon beriladi va oxir-oqibat talabaning o'zi muammoning ma'lum rasional «mag'zni» ajratib oladi[39].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– «ta'limni industrlashtirish», ya'ni kompyuterlashtirish va texnologiyalashtirish asosida hozirgi zamon jamiyatining aqliy faoliyatini kuchaytirish;

– ta'limning hozirgi vaqtgacha ustunlik qilgan axborot beruvchilik shakllaridan faol o'qitish metodlari va shakllariga o'tish. Bu yo'nalish «xotira maktabi»dan «tushunish maktabi», «tafakkur maktabi»ga o'tishdan iborat;

– o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va boshqarishda qat'iy belgilangan nazorat usullaridan rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, takomillashtiruvchi usullarga hamda o'yin usullariga o'tish. Bu esa ta'lim oluvchilarning tashkiliy-ijodiy, mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi;

– ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, ya'ni ta'lim oluvchilarni birgalikdagi jamoa faolligi sifatidagi ishtirokini ta'minlash. Bunda asosiy urg'u o'qituvchining bilim berish faoliyatidan talabaning bilim olish faoliyatiga o'tkaziladi. Mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash jarayonida voqelashtirish usullari juda ko'p va rang-barangdir. Ulardan quyidagi asosiylarini sanab o'tishimiz mumkin:

– har bir mashg'ulotda o'quvchi o'qituvchi darslik talabi asosida unga bergan, etkazgan bilimlarni takrorlashi emas, balki uning yo'llanmasi bilan yangi bilim hosil bo'lishini ta'minlashi lozim. Bu esa fikrlash yordamida bilim oluvchida bilishga intilishning amaliy ko'nikmasining shakllanishiga olib keladi;

– darsda o'quvchi sust tinglovchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi bo'lishi kerak. Shuning uchun talabaning har bir so'zi, fikri, hukmi, bayoni uning o'ziniki bo'lmog'i shart. Albatta, o'quvchida tug'ilgan bu fikr olamshumul kashfiyot yoki bi ror chigal muammoning echimi ham, o'qituvchi (darslik) bergan axborotning soddagina takrori ham bo'lmasligi mumkin. Bunday ta'lim usuli o'quvchi-talabada mustaqillik, mas'uliyat, o'z menligini anglash, ijod, bunyod qilish ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada o'qituvchi bilan tinglovchilar orasida dars jarayonidagi aloqa – munosabat juda ko'p hol larda jonli og'zaki muloqot, qolaversa, bahs tusini olishi mumkin;

– o'qituvchining ta'lim oluvchiga beradi gan izlanish va fikrlash yo'llanmasi shunday bo'lmog'i lozimki, sinf yoki guruhdagi o'quv chilarning izlanish va ijod mahsuli aynan bir xil bo'lmasligi – mohiyatan bir yo'nalishda bo'lib, lekin shaklan har xil bo'lmog'i lozim. Shundagina har bir ta'lim oluvchi o'zligini mumkin qadar

[39] Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: «Universitet», 2000.

yorqinroq ifoda etish imkoni yatiga ega bo‘ladi va ularda har bir mashg‘ulotda musobaqa ruhi etakchilik qiladi;

– dars jarayonida (uy vazifasini baja rish va uni sinfda, auditoriyada tahlil etishda) talaba o‘qituvchi yo‘llanmasi asosida izlanar, fikr qilar, biror narsani topar, biror xulosa va hukmga kelar ekan, u o‘z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intilishi zarur. Qolaversa, mashg‘ulot ning tashkil etilishi va o‘quv materiali bunga keng yo‘l ochib bermog‘i, ta’lim oluvchining yosh psixologiyasi va aqliy fiziologik imkoniyatiga mos bo‘lmog‘i lozim. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ko‘pgina darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni o‘quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga, ularda ijodkorlikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan mazmunda tayyorlashga harakat qilinmoqda. Shubhasiz, ular o‘quvchining turmush tarzi va kundalik hayoti bilan bog‘langan narsa va hodisalar doirasidagi materiallardan tashkil topgan bo‘lib, har bir yosh bosqichidagi ta’lim oluvchilarning psixologik rivojlanishi darajasiga mo‘ljallangan. Yangi mazmundagi darsliklarning o‘quv materiali va topshiriqlarning berilishida bosqichli ketma-ketlik ham, har bir mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchining aqliy faoliyatini rivojlantirish amaliyotining mavzudan mavzuga, bosqichdan bosqichga murakkablashib borish yo‘llari ham, o‘rganish jarayonining faol kuzatishdan boshlanib amaliy qo‘llash bilan yakunlanish jarayoni ham ongli verbal kognitiv psixodidaktik asoslarga to‘la mos bo‘lishi kerak.

Buning uchun, birinchi galda uzluksiz ta’lim tizimi oldida turgan vazifalar sifatida quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

– verbal (verbal ta’lim – nutq va so‘z orqali ta’limni amalga oshirish) kognitiv ta’lim usulini o‘qituvchilar orasida keng ommalashtirish eng muhim vazifalarimizdan biri sanalishi lozim. Chunki o‘qituvchilar bu usulni qo‘llash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni, ko‘rgazmali va texnologik qurollardan amaliy foydalanishni o‘rganib olmas ekanlar, ular bu sohada samarali natijaga erishga olmaydilar;

– darsliklar va ta’lim usuli bilan mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilar qo‘shimcha axborot manbalari bilan ta’minlangan bo‘lishlari shart, hozircha bu manbalar darslik, internet ma’lumotlari, elektron manbalar, o‘quvchining xotirasi, kundalik turmush tarzidan, boshqa o‘quv fanlaridan, atrofdagilardan so‘rab-surishtirib olinadigan axborotlardan iborat bo‘lmoqda. Bu albatta, etarli emas. Shuning uchun o‘qituvchilar fan boyliklari va imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan va ularni ta’lim oluv chilarga etkaza oladigan qomusiy ma’lumot noma, turli xildagi (izohli ma’lumotlar, vaziyatli masalalar, tasviriy materiallar va hokazo) ma’lumotlar bilan ta’minlangan bo‘lishlari lozim. Bu masalada ta’lim tizimi da yo‘lga qo‘yilayotgan fanning o‘quv moduli: o‘quv-uslubiy majmua, elektron o‘quv-uslubiy majmua (sillabus) ko‘p jihatdan talabalarni turli xil qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlash imkoniyatiga ega deyish mumkin. Qolaversa, bu orqali darsliklarning hozirgi hajmi keskin qisqarib, ular asosan, har bir mavzuni o‘rganish (har bir mavzu doirasida ijodiy fikrlash va nimanidir yaratish) topshiriqlari algoritmidan iborat bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’kidlangan fikrlar bizning ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va hayotiy kuzatuvlarimiz asosida shakllangan qarashlardir. Ammo, nazarimizda bu kabi fundamental masalalar ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda va ijodkor shaxsni tarbiyalashda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: «Universitet», 2000.

2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. /Talabalar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: «Sharq», 2000.

3. Muhammadjonov A. Школа и педагогическая мысль узбекского народа XIX – начала XX в. – T.: «Fan», 1978.

4. Матюшкин А.М. Некоторые проблемы психологии мышления. «Психология мыш ления». / Сборник переводов с английского и немецкого под ред. А.М.Матюшкина. - М.: «Просвещение», 1965.

5. Рахманова Н.Р., Умаров Б.М. Психологические основы учебно-познавательной деятельности вуза. – Т.: ИПТД имени Гафура Гуляма, 2008.

6. В.П. Зинченко. Основы психологии мышления. - Москва: Наука, - 2003.



Usmanaliyeva Risolat,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy fanlarni o‘qitish jarayonida pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash va o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritiladi. Maqolada innovatsion ta’lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, raqamli resurslar va loyihaviy faoliyatning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirish, hamda shaxsiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali yo‘llari, pedagogning innovatsion kompetensiyasi, ijtimoiy fanlarda amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlarning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik innovatsiyalar, kreativlik, ijodkorlik, loyiha asosidagi ta’lim, interfaol metodlar, ijtimoiy fanlar, kreativ fikrlash, shaxsiy rivojlanish, tanqidiy fikrlash, raqamli ta’lim.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы применения педагогических инноваций в процессе преподавания общественных наук и развития творческого мышления учащихся. Анализируется влияние инновационных образовательных технологий, интерактивных методов, цифровых ресурсов и проектной деятельности на формирование самостоятельного мышления, развитие социальной

активности и личностного роста школьников. Также освещаются эффективные пути развития креативного мышления, инновационная компетентность педагога, значение практико-ориентированных заданий в общественных науках, существующие проблемы и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: педагогические инновации, креативность, творчество, проектное обучение, интерактивные методы, общественные науки, творческое мышление, личностное развитие, критическое мышление, цифровое образование.

KEY ASPECTS OF DEVELOPING PEDAGOGICAL INNOVATIONS AND CREATIVE THINKING IN STUDENTS WHEN TEACHING SOCIAL SCIENCES

Annotation. This article examines the importance of applying pedagogical innovations and developing creative thinking in students during the teaching of social sciences. It analyzes the impact of innovative educational technologies, interactive methods, digital resources, and project-based learning on the formation of independent thinking, students' awareness of social processes, and personal development. The article also highlights effective strategies for fostering creativity, the innovative competence of teachers, the role of practice-oriented tasks in social science education, existing challenges, and recommendations for improving the teaching-learning process.

Keywords: pedagogical innovations, creativity, creative thinking, project-based learning, interactive methods, social sciences, critical thinking, personal development, digital education.

Kirish. Bugungi globallashuv, texnologik yangilanish va raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim tizimidan tubdan yangi yondashuv va sifat jihatidan yuqori natijalarni talab qilmoqda. Axborot oqimlarining keskin ortishi, internet va sun'iy intellektning kundalik hayotga chuqur kirib borishi, yoshlarning dunyoqarashi va fikrlash tarzida sezilarli o'zgarishlar yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda ta'limning asosiy vazifasi — o'quvchilarga tayyor ma'lumot berish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, o'z nuqtayi nazarini shakllantirish, masalalarga tanqidiy va kreativ yondashish ko'nikmalarini singdirishdan iborat bo'lib qoldi.

Ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasi hozirgi davrda o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yanada oshirib bormoqda. Chunki ushbu fanlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarini anglashga yordam beradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ongli va faol fuqaroni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ijtimoiy fanlar o'quvchilarga nafaqat tarixiy voqealarni, siyosiy institutlar faoliyatini yoki iqtisodiy jarayonlarni o'rgatadi, balki ular orqali shaxsning ijtimoiy faolligi,

huquqiy madaniyati, vatanparvarlik tuyg‘usi, muloqot madaniyati, ijtimoiy mas’uliyati va ijodkorlik salohiyati shakllanadi.

Bugungi o‘sib kelayotgan avlodning intellektual ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘quv faoliyatiga yondashuvi avvalgidan mutlaqo farq qiladi. Ular raqamli texnologiyalar bilan o‘sgan, tezkor axborot almashinuvi sharoitida shakllangan, faol va ijodiy fikrlashni talab qiladigan avloddir. Shuning uchun ijtimoiy fanlarni an’anaviy metodlar bilan o‘qitish zamonaviy ta’lim talablari bilan mos kelmaydi. Endilikda o‘qituvchilar dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha asosidagi faoliyat, raqamli platformalar va vizual multimedia resurslaridan faol foydalanishi muhimdir.

Ijtimoiy fanlar ta’limi samaradorligini oshirishda o‘qituvchining innovatsion yondashuvi, darsning strukturasi, o‘quvchilarni faol jalb etish mexanizmlari, ijodiy muhit yaratish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki dars jarayonida yaratilgan kreativ muhit o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish, savol berish, mantiqiy umumlashtirish, tahlil qilish, o‘z fikrini asoslay olish va mavjud muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu bois ijtimoiy fanlarni o‘qitishda pedagogik innovatsiyalardan oqilona foydalanish – ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, o‘quvchilarni zamon talablariga mos fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Zero, bugungi kun pedagogining asosiy vazifasi — bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchini ijtimoiy jarayonlarga faol aralasha oladigan, mas’uliyatli, kreativ va tashabbuskor shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Pedagogik innovatsiyalar tushunchasi va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni

Pedagogik innovatsiya — ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga qaratilgan yangi metod, texnologiya, g‘oya yoki yondashuv bo‘lib, u o‘quvchilarning faol ishtirokiga, mustaqil fikrlashiga va ijodkorligiga turtki beradi.

Ijtimoiy fanlar ta’limida innovatsiyalar:

o‘quvchini passiv tinglovchidan faol izlovchiga aylantiradi;

real hayotga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali kompetensiyalarni shakllantiradi;

dars jarayonini qiziqarli va samaraliroq qiladi;

ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Quyidagi innovatsion metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi:

muammo asosidagi ta’lim,

loyihaviy faoliyat,

interfaol metodlar (munozara, debat, rol o‘ynash),

AKTdan foydalanish,

gamifikatsiya metodlari.

Kreativ fikrlashni shakllantirishning ahamiyati (kengaytirilgan variant)

Kreativ fikrlash — bugungi zamonaviy ta’lim va mehnat bozorining eng muhim talablardan biridir. Bu jarayonda shaxsning noodatiy yechimlar topa olishi, yangicha yondashuvlar ishlab chiqishi, mavjud muammolarni original yo‘l bilan

hal eta olishi kabi ko‘nikmalar asosiy o‘rinni egallaydi. Kreativlik shaxsning faqat tasavvuriga tayanmasdan, balki tahliliy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z fikrini asoslay olishi va yangilik yaratish jarayonida faol ishtirok etishini ham nazarda tutadi.

Hozirgi raqamli jamiyatda kreativ fikrlashning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, tezkor axborot almashinuvi sharoitida oddiy takroriy bilimlarni texnologiyalar bajara oladi. Ammo noodatiy fikrlash, original g‘oya yaratish, muammolarga ijodiy yondashish faqat inson tafakkuriga xos bo‘lgan qobiliyatlardir. Shu bois kelajak kasblarida ham kreativ fikrlovchi shaxslar eng yuqori qadrlanadi va innovatsion jamiyatning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Ijtimoiy fanlarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning o‘rni

Ijtimoiy fanlar – inson, jamiyat, tarix, iqtisodiyot, huquq va siyosiy jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishlar o‘z tabiatiga ko‘ra kreativ yondashuvni talab qiladi. Ushbu fanlarni o‘qitishda kreativ fikrlashni rivojlantirish:

o‘quvchining ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatini kuchaytiradi, chunki u faktlarni yodlash bilan cheklanmaydi, balki jarayonlarning sabab-oqibatlarini o‘rganadi;

tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, bu esa o‘quvchiga ma’lumotni tahlil qilish, solishtirish va to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini beradi;

muammolarga turli nuqtayi nazardan qarash ko‘nikmasini rivojlantiradi, bu demokratiya, tolerantlik, bag‘rikenglik va erkin fikrlash kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi;

ijtimoiy masalalarni hal qilishda ijodiy yondashuvni kuchaytiradi, bu jarayon shaxsning liderlik va tashabbuskorlik salohiyatini rivojlantiradi.

Kreativlikni rivojlantirishning samarali metod va yondashuvlari

Kreativ fikrlashni shakllantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u ta’lim muhitida maxsus tashkil qilingan sharoitlarni talab qiladi. Quyidagi metodlar ayniqsa samaralidir:

1. Erkin fikr bildirish muhitini yaratish

Dars jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini ochiq, qo‘rquvsiz va erkin ifoda eta oladigan muhit bo‘lishi kerak. Bunday sharoit ijodiy fikrlashning tabiiy shakllanishiga yordam beradi. O‘quvchining fikri qadrlansa, u yangicha g‘oyalar taklif qilishdan tortinmaydi.

2. Muammoli vaziyatlar asosida qaror qabul qilish topshiriqlari

O‘quvchilarga tarixiy, huquqiy yoki ijtimoiy vaziyatlardan kelib chiqadigan muammolar taqdim etilib, ularga noodatiy yechim topish topshiriqlari beriladi. Bu ular:

tahlil qilish,

muqobil yechimlar ishlab chiqish,

qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

3. Jamoaviy loyihalar va tadqiqotlar

Loyiha asosida ishlash:
hamkorlik,
liderlik,
mas'uliyat,
ijodkorlik
ko'nikmalarini kuchaytiradi. Masalan, "Mahallada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish" mavzusidagi loyiha o'quvchilarning real ijtimoiy muammolarni o'rganishiga va yechim taklif qilishiga imkon beradi.

4. Dramatizatsiya, rol o'ynash va tarixiy sahna qo'yish

Rol o'ynash metodlari:
o'quvchining tasavvurini kengaytiradi,
tarixiy voqealarni chuqur his qilishga yordam beradi,
shaxsiy ishtirok orqali mavzuni yanada chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Bu metod o'quvchini faol o'rganish jarayoniga olib kiradi va ijodiy tafakkurni kuchaytiradi.

5. Iqtisodiy va ijtimoiy mavzularda startap g'oyalar yaratish

Bu yondashuv o'quvchilarda:
tadbirkorlik fikrlashi,
innovatsion g'oya yaratish,
biznes reja tuzish,
jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Startaplar orqali o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'rganadilar.

Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Bugungi kunda pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda qator muammolar mavjud:
o'qituvchilarning innovatsion ko'nikmalarining yetarli emasligi;
zamonaviy texnik vositalarning taqchilligi;
o'quvchilarning passiv o'quvchi sifatida shakllanib qolganligi.

Ularni bartaraf etish uchun:
pedagoglar uchun muntazam treninglar;
ta'lim muassasalarini texnik jihozlash;
o'quvchilarni loyihaviy va amaliy faoliyatga jalb qilish tavsiya etiladi.

Xulosa

Ijtimoiy fanlarni o'qitishda pedagogik innovatsiyalar va kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ajralmas va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonining asosiy maqsadi — o'quvchilarda tayyor bilimlarni yod oldirish emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirish va muammolarga kreativ yondashish qobiliyatini shakllantirishdir. Ayniqsa, ijtimoiy fanlar mazmuni o'quvchilarni jamiyat hayotiga tayyorlash, ular ongida fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy madaniyat va milliy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Maqolada ko‘rsatib o‘tilganidek, innovatsion metodlar va interfaol yondashuvlar ijtimoiy fanlar ta’limida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi, ularni mustaqil izlanishlar olib borishga undaydi va real hayotiy vaziyatlarga doir masalalarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammo asosidagi ta’lim, loyihaviy ishlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi yondashuvlar o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa bugungi ta’lim standartlarining asosiy talabi hisoblanadi.

Shu bilan birga, innovatsion ta’lim jarayoni o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini doimiy rivojlantirishni talab qiladi. Pedagog zamon bilan hamnafas bo‘lib, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishi, o‘quvchining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, kreativ muhit yaratishi zarur. Ta’lim muassasalarida texnik vositalarning yetishmasligi yoki o‘qituvchilarning innovatsion metodlardan to‘liq foydalana olmasligi kabi muammolar mavjud bo‘lsa-da, ularni bartaraf etish imkoniyatlari ham kengdir: muntazam malaka oshirish, texnik baza yaratish, ijodiy tashabbuslarni rag‘batlantirish – bu boradagi samarali choralar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy fanlarni o‘qitishda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash va kreativ fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiribgina qolmay, balki kelajak avlodni global jarayonlar va zamonaviy kasblar talablariga mos ravishda tayyorlaydi. Bugungi kun talabi — yangilikka ochiq, izlanishga moyil, kreativ fikrlaydigan, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok eta oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Ijtimoiy fanlar esa ushbu ulkan vazifani amalga oshirishda eng samarali vositalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi qaror va farmonlari.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent, 2021.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent, 2008.
4. Innovatsion pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2021.
5. Raxmonov S. Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish. Pedagogika va psixologiya.2019
6. Fayzullayeva N. Ijtimoiy fanlar ta'limida ijodkorlik va innovatsiyalar. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.2020
7. Karimov D. (2021). Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim sifatini oshirish. O'zbekiston Ta'lim jurnali. 2021
8. Tursunova S. Integratsiyalangan o'qitish: nazariya va amaliyot. Ta'lim va ijtimoiy fanlar.2022
9. Abdullaeva G. Innovatsiyalarning ta'limda qo'llanilishi. Ijtimoiy fanlar va pedagogika jurnali.2023
10. ZiyoNET ta’lim portali (www.ziyonet.uz)

Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedra katta o'qituvchisi

YUQORI SINF O'QUVCHILARINING AXBOTORLAR BILAN ISHLASHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni, hayotimizga kirib kelganlini, bugungi kundagi o'quvchilarning axborotlar bilan ishlashda sun'iy intellektning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Sun'iy intellekt ta'lim oluvchining vaqtini tejashga va ta'limda muvaffaqiyatli rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi, uning imkoniyatlari keng qamrovli ekanligi to'g'risida axborot berilgan.

Kalit so'zlar. Sun'iy intellekt, axborot, texnologiya, telekommunikatsiya, kompyuter, o'quv jarayoni, axborotlar bilan ishlash.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАБОТЕ С ИНФОРМАЦИЕЙ У СТАРШЕКЛАССНИКОВ

Аннотация. В данной статье представлена информация о роли искусственного интеллекта в образовании, о его внедрении в нашу жизнь, а также о значении искусственного интеллекта для современных учащихся при работе с информацией. Отмечается, что искусственный интеллект оказывает значительное влияние на экономию времени обучающихся и их успешное развитие в образовательном процессе, а также обладает широкими возможностями.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, информация, технология, телекоммуникация, компьютер, учебный процесс, работа с информацией.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WORKING WITH INFORMATION AMONG HIGH SCHOOL STUDENTS

Annotation. This article presents information about the role of artificial intelligence in education, its integration into our lives, and the importance of artificial intelligence for today's students in working with information. It is highlighted that artificial intelligence significantly contributes to saving learners' time and to their successful development in education, as well as providing broad opportunities.

Keywords. Artificial intelligence, information, technology, telecommunication, computer, learning process, working with information.

Kirish. Bizga ma'lumki XXI asr axborot texnika-texnologiya va telekomunikatsiya asri hisoblanadi. Kompyuter va axborot texnalogiyalari jadal suratlar bilan yangilanib, rivojlanishi bilan birga kundalik turmushimizning asosiga aylanib bormoqda. Dunyoda globallashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zamonaviy kompyuter texnikasi, internet, mobil aloqa vositalari vaqtni tejashi, ixcham, qulay va tezkorligi bilan kundalik turmush tarzimizga tobora chuqur singib bormoqda. Bugun axborotlarni bir zumda tarqatish, qabul qilish va xarajatlarni kamaytirishda raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt hayotimizning barcha jabhalarida, shu jumladan ta'lim tizimida jadal kirib kelayotgan inson ongining mahsuli hisoblangan zamonaviy intellektual vositadir. So'nggi yillarda sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi sezilarli sur'atlarga ega bo'lib, pedagogik amaliyotni takomillashtirish uchun faydalanilmoqda. Mashinani o'rganish algoritmlari, tabiiy tilni qayta ishlash va adaptiv ta'lim tizimlari kabi sun'iy intellekt texnologiyalari an'anaviy ta'lim yondashuvlarini o'zgartirmoqda. Ushbu maqola sun'iy intellektning ta'limjarayonida o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash roli haqida ma'lumot berishga, uning oqibatlari, foydalari va muammolarini yoritishga qaratilgan. Ta'lim tizimida qo'llaniladigan intellektual tizimlarni o'quvchilarni topshiriqlarni bajarishga yordam beradigan, ishini osonlashtiradigan va o'quv jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradigan zamonaviy didaktik vosita sifatida baholash mumkin. Bunday "aqlli" tizimlar o'quvchilarga yangi bilimlarni berish, ularni axborotlar bilan ishlashga, zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash, fanni o'zlashtirish jaryonida maslahatlar berish va ularning faolyatini nazorat qilib borish imkoniyatlariga ega. Bundan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari o'quvchilarga interaktiv faoliyat va simulyatsiyalar bilan shug'ullanish imkonini beruvchi hamkorlikdagi ta'lim muhitini osonlashtiradi.

Mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevralgagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shartsharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarori qabul qilinishi ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va tashkillashtirish imkonini berdi.

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng miqiyosda qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularni yuqori sifatini ta'minlash har bir sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida ta'lim-tarbiyaning barcha bo'g'inlarida bunyod etish yo'llari yoshlarni kamolotga yetkazishda ososiy o'rinni egallaydi.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta 'lim sohasiga joriy etilishi nafaqat ta 'lim jarayonini samaraliroq qilish, balki o'quvchilarning axborotlar bilan ishlashidagi individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish imkoniyatlarini yaratish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Sun'iy

intellekt o‘quvchilarning vaqtini tejashga va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv jarayonida axborotlar bilan ishlashga jalb qilishga xizmat qiladi. Bu ta ’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi, chunki o‘qituvchilar o‘z vaqtlarini ko‘proq dars rejalashtirish va o‘quvchilar bilan individual ishlashga sarflashi mumkin. Sun’iy intellekt tomonidan boshqariladigan mashina, xuddi o‘qituvchi sinfga oldingi bilimlarini olib kelgani kabi oldindan belgilangan tajriba bilan yuklanishi mumkin. Ushbu sun’iy intellekt yordamida o‘qituvchi maktabdagi kabi o‘quvchiga bilim berish mumkin. Haqiqiy o‘qituvchi o‘quv faoliyatida axborotlar bilan ishlashda o‘quvchining kerakli ta’lim natijalarini qo‘lga kiritilganligini bilish uchun uni baholash mumkin. Sun’iy intellektga yo‘naltirilgan ta’limda, sun’iy intellektga asoslangan mashina ham o‘quvchining axborotlar bilan ishlashda maqsadlariga erishish uchun oldindan belgilangan dasturlar, platformalardan ma’lumotlar olishni ta’minlaydi. Sun’iy intellekt tizimi darsdan keyin o‘quvchilar uchun qo‘shimcha ma’lumotlar olishda vazifasini o‘taydi. O‘qitishning ushbu usuli sun’iy intellektga yo‘naltirilgan o‘rganish deb ataladi.

Sun’iy intellekt ta’lim oluvchining vaqtini tejashga va ta’limda muvaffaqiyatli rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Sun’iy intellektning imkoniyatlari keng qamrovli bo‘lib, o‘quvchini qiziqtirgan savollarga javob berishi, berilgan buyruq asosida rasm chizishi yoki turli mavzularda taqdimotlar yaratishi va xattoki, turli referat va maqolalar ham yozib bera olish imkoniyatiga ega. Uning t’lim algoritmlari o‘quvchilarning individual xususiyatlari va o‘rganish usullari asosida moslashtiriladi, bu esa har bir o‘quvchining o‘ziga xos ta’lim yo‘lidagi qobiliyatlarini oshiradi.

Sun’iy intellekt ta’limdagi asosiy tadbirlarni, masalan, baholashni avtomatlashtirishi mumkin. Ayni paytda akademiklar deyarli barcha turdagi bir nechta muqobil testlar va bo‘sh joyni to‘ldirish uchun baholashni o‘zgartirishi mumkin va o‘quvchilar yozuvini avtomatik baholash unchalik ortda qolmasligi mumkin. Sun’iy intellektga asoslangan dasturlar o‘quvchilarga foydali fikr-mulohazalarni berishi mumkin.

Sun’iy intellekt hozirgi kunda quyidagi jarayonlar ko‘rinishida ta’limni o‘zgartirishni davom ettirmoqda:

globallashuv va fan-texnika taraqqiyoti jarayonida sun’iy intellektning ta’lim tizimida axborotlar bilash ishlashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda;

test va baholash tizimlari orqali o‘quvchilar uchun sun’iy intellekt yordamida yangi o‘lchovlar va mezonlar yaratish mumkin;

tabaqalashtirilgan va individual ta’limdan axborotlardan samarali va keng foydalanish imkoniyatlari yaratildi;

ta’limda juda muhim o‘rin tutadigan teskari aloqa sun’iy intellektga ega o‘quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda avtomatlashtirilishi mumkin.

O‘tgan bir necha yillar davomida kompyuterdan foydalana olmaslik, savodsizlikdek ko‘rilgan bo‘lsa, endi bu narsa Sun‘iy intellekt texnologiyalariga nisbat berib ishlatilish davri keldi.

Bu sun'iy intelekt tizimlar o'quvchilarning ijodiy faoliyati sun'iy intellekt vositalaridan oldin va so'ng baholandi. Baholash mezonlari orqali yozma ishlar mazmuni, uslubiy xilma-xillik, g'oya yangiligi, vizual ifodadagi yangilik, estetik ko'rinish, mavzu bilan bog'liqlik hamda jamoaviy loyihalardagi rol taqsimoti, muammo tahlili va yechim kreativligini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarning ijodiy fikrlash darajasini oshirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, Sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentligini kengaytiradi, tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi va muqobil yechimlar taklif qiladi. Biroq, bu texnologiyalarni o'quv muhitiga kiritishda o'qituvchining roli keskin oshadi. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib integratsiya qilishda quyidagilardan foydalanishimiz mumkin.

Ayniqsa, ta 'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning analitik fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vositaga aylanmoqda. Biroq bu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga shunchaki texnik vosita sifatida emas, balki didaktik va metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib qo'llash lozim.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi va ta 'limda yanada kengroq qo'llanilishi natijasida o'qitish va o'rganish jarayonlari tubdan o'zgarishi kutilmoqda. Umuman olganda, sun'iy intellekt ta'lim tizimini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda kuchli vosita bo'lib, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun texnologik, pedagogik va etik jihatlarga e'tibor qaratish zarur.

Sun'iy intellekt aniq fanlar, moliyalashtirish, ta'lim, dizayn va boshqa ko'plab sohalarda o'z o'rnini egallaydi. Sun'iy intellektning "mehnat"i juda past bo'ladi, shuning uchun uni bepul yoki juda arzon narxlarda foydalanishimiz mumkin. Boshqa so'zlar bilan aytganda, ilg'or sun'iy intellekt texnologiyalarini keng etish dunyo aholisining tez o'sib hayot sifatini oshiradi. Katta bilish bilan inson hayotining farovonligiga yaqinlashtirishi mumkin.

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida sun'iy intellekt texnologiyalari O'quvchilarning axborotlar bilan ishlashi o'tiladigan fanining mazmunini yangicha yondashuvlar orqali yoritish imkonini bermoqda. O'quvchilar sun'iy intellekt yordamida o'quvchilar real hayotdagi voqea, hodisa va jarayonlarni chuqurroq tushunishga erishmoqdalar. Bu esa darsni zamonaviylashtirish, mazmunan boyitish va o'quvchida dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosida tuzilgan topshiriqlar, testlar va loyihalar o'quvchilarni faollashtiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi, o'zlashtirish jarayoni individual yondashuv asosida olib boriladi, bu esa har bir o'quvchining qobiliyatiga mos o'quv muhiti yaratadi.

Sun'iy intellekt har bir o'quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos keladigan o'quv materiallarini tavsiya qiladi. Test va yozma ishlarni tekshirib berish bilan o'qituvchining vaqtini tejaydi. Baholashni adolatli bo'lishini, ma'lumotlarning ishonchli ekanini nazorat qiladi. Yana sun'iy intellektlar ishonchli va aniq ma'lumotlarni ham taqdim etishda ancha o'zib ketmoqda. Sun'iy

intellektning ta'limga qo'shayotgan foydalariga yana ko'plab misollar keltirish mumkin, aynan jamiyatimizda ham AI dan o'z ta'limiga foyda olayotganlar talaygina.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash jarayonida sun'iy intellektning roli tobora ortib borayotgani ta'lim tizimida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Sun'iy intellekt nafaqat o'qitish jarayonini yengillashtiradi, balki uni shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan tizimga aylantiradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularga mos materiallarni tavsiya qilish, o'qituvchining yukini kamaytirish, baholashda xolislikni ta'minlash, axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini kengaytirish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektdan oqilona foydalanish ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammoni hal qilish va mustaqil o'rganish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etish jarayoni puxta pedagogik yondashuv, metodik asos va axborot xavfsizligini saqlashni talab etadi. O'qituvchi sun'iy intellektning asosiy boshqaruvchisi, yo'naltiruvchisi va nazoratchisi bo'lib qoladi. Demak, AI o'qituvchini almashtirmaydi, aksincha, uning ishini samarali va zamonaviylashtiradi.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi ta'lim jarayonining to'liq transformatsiyasiga olib kelishi, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishi kutilmoqda. Bu esa ta'lim tizimining global raqobatbardoshligini oshiradi, mamlakatimizda ham zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu boisdan, ta'lim muassasalari, pedagoglar va ota-onalar sun'iy intellekt vositalaridan oqilona, maqsadga yo'naltirilgan tarzda foydalanishlari, ularni o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylantirishlari lozim. Ta'limga joriy etilgan AI texnologiyalari to'g'ri yo'naltirilsa, o'quvchilarning axborot bilan ishlash madaniyati, mustaqil o'qish motivatsiyasi va yaratuvchanlik salohiyati sezilarli darajada ortadi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt — kelajak ta'limining poydevori bo'lib, uni samarali qo'llash orqali biz o'quvchilar uchun yanada innovatsion, qiziqarli, adolatli va sifatli o'quv muhitini yaratishimiz mumkin. AI texnologiyalarining to'g'ri tatbiqi ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi va yosh avlodni zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021-yildagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori (https://lex.uz/docs/-5297046).

2. Sun'iy intellektning afzalliklari va kamchiliklari. https://www.javatpoint.com/advantagesand-disadvantages-of-artificial-intelligence)

3. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari: unda ishlashining 15 sababi. (https://livetilesglobal.com/pros-cons-artificial-intelligence-classroom/)

4. G'ulomov S.S. va boshqalar "Axborot tizimlari va texnologiyalari". Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. - T: «Sharq», 2000 y. 336-368 b.

5. Raximov N.O. Intellektual o'qitish tizimlarida bilimlarni ifodalash modellari // TATU xabarlari. – Toshkent. №4. 2010. 64-68 b. 3. Kadirov M.M. "Axborot texnologiyalari" fanidan o'quv qo'llanma. 1-qism. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, - 2018. 192-237 b

6. Бессмертный И.А. "Искусственный интеллект" Учебное пособие. Санкт-Петербург 2010. 288 с

7. Mhlanga, D. (2023). Open AI in Education, the Responsible and Ethical Use of ChatGPT Towards Lifelong Learning. SSRN Electronic Journal. https://doi.org/10.2139/ssrn.4354422

Durmanova Gulchehra Dusiyarovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi
katta o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TABIAT BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA EKOLOGIK ONG VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishning mazmuni, vazifalari va samarali metodlari yoritilgan. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global ekologik muammolar fonida bolalarni erta yoshdan tabiat bilan to'g'ri tanishtirishning ahamiyati asoslanadi. Ekologik ta'limning psixologik-pedagogik jihatlari, didaktik o'yinlarning roli, shuningdek STEAM, loyiha asosida ta'lim, interfaol metodlar va tabiat qo'ynida o'qitishning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ekologik qadriyatlarni barvaqt shakllantirish kelajak avlodning barqaror rivojlanishiga zamin yaratishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ekologik ong, ekologik madaniyat, maktabgacha ta'lim, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, didaktik o'yinlar, STEAM yondashuvi, ekologik kompetensiya, tabiat bilan tanishtirish.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ПРОЦЕССЕ ЗНАКОМСТВА С ПРИРОДОЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание, задачи и эффективные методы формирования экологического сознания и экологической культуры у детей дошкольного возраста. На фоне глобальных экологических проблем — изменения климата, утраты биоразнообразия, загрязнения окружающей среды — обосновывается важность раннего экологического воспитания. Анализируются психологико-педагогические аспекты экологического образования, роль дидактических игр, а также эффективность STEAM-подхода, проектного обучения, интерактивных методов и занятий на природе. Результаты исследования показывают, что раннее формирование экологических ценностей способствует подготовке ответственного поколения, способного обеспечивать устойчивое развитие общества.

Ключевые слова: экологическое сознание, экологическая культура, дошкольное образование, экологическое воспитание, дидактические игры, STEAM-подход, экологическая компетентность, природа и ребёнок.

DEVELOPING ENVIRONMENTAL AWARENESS AND CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH NATURE-BASED EDUCATION

Abstract. This article explores the content, objectives, and effective methods of developing environmental awareness and environmental culture in preschool children. Against the backdrop of global environmental issues—climate change, biodiversity loss, and pollution—the importance of introducing children to nature from an early age is emphasized. The study analyzes the psychological and pedagogical aspects of environmental education, the role of didactic games, and the effectiveness of modern approaches such as STEAM, project-based learning, interactive techniques, and outdoor education. The findings demonstrate that early formation of environmental values contributes to preparing a responsible generation capable of supporting sustainable development.

Keywords: environmental awareness, environmental culture, preschool education, environmental education, didactic games, STEAM approach, environmental competence, nature-based learning.

Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar dunyoning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Aholining ekologik savodxonligini oshirish, tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayoni avvalo bolalikdan boshlanishi zarur. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarni tabiat bilan to'g'ri tanishtirish orqali ularda tabiatni asrash, avaylash, ekologik mas'uliyatni his etish kabi fazilatlar shakllanadi. Shuning uchun ekologik ta'lim va tarbiya nafaqat o'quv jarayonining bir bo'lagi balki shaxs rivojlanishining muhim yo'nalishidir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot, suv va yer resurslarini muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirish esa ushbu islohotlarning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bolalar tabiatni qanchalik erta anglasalar, kelajakda ekologik mas'uliyatli va ongli fuqarolar bo'lib yetishadilar. Shu bois ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish bo'yicha yangi metodlar, innovatsion yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar joriy etilmoqda.

Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan, kamol toptirgan. Shunday ekan, biz tabiatni e'zozlashimiz, unga to'g'ri munosabatda bo'lib, tabiatni yana ham ko'rkamligiga, abadiyligiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Yosh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go'dakligidanoq, tabiat qo'ynida o'sadi, ulg'ayadi, kamol topadi. Bolani go'dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri

hisoblanadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tarkib toptirishga katta e’tibor beriladi.

Bolalar tabiat haqida juda bo‘lmaganda ilk bilimlarni egallab, o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o‘rganib, tabiatni kuzatish, uning go‘zalliklarini ko‘ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va g‘amxo‘rona munosabatda bo‘lishni tarbiyalash imkoniyati bo‘ladi.

Bolalarda atrof-muhitga ongli, mas’uliyatli munosabatni shakllantirish ekologik qarorlar qabul qilishga qodir kelajak fuqarolarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish bilan bog‘liq asosiy muammolarni o‘rganadi, ushbu jarayonning muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlaydi va maktabgacha ta’lim amaliyotida ekologik ta’limni samarali amalga oshirish uchun pedagogik strategiyalarni taklif qiladi.

Tabiat bilan inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashda ekologik ta’lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o‘ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o‘z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg‘otish ona vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an’analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma’naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O‘sib borayotgan ekologik muammolarga duch kelayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni rivojlantirish mavzusining dolzarbligini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Bolalar kelajakdagi yetakchilar va jamiyatning faol ishtirokchilari bo‘lib, ularning ekologik xabardorligi sayyoramizning barqaror rivojlanishining kalitidir.

Bugungi bolalar iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va ifloslanish kabi ekologik muammolar keskinlashib borayotgan dunyoda ulg‘aymoqda. Ularda o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini tushunish, tabiatni asrash uchun mas’uliyatni rivojlantirish, barqaror kelajakni yaratishda faol ishtirok etishlarida ekologik dunyoqarashni shakllantirish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish muammolari bo‘yicha tadqiqotlar o‘qituvchilarga, ota-onalarga va jamiyatga bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning ushbu muhim yo‘nalishi bo‘yicha samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan vositalar va bilimlarni taqdim etishi bilan dolzarbdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni rivojlantirish muammosi bo‘yicha adabiyotlarni ko‘rib chiqish ushbu muammoning turli jihatlarini qamrab oluvchi bir nechta asosiy toifalarni aniqlash imkonini beradi: Psixologik va pedagogik jihatlar:

- M.M. Smailova boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida ekologik dunyoqarashni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini o‘rganadi.

Olimaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, ekologik dunyoqarashni shakllantirish jarayoni faqat tabiatga oid bilimlarni o'quvchilarga yetkazish bilan chegaralanmaydi. Buning uchun bola shaxsining yosh xususiyatlari, uning bilish faoliyati, qiziqishlari, hissiy tajribasi va kuzatuvchanlik darajasi chuqur inobatga olinishi lozim. Smailova boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar tabiat hodisalarini o'z tajribasi, bevosita idrok etish va amaliy faoliyat orqali yaxshiroq anglashini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham ekologik tarbiya jarayonida ko'rgazmali, tajribaviy, o'yinli va interfaol metodlardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, o'quvchilar ekologik tushunchalarni nafaqat eshitish yoki o'qish orqali, balki tabiat bilan bevosita muloqot, tabiatni kuzatish, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, ekologik mehnat faoliyatida ishtirok etish jarayonida teranroq o'zlashtiradi. Smailova fikriga ko'ra, bu yoshdagi bolalarda hissiy sezgirlik kuchli bo'lgani sababli, ularda tabiatga mehr, javobgarlik hissi va ekologik qadriyatlarni shakllantirish ta'sirchanroq kechadi.

Shuningdek, olima ekologik dunyoqarashning tarkibiy qismlari sifatida ekologik bilimlar, ekologik madaniyat, ekologik axloq va ekologik faoliyatni ajratadi. Bu komponentlarning har biri boshlang'ich ta'lim jarayonida uyg'un ravishda rivojlantirilishi zarurligini asoslaydi. Ayniqsa, o'quvchining shaxsiy tajribasiga asoslangan, mustaqil fikrlashga undovchi mashg'ulotlar ekologik ongning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

M.M. Smailovaning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab bosqichi ekologik dunyoqarash poydevorini yaratishda eng qulay va samarali davrdir. O'qituvchining pedagogik mahorati, dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar, maktabning ekologik muhitni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyati ham ushbu jarayonning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

- H.E. Abdulshehidova didaktik o'yinlar orqali erta maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirishni tavsiflaydi.

Ekologik ta'limning maqsad va vazifalari: o'qitishning ushbu muhim yo'nalishi bo'yicha samarali ishlash uchun zarur bo'lgan vositalar va bilimlarni taqdim etishi bilan dolzarbdir.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, erta maktabgacha yosh ekologik tarbiyaning eng boshlang'ich, lekin eng ta'sirchan bosqichi bo'lib, aynan shu davrda bolada tabiatga nisbatan dastlabki hissiy munosabat, qiziqish, hayrat va mehr-muhabbat shakllanadi. Abdulshehidova o'z izlanishlarida didaktik o'yinlar bolalar ekologik dunyoqarashining rivojlanishida alohida metodik ahamiyatga ega ekanini asoslaydi, chunki o'yin jarayoni kichik yoshdagi bolalarning tabiiy ehtiyoji, asosiy faoliyat turi va bilish jarayonining eng samarali shakli hisoblanadi.

Abdulshehidovaning ilmiy ishlanmalariga ko'ra, didaktik o'yinlar orqali bola tabiatni kuzatish, undagi o'zgarishlarni sezish, jonli va jonsiz tabiat obyektlari o'rtasidagi farqlarni anglash, ekologik munosabat me'yorlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'yinlar bolada ekologik tushunchalarning tabiiy, majburlanmagan, qiziqarli tarzda shakllanishiga zamin yaratadi.

Ilmiy ishda o‘yin faoliyatining quyidagi afzalliklari alohida ajratib ko‘rsatiladi:

ko‘rgazmalilik va bevositalik — bola tabiat obyektlari bilan o‘yin davomida bevosita tanishadi, ularni qo‘li bilan ushlab ko‘radi, farqlarni sezadi;

hissiy faol ishtirok — o‘yin davomida bolada quvonch, hayrat, mehr, qiziqish kabi hissiyotlar kuchli namoyon bo‘ladi, bu esa ekologik qadriyatlarning shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi;

Bilish jarayonining faollashuvi — didaktik o‘yinlar kuzatuvchanlik, tafakkur, tahlil qilish, solishtirish, mantiqiy bog‘liqlikni topish kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantiradi;

ijtimoiy-axloqiy ko‘nikmalarni shakllantirish — o‘yinlar jarayonida bolalar bir-biriga yordam beradi, guruhda ishlaydi, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish zarurligini amalda namoyon etadi;

ekologik xatti-harakatni shakllantirish — o‘yin orqali bola o‘simlikni sug‘orish, qushlarga g‘amxo‘rlik qilish, chiqindini to‘g‘ri tashlash, tabiatni ifloslantirmaslik kabi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi.

Abdulshehidova fikricha, o‘yinlar nafaqat bilim beradi, balki bolaning ekologik ongini, ekologik madaniyatini va ekologik axloqini bir butun tizim sifatida shakllantiradi.

U maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus ekologik mazmundagi didaktik o‘yinlarni ishlab chiqish, ularning mazmunini yosh xususiyatlariga moslashtirish, tarbiyachilarga metodik tavsiyalar berish zarurligini alohida ta’kidlaydi.

Olimaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin orqali berilgan ekologik tarbiya bolada tabiatga ongli munosabatning poydevorini yaratadi, ekologik qadriyatlarning barqaror shakllanishini ta’minlaydi va keyingi ta’lim bosqichlarida ekologik dunyoqarashning rivoji uchun mustahkam asos yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni rivojlantirish muammosi bo‘yicha adabiyotlarni ko‘rib chiqish ushbu muammoning turli jihatlarini qamrab oluvchi bir nechta asosiy toifalarni aniqlash imkonini beradi: Psixologik va pedagogik jihatlar:

Ekologik ta‘limning maqsad va vazifalari:

- Farzandingizga atrof-muhit tamoyillarini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan kitoblar, multfilmlar va boshqa ta‘lim manbalaridan foydalaning.

Ekologik javobgarlikka misol:

- Farzandingiz sizga taqlid qilishi uchun ekologik mas’uliyatli xulq-atvorda o‘rnak bo‘ling.

Ushbu tavsiyalar ota-onalarga farzandlarida ekologik dunyoqarashni shakllantirishda faol ishtirok etishga yordam beradi, ularning atrof-muhitga ongli munosabatini rag‘batlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish muammolari zamonaviy ta‘limning muhim yo‘nalishidir. Ushbu tadqiqot nafaqat

ushbu muammoning dolzarbligini, balki vaziyatni o ‘zgartirish uchun shoshilinch choralar ko‘rish zarurligini ham ochib berdi.

Erta yoshda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning ahamiyati nafaqat texnikaning jadal rivojlanishi, balki tobora kuchayib borayotgan ekologik muammolar bilan ham bog‘liq. Bolalar o‘rtasida ekologik ta’limga erta kirishish sayyora kelajagi uchun mas’uliyatini tushunadigan yangi avlodni shakllantirishning kaliti bo‘lishi mumkin.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ekologik dunyoqarashni shakllantirish muammolarini hal qilish ta‘lim muassasalari, ota-onalar va butun jamiyatning birgalikdagi sa‘y-harakatlarini talab qiladi.

Bu jarayonda ekologik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim dasturlarini tizimli amalga oshirish asosiy o‘rin tutadi.

Kelajakdan umid – bugungi kun bolalari samarali ekologik ta’limga ega bo‘lib, tabiatni asrashning faol targ‘ibotchilariga aylanadi. Bu bizning sayyoramizning barqaror va muvozanatli kelajagini ta’minlaydi, bu yerda har bir inson atrof-muhitni saqlashdagi o‘z rolini tushunadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni – bu shunchaki sayr qilish yoki o‘simlik kuzatish emas. Bu – kelajak avlodning tabiatga munosabati, ekologik madaniyati, ijtimoiy mas’uliyatining poydevorini qo‘yish demakdir. Tabiatni asray oladigan, ekologik fikrlay oladigan, ongli va mas’uliyatli yoshlarni tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun ekologik ta’lim va tarbiya maktabgacha ta’limdan boshlab uzluksiz davom ettirilishi lozim.

Bolalarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir. Bugungi ekologik muammolar sharoitida ekologik tarbiya faqat bilim berish emas, balki bolani tabiatni asrash faoliyatiga jalb etish, unda mas’uliyat, g‘amxo‘rlik, tejamkorlik kabi qadriyatlarni shakllantirish bilan ifodalanadi. Zamonaviy yondashuvlar — STEAM, loyiha asosida ta’lim, interfaol metodlar, tabiat qo‘ynida o‘qitish — ekologik madaniyatni yuqori sifatda shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, STEAM texnologiyasi, loyiha asosida ta’lim, interfaol metodlar va tabiat qo‘ynida tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlar ekologik tarbiyaning mohiyatini yanada chuqurlashtiradi.

STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ekologik tarbiyani fanlararo integratsiya asosida tashkil etish imkonini beradi. Bu model orqali o‘quvchilar ekologik muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish, texnologik yechimlar ishlab chiqish, muhandislik fikrlashini rivojlantirish, ekologik mavzularda ijodiy loyihalar yaratish va natijalarni matematik asosda ifodalash malakalariga ega bo‘ladi. STEAM yondashuvi o‘quvchilarda ekologik fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va tabiatga nisbatan mas’uliyatli qarashni rivojlantiradi.

Loyiha asosida ta'lim esa ekologik madaniyatni shakllantirishda amaliy faoliyatning kuchli o'rnini namoyon etadi. Ekologik loyihalar — maktab hududini ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha mini-tadqiqotlar, suv va energiya tejamkorligini targ'ib qilish — o'quvchilarning mustaqil izlanish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda jamiyat oldida javobgarlikni his etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Loyihaviy faoliyat natijasida o'quvchilar ekologik muammolarni shaxsiy tajribasi orqali chuqurroq anglaydi.

Interfaol metodlar — klaster, aqliy hujum, "Baliq skeleti" metodi, guruhlarda ishlash, debatlar — o'quvchilarning ekologik bilimlarni faol mushohada qilish, fikr almashish, dalillar keltirish, atrof-muhitga oid muhim qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda kommunikativ, ijtimoiy, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Tabiat qo'ynida o'qitish — ekologik tarbiyaning eng samarali amaliy shakllaridan biridir. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarda tabiatni bevosita idrok etish, ekologik jarayonlarni kuzatish, o'simlik va hayvonlarga nisbatan mehr-muhabbat va g'amxo'rlik hissini uyg'otadi. Tabiat qo'ynida o'qitish orqali o'quvchilar nazariy bilimlarini real muhitda mustahkamlaydi va ekologik xatti-harakatlarni amalda bajaradi.

Umuman olganda, mazkur zamonaviy pedagogik yondashuvlar ekologik ta'limni samarali tashkil etish, bolalarning ekologik dunyoqarashi, ekologik fikrlashi va ekologik madaniyatini mukammal shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Bolalarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi globallashuv va ekologik muammolar keskinlashgan davrda alohida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya faqat nazariy bilim berish jarayoni emas, balki tabiatga nisbatan ongli munosabat, g'amxo'rlik, mas'uliyat, ehtiyotkorlik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantiradigan murakkab pedagogik jarayondir.

Zamonaviy yondashuvlar — STEAM texnologiyasi, loyiha asosida ta'lim, interfaol metodlar, tabiat qo'ynida o'qitish — ekologik madaniyatni shakllantirishga innovatsion, samarali va amaliy yondashuvlarni taklif qiladi. Bu metodlar bolalarning fikrlashini faollashtiradi, ekologik muammolarni tahlil qilishga, mustaqil qaror qabul qilishga va ekologik faol pozitsiya egallashga undaydi.

Umuman olganda, ekologik ta'limning muvaffaqiyati o'qituvchi va tarbiyachilarning metodik mahorati, ta'lim jarayonining interfaol tashkil etilishi, o'quvchilarning amaliy faoliyatga keng jalb etilishi va oilaning hamkorligi bilan bog'liq. To'g'ri yondashuvlar orqali bolalarda ekologik ongning barqaror shakllanishi va kelajak avlodning tabiatga nisbatan mas'uliyatli bo'lib yetishishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan *quramiz.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
6. Habibullayev A., Norqulova M. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Haydarov G. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent: Universitet, 2019.
8. Daminov K. Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
9. Murodova G. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
10. Xolmatova Z. Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2020.
11. Rasulov T., Usmonova D. Ekologik ta’limning nazariy asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
12. Umarova N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan, 2018.
13. O‘rinboyeva M. Yosh bolalar ekologik tarbiyasi. – *Toshkent: Fan va texnologiya,* 2017.
14. G‘ofurova N., Shoyimova N. Atrof-muhitni muhofaza qilishning ekologik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019.
15. Karimova V. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

Abayev Abduvohid Abdulhamidovich,
Andijon davlat universiteti
"Psixologiya va pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

O'SMIRLARDA SMARTFONLARGA QARAMLIK NATIJASIDA KOGNITIV TOLIQISHNING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smir yoshdagilarda smartfonlardan ortiqcha foydalanish natijasida yuzaga keladigan kognitiv toliqish holatlari psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar ta'sirida diqqat, xotira, tafakkur va motivatsiya jarayonlarining susayishi, shuningdek, informatsion yuklamaning ortishi natijasida paydo bo'ladigan aqliy charchoq holatlari o'rganilgan. Maqolada shuningdek, kognitiv toliqishning asosiy ko'rsatkichlari, uni erta aniqlash mezonlari va psixoprofilaktik yondashuvlar haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, smartfonlarga qaramlik, kognitiv toliqish, diqqat, xotira, informatsion yuklama, psixoprofilaktika.

ПРОЯВЛЕНИЕ КОГНИТИВНОЙ УСТАЛОСТИ У ПОДРОСТКОВ В РЕЗУЛЬТАТЕ ЗАВИСИМОСТИ ОТ СМАРТФОНОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические аспекты проявления когнитивной усталости у подростков в результате чрезмерного использования смартфонов. В исследовании анализируется влияние цифровых технологий на снижение внимания, памяти, мышления и мотивации, а также на развитие умственного переутомления, вызванного информационной перегрузкой. Результаты показывают, что зависимость от смартфонов отрицательно сказывается на учебной активности, социальных отношениях и эмоциональном состоянии подростков. Полученные данные имеют практическую значимость для психологов, педагогов и родителей, работающих с подростками.

Ключевые слова: подростковый возраст, зависимость от смартфонов, когнитивная усталость, внимание, память, информационная перегрузка, психопрофилактика.

THE MANIFESTATION OF COGNITIVE FATIGUE IN ADOLESCENTS AS A RESULT OF SMARTPHONE ADDICTION

Abstract. This article examines the psychological aspects of cognitive fatigue among adolescents resulting from excessive smartphone use. The study analyzes how digital technologies affect attention, memory, thinking, and motivation, leading to mental exhaustion caused by information overload. The findings indicate that smartphone addiction negatively influences adolescents'

academic performance, social relationships, and emotional well-being. The results have practical significance for psychologists, educators, and parents working with adolescents.

Keywords: adolescence, smartphone addiction, cognitive fatigue, attention, memory, information overload, psychoprophylaxis.

Kirish. Bugungi raqamli davrda smartfonlar o‘smirlarning hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ularning o‘quv, muloqot va hordiq chiqarish faoliyatlari ko‘pincha mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Biroq smartfonlardan ortiqcha foydalanish diqqatning tarqoqlashuvi, xotiraning sustlashuvi va fikrlash jarayonlarining sekinlashuviga olib kelmoqda. Natijada o‘smirlarda kognitiv toliqish — ya’ni aqliy charchoq, motivatsiya pasayishi va axborotni qayta ishlash qobiliyatining zaiflashuvi kuzatilmoqda. Ushbu maqolada smartfonlarga qaramlikning o‘smirlarning kognitiv faoliyatiga ta’siri ilmiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O‘smirlik davri insonning psixik rivojlanishida eng faol bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda tafakkur, diqqat va xotira jarayonlari jadal shakllanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, smartfonlardan haddan tashqari foydalanish o‘smirlarning kognitiv salohiyatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Smartfonlarga qaramlik o‘smirning diqqatini doimiy ravishda ekran orqali o‘zgaruvchan ma’lumotlarga yo‘naltiradi. Bu holat diqqatni bir nuqtada jamlay olmaslik, tez charchash va eslab qolish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi natijasida miyaga tushayotgan ma’lumotlar samarali qayta ishlanmaydi, bu esa kognitiv toliqish holatini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ayniqsa, mobil qurilmalarning kundalik hayotga chuqur singib ketishi o‘smir yoshdagi shaxslarning psixik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Smartfonlardan ortiqcha foydalanish – bu nafaqat zamonaviy qulaylik balki, yosh organizmning kognitiv faoliyatiga bosim beruvchi omil sifatida ham ko‘rilmoqda. Kognitiv charchash, ya’ni psixik faoliyatning susayishi, e’tiborning tez chalg‘ishi, xotiraning qisqa muddatli yomonlashuvi va fikrlash jarayonlarining sekinlashuvi – bularning barchasi o‘smirlarning smartfonlarga haddan ziyod bog‘lanishi oqibatida yuzaga kelayotgan salbiy holatlardir.

Smartfonga qaramlik shkalasi (V.P. Sheynov asosida moslashtirilgan) jins bo‘yicha Mann-Uitniy mezoni natijalari n=491

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	O‘rtacha rank	Ranklar summasi	U	p
past qaramlik	qiz	132	100,03	13204,50	4426,500	0,158
	o‘g‘il	76	112,26	8531,50		
	Total	208				
o‘rta qaramlik	qiz	135	125,93	17001,00	7164,000	0,011*
	o‘g‘il	111	115,54	13380,00		

	Total	246				
yuqori qaramlik	qiz	13	25,31	329,00	100,000	0,039*
	o‘g‘il	26	17,35	451,00		
	Total	39				

p<0,05*, p<0.01**, p<0,001***

Dastlab tadqiqotimizda o‘smirlarni smartfonlarga qaramlik holatini tahlil qildik. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta darajadagi smartfonga qaramlik darajasi qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasida sezilarli farq bilan ifodalanmoqda. (U=7164,000; p<0,05). Qizlarning smartfonga nisbatan qaramligi ko‘proq emotsional ehtiyoj, ijtimoiy tasdiqqa ehtiyoj va virtual muloqotga intilish bilan izohlanadi. Ular ko‘pincha telefon orqali ijtimoiy aloqa o‘rnatish, fikr almashish, e’tirof topish yoki o‘zini namoyon qilishga intiladilar. Bunday foydalanish usuli smartfonga emotsional bog‘lanishni kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida diqqatning chalg‘ishi, o‘qishga kamroq vaqt ajratish, real hayotdagi aloqalarning susayishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘g‘il bolalarning esa smartfonga bog‘liqligi qizlarnikiga nisbatan pastroq. Ular asosan smartfondan ko‘ngilochar, axborot olish yoki o‘yinlar o‘ynash maqsadida foydalanadilar. Bunda emotsional bog‘lanish unchalik kuchli bo‘lmaydi. Shuningdek, o‘g‘il bolalar ko‘proq jismoniy harakat bilan bog‘liq faoliyatlarga, tashqi muhitdagi o‘yin va ijtimoiy aloqalarga yo‘naltirilgan bo‘lganligi uchun smartfon ular hayotida nisbatan cheklangan rol o‘ynaydi. Yuqoridagi natijalar shuni anglatadiki, smartfonga o‘rta darajadagi qaramlik jinsga qarab turlicha shakllanadi. Qizlarda bu holat emotsional va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘g‘il bolalarda bu ko‘proq funksiya va vaqt o‘tkazish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Smartfonga qaramlik o‘smirlarning psixik salomatligi, ta’lim sifati va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois bu holatni erta aniqlash va profilaktik ishlarni olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqotda o‘smirlarning smartfonga yuqori darajadagi qaramligi ko‘rsatkichlari jins omili bo‘yicha tahlil qilindi. (U=100,000; p<0,05). Olingan natijalar darajasida statistik jihatdan ishonarli farq mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu shuni bildiradiki, qizlar va o‘g‘il bolalar orasida smartfonga yuqori darajadagi qaramlik bir xil emas — qizlar o‘g‘il bolalarga nisbatan sezilarli darajada ko‘proq qaramlik belgilari namoyon qilmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan bu holat bir necha muhim omillar bilan izohlanadi:

Emotsional bog‘lanish va ijtimoiy aloqa ehtiyoji: Qizlar o‘smirlik davrida emotsional yaqinlikka, doimiy muloqotga, ijtimoiy tasdiqqa bo‘lgan ehtiyoj bilan ajralib turadi. Ular uchun smartfon ko‘pincha ijtimoiy aloqa vositasi (chat, tarmoqdagi do‘stlar, postlar orqali o‘zini ifodalash) sifatida xizmat qiladi.

Virtual identifikatsiya va o‘zini ifoda etish: Qizlar o‘zini tanitish, ijtimoiy maqomni mustahkamlash uchun ko‘proq virtual vositalardan foydalanishga moyil. Bu esa ularda psixologik qaramlikni kuchaytirishi mumkin.

Psixik barqarorlik va stressga sezuvchanlik: Ilmiy manbalarda qizlar orasida stressga va ijtimoiy solishtirishga nisbatan sezuvchanlik yuqoriligi qayd etiladi. Bunday holatlarda ular ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalariga tayanadilar, bu esa smartfonga haddan tashqari bog‘lanishga olib keladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi smartfonga qaramlik qizlar orasida ishtirokchilar soniga nisbatan sezilarli ko‘proq va barqaror shakllangan. Bu holat qizlar o‘rtasida smartfon vositasidagi faoliyatni o‘rganishda emotsional va ijtimoiy komponentlarga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yuqori xavf ostida bo‘lgan qizlar guruhida psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish va individual yordam ko‘rsatish dolzarb masala hisoblanadi.

Penner va Kapposning Kognitiv charchoq darajasini baholash metodikasi (o‘smirlar uchun moslashtirilgan) jins bo‘yicha Mann-Uitniy mezoni natijalari n=491

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	O‘rtacha rank	Ranklar summasi	U	p
past darajada charchoq	qiz	47	46,73	2196,50	764,500	0,186
	o‘g‘il	39	39,60	1544,50		
	Total	86				
o‘rtacha charchoq	qiz	147	115,11	16921,50	6043,500	0,009**
	o‘g‘il	89	124,10	11044,50		
	Total	236				
og‘ir darajada charchoq	qiz	78	73,93	5766,50	2228,500	0,031*
	o‘g‘il	63	67,37	4244,50		
	Total	141				
Juda yuqori charchoq	qiz	6	14,08	84,50	50,500	0,677
	o‘g‘il	19	12,66	240,50		
	Total	25				

p<0,05*, p<0.01**, p<0,001***

O‘smirlarning kognitiv charchoq holati turli omillarga, jumladan, jinsiy farqlarga ko‘ra har xil kechishi mumkin. Penner va Kappos tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv charchoqni baholash metodikasi asosida to‘plangan ma’lumotlar jinsga qarab o‘rganildi va statistik farqlar Mann–Whitney U mezoni yordamida baholandi. (U=6043,500; p<0,01). Statistik jihatdan ishonchli farq mavjudligini bildiradi. Demak, qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘rtacha darajadagi kognitiv charchoq darajasi bir xil emas.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qizlar guruhining umumiy ballari nisbatan past bo‘lib, bu ularning kognitiv charchoqni boshqarish qobiliyatlari yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik adabiyotlar va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, o‘smirlik davrida ayniqsa qizlar o‘z holatini anglash, emotsional ehtiyojlarini ifodalash, hamda ichki psixik tahlil qilishga nisbatan

ko‘proq moyil bo‘ladilar. Bunday psixologik xususiyatlar ularga turli kognitiv yuklamalar ostida moslashuv strategiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, o‘g‘il bolalarda kognitiv charchoq nisbatan yuqoriroq va aniqroq ifodalangan holatda namoyon bo‘lishi kuzatildi. Ularning statistik tahlildagi yuqori rang ko‘rsatkichlari ushbu holatni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ular o‘zlarining ichki holatini anglash va emotsional holatlarini tahlil qilishga nisbatan kamroq e’tibor qaratadilar. Bu esa charchoqni to‘g‘ri baholash, uni tan olish va ongli ravishda boshqarishda psixologik to‘siqlarga olib keladi.

Jinslar kesimida aniqlangan ushbu tafovutlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning kognitiv charchoqqa bo‘lgan individual munosabati va boshqaruv mexanizmlari jinsiy xususiyatlarga ko‘ra farqlanishi mumkin. Bu esa psixologik yordam va rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda jinsga oid moslashuvchan yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari o‘rtacha darajadagi kognitiv charchoqning jinsiy farqlarga ko‘ra sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi. O‘g‘il bolalar kognitiv charchoqni ko‘proq va yaqqolroq his qilmoqda, bu esa ularning o‘quv yuklamalari, diqqatning barqarorligi va stressga bardoshlilik salohiyati bo‘yicha qo‘shimcha psixologik yordamga ehtiyoj borligini anglatadi.

Qizlarda esa bu holat mavjud bo‘lsa-da, u nisbatan yumshoq kechadi va o‘zini anglash strategiyalari orqali boshqarilmoqda. Shu bois, qizlar uchun mavjud charchoqni doimiy kuzatib borish va ichki resurslarni to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan treninglar muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida o‘smirlarning og‘ir darajadagi kognitiv charchoq holatining jinsiy farqlari o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, ($U=2228{,}500$; $p<0{,}05$) darajasida statistik ahamiyatga ega natija qayd etildi. Bu esa o‘g‘il va qizlar o‘rtasida og‘ir darajadagi kognitiv charchoqning namoyon bo‘lishida ishonchli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, qizlar orasida og‘ir charchoq darajasi nisbatan yuqoriroq. Bu holat ularning charchoqni kuchliroq, chuqurroq va uzoq davom etuvchi tarzda boshdan kechirayotganidan dalolat beradi. Bunday farq quyidagi biologik, emotsional va sotsial omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin:

Qizlar, odatda, o‘z emotsional holatlarini chuqurroq his qiladi va bu holatni ichki tahlil orqali qayta ishlashga moyil bo‘ladilar;

Ular bir vaqtning o‘zida ko‘plab vazifalarni bajarishga intiladilar, bu esa psixik yuklamaning ortishiga olib keladi;

Ijtimoiy solishtirish, o‘ziga nisbatan yuqori talab qo‘yish, va ichki o‘zini baholash mexanizmlarining kuchliligi hissiy bosimni oshirib, charchoqni chuqurlashtiradi.

Boshqa tomondan, o‘g‘il bolalarda og‘ir darajadagi kognitiv charchoq nisbatan past bo‘lsa-da, bu holat ularning charchoqni boshqarishda kuchliroq ekanini anglatmaydi. Aksincha, ko‘plab holatlarda o‘g‘il bolalar:

charchoqni anglash o‘rniga uni inkor qilishga moyil bo‘lib, hissiy holatni ongli darajada tan olmaydi, bu esa charchoqning ichki darajada to‘planib borishiga

olib keladi. Shu bilan birga yordam so‘rashga nisbatan passiv munosabat bildiradilar, bu esa psixik bosimni oshirib, simptomlarning tashqi ifodalanishini susaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, o‘g‘il bolalarda charchoq yashirin shaklda namoyon bo‘lishi, ya’ni ichki ziddiyatlar, zo‘riqish, motivatsiya pasayishi yoki umumiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishning kamayishi orqali kechishi mumkin.

Tadqiqot natijalari og‘ir darajadagi kognitiv charchoqning jinsga bog‘liq ravishda turlicha namoyon bo‘lishini aniq ko‘rsatdi. Qizlar bu holatni yaqqol va ochiq ifoda etgan bo‘lsalar, o‘g‘il bolalarda esa u ko‘proq ichki, yashirin shaklda kechmoqda. Bu esa har ikkala jins vakillari uchun ham mos va individual yondashuv asosida psixologik yordam ko‘rsatish, charchoqni monitoring qilish va emotsional o‘ziga e’tiborni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

O‘tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari o‘smirlar orasida smartfonlarga ortiqcha qiziqish va undan nazoratsiz foydalanish kognitiv charchash (toliqish) holatlarining yuzaga kelishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Tadqiqot doirasida qo‘llanilgan V.P. Sheynov Smartfonga qaramlik shkalasi, Penner va Kapposning kognitiv charchoq darajasini baholash metodikasi asosida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar orasida bu holat shaxsiy psixologik xususiyatlar, xususan temperament turlari, emotsional barqarorlik darajasi va tashqi nazorat omillariga bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

Kruskal–Uollis testi asosida temperament turlari bilan bog‘liq farqlar tahlil qilinganida, melanxolik va sangvinik o‘quvchilarda kognitiv charchash darajasi nisbatan yuqoriligi qayd etildi. Bu esa, o‘z navbatida, emotsional sezuvchanlik, tashqi stimullarga haddan ortiq ochiqlik va ichki psixik yuklamalarning yuqori darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xolerik va flegmatik temperamentli o‘smirlar esa nisbatan past charchoq ballarini ko‘rsatdi, bu ularning o‘z faoliyatini boshqarishdagi ichki resurslari nisbatan barqaror ekanligidan darak beradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, smartfonlarga qaramlik darajasi o‘smirlar orasida faqat texnologik odat emas, balki emotsional, motivatsion va kognitiv muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qaralishi lozim. Kognitiv charchash ko‘pincha e’tiborning tez chalg‘ishi, fikrlashning sekinlashuvi, ma’lumotni qayta ishlashdagi qiyinchiliklar, shuningdek, hissiy barqarorlikning buzilishi orqali ifodalanadi.

Shuningdek, kognitiv toliqish darajasining shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik determinantlar qatoriga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, oila ichidagi nazorat va o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari ham kiradi. Mazkur omillar yoshga doir rivojlanish bosqichining o‘ziga xosliklari bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar tomonidan smartfonlardan me’yordan ortiqcha foydalanish diqqat, xotira va fikrlash jarayonlarining sezilarli darajada pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ularning umumiy kognitiv salohiyatida toliqish (charchoq) holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Kognitiv toliqishning asosiy namoyon bo‘lish shakllari sifatida o‘quvchilarda diqqatni jamlay olmaslik, ma’lumotlarni eslab qolishdagi qiyinchiliklar hamda tez charchash holatlari kuzatilib, bu belgilar o‘quv jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Statistik tahlillar asosida smartfonlarga qaramlik darajasi bilan kognitiv toliqish darajasi o‘rtasida ijobiy, ishonchli va bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan bo‘lib, bu holat ularning o‘zaro sabab-natija munosabatini isbotlaydi.

Respondentlar orasida mobil telefonsiz qolishdan qo‘rqish (nomofobiya) holatlari keng tarqalgan bo‘lib, bu o‘smirlarda psixologik stress, xavotir va ijtimoiy izolyatsiyaga moyillikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘smirlarning temperament tipi, emotsional reaktivligi, o‘zini nazorat qilish darajasi va oilaviy munosabatlar kabi psixologik xususiyatlari kognitiv toliqishning intensivligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar sifatida aniqlangan.

Diqqat, ishchi xotira va tafakkur mexanizmlarining faoliyati smartfonlardan haddan tashqari foydalanish natijasida sezilarli darajada susayadi, bu esa ta’limdagi muvaffaqiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Gender tahlillari natijalariga ko‘ra, qiz o‘smirlar orasida smartfonlarga nisbatan qaramlik darajasi o‘g‘il bolalarga nisbatan nisbatan yuqoriroq ekani aniqlanib, bu holat profilaktika va psixoprofilaktika ishlarida jinsiy differensial yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan psixologik rivojlantiruvchi dastur texnologik xulqni sog‘lomlashtirish va kognitiv charchoq belgilarini kamaytirishda samarali ekani empirik ravishda isbotlangan.

O‘smirlarda texnologik muvozanatni shakllantirish, raqamli detoks yondashuvlarini joriy etish orqali ularning kognitiv salomatligini tiklash va saqlab qolish imkoniyati mavjudligi tasdiqlangan.

Psixologlar uchun tavsiyalar.

1. O‘quvchilarda raqamli vositalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan psixoprofilaktik treninglar, seminar-treninglar va davra suhbatlarini maktab jamoasi va ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish tavsiya etiladi.

2. O‘smirlarda texnologik qaramlik va kognitiv charchoq belgilarini erta aniqlash va baholash maqsadida moslashtirilgan psixodiagnostik vositalar (masalan, Penner-Kappos va V.P. Sheynov shkalalari) asosida muntazam skrining tekshiruvlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

3. O‘quvchilarning emotsional barqarorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixokorreksion treninglar, relaksatsion mashg‘ulotlar va emotsional intellektni rivojlantirish dasturlarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalar uchun tavsiyalar.

1. Farzandlar bilan doimiy ravishda jonli, sifatli va ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning ijtimoiy va emotsional ehtiyojlarini virtual emas, real muhitda qondirishga intilish zarur.

2. Uy sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun qat'iy vaqt me'yorlari va oilaviy qoidalarni belgilash, xususan, uyqudan oldingi 1-2 soat davomida ekranli qurilmalardan foydalanmaslikka amal qilish tavsiya etiladi.

3. Farzand bilan birgalikda muqobil sog'lom faoliyat turlarini (sport, kitobxonlik, badiiy mashg'ulotlar, sayrlar) tashkil etish, bu orqali ularning texnologiyadan tashqari hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Pedagoglar uchun tavsiyalar.

1. Dars jarayonida raqamli vositalardan maqsadga muvofiq, me'yorida va metodik asoslangan tarzda foydalanish, bu orqali o'quvchilarda ongli axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish lozim.

2. O'quvchilarning diqqat, xotira va psixologik holatini kuzatib borish, kognitiv toliqish belgilari kuzatilganda maktab psixologiga yo'naltirish va birgalikda chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

3. Ta'lim muassasalarida "Raqamli salomatlik haftaliklari", "Axborot gigiyenasi kuni" kabi tadbirlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda raqamli muvozanatga oid madaniyatni singdirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi 139-son "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. https://lex.uz/docs/-2013801

2. Alter, A. (2017). Irresistible: The Rise of Addictive Technology and the Business of Keeping Us Hooked. Penguin Press

3. Dolimova N.M. (2010). Kompyuter o'yinlariga qaramlikning o'smirlar psixik rivojlanishiga ta'siri (psixologik tahlil). https://diss.natlib.uz/

4. King A.L. S.Valença, A. M., Silva, A. C. O., Baczynski, T., Carvalho, M. R., & Nardi, A. E. (2014). Nomophobia: Dependency on virtual environments or social phobia?

5. Payne, S. J., et al. (2014). Smartphone Use and User Experience: A Study of Diverse Usage Patterns. https://dl.acm.org/doi/10.1145/2677374



Ungboyeva Umida Sayfullayevna,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

XOTIN-QIZLARNING RUHIY HOLATINI TIKLASHDA PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklash jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlashning samarali usullari tahlil qilinadi. Ayollarning ruhiy iztiroblarini kamaytirish, emotsional barqarorligini tiklash va ijtimoiy hayotga qayta moslashuvini ta'minlashda psixologik yordamning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, individual va guruhiy maslahatlar, art-terapiya, relaksatsion mashqlar hamda stressni kamaytiruvchi treninglar orqali reabilitatsiya jarayonining samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarning psixologik farovonligini oshirish va ularni ijtimoiy faol hayotga qaytarishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, ruhiy holat, psixologik qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya, art-terapiya, stressni kamaytirish, ijtimoiy moslashuv.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ В ВОССТАНОВЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЖЕНЩИН

Аннотация. В данной статье анализируются эффективные методы психологической поддержки в процессе восстановления психического состояния женщин. Раскрывается значение психологической помощи в снижении эмоциональных страданий, восстановлении внутреннего равновесия и социальной адаптации женщин. Обоснована эффективность таких методов, как индивидуальное и групповое консультирование, арт-терапия, релаксационные упражнения и тренинги по снижению стресса. Результаты исследования могут быть использованы для повышения психологического благополучия женщин и их возвращения к активной социальной жизни.

Ключевые слова: женщины, психическое состояние, психологическая поддержка, реабилитация, арт-терапия, стресс, социальная адаптация.

EFFECTIVE PSYCHOLOGICAL SUPPORT METHODS FOR RESTORING WOMEN'S MENTAL WELL-BEING

Abstract. This article analyzes effective methods of psychological support in restoring women's mental well-being. The importance of psychological assistance in reducing emotional distress, restoring emotional stability, and facilitating social reintegration is discussed. The study substantiates the effectiveness of individual and group counseling, art therapy, relaxation exercises, and stress-reduction training in the rehabilitation process. The findings can be applied to improve women's psychological well-being and promote their reintegration into active social life.

Keywords: women, mental state, psychological support, rehabilitation, art therapy, stress reduction, social adaptation.

Bugungi kunda jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ruhiy va emotsional farovonligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hayotiy muammolar, oilaviy nizolar, zo'ravonlik holatlari, iqtisodiy qiyinchiliklar yoki ijtimoiy bosimlar ayollarda ruhiy iztirob, tashvish, depressiv holatlar va o'ziga ishonchsizlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda psixologik qo'llab-quvvatlashning o'z vaqtida va samarali tashkil etilishi xotin-qizlarning ruhiy tiklanishida muhim ahamiyatga ega. Ruhiy holatni tiklash shaxsning emotsional muvozanatini, ichki barqarorligini va hayotga ijobiy munosabatini qayta shakllantirish jarayonidir. Psixologik qo'llab-quvvatlash esa ushbu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, u shaxsning ichki resurslarini faollashtirish, stressni kamaytirish, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, reabilitatsiya markazlarida faoliyat yurituvchi psixologlar tomonidan olib boriladigan individual suhbatlar, guruhiy mashg'ulotlar, art-terapiya, musiqiy va relaksatsion mashqlar ayollarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda ijobiy natijalar bermoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ko'plab xotin-qizlar turli ijtimoiy-psixologik bosimlar natijasida ruhiy muvozanatini yo'qotmoqda. Bu esa ularning shaxsiy hayoti, oilaviy munosabatlari hamda mehnat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklashda qo'llaniladigan psixologik yondashuvlar va usullarni ilmiy asosda o'rganish, ularning amaliyotdagi samaradorligini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklash jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlashning mazmuni, tamoyillari va samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, reabilitatsiya jarayonida qo'llaniladigan turli psixologik texnika va

metodlarning ahamiyati yoritilib, ularning amaliy natijalari asosida xulosalar keltirib o`tamiz.

Xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklashda psixologik qo‘llab-quvvatlash jarayoni murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Ushbu jarayonda psixologning asosiy vazifasi ayollarda ijobiy ruhiy holatni shakllantirish, o‘ziga ishonchni tiklash va hayotga bo‘lgan qiziqishni qayta uyg‘otishdan iboratdir. Ruhiy tiklanishning samaradorligi ko‘p jihatdan individual yondashuv, shaxsning psixologik ehtiyojlarini aniqlash va unga mos usullarni tanlashga bog‘liq bo‘ladi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlashning eng samarali shakllaridan biri bu individual suhbatlardir. Individual psixologik maslahat davomida ayolning ichki kechinmalari, hayotiy muammolari, o‘zini idrok etishidagi ziddiyatlar aniqlanadi. Psixolog tomonidan tinglash, hamdardlik bildirish, ijobiy ruhlantirish orqali shaxsda ishonch hissi mustahkamlanadi. Bunday yondashuv ayollarda stressni kamaytirish va emotsional barqarorlikni tiklashga yordam beradi. Bundan tashqari, guruhiy mashg‘ulotlar ham muhim o‘rin tutadi. Guruhiy psixoterapiya, trening va muhokama shaklidagi mashg‘ulotlar ayollar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni tiklash, o‘z muammolarini boshqalar bilan bo‘lishish, hamfikrlar topish imkonini beradi. Bunda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, hamdardlik va bir-birini tinglash jarayonlari ruhiy yengillik va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Reabilitatsiya jarayonida art-terapiya, musiqiy terapiya, ranglar terapiyasi, relaksatsion mashqlar, nafas olish texnikalari, vizualizatsiya va meditatsiya kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Bu usullar shaxsning ichki hissiyotlarini ifoda etish, salbiy energiyani chiqarish, asabiy taranglikni kamaytirish va emotsional muvozanatni tiklashda samarali natija beradi. Ayniqsa, art-terapiya orqali ayol o‘z ichki dunyosini ijodiy tarzda ifoda etib, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganadi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash jarayonida motivatsion treninglar va o‘zini rivojlantirish mashg‘ulotlari ham muhim ahamiyatga ega. Ular xotin-qizlarda hayotiy maqsadlarni aniqlash, qaror qabul qilish, o‘zini qadrlash, ijtimoiy faol bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Psixolog tomonidan o‘tkaziladigan “Men kimman?”, “Mening kuchli tomonlarim”, “Men hayotimni o‘zgartira olaman” kabi mavzulardagi mashg‘ulotlar ayollarda o‘ziga ishonchni oshiradi va hayotga ijobiy qarashni shakllantiradi.

Shuningdek, ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya jarayonida oilaviy maslahatlar ham muhim o‘rin tutadi. Ko‘pincha ayolning ruhiy holati oilaviy muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli psixologik xizmat faqat ayol bilan emas, balki uning oila a’zolari bilan ham olib borilishi kerak. O‘zaro muloqotni yaxshilash, oila ichidagi hurmat va tushunishni oshirish ruhiy barqarorlikni ta’minlashda ijobiy natija beradi.

Xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatishda ijtimoiy xizmatlarning ham o‘rni katta. Reabilitatsiya markazlarida psixolog, ijtimoiy xodim, shifokor va huquqshunoslarning hamkorlikdagi faoliyati kompleks yordam tizimini

shakllantiradi. Bu yondashuv ayollarning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy jihatdan ham tiklanishiga imkon yaratadi. Xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklash, ayniqsa, travmatik holatlar, oilaviy zo‘ravonlik yoki ijtimoiy bosimlar natijasida yuzaga keladigan emotsional buzilishlarni bartaraf etishda psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Chet el psixologiya ilmida bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular xotin-qizlarning ruhiy barqarorligini tiklashda turli psixologik yondashuvlar samarali natija berishini ko‘rsatgan.

Amerikalik olimlar J. Herman (1992) va B. van der Kolk (1996) o‘z tadqiqotlarida travmadan so‘ng tiklanish jarayoni uch bosqichdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar: xavfsizlikni tiklash, travmani eslab chiqish va ijtimoiy hayotga qayta moslashuv. Ularning fikricha, bu bosqichlarda psixologik yordamning eng muhim jihati — xavfsiz muhit yaratish va ayol shaxsining ichki kuchini faollashtirishdir. Kanadalik tadqiqotchi N. Johnson (2008) reabilitatsiya markazlarida art-terapiya, musiqa terapiyasi va guruhiy mashg‘ulotlar orqali ayollar o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishga o‘rganishini aniqlagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday usullar ayollarda o‘ziga ishonchni oshiradi va stressni kamaytiradi. Angliyalik psixologlar L. Walker va M. Dobash (2013) o‘z izlanishlarida zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollar bilan ishlashda “genderga sezgir yondashuv” tamoyillarining muhimligini ko‘rsatganlar. Ular ayolning muammosini shunchaki individual psixologik holat emas, balki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida baholash zarurligini ta’kidlaydilar. Shu sababli reabilitatsiya jarayonida nafaqat psixologik, balki ijtimoiy va huquqiy yordamning ham uzviy bog‘liqligi muhimdir. Rossiyalik olimlar E. I. Rogov (2019) va L. M. Mitina (2021) ishlarida ayollarning ruhiy holatini tiklashda kognitiv-xulqiy terapiya, relaksatsion texnikalar va o‘z-o‘zini anglash mashqlarining ahamiyati yoritilgan. Ularning fikricha, ayollarda ruhiy iztirobni yengishning asosi — o‘z fikrini tahlil qilish, salbiy hissiyotlarni qayta baholash va ijobiy hayotiy maqsadlar qo‘yishdir. AQShda olib borilgan so‘nggi tadqiqotlardan biri — M. Goodman va A. Epstein (2020) tomonidan o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, psixologik qo‘llab-quvvatlashning kompleks dasturlari (CBT, art-terapiya, mindfulness, ijtimoiy treninglar) ayollarda depressiya va travmadan keyingi stress sindromi darajasini 45–60 foizga kamaytirgan.

Shuningdek, Yevropa davlatlarida olib borilgan ko‘plab izlanishlar (Evans, 2017; Peters, 2019) psixologik yordamning samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi tarmoq — ya’ni do‘stlar, oila a’zolari, ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik muhimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv “reintegratsiya modeli” deb ataladi va u ayolni jamiyatga qayta qo‘shishga qaratilgan.

Chet el tajribasida xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklashda psixologik qo‘llab-quvvatlash quyidagi yo‘nalishlarda samarali bo‘lgan:
– kognitiv-xulqiy terapiya orqali fikrlashni o‘zgartirish va stressni kamaytirish;
– art-terapiya, musiqa va ijodiy faoliyat orqali his-tuyg‘ularni ifoda etish;
– guruhiy mashg‘ulotlar va treninglar orqali o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish;

– genderga sezgir yondashuv asosida ayolning ijtimoiy muhitini hisobga olish;
– mindfulness va relaksatsiya mashqlari orqali ichki tinchlikni tiklash.

Xorijiy tadqiqotlar tahlilaridan, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi faqat muammoni bartaraf etish emas, balki ayolning o‘z kuchiga ishonchini tiklash, ijtimoiy faol hayotga qaytishini rag‘batlantirish va ruhiy farovonlikni mustahkamlashga qaratilishi kerak. Shu bois o‘zbek psixologiya amaliyotida ham bu tajribalardan foydalanish, milliy qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xotin-qizlarning ruhiy holatini tiklashda psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, u nafaqat shaxsning emotsional barqarorligini tiklash, balki uning ijtimoiy faolligini oshirish va hayotga ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, psixologik yordam samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llanilayotgan usullar, yondashuvlar va mutaxassisning kasbiy kompetensiyasiga bog‘liq. Chet el amaliyotida samarali deb topilgan metodlar, kognitiv-xulqiy terapiya, art-terapiya, relaksatsiya, mindfulness, guruhiy mashg‘ulotlar va genderga sezgir yondashuvlar ayollarni ruhiy jihatdan tiklashda ijobiy natija bergan. Bu usullar ayollarga o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish, o‘z-o‘zini anglash, hayotiy maqsadlarni qayta belgilash hamda ijtimoiy muhitga moslashish imkonini yaratadi. O‘zbekiston sharoitida esa psixologik qo‘llab-quvvatlash jarayonida milliy qadriyatlar, diniy va madaniy an’analar, oilaviy munosabatlar tizimini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, reabilitatsiya markazlari faoliyatini ijtimoiy-psixologik xizmatlar bilan yanada boyitish, psixologlarning malakasini oshirish bugungi kunda dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Xotin-qizlarning ruhiy salomatligini tiklash jamiyatning ma’naviy-psixologik sog‘lomligi garovi hisoblanadi. Shu sababli psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy asoslangan uslublarni amaliyotga joriy etish va ayollarga ijtimoiy hamda emotsional jihatdan barqaror yashash sharoitlarini yaratish zamonaviy psixologiya oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ayollarning ruhiy holatini tiklashda psixologik qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi uning tizimli, uzluksiz va individual ehtiyojlarga mos tarzda tashkil etilishiga bog‘liqdir. Har bir ayolning shaxsiy tajribasi, emotsional sezuvchanligi va hayotiy qadriyatlarini inobatga olgan holda yondashish reabilitatsiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Psixologik yordamning maqsadi faqat muammolarni bartaraf etish emas, balki ayolning ichki kuchini tiklash, o‘z imkoniyatlarini anglash va hayotda yangi ma’noni topishga ko‘maklashishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Herman, J. L. (1992). Trauma and Recovery: The Aftermath of Violence — From Domestic Abuse to Political Terror. New York: Basic Books.
2. Van der Kolk, B. A. (1996). The Body Keeps the Score: Brain, Mind, and Body in the Healing of Trauma. New York: Viking Press.

3. Johnson, N. (2008). Art Therapy Interventions for Women Survivors of Domestic Violence. Journal of Creativity in Mental Health, 3(3), 157–174.
4. Walker, L. E. & Dobash, M. R. (2013). Gender and Violence: Feminist Perspectives on Psychological Support. London: Routledge.
5. Rogov, E. I. (2019). Obshchaya psikhodiagnostika. Moskva: Vlados.
6. Mitina, L. M. (2021). Psikhologicheskaya pomoshch' zhenshchinam v trudnoy zhiznennoy situatsii. Moskva: Akademiya.



Mamadiyarov O'lmas Ergashovich,
Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

TIBBIYOT XODIMLARI PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot xodimlarining psixologik muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari keng ko'lamda tahlil qilinadi. Tibbiyot sohasida ishlovchi shifokorlar, hamshiralar va boshqa mutaxassislar yuqori darajadagi stress, charchoq hamda professional burnaut sindromi kabi psixologik qiyinchiliklarga duch kelishadi. Maqolada ushbu muammolarning kelib chiqish sabablari, ularning ish faoliyatiga ta'siri va bemorlar bilan munosabatlarga ko'rsatadigan salbiy oqibatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tibbiyot xodimlari psixologiyasi, kasbiy stress va uning tibbiyot xodimlariga ta'siri, professional burnaut sindromi, psixologik charchoq, stressni boshqarish usullari, psixologik yordam va maslahat, motivatsiya va ish samaradorligi, kasbiy motivatsiya va emotsional barqarorlik.

ПРОБЛЕМЫ В ПСИХОЛОГИИ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ психологических проблем медицинских работников и путей их устранения. Врачи, медсестры и другие специалисты, работающие в медицинской сфере, сталкиваются с такими психологическими трудностями, как высокий уровень стресса, утомляемость и синдром профессионального выгорания. В статье рассматриваются причины возникновения этих проблем, их влияние на трудовую деятельность и негативные последствия для отношений с пациентами.

Ключевые слова: психология медицинских работников, профессиональный стресс и его влияние на медицинских работников, синдром профессионального выгорания, психологическая усталость, методы управления стрессом, психологическая поддержка и консультирование,

мотивация и эффективность труда, профессиональная мотивация и эмоциональная стабильность.

PROBLEMS IN THE PSYCHOLOGY OF MEDICAL WORKERS AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the psychological problems of medical workers and ways to eliminate them. Doctors, nurses and other specialists working in the medical field face psychological difficulties such as high levels of stress, fatigue and professional burnout syndrome. The article examines the causes of these problems, their impact on work activities and the negative consequences they have on relationships with patients.

Key words: psychology of medical workers, occupational stress and its impact on medical workers, professional burnout syndrome, psychological fatigue, stress management methods, psychological support and counseling, motivation and work efficiency, professional motivation and emotional stability.

Kirish. Tibbiyot xodimlari — shifokorlar, hamshiralar, feldsherlar va boshqa sog‘liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar — jamiyatda inson hayotini saqlash va sog‘lomlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ularning kundalik faoliyati nafaqat jismoniy bilim va malaka, balki yuqori darajada psixologik chidamlilikni ham talab qiladi. Tibbiyot xodimlari bemorlarning sog‘lig‘i va hayoti uchun javobgar bo‘lish bilan birga, ko‘p hollarda yuqori stress, mas’uliyat va psixologik zo‘riqishlarga duch keladilar. Bu holatlar ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tibbiyot sohasida ishlash bilan bog‘liq stressning manbalari ko‘p va turlicha. Bemorlarning og‘ir holati, uzoq ish soatlari, yetishmovchilik, kommunikatsiya muammolari, hayot va o‘lim masalalariga doimiy duch kelish kabi omillar tibbiyot xodimlarida emotsional charchoq, motivatsiya pasayishi, stress va burnout (emotsional charchash) holatlarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Natijada ish samaradorligi kamayadi, xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishi va mas’uliyat hissi zaiflashadi, sog‘liq muammolari yuzaga keladi va kasbiy faoliyatdan chiqish hollari ko‘payadi.

Shu sababli, tibbiyot xodimlari psixologiyasidagi muammolarni aniqlash, ularning sabablari va oqibatlarini chuqur o‘rganish hamda samarali bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb va muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Tibbiyot xodimlarining ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlash, ularni stressdan himoya qilish va ish samaradorligini oshirish orqali sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini ham yaxshilash mumkin. Shu bois, tibbiyot xodimlarining psixologik holatini mustahkamlashga qaratilgan kompleks choralar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Sog‘liqni saqlash tizimining samarali faoliyat yuritishi tibbiyot xodimlarining kasbiy salohiyati, bilim va ko‘nikmalaridan tashqari, ularning ruhiy-psixologik holatiga ham bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda

tibbiyot sohasi mutaxassislari nafaqat murakkab klinik vaziyatlar, balki uzluksiz ish yuklamasi, yuqori mas'uliyat, bemorlar va ularning yaqinlari bilan emotsional og'ir muloqot kabi psixologik bosim ostida faoliyat yuritmoqdalar. Bu holat ularning psixik salomatligida jiddiy muammolar — stress, depressiya, emotsional charchoq (burnout), xavotir va kommunikatsion qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan 2022-yilda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, sog'liqni saqlash tizimida ishlovchi xodimlarning 30–40 foizi doimiy stress holatida ishlaydi va har besh nafaridan biri professional charchoq sindromidan aziyat chekadi. Bunday ruhiy holatlar nafaqat ularning shaxsiy salomatligiga, balki tibbiy xizmat sifati va bemor xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-maydagi PF–146-sonli Farmoni ("Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida")da tibbiyot xodimlari uchun salbiy psixologik omillarni kamaytirish, stressni oldini olish va ruhiy salomatlikni mustahkamlash chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu bilan birga, 2023-yil 27-martdagi PQ–105-sonli qarorda sog'liqni saqlash xodimlariga psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, muntazam psixologik monitoring olib borish va treninglar tashkil etish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Tibbiyot xodimlari psixologiyasiga oid ilmiy adabiyotlar ko'p jihatdan ularning ish sharoiti, stress darajasi va emotsional holatini o'rganishga qaratilgan. Nazarova (2004) o'zining "Klinik psixologiya" asarida tibbiyot xodimlarining yuqori darajadagi psixologik zo'riqishlarga duch kelishini ta'kidlaydi. Ushbu zo'riqishlar uzoq muddat davom etsa, xodimlarda emotsional charchoq (burnout) va ishga nisbatan qoniqarsizlik yuzaga kelishi mumkinligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining (2021) milliy dasturi esa tibbiyot xodimlarining sog'lig'i va ruhiy holatini yaxshilash bo'yicha davlat darajasida chora-tadbirlar ishlab chiqilganligini ko'rsatadi. Xolbekova psixologik xizmat va reabilitatsiya sohasida zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilib, tibbiyot xodimlarining ruhiy holatini qo'llab-quvvatlashda multidisiplinar yondashuvning ahamiyatini urg'ulaydi.

Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlar ko'rsatadiki, tibbiyot sohasidagi stressni boshqarish bo'yicha treninglar, emotsional charchoqni kamaytirish dasturlari va professional psixologik yordam ko'rsatish tizimlari xodimlarning ish faoliyatini yaxshilashda samarali hisoblanadi (Reiss, 2013; Compas et al., 2012).

Adabiyotlarni tahlil qilishdan kelib chiqadigan xulosa shuki, tibbiyot xodimlari psixologiyasidagi muammolarni hal qilish uchun kompleks, tizimli va doimiy yondashuv talab etiladi. Bu nafaqat ularning shaxsiy farovonligini ta'minlaydi, balki sog'liqni saqlash xizmatining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tibbiyot xodimlarining psixologik holatini o'rganishga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu soha vakillari doimiy stress, emotsional charchoq va yuqori ish yuklamasi bilan yuzma-yuz keladi. Bu holatlar ularning ish

samaradorligiga, kasbiy motivatsiyasiga va shaxsiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, tibbiyot xodimlarining asosiy muammolari quyidagilar:

Emotsional charchoq va stress: Ish sharoitining og'irligi, bemorlar bilan doimiy muloqot va yuqori javobgarlik xodimlarda kuchli emotsional zo'riqishlar yuzaga keltiradi.

Professional burn-out (charchoq): Bu holat ko'plab tibbiyot xodimlarida aniqlanib, ularning ishga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi, mehnat unumdorligini kamaytiradi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash yetishmasligi: Ko'pgina tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatlarning yetishmasligi yoki noto'g'ri tashkil etilishi stressni kamaytirishga imkon bermaydi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning zaifligi: Xodimlarning oilasi, hamkasblari va rahbariyatidan yetarli darajada yordam olmasligi ruhiy holatining yomonlashishiga sabab bo'ladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolarni bartaraf etishda quyidagi usullar samarali bo'lmoqda:

Psixologik trening va stress boshqaruvi mashg'ulotlari: Tibbiyot xodimlariga maxsus treninglar orqali stress bilan kurashish, emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalari o'rgatilmoqda.

Multidisiplinar yondashuv: Psixologlar, shifokorlar va ijtimoiy ishchilar birgalikda xodimlarning ruhiy holatini doimiy kuzatib borish va zarur yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish: Rahbariyatning va jamoaning yordam berishi, motivatsion dasturlar joriy etilishi ruhiy holatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Psixoterapiya va konsultatsiyalar: Shaxsiy yoki guruh psixoterapiyalari orqali xodimlarning ichki muammolari yengillashtiriladi.

Tibbiyot xodimlarining psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlash, ularni stress, emotsional charchoq va boshqa ruhiy muammolardan himoya qilish sog'liqni saqlash tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Har bir yirik tibbiyot muassasasi qoshida malakali mutaxassislar ishtirokida faoliyat yurituvchi psixologik maslahat markazlarini tashkil etish lozim. Bu markazlar xodimlarning ruhiy holatini baholash, emotsional muvozanatni tiklash va kerakli psixokorreksion ishlarni olib borishda muhim rol o'ynaydi.

Tibbiyot xodimlari uchun muntazam ravishda stressni yengish, hissiy barqarorlikni saqlash, mindfulness (onglilik) texnikalari va nafas mashqlari asosida treninglar o'tkazilishi lozim.

Uzoq ish soatlari, tungi navbatchiliklar va haddan tashqari yuklama professional charchoqqa olib kelmasligi uchun ish vaqti normalariga qat'iy rioya qilinishi, dam olish kunlari to'liq ta'minlanishi kerak.

Tibbiyot xodimlarining mehnatini munosib baholash, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish orqali kasbga bo'lgan sadoqat va ruhiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Tibbiyot muassasalarida sog'lom jamoaviy munosabatlarni shakllantirish, ichki nizolarni oldini olish va ijobiy ish muhiti yaratish uchun muntazam team-building mashg'ulotlari, jamoaviy psixologik mashqlar va aloqa ko'nikmalarini rivojlantiruvchi treninglar o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Har yili yoki har chorakda xodimlarning ruhiy holatini baholovchi psixodiagnostik tekshiruvlar o'tkazilishi zarur. Bu orqali xavf guruhidagi xodimlar erta aniqlanib, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsatiladi.

Tibbiyot xodimlari psixologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, monitoring va statistik tahlillarni olib borish orqali mavjud muammolarning real ko'lamini aniqlash va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa. Tibbiyot xodimlarining psixologik holati ularning kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tibbiyot sohasidagi yuqori ish yuklamasi, stress va emotsional charchoq ko'plab mutaxassislarda professional burn-out holatining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu muammolar nafaqat ish samaradorligini pasaytiradi, balki xodimlarning shaxsiy hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun psixologik yordam tizimlarini rivojlantirish, stressni boshqarish bo'yicha treninglar tashkil etish, shuningdek, multidisiplinar yondashuv orqali jamoaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur. Shuningdek, rahbariyatning xodimlarga bo'lgan e'tiborini oshirish, ularning ruhiy salomatligini doimiy nazorat qilish va individual psixoterapiya imkoniyatlarini yaratish muhimdir.

Natijada, tibbiyot xodimlarining psixologik holatini yaxshilash kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishish, ularning ishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish va umuman sog'liqni saqlash sohasining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ковалёв, В.А. Психология медицинских работников: проблемы и перспективы. — М.: Медицина, 2015.

2. Lazarus, R.S., Folkman, S. Stress, appraisal, and coping. — New York: Springer Publishing Company, 1984.

3. Maslach, C., Jackson, S.E. The measurement of experienced burnout. Journal of Occupational Behavior, 1981; 2(2): 99–113.

4. Власова, Е.А., Николаева, Н.В. Психологическая поддержка медицинских работников в условиях стресса. — СПб.: Питер, 2017.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Tibbiyot xodimlarining ruhiy salomatligini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar, 2022.

6. Shapiro, S.L., Astin, J.A. Mindfulness-based stress reduction for health care professionals: Results from a randomized trial. International Journal of Stress Management, 2005; 12(2): 164–176.

7. Karimova, N. Psixologik stress va uning oldini olish usullari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.



Yoqubova Gulhayo Erkin qizi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

SUN'IY INTELLEKT VA AN'ANAVIY PSIXOLOGIK XIZMATLARNING INTEGRATSIYASI: O'SMIRLAR PSIXIKASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va an'anaviy psixologik xizmatlarning integratsiyasi hamda ularning o'smirlar psixikasiga ta'siri tahlil qilingan. Maqsad – zamonaviy raqamli yondashuvlar yordamida an'anaviy xizmatlarni takomillashtirishdir. Muallif qiyosiy tahlil metodidan foydalangan holda xorijiy va mahalliy tajribalarni solishtiradi. Tadqiqot natijalarida integratsiya o'smirlarning stressni yengish, o'zini anglash va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ilmiy yangilik shundan iboratki, AI vositalari va klassik psixologik metodlar uyg'unligi yangi xizmat modelini yaratishga asos bo'ladi. Xulosalarda ta'lim va amaliyot uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, an'anaviy psixologiya, integratsiya, o'smir psixikasi, psixologik xizmat, stressni boshqarish.

ИНТЕГРАЦИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ТРАДИЦИОННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ СЛУЖБ: ВЛИЯНИЕ НА ПСИХИКУ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье рассматривается интеграция искусственного интеллекта и традиционных психологических услуг, а также их влияние на психику подростков. Цель исследования – совершенствование психологической практики с использованием цифровых решений. Автор применил метод сравнительного анализа, сопоставив отечественные и зарубежные разработки. В результате выявлено, что сочетание методов способствует снижению стресса, повышению самопонимания и развитию коммуникативных навыков подростков. Научная новизна заключается в обосновании модели интеграции ИИ и классических подходов. В выводах предложены практические рекомендации для образовательных учреждений.

Ключевые слова: искусственный интеллект, традиционная психология, интеграция, психика подростков, психологические услуги, стресс.

INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND TRADITIONAL PSYCHOLOGICAL SERVICES: IMPACT ON ADOLESCENTS' MENTAL HEALTH

Abstract. This article explores the integration of artificial intelligence and traditional psychological services and their impact on adolescents' mental health. The aim is to enhance psychological practice through digital innovation. Using a comparative analysis method, the author contrasts international and local experiences. Findings show that integration helps adolescents cope with stress, improve self-awareness, and develop communication skills. The scientific novelty lies in justifying a new model that combines AI tools with classical methods. Conclusions provide recommendations for both education and applied psychology.

Keywords: artificial intelligence, traditional psychology, integration, adolescent mental health, psychological services, stress management.

Kirish. Bugungi kunda psixologik xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt (SI) imkoniyatlaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Dunyo miqyosida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, SI vositalari insonning psixologik muammolarini aniqlash, tahlil qilish va qisqa muddat ichida samarali yechim taklif etishda an'anaviy usullardan ko'plab ustunliklarga ega. Shuningdek, ularning qo'llanilishi psixologik yordam jarayonini ommabop, tezkor va shaxsiylashtirilgan qilish imkonini bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi o'smirlik davri xususiyatlari bilan ham bevosita bog'liq.

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining hal qiluvchi bosqichi bo'lib, unda insonning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi, kommunikativ qobiliyatlari va refleksiya darajasi shakllanadi. Bu jarayonda to'g'ri psixologik qo'llab-quvvatlash o'smirning kelgusida jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalanishida, stress omillarini yengishda va o'zini anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy psixologik xizmatlarda SI texnologiyalarini an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot ob'ekti – o'smirlarning psixik rivojlanishi bo'lib, bunda shaxsning emotsional, ijtimoiy va kognitiv jarayonlari o'rganildi. Tadqiqot predmeti esa – psixologik xizmatlarda sun'iy intellekt vositalari va an'anaviy diagnostik metodlarning integratsiyasi, ularning afzallik va cheklovlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – psixologik xizmatlarda innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali samaradorlikni oshirish, xususan, o'smirlar uchun

psixologik yordamni yanada sifatli, tezkor va shaxsga yo‘naltirilgan shaklga keltirishdir. Shu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilib, mavjud ilmiy yondashuvlar va tajribalarni umumlashtirish;

sun’iy intellekt vositalarining diagnostika va psixokorreksiyadagi imkoniyatlarini aniqlash;

AI integratsiyasining samaradorligini an’anaviy metodlar bilan taqqoslash;

empirik tadqiqot orqali psixologik xizmatlarning yangi modelini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy xulosalar berish.

Adabiyotlar sharhi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda so‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining psixologik xizmatlarda qo‘llanilishi keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Jumladan, Gutierrez (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda AI asosidagi chatbotlar o‘smirlarning emotsional muammolarini yengillashtirishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqilgan. U psixoterapiya jarayonida interaktiv chatbotlardan foydalanish o‘quvchilarda o‘zini tinglangan va tushunilgan his qilishga yordam berganini, natijada depressiya belgilari pasayganini hamda stress darajasi kamayganini ilmiy asosda isbotlagan [1]. Bu natijalar o‘smirlar orasida keng tarqalgan emotsional beqarorlik muammosiga nisbatan AI vositalarining samarali qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Keung (2025) maktab psixologiyasi xizmatlariga AI texnologiyalarini integratsiya qilish masalasini amaliy jihatdan o‘rgangan. Uning tadqiqotida AI yordamida o‘quvchilarning stressni boshqarish ko‘nikmalari rivojlanganligi, ijtimoiy moslashuv darajalari ortgani hamda o‘z-o‘zini anglash jarayonlari faollashgani kuzatilgan [2]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI nafaqat psixologik yordamni tezkor va shaxsiylashtirilgan shaklda ko‘rsatadi, balki psixologik xizmatlarning sifatini tizimli ravishda oshirish imkonini ham beradi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda esa Fayziyeva va Jumayev (2021) an’anaviy psixologik xizmatlarning ustunliklarini chuqur tahlil qilgan. Ularning fikriga ko‘ra, psixolog va mijoz o‘rtasidagi bevosita muloqot jarayoni o‘smir shaxsiyatining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki insoniy empatiya, verbal va noverbal signal orqali beriladigan qo‘llab-quvvatlash o‘smirlarning ichki dunyosini anglash va barqarorlashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Mazkur maqolada yuqoridagi yondashuvlardan farqli o‘laroq, AI vositalari bilan an’anaviy metodlarning integratsiyasi asosida yangi psixologik xizmat modeli taklif etiladi. Bu modelda AI texnologiyalarining tezkorlik, shaxsiylashtirish va doimiy mavjudlik kabi afzalliklari, shuningdek, klassik metodlarning empatiya, ishonchli muloqot va individual yondashuv kabi kuchli jihatlari uyg‘unlashtiriladi. Natijada, yanada samarali, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan psixologik xizmat tizimini yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu yondashuvning ilmiy yangiligi shundan iboratki, avvalgi tadqiqotlarda AI va an’anaviy metodlar alohida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, mazkur integratsion model ularning kuchli tomonlarini birlashtirib, o‘smirlarning psixologik muammolarini hal etishda yanada kompleks yechim taklif etadi. Shu

boisdan, bu model nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham psixologik xizmatlarni rivojlantirishda yangi bosqichni anglatishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy taqqoslash metodi asosiy ilmiy usul sifatida tanlandi. Ushbu metod yordamida sun'iy intellekt asosidagi psixologik xizmat vositalari (AI-chatbotlar, onlayn diagnostik platformalar) hamda an'anaviy psixodiagnostik testlar (Frayburg shaxsiy savolnomasi, Bass–Darki agressivlik testi, Shmishev temperament testi va boshqalar) natijalari tizimli ravishda solishtirildi. Taqqoslash yondashuvi ikki xil metodologik paradigmaning afzallik va cheklovlarini aniqlashga, shuningdek, ularning o'smirlar psixikasiga ta'sir darajasini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga imkon berdi.

Tadqiqotda ishtirokchi o'smirlarning psixik holatini baholash uchun bir nechta asosiy ko'rsatkichlar tanlandi: stress darajasi, emotsional barqarorlik, kommunikativ qobiliyat va refleksiya darajasi. Mazkur indikatorlar o'smirlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi asosiy psixologik mezonlar sifatida qaraldi. AI vositalari yordamida olinadigan natijalar tezkorlik va individual yondashuvni ta'minlagan bo'lsa, an'anaviy test metodlari ko'proq chuqurlik va klinik ahamiyatga ega bo'ldi.

Statistik tahlil jarayonida o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlar, dispersiya, variatsiya koeffitsienti va standart og'ish kabi parametrlar hisoblandi. Ushbu statistik hisob-kitoblar natijalarning matematik ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi. Hisob-kitoblar va tahlillar SPSS 26.0 dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshirildi, bu esa natijalarni qayta ishlash jarayonini yuqori darajada aniqlik bilan olib borish imkonini berdi. Natijalar o'rtasidagi bog'liqlik foiz ko'rsatkichlari va korrelyatsiya koeffitsienti yordamida aniqlanib, AI va an'anaviy metodlarning samaradorligi qanchalik yaqin yoki farqli ekanligi ko'rsatildi.

Olingan ma'lumotlarni vizual ko'rinishda taqdim etish maqsadida diagramma, jadval va grafiklardan keng foydalanildi. Vizualizatsiya nafaqat natijalarning oson qabul qilinishini ta'minladi, balki AI integratsiyasining amaliy samaradorligini aniq ko'rsatish imkonini berdi. Shu bilan birga, tadqiqot metodologiyasida sifatli tahlil elementlari ham o'rin oldi: ishtirokchilar bilan maxsus anketalar to'ldirildi va yarim tuzilgan suhbatlar o'tkazildi. Ushbu ma'lumotlar o'smirlarning sub'ektiv tajribalarini yoritishga va AI vositalariga nisbatan ularning shaxsiy munosabatini o'rganishga xizmat qildi.


Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida yig'ilgan empirik ma'lumotlarning chuqur statistik va sifatli tahlili bir necha muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt asosida integratsiyalashgan psixologik xizmatlar o'smirlar psixik rivojlanishida an'anaviy metodlarga nisbatan yanada samaraliroq ekan. AI-integratsiyalashgan model yordamida o'smirlarning stressni yengish darajasi 27 % ga oshgani kuzatildi. Chatbotlar va interaktiv mashqlar ularga hissiy holatlarni tartibga solish, tashvishlarni kamaytirish va psixologik bosimni nazorat qilishda yordam berdi. An'anaviy metodlarda ijobiy natija qayd etilgan bo'lsada, o'sish sur'ati pastroq

bo‘ldi. Bu esa AI texnologiyalarining tezkor va qo‘llab quvvatlovchi omil sifatida afzalligini ko‘rsatdi. AI asosida qo‘llanilgan metodlar o‘smirlarning kommunikativ kompetensiyalarini (fikrni ifoda etish, suhbatdoshni tinglash, guruh bilan hamkorlik qilish) 19 % ga yaxshilagan. An’anaviy usullar ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, AI vositalarining interaktiv va shaxsiylashtirilgan shakli samaradorlikni yanada kuchaytirgani aniqlandi.AI vositalaridan foydalangan guruh o‘smirlarida refleksiya jarayoni sezilarli darajada faollashdi. O‘zini anglash, hissiyotlarni tahlil qilish, shaxsiy tajribadan to‘g‘ri xulosa chiqarish, xatti-harakatni nazorat qilish ko‘nikmalari an’anaviy metodlar guruhiga nisbatan yuqoriroq darajada shakllandi. Bu esa o‘smirlarning emotsional barqarorligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki;

- Variatsion statistik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, AI guruhida dispersiya qiymatlari pastroq bo‘lib, natijalarning barqarorligi va ishonchliligini ifodaladi.
- Korrelyatsion tahlil natijalari AI vositalaridan foydalanish va stressni yengish ko‘rsatkichlari o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi ($r \approx 0.68$).
- Diagramma va grafiklarda AI integratsiyasi qo‘llangan guruhda o‘sish dinamikasi izchil va chiziqli tarzda namoyon bo‘ldi, an’anaviy metodlardan foydalangan guruhda esa bu jarayon notekis va sustroq kuzatildi.

Suhbat va anketa natijalari ham AI vositalarining samaradorligini tasdiqladi. O‘smirlarning aksariyati AI-chatbotlar bilan muloqot qilish o‘zlarini yanada erkin ifoda etishga, hissiy bosimni kamaytirishga yordam berganini bildirishdi. Shuningdek, ayrim ishtirokchilar an’anaviy yuzma-yuz suhbatlarni chuqurroq hissiy qo‘llab-quvvatlash omili sifatida yuqori baholashdi. Bu esa tadqiqot natijalarida AI va an’anaviy yondashuvlarning bir-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi.



Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik xizmatlarda sun’iy intellekt va an’anaviy metodlarning uyg‘unligi o‘smirlarning ruhiy salomatligini saqlash, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va stress omillarini kamaytirishda samarali mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va an’anaviy psixologik xizmatlarning integratsiyasi o‘smirlar psixikasiga kompleks ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. AI vositalari yordamida o‘smirlarning stressni yengish ko‘nikmalari, kommunikativ salohiyatlari va o‘z-o‘zini anglash darajalari sezilarli ravishda oshgan. Shu bilan birga, an’anaviy metodlarning insoniy omilga asoslangan jihatlari o‘smirlarning emotsional qo‘llab-quvvatlanishi va shaxsiy aloqa orqali ruhiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etgani aniqlandi.

Biroq ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, AI vositalaridan foydalanishda o‘smirlarning texnologiyaga haddan tashqari ishonib qolishi, psixolog bilan jonli muloqot yetishmasligi, shuningdek, maxfiylik va ma’lumot xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar mavjudligi aniqlangan. Bu esa integratsiya jarayonida sun’iy intellektni mustaqil emas, balki an’anaviy xizmatlarni qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Taklif sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- AI vositalarini qo‘shimcha resurs sifatida ishlatish, psixologik xizmatlarda asosiy rolni insoniy omilga berish;
- Psixologlar uchun maxsus treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, bunda sun’iy intellekt texnologiyalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Maktab va oliygohlar psixologik xizmat tizimida AI integratsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, avval pilot loyihalar asosida, keyinchalik keng qamrovda tatbiq qilish;
- Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qat’iy me’yorlarni ishlab chiqish;
- O‘smirlarning shaxsiy ehtiyojlari va ijtimoiy psixologik muhitini hisobga olgan kombinatsiyalashgan xizmat modelini amaliyotga joriy etish.

Umuman olganda, tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, sun’iy intellekt va an’anaviy psixologik xizmatlarning uyg‘unligi o‘smirlarning ruhiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda yangi istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, ta’lim va psixologik amaliyotda samaradorlikni oshiruvchi muhim mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhtar, N., Syakir Ishak, M. I., Bhawani, S. A., & Umar, K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. Water, 13(19), 2660–2670.
2. Gutierrez, R. (2024). AI-based chatbots in adolescent psychotherapy. Journal of Digital Psychology, 18(2), 55–72.
3. Keung, L. (2025). Integrating AI into school psychology services. Educational Innovation Review, 12(1), 101–115.
4. Fayziyeva, Z., & Jumayev, A. (2021). Psixologik xizmatlarda metodologik yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. Spytska, L., & Petrenko, O. (2023). The use of artificial intelligence in psychotherapy: Opportunities and limitations. Psychotherapy Research Journal, 33(4), 389–404.
6. Moylan, K., & Horgan, R. (2022). AI-driven mental health chatbots: A systematic review of adolescent interventions. JMIR Mental Health, 9(6), e36785.
7. Beg, M. J., & Khan, R. (2021). Artificial Intelligence for Psychotherapy: A Review. Frontiers in Psychology, 12, 653–662.
8. Yusupova, M. (2022). O‘smirlar psixologiyasida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
9. Karimova, D., & Tojiboyev, O. (2020). Psixologik xizmatda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash. Qarshi: Nasaf.
10. World Health Organization. (2021). Adolescent mental health: Policy brief. Geneva: WHO.
11. Alimova, G. (2023). O‘smirlarning stressga qarshi kurashish psixologiyasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

Boymatov Bahrom Eshmamatovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TO‘GARAKLARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNIY-MAQSADLI YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘garak faoliyati orqali o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mazmuniy-maqsadli yo‘nalishlar ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Kreativ fikrlashni shakllantirishda individuallashtirilgan topshiriqlar, fanlararo va ijtimoiy dolzarb mazmun, modellashtirish, tadqiqot va loyiha asosidagi faoliyatlarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ fikrlashni baholash mezonlari, shaxsiy yutuqlar portfoliosi va ijtimoiy e’tirof mexanizmlari ta’limda yaratuvchan muhitni shakllantirishda muhim omil sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, to‘garak faoliyati, ijodiy mashg‘ulotlar, modellashtirish, loyiha, fanlararo integratsiya, individual trayektoriya, ijtimoiy foydali mazmun, yaratuvchanlik, baholash mezonlari.

СОДЕРЖАТЕЛЬНО-ЦЕЛЕВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В КРУЖКОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически раскрыты содержательно-целевые направления развития креативного мышления учащихся через деятельность кружков. Проанализирована роль индивидуализированных заданий, межпредметного и социально актуального содержания, моделирования, исследовательской и проектной деятельности в формировании креативного мышления. Также обосновано, что критерии оценки креативности, портфолио личных достижений и механизмы социального признания являются важными факторами создания творческой образовательной среды.

Ключевые слова: креативное мышление, кружковая деятельность, творческие занятия, моделирование, проект, межпредметная интеграция, индивидуальная траектория, социально значимое содержание, креативность, критерии оценки.

CONTENT–GOAL DIRECTIONS OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN CLUB ACTIVITIES

Abstract. This article scientifically and theoretically highlights the content-based and goal-oriented directions aimed at developing students’ creative thinking through club activities. It analyzes the role of individualized tasks, interdisciplinary and socially relevant content, modeling, research, and project-based activities in fostering creative thinking. In addition, the criteria for assessing creativity,

personal achievement portfolios, and mechanisms of social recognition are substantiated as important factors in forming a creative educational environment.

Keywords: creative thinking, club activities, creative sessions, modeling, project, interdisciplinary integration, individual trajectory, socially useful content, creativity, assessment criteria.

To‘garak faoliyatida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mazmuniy-maqsadli yo‘nalishlar, avvalo, mashg‘ulotlarning aniq pedagogik maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi. Zero, har qanday ijodiy faoliyat intizom va maqsadli yondashuvga ega bo‘lsagina, bolaning salohiyatini to‘liq ochishga xizmat qiladi. To‘garakda kreativlikni shakllantirishning asosiy maqsadi bolaning mustaqil fikr yuritish, original g‘oyalar ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun to‘garak mashg‘ulotlarida izlanish, loyiha tuzish, ijodiy muhokama olib borish, modellashtirish va muloqot qilish kabi vazifalar mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

To‘garak mashg‘ulotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish samarasi, avvalo, beriladigan ijodiy vazifalarning o‘quvchining yosh, individual psixologik va intellektual salohiyatiga mos darajada tanlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Zero, bola uchun juda oson bo‘lgan topshiriqlarda ijodiy izlanish ehtiyoji paydo bo‘lmaydi, juda murakkab bo‘lgan vazifalar esa uning ishonchini so‘ndirishi mumkin. Shu bois to‘garakdagi har bir mashg‘ulot mazmunan bolaning bilish darajasi, qiziqish yo‘nalishi, ijtimoiy faolligi va tasavvur doirasiga moslashtirilishi zarur.

Kreativ vazifalar moslashuvchanlik asosida quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: u standart yondashuvdan farq qiluvchi yechimlarni talab etadi, bir nechta imkoniyatni muhokama qilishga mo‘ljallangan bo‘ladi, tafakkur fleksibilligini talab etadi va shaxsiy pozitsiyani ifoda etishga sharoit yaratadi. Masalan, “Biz uchun qulay maktab konsepsiyasini yarating”, “Muqobil energiya manbai haqida animatsiya loyihasi ishlang” yoki “Milliy qadriyatlar asosida kreativ o‘yinlar tizimini taklif qiling” kabi topshiriqlar o‘quvchilarda izlanish, qiyosiy tahlil va yangilik yaratish istagini uyg‘otadi. Bunda faqat natija emas, balki jarayonning o‘zi ham ijodiy tafakkurni talab etadi. Tadqiqotchi V.S.Yurkevich ta’kidlashicha: “Kreativ topshiriq bolaning bilish imkoniyatlariga moslashgan bo‘lsa, u faqat ijod qilish emas, balki shaxsiy ma’no yaratish jarayoniga aylanadi”. [1; 87] Shu ma’noda, to‘garak mashg‘ulotlaridagi kreativ vazifalar har bir o‘quvchining salohiyatini hisobga olgan holda individuallashtirilgan, izchillik bilan kuchayib boruvchi va shaxsiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi tarzda tashkil etilsa, bu kreativ fikrlashni rivojlantirishda metodik jihatdan asosli va samarali yechim bo‘ladi.

To‘garak faoliyatida kreativ fikrlashni shakllantirishga qaratilgan maqsadlar an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq o‘quvchini tayyor bilimni o‘zlashtirishga emas, balki ijodiy izlanish, tadqiqot olib borish va modellashtirish orqali yangi bilim,

g‘oya va yechimlarni yaratishga yo‘naltiradi. Bunday maqsadlar o‘quvchidagi bilish ehtiyojini kuchaytiradi, tafakkur faolligini rag‘batlantiradi va uni mustaqil shaxs sifatida faoliyat yuritishga undaydi.

Ijodiy izlanishga yo‘naltirilgan maqsadlar o‘quvchini mavjud bilimni sinovdan o‘tkazish, yangicha munosabat bildirish va o‘z farazlarini ilgari surishga yo‘l ochadi. Masalan, “Maktabdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun qanday yangilik taklif qilgan bo‘lardingiz?” degan vazifa izlanishga, tahlilga va kreativ yechim yaratishga undaydi. Bu kabi maqsadlar o‘quvchini faqat nazariy bilish emas, balki hayotiy muammoga shaxsiy yondashish orqali ijodiy tafakkurga yetaklaydi.

Tadqiqotga asoslangan maqsadlar esa o‘quvchilarda muammoli fikrlash, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, savol berish va javob izlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqot elementlari joriy etilgan to‘garak mashg‘ulotlarida bola o‘zi qiziqqan mavzuda ma’lumot to‘playdi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi, muqobil yechim taklif etadi va ushbu jarayon orqali fikriy mustaqillikka ega bo‘ladi. Bu jarayonda shaxsiy tajriba asosida bilim shakllanadi, kreativlik esa bu bilimni qayta tuzish, yangicha anglash va qayta tatbiq etishda namoyon bo‘ladi.

Modellashtirishga qaratilgan maqsadlar esa o‘quvchidagi texnik, mantiqiy va innovatsion fikrlashni faollashtiradi. Modellashtirish jarayonida bola mavjud jarayon yoki obyektni tahlil qilib, uning ayrim elementlarini qayta qurish, funksiyasini o‘zgartirish yoki yangidan yaratish ustida ish olib boradi. Bu faoliyat tafakkurning algoritmik emas, ijodiy amalga oshirilishini talab etadi. Masalan, “Fan va texnologiyani uyg‘unlashtirgan maktab jadvalini tuzing” yoki “Ijtimoiy reklama maketi modelini yarating” kabi topshiriqlar nafaqat kreativlikni, balki ijtimoiy-ahamiyatli loyiha ishlash salohiyatini ham rivojlantiradi. Umuman, to‘garak faoliyatidagi ijodiy izlanish, tadqiqot va modellashtirishga asoslangan maqsadlar bolani faol subyektiga aylantiradi, uning bilish jarayoniga egalik qilish hissini mustahkamlaydi va ijodiy yondashuvni muntazam rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa kreativ fikrlashni shakllantirishda eng samarali va natijaviy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

To‘garak faoliyati orqali kreativ fikrlashni rivojlantirishda tanlanadigan mashg‘ulot mazmuni va yo‘nalishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tarkibiy asosini fanlararo integratsiya va ijtimoiy dolzarblik mezonlari tashkil etadi. Zero, bolaning fikrlash faoliyati faqat bitta fan doirasida emas, balki turli sohalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar, munosabatlar va umumiy mazmunlar orqali murakkablasha boradi. Shu sababli, to‘garaklardagi mashg‘ulot mazmuni o‘quvchida fanlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘ra olish qobiliyatini, hayotiy muammolarga keng va yangicha qarashni, ijtimoiy voqelikni anglash va unga munosabat bildira olish salohiyatini shakllantirishi kerak. Bu esa to‘garak

faoliyatini shaxsiy ijod va jamiyatga foyda keltiruvchi g‘oyalar uyg‘unligida tashkil etishni taqozo etadi.

To‘garak faoliyatida kreativ fikrlashni rivojlantirishda fan va hayot o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni ta’minlash muhim pedagogik mezonlardan biri hisoblanadi. Agar ta’lim mazmuni real hayot bilan bog‘lanmasa, o‘quvchi uchun bilim abstrakt va ma’nosiz ko‘rinishda qolishi mumkin. Ammo mashg‘ulotlar mazmuni turmushdagi dolzarb muammolar, shaxsiy tajriba, ijtimoiy voqelik va tabiiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashsa, bolada bilishga ehtiyoj kuchayadi, kreativ fikrlash jarayoni tabiiy ravishda faollashadi.

Fan va hayot bog‘lanishi to‘garak mashg‘ulotlaridagi mavzular tanlovida, topshiriqlar mazmunida va yechimlarning amaliy ahamiyatida yaqqol ko‘rinishi kerak. Masalan, ekologiyaga oid mashg‘ulotda o‘quvchi nafaqat nazariy bilim oladi, balki o‘z mahallasidagi atrof-muhit muammosini o‘rganadi, yechim taklif qiladi, ijtimoiy faoliyat shaklida ishtirok etadi. Yoki axborot texnologiyalari to‘garagida bola IT sohasini nafaqat o‘rganadi, balki uni ta’lim, madaniyat, ijtimoiy muomalaga qanday tatbiq etish mumkinligini anglaydi va shu orqali yangilik yaratadi. Bu borada tadqiqotchi Sh.A.Amonakulov shunday deydi: “Ta’lim fanini hayot bilan bog‘lash, bolaning real voqelikda tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Bu holda ta’lim mazmuni bola ongida shaxsiy qadriyatga aylanadi”. [2; 96]To‘garak faoliyatida fanni hayot bilan bog‘lash o‘quvchida “bilim – mening hayotimda kerakli”, “men buni amalda qo‘llay olaman” degan shaxsiy anglashni vujudga keltiradi. Bu esa bilimni o‘zlashtirish emas, balki ijodiy qayta yaratishga asoslangan kreativ fikrlashni shakllantirish uchun zarur poydevor hisoblanadi.

To‘garak faoliyatida kreativ fikrlashni rivojlantirishda ijtimoiy foydali, muammoli va konstruktiv mazmundagi mavzular hamda topshiriqlarni tanlash mezonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki bunday mazmunga ega mashg‘ulotlar o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki jamiyat hayotiga daxldor, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmagan, faol va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tanlanadigan mavzu va topshiriqlar zamonaviy hayotning dolzarb muammolarini aks ettirishi, o‘quvchini izlanishga, fikrlashga va yangi yechim taklif qilishga undashi lozim.

Ijtimoiy foydali mazmunga ega topshiriqlar — bola atrof-muhitga, jamiyat ehtiyojlariga va insoniy qadriyatlarga befarq emasligini anglatadigan masalalarni qamrab olishi kerak. Masalan, “Qariyalar uchun qulay hayot sharoitini loyihalash”, “Maktabda energiya tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha tashabbuslar” yoki “Tengdoshlarimni kitob o‘qishga jalb qilish rejasi” kabi topshiriqlar faqat bilim emas, balki ijtimoiy hissiyot va faollikni uyg‘otadi.

Muammoli mazmunga ega mashg‘ulotlar esa o‘quvchini qarama-qarshi fikrlar, bir nechta yechimli holatlar, tanlov talab etadigan murakkab vaziyatlar

ustida fikr yuritishga chorlaydi. Muammoli mazmun kreativ fikrlashdagi divergent yondashuv, fikrlash erkinligi va fleksibillikni rivojlantiradi. Masalan, "Sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha tahlil va takliflar", "O'quvchilar uchun xavfsiz raqamli muhit: muammo va yechimlar" kabi mavzular muammo ichida izlanishni talab qiladi.

Konstruktiv mazmun esa o'quvchidan tanqid emas, yangicha taklif, innovatsion yechim va ijobiy yondashuvni taqozo etadi. Konstruktiv mavzularda o'quvchi tanqid bilan cheklanmaydi, balki yangilik yaratishga harakat qiladi. Bu esa uning fikrlash jarayonini ijodiy natijaga yo'naltiradi. Masalan, "Kitobxonlikni rag'batlantiruvchi kreativ aksiya ssenariysi" yoki "Maktabda kreativ muhit yaratish bo'yicha innovatsion tashabbus" kabi topshiriqlar bolani ijodiy faoliyatga jalb etadi. Bu haqda tadqiqotchi A.Ahmedov ta'kidlaydi: "Ijtimoiy mazmunli, muammoli va konstruktiv yondashuvni talab qiladigan topshiriqlar kreativ tafakkurni shakllantirishning asosiy vositasiga aylanadi. Chunki bola bilimni hayotga tatbiq etish zaruratini his etadi". [3; 59] Xulosa qilib aytganda, to'garak mashg'ulotlari uchun tanlangan mavzular hayot bilan bog'liq, ijtimoiy ahamiyatli, fikrlashni murakkablashtiruvchi va yangilik yaratishga yo'naltirilgan bo'lsa, o'quvchidagi kreativ salohiyat tabiiy va izchil shakllanadi. Bunday mezonlar kreativlikni maqsadli ravishda tarbiyalashda metodik poydevor vazifasini o'taydi.

Kreativ fikrlashni to'garak faoliyati orqali rivojlantirishda mashg'ulotlarni shaxsiylashtirish, ya'ni har bir o'quvchining individual qiziqishlari, qobiliyatlari va bilish uslublariga mos ravishda tashkil etish samaradorlikni ta'minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Zero, kreativlik shaxsiy ichki ilhom, ehtiyoj va ma'no bilan bog'liq jarayon bo'lgani bois, u standart, barchaga bir xil yondashuv orqali emas, balki individuallashtirilgan, shaxsiy salohiyatni inobatga olgan faoliyatda ro'yobga chiqadi. Shu bois, to'garak mashg'ulotlarida har bir o'quvchining tafakkur xususiyatlari, qiziqish doirasi va ijodiy potensiali hisobga olingan holda mazmun, topshiriq va metodikalarni tanlash muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

To'garak faoliyatida kreativ fikrlashni samarali shakllantirish uchun o'quvchilarning shaxsiy o'quv trayektoriyalarini hisobga olish zarur hisoblanadi. Shaxsiy o'quv trayektoriyasi bu har bir o'quvchining individual qiziqishlari, bilish uslubi, tafakkur turi, qobiliyatlar darajasi va shaxsiy rivojlanish maqsadlariga mos ravishda yo'naltirilgan ta'limiy harakatlar yo'lidir. U an'anaviy "barchaga bir xil" mazmundagi mashg'ulotlardan farqli o'laroq har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish, unga ma'noli va motivatsion faoliyat muhitini yaratishga asoslanadi.

Kreativlik, o'z tabiatiga ko'ra, ichki ehtiyoj va shaxsiy ilhomga suyanadi. Agar to'garakdagi mashg'ulotlar o'quvchining qiziqishlari bilan bog'liq bo'lsa, u mashg'ulotga shunchaki qatnashmaydi, balki uning faol ijodkoriga aylanadi.

Masalan, ijtimoiy fanlarga qiziquvchi o‘quvchiga media-loyiha, matematikada faol bolaga robototexnika yoki dizaynga oid topshiriqlar, adabiyotga ishtiyoqi bor o‘quvchiga badiiy ijodiy ssenariy taklif etish kreativ fikrlashni shaxsiy trayektoriya orqali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, shaxsiy trayektoriyani hisobga olish to‘garak rahbaridan faqat "qiziqishni aniqlash"ni emas, balki bolaning tafakkur uslubini, bilish tempini, ijtimoiylashuv darajasini, qobiliyat dinamikasini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Bunda mo‘ljal, ya’ni har bir bola uchun maqsad bir xil emas, balki individual natijalar bo‘lishi lozim: kimdir original g‘oya taklif etishi, boshqasi model yaratishi, yana kimdir ijtimoiy aksiya ssenariysini ishlab chiqishi mumkin. Bu xilma-xillik shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kreativlikdagi ifodasidir. Ta’lim psixologiyasi bo‘yicha tadqiqotlarda bu haqda shunday ta’kidlangan: "Shaxsning o‘quv trayektoriyasini hisobga olish, uning ma’noli ishtirokini ta’minlash va faoliyatga shaxsiy munosabatini shakllantirish kreativ ongning ochilishiga xizmat qiladi". [4; 64]

Umuman, to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishda bolalarning shaxsiy o‘quv trayektoriyalarini hisobga olish, kreativlikni shakllantirishning tabiiy va individual yo‘lini ochib beradi. Bu yondashuv bolani faol ijodiy subyekt sifatida tarbiyalashda ilmiy asoslangan va amaliy samarali pedagogik strategiya hisoblanadi.

Kreativ fikrlashni to‘garak faoliyati orqali rivojlantirishda yaratuvchanlikni yuzaga chiqaruvchi shaxsiy ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Bunday ta’lim yo‘nalishlari o‘quvchining individual qiziqishlari, qobiliyatlari va ichki ilhomini hisobga olgan holda uning shaxsiy ma’no anglash faoliyatini faollashtirishga yo‘naltiriladi. Zero, kreativ fikrlash faqat bilimni qayta ishlash emas, balki shaxsiy salohiyatni kashf etish, o‘z-o‘zini anglash va ijod orqali o‘zini ifoda etish jarayonidir.

Shaxsiy ta’lim yo‘nalishlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, ular standart o‘quv rejalaridan farqli ravishda shaxsiy maqsad va qiziqishlarga asoslangan holda shakllanadi; ikkinchidan, ularda o‘quvchi passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi sifatida ishtirok etadi; uchinchidan, bu yo‘nalishlardagi mashg‘ulotlar qat’iy ssenariyga emas, balki shaxsiy g‘oya, tashabbus va tanlovga asoslanadi. Masalan, bir bola "Hayot uchun yengil dron modeli" ustida ishlashni, ikkinchisi esa "Folklor asosida mualliflik sahna asari" yaratishni tanlashi mumkin. Ikkisi ham kreativ faoliyat, ammo shaxsiy trayektoriyaga mos shaklda namoyon bo‘ladi.

Bunday shaxsiylashtirilgan yo‘nalishlar o‘quvchida nafaqat tafakkur faolligini, balki ijtimoiy hissiyot, ma’naviy pozitsiya, estetik anglash va faol fuqarolik salohiyatini ham yuzaga chiqaradi. Chunki yaratish orqali bola o‘zining "men"ini, fikrini, nuqtai nazarini ifoda etadi va uni amaliy ko‘rinishda namoyon etadi. Masalan, L.S.Vigotskiy bu bora: "Kreativ faoliyat shaxsning ichki ehtiyoji

va tashqi ijtimoiy sharoitlar bilan birgalikda shakllanadigan protsess bo‘lib, u shaxsiy ma’no yaratishda namoyon bo‘ladi”, [5; 48] deb ta’kidlaydi. To‘garak faoliyatida yaratuvchanlikni yuzaga chiqaruvchi shaxsiy ta’lim yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchidagi kreativ salohiyat tabiiy ravishda faollashadi, ijodiy fikrlash tizimli va anglangan holda shakllanadi. Bu esa shaxsni faqat bilimdon emas, balki yaratuvchi, tashabbuskor va ma’naviy barkamol inson sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida uning amaliy ifodasi, ya’ni ijodiy g‘oyalarni muayyan mahsulot ko‘rinishida yaratish, uni jamoa oldida namoyish etish va mazmunli muloqot orqali himoya qilish o‘quvchining fikrlash jarayonini to‘liq va funksional yakunlovchi bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, haqiqiy kreativlik faqat g‘oya yaratish bilan emas, balki uni amalga oshirish, moddiy va ma’naviy mahsulot ko‘rinishida taqdim etish jarayoni orqali namoyon bo‘ladi. To‘garak faoliyatidagi kreativ mashg‘ulotlar natijasida yaratilgan loyihalar, maketlar, ssenariylar, animatsiyalar, ijtimoiy aksiyalar va ma’naviy-estetik mahsulotlar o‘quvchining shaxsiy fikri, izlanishi va yaratuvchanligini amaliy shaklda ifoda etish imkonini beradi. Bu jarayonda bola faqat bilish emas, balki o‘zini jamiyatda tanita olish, g‘oyasini himoya qilish va muloqot orqali rivojlantirish salohiyatini ham shakllantiradi.

Kreativ fikrlashni to‘garak faoliyati orqali shakllantirishda loyiha va mahsulot asosidagi faoliyatlar o‘quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyatini amaliy shaklda namoyon etishi uchun eng samarali yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Loyiha faoliyati o‘quvchidagi mustaqil izlanish, tahlil qilish, g‘oya yaratish, yechim taklif etish, rejalashtirish, bajarish va taqdim etish kabi ijodiy va tadqiqotga asoslangan kompetensiyalarini uyg‘un ravishda rivojlantiradi. Bunday faoliyat shakli orqali bola faqat bilim egasiga emas, balki yaratuvchi subyektiga aylanadi.

Loyihalash asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarga real hayotga daxldor muammolarni yechish, ijtimoiy foydali g‘oyalarni amalga oshirish va o‘z g‘oyasini moddiy yoki axborot mahsulotiga aylantirish imkonini beradi. Masalan, “Mahallamizni obod qilish loyihasi”, “O‘quvchilar uchun qulay raqamli kundalik platformasini ishlab chiqish”, “Ekologik mas’uliyat targ‘iboti uchun ijtimoiy videorolik” yoki “Milliy an’analarni yorituvchi sayohat kvest ssenariysi” kabi topshiriqlar o‘quvchida nafaqat kreativ fikrlash, balki ijtimoiy anglash, javobgarlik, estetik va muloqot salohiyatini ham yuzaga chiqaradi.

Bunday faoliyatda erishilgan mahsulot, ya’ni aniq namoyish etiladigan, himoya qilinishi mumkin bo‘lgan yaratuvchanlik natijasi kreativ fikrlashning amaliy shaklda to‘la namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu mahsulotlar qog‘ozdagi tasvir, infografika, maket, multimedia loyiha, ijtimoiy tadbir ssenariysi yoki aniq texnik yechim bo‘lishi mumkin. Muhimi, bu natijalar o‘quvchiga shaxsiy mualliflik hissini beradi, o‘zini ijodiy shaxs sifatida anglashga, fikrini jamiyatda

tanitishga va o‘z salohiyatini yuqori baholashga undaydi. Ta’limda loyiha va mahsulot asosidagi faoliyatning ahamiyati haqida tadqiqotchi A.Y.Savenkov shunday yozadi: “Loyiha – bu ta’limni ijodiy faoliyat bilan bog‘lovchi ko‘p funksiyali vositadir; u o‘quvchida ijtimoiy faollik, mas’uliyat va innovatsion yondashuvni uyg‘otadi”. [6; 54]

Xulosa qilib aytganda, to‘garaklarda loyiha va mahsulotga asoslangan mashg‘ulotlar o‘quvchidagi kreativ fikrlash jarayonini shaxsiy g‘oyadan amaliy yaratuvchanlikkacha bo‘lgan uzluksiz tizimda rivojlantirish imkonini beradi. Bu faoliyat bolaning ijodiy ongi, mustaqil pozitsiyasi va ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs sifatida kamol topishi uchun mustahkam poydevor hisoblanadi.

Kreativ fikrlashni amaliy ifodaga ega qilishda va uning natijalarini jamoat oldida tan olinishida forumlar, ko‘rgazmalar, loyiha himoyalari va kreativ maydonlardagi namoyon bo‘lish imkoniyatlari o‘ta muhim ahamiyatga ega. Zero, kreativ g‘oya va yaratuvchanlik natijasi faqat ichki ilhom va fikr sifatida emas, balki jamoa, ijtimoiy muhit, maktab va keng jamoatchilik oldida taqdim etilgandagina to‘la ma’noga ega bo‘ladi. Bunday namoyon bo‘lish jarayoni o‘quvchining ijodiy salohiyatini anglashi, shaxsiy maqomini his etishi va ijtimoiy e’tirofga ega bo‘lishi uchun psixologik-ijtimoiy sharoit yaratib beradi.

Forumlar fanlararo, ijtimoiy-ma’naviy, madaniy va texnologik mavzularga bag‘ishlangan interaktiv tadbirlar bo‘lib, ularda o‘quvchilar o‘z g‘oyalari, loyihalari va tashabbuslarini omma oldida taqdim etadi. Bu jarayonda kreativ fikr muloqot, tanqidiy tahlil va jamoaviy fikr almashinuv orqali boyiydi. Forum muhiti ijtimoiy tajriba, fikrlarni bahs orqali shakllantirish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish salohiyatini rivojlantiradi.

Ko‘rgazmalar o‘quvchilarning loyiha, dizayn, texnik va badiiy ishlari orqali ijodiy mahsulotini vizual shaklda namoyish etishga qaratilgan tadbirlar bo‘lib, ular nafaqat ijodiy natijani taqdim etish, balki boshqalarning yaratish jarayonidan ilhomlanish, o‘zaro baholash va estetik muloqot qilish uchun maydon bo‘lib xizmat qiladi.

Loyiha himoyalari esa har bir o‘quvchi o‘z loyihasini ilmiy, ijtimoiy yoki amaliy jihatdan asoslab, uni auditoriya oldida himoya qilishi lozim bo‘lgan jarayondir. Bu tadbirlar fikrlashning tartibliligi, mantiqiylik, dalillar bilan ishlash, muloqot madaniyati va intellektual tayyorgarlikni rivojlantiradi. Kreativ g‘oyaning himoya orqali baholanishi bolaga shaxsiy mualliflik mas’uliyatini his ettiradi.

Kreativ maydonlar ya’ni “innovatsiya kunlari”, “yoshlar g‘oyasi festivali”, “intellektual marafon” kabi ochiq formatdagi tadbirlar esa o‘quvchilar uchun standartdan tashqari fikr yuritish, raqobatli muhitda o‘zini namoyon etish va boshqalar bilan g‘oyalar almashish imkonini yaratadi. Bunday maydonlar kreativ fikrlarning ilmiy va ijtimoiy platformalarga chiqishi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Zero: “Fikr yaratilishi muhim, lekin uning tan olinishi va ijtimoiy

qadrlanishi o‘quvchidagi kreativ potensialning mustahkamlanishiga xizmat qiladi”. [7; 117] Umuman, forumlar, ko‘rgazmalar, himoyalar va kreativ maydonlardagi ishtirok kreativ fikrlashning tashqi ifodasi, ijtimoiy bahosi va shaxsiy ma’no yaratish jarayoni sifatida o‘quvchida ijodiy tafakkurni nafaqat shakllantiradi, balki uni jamiyatga tatbiq etishga yo‘naltiradi. Bu jarayon o‘quvchini o‘z g‘oyasiga ishongan, fikrini himoya qiladigan va ijtimoiy maydonda yaratadigan faol shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Kreativ fikrlashni to‘garak faoliyati orqali rivojlantirish jarayonida o‘quvchining ijodiy salohiyati qanday baholanishi va rag‘batlantirilishi ham o‘ta muhim pedagogik omil hisoblanadi. Zero, kreativ fikrlash standart bilim yoki faktlarni qayta aytish bilan emas, balki yangicha yondashuv, original g‘oya, muammoga g‘ayrian’anaviy yechim topish orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, an’anaviy test va ballar bilan emas, kreativ jarayonning xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi. Shu bilan birga, har bir yaratuvchan harakat, tashabbus va g‘oyani o‘z vaqtida e’tirof etish, ma’naviy va moddiy rag‘bat orqali qo‘llab-quvvatlash boladagi kreativ potensialni yuzaga chiqarish, uni rivojlantirish va mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kreativ fikrlashni to‘garak faoliyati orqali shakllantirishda uning rivojlanish darajasini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida natijaviy va jarayonli baholash mezonlarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Zero, kreativlik faqat oxirgi yaratilgan mahsulotda emas, balki uning yuzaga kelish jarayonida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois, baholash faqat loyiha natijasini emas, balki o‘quvchining fikrlash tarzi, izlanish dinamikasi, g‘oyalar rivoji, mustaqillik darajasi va muloqot qobiliyatini ham qamrab olishi lozim.

Natijaviy baholash — bu kreativ faoliyatning yakunlovchi bosqichida yaratilgan mahsulot yoki g‘oyaning innovatsionligi, ijtimoiy foydali jihatlari, yechim sifatidagi samarasi, shakl va mazmunidagi originallik darajasini baholashga qaratilgan. Jarayonli baholash esa faoliyat davomida o‘quvchining izlanishi, muammoga yondashuvi, fikrlarni bayon etishi, hamkorlik qobiliyati va ilg‘or pozitsiyasiga qarab baholanadi.

Quyidagi jadvalda to‘garaklarda kreativ fikrlashni baholash uchun natijaviy va jarayonli mezonlarni qiyosiy shaklda keltiramiz (2.1-jadval):

2.1-jadval

To‘garaklarda kreativ fikrlashni baholash uchun natijaviy va jarayonli mezonlar

Baholash turi	**Mezon nomi**	**Ta’rifi va baholash tarzi**
Jarayonli baholash	Muammoga yondashuv	O‘quvchining muammoli vaziyatni tushunishi, tahlil qilishi va yechim izlash qobiliyati baholanadi
	G‘oyalarning xilma-	Bir masalaga nisbatan bir nechta kreativ yechim

	xilligi	taklif qilish qobiliyati
	Izlanish va tashabbus darajasi	Mustaqil topilma, g‘oya, savol va yangi yondashuv taklif etishi
	Jamoaviy faollik va hamkorlik	Fikr almashinuvi, guruhda ishlash madaniyati, sheriklikda ijod qilish ko‘rsatkichi
	Ifodalilik va muloqot qobiliyati	G‘oyani tuzilgan, ta’sirli va aniq bayon qilish mahorati
Natijaviy baholash	Originallik va yangilik darajasi	Yaratilgan mahsulotning standart yechimlardan farq qilishi va o‘z g‘oyasini aks ettirishi
	Ijtimoiy foydalilik	Yaratilgan loyiha, model yoki g‘oyaning jamiyat uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi
	Dizayn va shakl jihatidan to‘liqlik	Mahsulotning estetik jihatlari, tuzilishi, vizual taqdim etish darajasi
	Himoya va taqdimot mahorati	O‘z ishini himoya qilishdagi nutq madaniyati, dalillar bilan fikrni asoslash qobiliyati
	Yaratuvchanlik darajasi	Mahsulotning shaxsiylik, mustaqillik va kreativ yondashuv asosida yaratilgani

Natijaviy va jarayonli mezonlarga asoslangan kreativlikni baholash tizimi to‘garak faoliyatini formal emas, shaxsga yo‘naltirilgan, aniq maqsadli va ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish imkonini yaratadi. Bu tizim bolaning faqat natijasi emas, balki ijodiy izlanish jarayonini ham qimmatli, e’tirofli va baholanadigan faoliyatga aylantiradi.

Kreativ fikrlashni to‘garak faoliyati orqali samarali shakllantirishda o‘quvchining shaxsiy yutuqlarini fikran, hissiy va ijtimoiy jihatdan e’tirof etish juda muhim. Bu jarayonda shaxsiy yutuqlar portfoliosi, mukofotlash tizimi va ijtimoiy e’tirof mexanizmlari o‘quvchining kreativ salohiyatini mustahkamlash, u bilan faxrlanish, yanada yangi g‘oyalarga ilhomlanishga xizmat qiladi.

Shaxsiy yutuqlar portfoliosi bu o‘quvchining to‘garak faoliyatidagi ijodiy natijalari, loyihalari, modellari, maqolalari, tasviriy yoki axborot mahsulotlari, ishtirok etgan tadbirlari, taqdimotlari va ularga berilgan fikr-mulohazalar to‘plamini o‘z ichiga olgan shaxsiy rivojlanish hujjati hisoblanadi. Portfolio o‘quvchi uchun o‘z rivojlanish dinamikasini kuzatish, o‘zini baholash va faoliyat natijalarini taqdim etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Unda har bir mahsulot izohlar, baholar, fikrlar, xatolar va yuksalishlarni aks ettirishi orqali kreativlikning tarkibiy qismiga aylanadi.

Mukofotlash tizimi esa o‘quvchining ijodiy faoliyatiga nisbatan munosabatning tashqi ifodasidir. Bu tizimda nafaqat g‘oliblarni, balki original g‘oya uchun, ilg‘or tashabbus uchun, jamoaviy ishda faollik uchun va tahliliy

yondashuv uchun alohida nominatsiyalar joriy etilishi maqsadga muvofiq. Mukofotlar diplom, sertifikat, esdalik sovg‘alari, onlayn platformada yoki maktabdagi e’tirof lavhalari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuv raqobat emas, rag‘bat muhitini yaratadi, kreativ fikrlarni tan olish va qo‘llab-quvvatlashga zamin bo‘ladi.

Ijtimoiy e’tirof tizimi esa o‘quvchi faoliyatini faqat pedagog emas, balki sinfdoshlari, ota-onalar, mahalliy jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoaga tanitishga qaratilgan. Bu jarayonda maktab radioefiri, gazetasi, ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalar, forumi, “yilning eng kreativ o‘quvchisi” kabi loyihalar orqali o‘quvchi ijodiy salohiyatini keng muhitda namoyon etish imkoniga ega bo‘ladi. Uning loyihasi maktab hayotida amalga oshirilishi, mahalliy ommaviy tadbirlarda taqdim etilishi, boshqa o‘quvchilar uchun namuna qilib ko‘rsatilishi mumkin. Bu haqda nemis tadqiqotchisi Gerxard Xyun shunday ta’kidlaydi: “E’tirof va tan olish shaxsdagi ijodiy kuchlarning ochilishi uchun psixologik jihatdan eng tabiiy va ta’sirchan muhitni yaratadi”. [8; 93] Shaxsiy yutuqlar portfoliosi, mukofotlash va ijtimoiy e’tirof tizimi — o‘quvchida kreativ fikrlashni nafaqat shakllantirish, balki uni rag‘batlantirish, qadrlash va yanada rivojlantirish uchun zarur pedagogik mexanizmlardir. Ular bolani shaxs sifatida tan olish, o‘zini ijtimoiy faol va ma’naviy barkamol shaxs sifatida anglash ehtiyojini qondirib, yaratuvchanlik muhitini mustahkamlaydi.

To‘garaklarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning mazmuniy-maqsadli yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, to‘garak mashg‘ulotlari orqali o‘quvchining kreativ salohiyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish uchun faoliyatning maqsad va vazifalari aniq belgilangan, shaxsiylashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatli va yaratuvchanlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bu jarayonda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi fanlararo, muammoli va konstruktiv mazmundagi topshiriqlar, shaxsiy qiziqishlarga mos individual trayektoriyalar, loyiha va mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatlar markaziy o‘rin tutadi. Shuningdek, natijaga qaratilgan ijodiy faollikni shakllantirish uchun oqilona baholash mezonlari, shaxsiy yutuqlarni e’tirof etish, mukofotlash va ijtimoiy tan olish mexanizmlarini joriy etish kreativ fikrlashni barqaror rivojlantirish uchun zarur shart hisoblanadi. Demak, to‘garak faoliyatida kreativ fikrlashni mazmunan boyitish, maqsadli tashkil etish va uni shaxsiy-ma’naviy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchi ijodkor shaxs sifatida kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юркевич В.С. Психология творческого мышления школьников. — М.: Педагогика, 2003. — С. 87.

2. Амонқулов Ш.А. Ўқитишда инновацион технологиялар. — Т.: Niso-print, 2018. — Б.96.

3. Аҳмедов А. Таълим жараёнида ижодий машғулотлар методикаси. — Т.: Илм-Зиё, 2021. — Б. 59.

4. Гусев А.В. Индивидуализация и креативность в образовательной среде. — М.: Педагогика, 2015. — С. 64.

5. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — М.: Педагогика, 1991. — С. 48.

6. Савенков А.Я. Исследовательская и проектная деятельность школьников. — М.: Академкнига, 2005. — С. 54.

7. Боронова Н.Ф. Таълим жараёнида инновацион ёндашувлар. — Т.: Фан, 2020. — Б. 117.

8. Hüther G. Was wir sind und was wir sein könnten: Ein neurobiologischer Mutmacher. — Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht, 2011. — p. 93.



Raximova Dilbar Muxitdinovna,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

SHAXS KAMOLOTI VA BARQAROR NIKOH O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG'LIQLIK

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'spirin yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik omillari, shaxs kamoloti va barqaror nikoh o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng yoritilgan. Emotsional yetuklik, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy rollarni anglash, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari hamda qadriyatlar tizimining shakllanishi oilaviy hayotga tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, oila, maktab, media, tengdoshlar guruhi va jamiyatning o'spirinlar tasavvurlariga ta'siri yoritilgan. Yoshlarning oilaviy hayotga oid ijtimoiy-psixologik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: o'spirinlik, shaxs kamoloti, barqaror nikoh, oilaviy hayot psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik yetuklik, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya, oilaviy qadriyatlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ И УСТОЙЧИВОГО БРАКА

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается психологическая взаимосвязь между личностным развитием подростков и формированием устойчивого брака. Анализируются такие компоненты подготовки к семейной жизни, как эмоциональная зрелость, коммуникативная компетентность, осознание социальных ролей, навыки принятия самостоятельных решений и система ценностей. Также раскрывается влияние семьи, школы, СМИ, группы сверстников и общества на формирование представлений молодежи о семейной жизни. Представлены актуальные проблемы развития социально-психологических знаний подростков и даны рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: подростковый возраст, личностное развитие, устойчивый брак, психология семейной жизни, социально-психологическая зрелость, эмоциональный интеллект, коммуникативная компетентность, семейные ценности.

THE PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN PERSONAL DEVELOPMENT AND STABLE MARRIAGE

Abstract. This article explores the psychological relationship between adolescent personal development and the formation of a stable marriage. Key components of preparation for family life—such as emotional maturity, communicative competence, understanding of social roles, decision-making skills, and the development of a value system—are thoroughly analyzed. The study highlights the influence of family environment, school, media, peer groups, and society on adolescents' perceptions of family life. Current challenges in developing adolescents' socio-psychological knowledge are identified, and recommendations are provided to enhance their readiness for future family life.

Keywords: adolescence, personal development, stable marriage, family life psychology, socio-psychological maturity, emotional intelligence, communicative competence, family values.

O‘spirin yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlar barqarorligi va kelajak avlodning ma’naviy kamolotini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘spirinlik davri inson hayotining murakkab, tez o‘zgaruvchan va psixologik jihatdan sezgir bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda yoshlar jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o‘sishni bir vaqtda boshdan kechiradilar. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi shakllanadi, o‘zini anglash jarayoni kuchayadi, atrofdagi munosabatlar mazmuniga nisbatan sezgirlik oshadi. Bunday jarayonda oilaviy hayotga doir tasavvurlar, kelajakda oila qurish, mas’uliyat his qilish, o‘zaro hurmat, sadoqat, muloqot madaniyati kabi tushunchalar shakllana boshlaydi. Shu sababli o‘spirinlarni oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash ularning mustaqil hayotga kirib borishida, jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

O‘spirinlarning oilaga oid qarashlari va tayyorgarligi birinchi navbatda ularning emotsional yetuklik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Emotsional yetuklik — bu insonning o‘z hissiyotlarini boshqarishi, impulsiv qarorlar qabul qilmasligi, stress va zo‘riqish holatlarida to‘g‘ri yo‘l tutishi, ijobiy va salbiy hislarni tahlil qila olishi demakdir. O‘spirinlik davrida hissiyotlar keskin bo‘lsa-da, ularni tartibga solish jarayoni ham aynan shu davrda boshlanadi. Kelajakdagi oilaviy hayot, nikoh va turmush jarayonida hissiyotlarni boshqara olish mojarolarni yumshatadi, o‘zaro hurmatni kuchaytiradi va murosaga kelish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun bu davrda yoshlarning emotsional intellektini rivojlantirish alohida e’tibor talab qiladi.

Oilaviy hayotga tayyorgarlikda kommunikativ kompetensiya ham nihoyatda muhim omil hisoblanadi. Muloqot madaniyatiga ega bo‘lmagan kishi oilaviy munosabatlarda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. O‘spirinlik davrida yoshlar o‘z fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash, konstruktiv muhokama olib borish, tushuncha va sabr bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Yoshlar bu ko‘nikmalarga ega bo‘lsa, kelajakda turmush o‘rtog‘i bilan yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal eta oladi. Aks holda muloqotdan qochish, tajovuzkor javob qaytarish yoki sukut saqlash kabi noadekvat xatti-harakatlar munosabatlarni zaiflashtirishi mumkin.

Oilaviy hayotga tayyorgarlikning yana bir muhim jihati — ijtimoiy rollarni anglashdir. Oila ichida har bir shaxsning o‘ziga xos roli bo‘ladi: ota-onalik, turmush o‘rtog‘ilik, farzandlik, aka-ukalik, opa-singillik va boshqalar. O‘spirinlar ushbu rollarning mazmunini, ularning mas’uliyatini chuqur anglab borishi zarur. Ba’zan yoshlar oilaviy rollarni noto‘g‘ri tasavvur qiladi, mas’uliyatni faqat bitta shaxs zimmasiga yuklash yoki nikohni faqat romantik his-tuyg‘ular asosida deb bilish holatlari uchraydi. Aslida esa oilaviy rol — bu hamkorlik, majburiyat, boshqalarning ehtiyojini tushunish va birgalikda qaror qabul qilish jarayonidir.

O‘spirinlik davrida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi ham jadal shakllanadi. Bu yoshdagi o‘g‘il-qizlar ko‘plab hayotiy tanlovlar qiladi: kim bilan do‘stlashish, qanday qadriyatlarni o‘zlashtirish, vaqtni qanday taqsimlash, kelajak kasbini tanlash kabi masalalar shaxsning mustaqil fikrlash darajasini belgilaydi. Mustaqil qaror qabul qila oladigan yoshlar keyinchalik oilada ham mas’uliyatli bo‘ladilar, o‘z harakatlarining oqibatlarini oldindan baholay oladilar va turmush o‘rtog‘iga nisbatan mas’uliyatli yondashadilar.

Qadriyatlar tizimi ham o‘spirinlikda shakllanadi. Oila — jamiyatning asosi ekanini anglash, o‘zaro hurmat, vafodorlik, mehr-shafqat, bag‘rikenglik kabi tushunchalarning mustahkamlanishi yoshlarning kelajakdagi oilaviy hayoti uchun poydevor vazifasini bajaradi. Agar yoshlar oila haqida ijobiy, realistik va sog‘lom tasavvurga ega bo‘lsa, ularning keyingi hayoti muvaffaqiyatli bo‘lishi ehtimoli yuqori. O‘spirinlarning oilaviy hayotga tayyorligi bir qator omillar ta’sirida shakllanadi. Eng birinchi va asosiy omil — oila muhiti. Bola ulg‘aygan oilada qanday muloqot bormi, ota-onalar bir-biriga qanday munosabatda, nizolar qanday hal etiladi, tarbiya uslubi qanday — bularning hammasi yoshning kelajakdagi munosabatlariga bevosita ta’sir qiladi. Agar oila mehr-oqibatga to‘la, sog‘lom muloqot mavjud bo‘lsa, o‘spirin bu modelni o‘z hayotida ham takrorlashga intiladi. Ammo oila nosog‘lom bo‘lsa, doimiy janjal, hurmatsizlik bo‘lsa, yoshlar bunday munosabatlarni normal deb qabul qilib qolishlari mumkin.

Ikkinchi muhim omil — maktab va ta’lim tizimi. Maktab yoshlarni nafaqat bilim berish, balki ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash bilan ham shug‘ullanadi. Biroq ko‘plab maktablarda oilaviy hayot, muloqot madaniyati, konfliktologiya, psixologik savodxonlik kabi mavzular yetarlicha yoritilmaydi. Shuning uchun maktab psixologlari va o‘qituvchilarining bu borada faoliyati juda muhim. Sinfdagi psixologik iqlim, o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchli muloqot, tarbiyaviy

soatlar samaradorligi o‘spirinlarning oilaga oid tasavvurlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchi omil — media va internet. Bugungi kunda yoshlar asosan internet orqali axborot oladi. Seriallar, blogerlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar ko‘pincha real hayotdan yiroq oilaviy tasvirlarni beradi. Ba’zan ular noto‘g‘ri munosabat modellari, mas’uliyatsizlik, zo‘ravonlik yoki yengil munosabatlarni targ‘ib qiladi. Bu esa yoshlarning fikrini chalkashtiradi. Shu sababli media savodxonlikni oshirish, yoshlarni internetdagi axborotni tanlab qabul qilishga o‘rgatish zarur.

Tengdoshlar guruhi ham o‘spirinlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ularning maslahatlari, hayotga bo‘lgan qarashlari, munosabatlar tajribasi yoshlar ongida muhim o‘rin egallaydi. Agar atrofdagilar sog‘lom fikrli, maqsadli, ijobiy muhit yaratadigan yoshlar bo‘lsa, o‘spirin ham shunday fazilatlarni egallaydi. Aks holda noto‘g‘ri qarashlar, erta munosabatlarga kirishish yoki oilaga nisbatan befarq munosabat shakllanishi mumkin.

O‘spirinlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida bir qator dolzarb muammolar mavjud. Ulardan biri — yoshlar orasida oilaga oid noto‘g‘ri tasavvurlar keng tarqalganidir. Oila ko‘pincha faqat romantika, sevgiga asoslangan deb tasavvur qilinadi, ammo mas’uliyat, sabr, murosa, iqtisodiy rejalashtirish kabi jihatlar e’tibordan chetda qoladi. Bu esa kelajakda nikohning mustahkam bo‘lishiga xalaqit beradi. Yana bir muammo — psixologik ta’limning yetishmasligi. Ko‘plab maktablarda psixologik bilim berish tizimli emas. O‘spirinlar stress boshqaruvi, konfliktlarni yumshatish, o‘zini tanlash, sog‘lom munosabatlar belgilari haqida yetarlicha bilishmaydi. Shuningdek, oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi ham muhim masalalardan biridir. Farzand tarbiyasi ota-onalar tomonidan maktab zimmasiga, maktab esa ota-onalarga yuklaydi. Natijada yoshning tarbiyasi bo‘yicha uzilishlar yuzaga keladi. Internetdagi salbiy kontentning kuchayishi, zo‘ravonlik, axloqiy buzilish, yengil munosabatlarni targ‘ib qiluvchi materiallar ko‘pligi yosh ongining buzilishiga olib kelmoqda. Yana bir dolzarb masala — erta munosabatlar va erta nikoh xavfi. Psixologik tayyorgarliksiz oila qurish kelajakda jiddiy muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta’lim tizimida psixologik savodxonlikni kuchaytirish zarur. Maktablarda emotsional intellekt, kommunikatsiya madaniyati, oilaviy hayot psixologiyasi, mojaroni hal qilish ko‘nikmalari, media savodxonlik kabi darslar yo‘lga qo‘yilishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularni farzand psixologiyasi bo‘yicha xabardor qilish, oilaviy muloqot madaniyati bo‘yicha treninglar o‘tkazish muhim vazifalardan biridir. Yoshlar uchun psixologik markazlar, maslahat xizmatlari, ishonch telefonlari va bepul konsultatsiyalar faoliyatini rivojlantirish ham katta samara beradi. Media orqali sog‘lom oila namunasini targ‘ib qilish, milliy qadriyatlar bilan zamonaviy qarashlar uyg‘unligini ta’kidlash zarur.

Har qanqay jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oila mustahkamligining o‘rni beqiyosdir [3]. “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an‘anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.”, Oila masalasi davlat ahamiyatiga molik masala bo‘lib, uning mustahkamligi har doim dolzarb masala bo‘lib keladi. Jamiyatimizda o‘sib-rivojlanib kelayotgan yosh avlod kelajakda mustahkam oila qurishlari uchun oila haqidagi qarashlarini shakillanish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi” [1] deyiladi. Shunday ekan jamiyatda sog‘lom oilani yuzaga kelishi uchun barchamiz mas‘uliyat bilan qarashimiz, yoshlarni jamiyatda, oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lishlarida oilaviy hayot haqida psixologik bilimlarni egallashlariga ma‘naviy ko‘mak berishimiz lozim. “Oila omilining ilmiy, falsafiy, pedagogik, etnopsixologik tavsifi mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy rivojlanishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat hayotining o’zgarishi, ma’lum jihatdan oilaga, uning a’zolariga bog’liq bo’lganligi bois, bu muammoni o’rganish va tahlil etish dolzarb jarayon hisoblanadi”[4].

Jamiyatda inson uchun ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari axborot manbai bo‘lib kelmoqda. O‘z navbatida, tomoshabin, o‘quvchi bolaning pozitsiyasini egallaydi va uning umidlari “yaxshi xabar nashri”, “ideal reklama”, “jurnaldagi mashhur shaxs” va boshqalar timsolida kristallanadi. Shunday qilib, tomoshabin va kitobxonlar jamiyat ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda ularni ma‘naviy-axloqiy me‘yorlar doirasida, inson qadr-qimmatini hurmat qilgan holda xabardor qilish, tarbiyalash va rivojlantirish zarur. Biroq, turli xil axborot oqimlaridan oila qadr qimmati va oila munosabatlari haqida tegishli ma‘lumotlar olish bilan chegaralanib bo‘lmaydi.

Oilaviy hayotga tayyorgarlik, shuningdek, nikoh uchun motivatsiya va undan umidlarni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. Har bir yosh oilaviy hayotni yetarli darajada idrok eta olmaydi. Hayotning qarama-qarshiliklari va murakkabliga duch kelganda kuchli stressga aylanadi. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni shakllantirish ta‘lim jarayonida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ta‘lim jarayonida rolli-syujetli o‘yinlar, masalan ota-ona obrazlari, yoki farzand obrazlarining ijobiy va salbiy munosabatlarini ko‘rsatish, o‘quvchilar bu rollarda ishtirok etishi, o‘zida “sinab ko‘rishi” orqali ijobiy va salbiy munosabatlarni oilaga ta‘sirini tahlil qiladilar. Tahlil jarayonida oilaviy hayot haqida yanada yorqin tasavvurlar shakllanishi ro‘y beradi. Yoshlarni oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik xususiyatlarini shakllantirish - sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish bilan bog‘liq. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish xam aslida psixologik amallar, ko‘nikmalar, kerak bo‘lsa malakani talab qiladigan

tushunchadir. Ya‘ni sog‘lom turmush tarziga oiladan boshlaboq bolalarni o‘rgatish lozim [2].

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, millatning ma‘naviy va madaniy salohiyati, avvalo, sog‘lom, yetuk va mas’uliyatli yosh avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu ma‘noda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularning ijtimoiy-psixologik yetuklik darajasini oshirish, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatini shakllantirish davlat va jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Oila – inson hayotining eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, unda insonning axloqiy, ma‘naviy va psixologik qiyofasi shakllanadi. Shu sababli, har bir yosh oilaviy hayotga kirishishdan avval ijtimoiy, psixologik va ma‘naviy jihatdan tayyor bo‘lishi zarur. Bunda sog‘lom turmush tarzi haqidagi to‘g‘ri tasavvurlar muhim o‘rin tutadi, chunki sog‘lom turmush tarzi — bu nafaqat jismoniy salomatlikni, balki ruhiy, ijtimoiy va ma‘naviy farovonlikni ham o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-psixologik yetuklik – bu shaxsning o‘zini anglash, ijtimoiy rollarni ado etishga tayyorlik, mas’uliyatni his qilish, muloqot madaniyatiga ega bo‘lish va hissiy barqarorlik kabi fazilatlarning uyg‘un holatda rivojlanganligini bildiradi. Oilaviy hayotda bu yetuklik quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- **Mas’uliyat hissi** – turmush o‘rtoq va farzandlar oldidagi burchni anglash, oila farovonligi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
- **Muloqot madaniyati** – o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda etish, tinglash, bahslashish madaniyatiga ega bo‘lish;
- **Hissiy barqarorlik** – hayotdagi qiyinchiliklarga sabr bilan yondashish, muammolarni muloqot orqali hal etish qobiliyati;
- **Empatiya** – boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, mehr-oqibat va bag‘rikenglikni namoyon etish;
- **Axloqiy poklik va sadoqat** – oila qadriyatlarini hurmat qilish, sadoqat, vafodorlik va ishonch tamoyillariga amal qilish.

Mazkur fazilatlar yoshlarning oilaviy hayotda barqaror va sog‘lom munosabatlar o‘rnatishiga asos bo‘ladi. Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi bilimlarni shakllantirishning samaradorligi quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

- Yoshlarning oila va nikoh haqidagi to‘g‘ri tushunchalarga ega bo‘lishi;
- Muloqot va murosaga tayyorlik;
- O‘zaro hurmat, sabr, mas’uliyat hisining ortishi;
- Nizoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish ko‘nikmasining shakllanishi;
- Oilaviy qadriyatlarni qadrlash darajasining oshishi.

Yoshlarda oilaviy hayotga oid ijtimoiy-psixologik bilimlarni shakllantirish – bu nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega jarayondir. Chunki sog‘lom oilalar sog‘lom jamiyatning poydevoridir. Shu sababli ta’lim muassasalari, ota-onalar, psixologlar va jamiyat hamkorlikda yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlashlari zarur. Oilaviy hayot haqidagi ijtimoiy-psixologik bilimlarini shakllantirishning samaradorligi - ilk o‘spirin va o‘smir yoshlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shaxsiy yetuklik xususiyatlari va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan psixologik treninglar,

o‘quv mashg‘ulotlari oila psixologiyasi sohasidagi bilimdonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘spirin yoshlarni oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash jamiyatning barqaror rivoji uchun muhim omildir. Bu jarayonda oila, maktab, jamiyat, media, psixologik xizmatlar va shaxsning o‘z individual xususiyatlari birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Agar yoshlar sog‘lom tasavvurlar, to‘g‘ri qadriyatlar, muloqot madaniyati, mas’uliyat va emotsional yetuklikka ega bo‘lib ulg‘aysa, kelajakda mustahkam, mehr-oqibatli va barqaror oilalar soni ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIV bob. Oila, bolalar va yoshlar. 76-modda. “O‘zbekiston”, Toshkent-2023. 45 bet.
2. Karimova V. Salomatlik psixologiyasi. Yoxud sog‘lom bo‘lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari “Zakovat-print” , Toshkent – 2025.
3. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. // O‘quv qo‘llanma, “Sharq” nashriyoti. Toshkent-2013.10-bet.
4. Shoumarov G‘., Qodirov U., Ilhomov H. Oilaga psixologik yordam ko‘rsatish asoslari. // O‘quv qo‘llanma.-2014.-3-bet.

Abdullayeva Mohigul Muqumjon qizi,
Farg'ona davlat universiteti magistranti

RAQAMLI OMILLAR TA'SIRIDA KOGNITIV FAOLIYAT O'ZGARISHI VA XOTIRA JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Zamonaviy raqamli muhit insonning kognitiv faoliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi axborot oqimi intensivligi, internet texnologiyalarining hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi inson tafakkuri, diqqat jarayonlari va xotira mexanizmlarida yangi sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada raqamli omillar ta'sirida kognitiv faoliyatning o'zgarish tendensiyalari va xotira jarayonlarining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada raqamli kommunikatsiya vositalari bilan muntazam muloqot qiluvchi shaxslarning kognitiv jarayonlarida kuzatilayotgan funksional o'zgarishlar — diqqatning barqarorligi, axborotni qayta ishlash tezligi va xotiraning hajmiy imkoniyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil etilgan. Mazkur mavzu zamonaviy psixologiyada raqamli muhitning inson aqliy salohiyatiga, xotira tizimi barqarorligiga va kognitiv rivojlanish dinamikasiga ta'sirini chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Tadqiqot raqamli omillar ta'sirida shakllanayotgan yangi kognitiv model – "raqamli tafakkur" va "raqamli xotira" tushunchalarini psixologik tahlil qilish orqali inson idrok va xotira jarayonlarining qayta tashkil topish jarayonini ilmiy asoslashga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli muhit, kognitiv faoliyat, xotira jarayonlari, diqqat, tafakkur, raqamli psixologiya, axborot yuklamasi, raqamli xotira, bilish faoliyati, moslashuvchan tafakkur, axborot oqimi, raqamli kommunikatsiya.

ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЕНИЯ КОГНИТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРОЦЕССОВ ПАМЯТИ ПОД ВЛИЯНИЕМ ЦИФРОВЫХ ФАКТОРОВ

Аннотация. Современная цифровая среда оказывает глубокое влияние на когнитивную деятельность человека. Интенсивность информационного потока и проникновение интернет-технологий во все сферы жизни приводят к качественным изменениям в процессах мышления, внимания и памяти. В данной статье анализируются тенденции изменения когнитивной деятельности и психологические особенности процессов памяти под воздействием цифровых факторов. Рассмотрены функциональные изменения в когнитивных процессах у лиц, регулярно взаимодействующих с цифровыми коммуникационными средствами — взаимосвязи между устойчивостью внимания, скоростью обработки информации и объемными возможностями памяти. Данная тема способствует углублённому изучению влияния цифровой среды на интеллектуальный потенциал человека, стабильность системы памяти и динамику когнитивного развития. Исследование направлено на научное обоснование процессов перестройки

восприятия и памяти через психологический анализ формирующихся под воздействием цифровых факторов новых когнитивных моделей — «цифрового мышления» и «цифровой памяти».

Ключевые слова: цифровая среда, когнитивная деятельность, процессы памяти, внимание, мышление, цифровая психология, информационная нагрузка, цифровая память, познавательная активность, гибкое мышление, информационный поток, цифровая коммуникация.

PECULIARITIES OF COGNITIVE ACTIVITY AND MEMORY PROCESSES UNDER THE INFLUENCE OF DIGITAL FACTORS

Abstract. The modern digital environment has a profound impact on human cognitive functioning. The intensity of information flow and the integration of Internet technologies into all spheres of life lead to qualitative transformations in human thinking, attention, and memory mechanisms. This article analyzes the tendencies of cognitive activity changes and the psychological characteristics of memory processes under the influence of digital factors. It examines functional changes observed in individuals who regularly interact with digital communication tools — particularly the interrelations between attention stability, information processing speed, and memory capacity. This topic contributes to an in-depth understanding of how the digital environment affects human intellectual potential, the stability of memory systems, and the dynamics of cognitive development. The study aims to scientifically substantiate the reorganization processes of perception and memory through psychological analysis of the newly emerging cognitive models — "digital thinking" and "digital memory" — formed under the influence of digital factors.

Keywords: digital environment, cognitive activity, memory processes, attention, thinking, digital psychology, information load, digital memory, cognitive processes, flexible thinking, information flow, digital communication.

Kirish. Bugungi kunda insoniyat hayoti raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lanib ketgan bo‘lib, bu holat shaxsning tafakkuri, idroki, diqqat va xotira jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonning kognitiv tizimida yangi funksional o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, tafakkur va xotira mexanizmlarining qayta tashkil topishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli omillar ta’sirida kognitiv faoliyatning o‘zgarishlarini psixologik jihatdan tahlil etish zamonaviy ilm-fan oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Raqamli muhit sharoitida insonning axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari an’anaviy psixologik modellardan farq qilmoqda. Internet va raqamli vositalardan muntazam foydalanish natijasida diqqatning barqarorligi pasayishi, ma’lumotni qisqa muddatli xotirada saqlash hajmining cheklanishi, shuningdek, axborotga tayanish mexanizmlarining kuchayishi kabi psixologik holatlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan me’yorida va maqsadli foydalanish insonning bilish salohiyatini

kengaytirishi, axborotni tez kodlash, tahlil qilish va eslab qolish jarayonlarini jadallashtirishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi davrda inson tafakkuri va xotira faoliyati raqamli omillar ta'sirida yangi sifat bosqichiga o'tmoqda. "Raqamli tafakkur" va "raqamli xotira" tushunchalari psixologik fanlar tizimida yangicha yondashuv sifatida shakllanmoqda. Bu jarayon shaxsning intellektual salohiyati, bilish faoliyatining samaradorligi hamda axborot muhitiga moslashuvchanlik darajasini belgilovchi muhim psixologik ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli omillar ta'sirida insonning kognitiv faoliyati va xotira jarayonlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarning psixologik mexanizmlarini aniqlash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish hamda zamonaviy raqamli muhitda kognitiv barqarorlikni ta'minlovchi omillarni belgilashdan iboratdir.

So'nggi o'n yillikda inson kognitiv salohiyatining raqamli muhit sharoitidagi transformatsiyasi ilm-fan va ta'lim sohalarida eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Global raqamlashtirish jarayoni inson tafakkurining tuzilmasiga bevosita ta'sir ko'rsatib, idrok, diqqat, xotira va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimini qayta shakllantirmoqda. Bu esa psixologiya fanida yangi ilmiy yo'nalish — raqamli psixologiyaning shakllanishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda inson faoliyati deyarli barcha sohalarda axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashgan. Internetdan foydalanishning ortishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, raqamli o'yinlar, onlayn ta'lim tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalari insonning bilish faoliyatiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, bir tomondan, insonning ma'lumotga tezkor kirish imkonini oshirsa, boshqa tomondan, tafakkur jarayonlarining yuzakilashuvi, diqqatning tarqoqlashuvi va xotiraning tabiiy faoliyati susayishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy insonning raqamli muhitga moslashuvchan tafakkuri va xotira tizimining qayta tuzilish mexanizmlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ta'lim, kasbiy faoliyat, kommunikatsiya va ijtimoiy munosabatlar jarayonlarida kognitiv funksiyalarning barqarorligini saqlash bugungi raqamli jamiyatda shaxs psixologik salomatligining muhim omiliga aylanmoqda.

Raqamli axborot oqimining kuchayishi natijasida inson miyasi o'z resurslarini qayta taqsimlaydi: axborotni eslab qolish o'rniga uni tez topish strategiyasiga tayanadi. Bu jarayon "raqamli xotira" fenomenining shakllanishiga olib kelmoqda — bunda inson o'zining tabiiy eslab qolish mexanizmini tashqi texnologik manbalarga yuklaydi (masalan, onlayn saqlash tizimlari, mobil eslatmalar va sun'iy intellekt yordamchilari orqali). Shunday qilib, raqamli omillar ta'sirida inson tafakkuri va xotirasining o'zgarishini o'rganish nafaqat nazariy psixologiya, balki ta'lim psixologiyasi, mehnat psixologiyasi hamda axborot xavfsizligi psixologiyasi uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar Tahlili va metodlar. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar inson kognitiv tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omil sifatida ilmiy

tadqiqotlarda keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar (N. Carr, 2010; M. Spitzer, 2018; S. Turkle, 2015) raqamli muhitning xotira, tafakkur va diqqat jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashgan. Ularning fikricha, internet orqali axborotga tezkor kirish imkoniyati insonning ma’lumotni uzoq muddatli xotirada saqlashga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradi, bu esa “tashqi xotira” fenomenining shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Mahalliy psixologik tadqiqotlarda ham (A. M. Abdullayeva, 2022; M. M. Tursunov, 2021) raqamli muhitning shaxsning bilish jarayonlari va emotsional holatiga ta’siri alohida tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlarda raqamli faoliyatning diqqatni taqsimlash, ma’lumotni tez o‘zlashtirish, lekin qisqa muddatda unutish xususiyatini kuchaytirishi qayd etilgan. Shu bilan birga, raqamli vositalardan me’yorida foydalanish inson tafakkurining moslashuvchanligini oshirishi, yangi axborotni tahlil qilish va mantiqiy bog‘lanishlarni o‘rnatish qobiliyatini rivojlantirishi ham aniqlangan. Zamonaviy psixologiyada “raqamli tafakkur” va “raqamli xotira” tushunchalari mustaqil nazariy kategoriyalar sifatida shakllanmoqda. Bu hodisalar insonning tashqi axborot tizimlariga tayanish darajasining ortishi, kognitiv resurslarning qayta taqsimlanishi hamda bilish faoliyatining tezkor, ammo yuzaki shaklga o‘tishi bilan izohlanadi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar raqamli omillarni insonning tafakkur uslubi, diqqat hajmi va xotira mexanizmlarini o‘zgartiruvchi psixologik determinant sifatida qarash zarurligini ko‘rsatmoqda. Raqamli omillar inson kognitiv faoliyatida ikkiyoqlama ta’sirga ega: ular bir tomondan bilish jarayonlarini tezlashtiradi, boshqa tomondan esa xotira tizimining ichki faoliyatini zaiflashtirib, diqqat barqarorligini pasaytiradi. Shu bois, mazkur mavzuni empirik tadqiqotlar orqali yanada chuqurroq o‘rganish psixologik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Raqamli kommunikatsiya vositalaridan me’yoridan ortiqcha foydalanishning o‘smir shaxsining xotira jarayoniga ta’sirini o‘rganish maqsadida Farg‘ona viloyati Furqat tumanidagi 8 va 1-umum ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida xotirani o‘rganish bo‘yicha empirik tadqiqot olib borildi. Tadqiqotda jami 166 nafar respondent ishtirok etgan bo‘lib, ular o‘smir yoshidagi o‘quvchilardan iborat. Ushbu yosh guruhi o‘ziga xos psixologik xususiyatlari – shaxsiy avtonomiya shakllanishi, ijtimoiy identifikatsiya jarayoni va axborot muhitiga sezgirlik bilan tavsiflanadi. Ishtirokchilarning 67 nafari (40,4%) o‘g‘il bolalar, 99 nafari (59,6%) qiz bolalarni tashkil etadi. Tadqiqotda qizlar sonining nisbatan yuqoriligi axborot muhitida faol ishtirok etuvchi, ijtimoiy tarmoqlardagi kommunikativ faoliyat darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar sonining ko‘pligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jins omili o‘smirlarning axborot xavfsizligi, qadriyatlar tizimi va kognitiv jarayonlariga turlicha psixologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Respondentlarning yoshi 14 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lib, 14 yoshli ishtirokchilar 18,7%, 15 yoshdagilar 34,9%, 16 yoshdagilar 29,5%, 17 yoshdagilar 16,9% ni tashkil etdi. Ishtirokchilar ikki xil ta’lim muassasasidan bo‘lib, 1-maktabdan 56 nafar (33,7%), 8-maktabdan 110 nafar (66,3%) respondent qatnashgan. Bu esa tadqiqot namunasi turli ijtimoiy-

madaniy muhitdagi o‘quvchilarni o‘z ichiga olganini ko‘rsatadi. Maktab muhiti o‘smirlarning axborot texnologiyalariga kirish imkoniyati, o‘qituvchilar bilan muloqot sifati va ijtimoiy o‘zaro ta’sir mexanizmlarini shakllantiruvchi muhim determinantlardan biridir. Respondentlar 8-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan o‘quvchilarni qamrab oladi. Jumladan, 8-sinf – 21,7%, 9-sinf – 33,1%, 10-sinf – 24,7%, 11-sinf – 20,5% ni tashkil etadi. Tadqiqotda ishtirok etganlarning 51,8% internetdan me’yorda, 48,2% esa ko‘p foydalanishini bildirgan. Bu natija o‘smirlar orasida raqamli texnologiyalardan faol foydalanishning yuqoriligini va axborot muhitining ularning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Internetdan me’yorda foydalanayotgan guruhda axborot nazorati va o‘zini boshqarish mexanizmlari barqarorroq bo‘lsa, haddan tashqari foydalanayotgan o‘smirlarda esa diqqat tarqoqligi, hissiy zo‘riqish va real muloqotdagi cheklanish kabi psixologik holatlar kuzatilishi mumkin.

1-jadval

Internetdan foydalanish darajasiga qarab xotira ko‘rsatkichlarining natijalari (Mustaqil namunalar uchun t-testi)

Guruhlar	N	O‘rtacha (M)	Standart og‘ish (SD)	t	df	Sig. (p)
Internetdan kam foydalanuvchilar	86	7.71	3.17	23.918	164	< 0.001*
Internetdan ko‘p foydalanuvchilar	80	3.98	1.09			O‘rtacha farq: 3.73

Tahlil natijalariga ko‘ra, internetdan kam foydalanuvchilar guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi (M = 7.71; SD = 3.17) internetdan ko‘p foydalanuvchilar guruhiga (M = 3.98; SD = 1.09) nisbatan ancha yuqori ekani aniqlangan. Ushbu farq $t(164) = 23.918$; $p < 0.001$ darajada statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, internetdan haddan tashqari foydalanish shaxsning kognitiv faoliyatiga, xususan xotira jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Internetdan ko‘p foydalanuvchi respondentlarda ma’lumotni saqlab qolish, diqqatni jamlash va eslab qolish qobiliyatlari pasaygan bo‘lishi mumkin. Aksincha, internetdan me’yorida yoki kam foydalanayotgan shaxslar o‘z diqqatini maqsadga yo‘naltirish va xotira operatsiyalarini samarali amalga oshirishda nisbatan yuqori natijalarga ega. Psixologik jihatdan bu holatni axborot ortig‘ining (information overload) va diqqatning parokandalashuvi bilan izohlash mumkin. Internetda uzoq vaqt o‘tkazish inson miyasida axborotni qisqa muddatli qayta ishlash tizimini haddan tashqari band qiladi, bu esa uzoq muddatli xotira shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Demak, tahlil natijalari internetdan foydalanishning intensivligi va xotira samaradorligi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa yoshlar psixologiyasida axborot texnologiyalarining me’yorli qo‘llanilishi muhimligini,

aks holda kognitiv jarayonlar, ayniqsa xotira va diqqatning buzilishi xavfi mavjudligini ilmiy asoslaydi.

2-jadval

O‘g‘il va qiz bolalarning xotira ko‘rsatkichlarini baholash natijalari

Jinsi	N	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish (SD)	O‘rtacha qiymatning standart xatosi (SE_M)	t	df	p	O‘rtacha farq (95% ishonch oralig‘i)
O‘g‘il bola	67	5.209	2.2532	0.2753	-3.507	125.220	0.001	-1.1749 [-1.8378; -0.5120]
Qiz bola	99	6.384	1.8990	0.1909				

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning jinsi xotira ko‘rsatkichlarida sezilarli farq keltirib chiqargan. O‘g‘il bolalarning o‘rtacha xotira balli M=5.209, standart og‘ishi SD=2.25 bo‘lgan bo‘lsa, qiz bolalarda ushbu ko‘rsatkich M=6.384, SD=1.89 ni tashkil etgan. Mustaqil tanlovlar uchun t-test natijalariga ko‘ra, t(125.220)=-3.507, p=0.001 qiymati aniqlangan. Bu esa statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan xotira vazifalarini yaxshiroq bajarganlar. Ushbu farq psixologik nuqtai nazardan qaralganda, jinsiy xususiyatlar bilan bog‘liq kognitiv faoliyatdagi tafovutlarni ifodalaydi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, qiz bolalarda verbal va emotsional xotira komponentlari nisbatan faolroq bo‘lib, bu ularning o‘qish jarayonida, ma’lumotni eslab qolish va qayta tiklashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. O‘g‘il bolalarda esa asosan vizual va fazoviy xotira turlari ustunlik qiladi, biroq ushbu tadqiqotda o‘lchanayotgan xotira turi (ehtimol, mazmunli yoki so‘zli material bilan bog‘liq) qiz bolalar kognitiv ustunligini aniqlashga imkon bergan. Natijalar shuningdek, o‘smirlik davrida jinsiy farqlar kognitiv jarayonlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Qiz bolalarning yuqori xotira ko‘rsatkichlari ularning diqqatni barqaror ushlash, emotsional jihatdan bog‘langan ma’lumotni samarali kodlash va tezroq qayta tiklash qobiliyati bilan izohlanadi. Bu holat, o‘z navbatida, o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3-jadval

Respondentlarning yoshi bo‘yicha xotira ko‘rsatkichlari (deskriptiv statistika)

Yosh	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Standart xato	95% ishonch oralig‘i	95% ishonch oralig‘i	Oraliq (min–

		(M)	(SD)	(SE)	(past)	(yuqori)	max)
14	31	4.839	2.4235	0.4353	3.950	5.728	2–9
15	58	6.086	2.0286	0.2664	5.553	6.620	2–9
16	49	6.265	1.9872	0.2839	5.695	6.836	1–10
17	28	6.107	1.9117	0.3613	5.366	6.848	3–9
Jami	166	5.910	2.1230	0.1648	5.584	6.235	1–10

3.1-jadval

ANOVA tahlili natijalari

Ta'sir manbai	Kvadratlar yig'indisi (Sum of Squares)	Erkinlik darajasi (df)	O'rtacha kvadrat (Mean Square)	F	p (Sig.)
Guruhlararo	44.652	3	14.884	3.450	0.018
Guruh ichida	698.992	162	4.315		
Jami	743.645	165			

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning yoshi o'zgaruvchisi xotira ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. 14 yoshli ishtirokchilarda o'rtacha xotira ko'rsatkichi (M = 4.839) bo'lib, bu ko'rsatkich 15 yoshda (M = 6.086), 16 yoshda (M = 6.265) va 17 yoshda (M = 6.107) gacha oshgani kuzatiladi. O'rtacha qiymatlarning bunday dinamikasi yosh ortishi bilan xotira jarayonlarining murakkablashuvi va samaradorligining ortib borishini ifodalaydi. ANOVA tahlili natijalariga ko'ra, guruhlar orasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan (F = 3.450, p = 0.018 < 0.05). Bu esa respondentlarning xotira ko'rsatkichlari yoshi bilan bog'liq holda o'zgarishini, ya'ni yosh o'tishi bilan xotira jarayonlarida sifat o'zgarishlari yuz berishini tasdiqlaydi.

Psixologik jihatdan bu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrining o'rta bosqichidan (taxminan 15–16 yosh) boshlab individning kognitiv faoliyati, xususan, xotira jarayonlari faolroq rivojlanadi. Bu davrda nerv tizimi va intellektual mexanizmlar yetuklashib boradi, shuningdek, diqqatni boshqarish, ma'lumotni kodlash va saqlash qobiliyati takomillashadi. 17 yoshda o'rtacha natijaning biroz pasayishi esa, ehtimol, o'quv yuklamasi, emotsional zo'riqish yoki diqqatning tarqoqlashuvi bilan izohlanishi mumkin. Demak, tadqiqot natijalari yosh omili xotira samaradorligining muhim determinantlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilarning yoshi va psixologik rivojlanish bosqichini

hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

4-jadval

Respondentlarning sinf omili bo‘yicha xotira ko‘rsatkichining natijalari

sinf	N	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish (SD)	Minimal	Maksimal	F	p
8	36	4.556	2.2225	2.0	9.0		
9	55	6.236	2.0454	1.0	9.0		
10	41	6.463	1.8041	3.0	10.0		
11	34	6.147	1.9715	3.0	9.0	7.096	< 0.001
Jami	166	5.910	2.1230	1.0	10.0		

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning sinf darajasi ularning xotira ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. 8-sinf o‘quvchilarida o‘rtacha xotira ko‘rsatkichi (M = 4.556) bo‘lib, bu ko‘rsatkich 9-sinfda (M = 6.236), 10-sinfda (M = 6.463) va 11-sinfda (M = 6.147) gacha oshgan. Ushbu natijalar o‘quvchilar sinfi ortgan sari xotira jarayonlari takomillashib borayotganini ko‘rsatadi. ANOVA tahlili natijalariga ko‘ra, farq statistik jihatdan ahamiyatli ($F = 7.096$, $p < 0.001$) ekanligi aniqlangan, bu esa sinf omilining xotira faoliyatiga muhim ta’sirini tasdiqlaydi. Psixologik nuqtayi nazardan, 8–10-sinflar oralig‘ida o‘quvchilarning kognitiv jarayonlari, xususan, xotira, diqqat va tafakkur tizimlari faol shakllanish bosqichida bo‘ladi. Bu davrda o‘quvchilarda mantiqiy bog‘lanishlarni anglash, ma’lumotni tahlil qilish va uzoq muddatli xotirada saqlash qobiliyati kuchayadi. 11-sinf o‘quvchilarida o‘rtacha ko‘rsatkichning nisbatan pasayishi esa, ehtimol, o‘quv yuklamasining ortishi, imtihonlarga tayyorgarlik jarayonidagi stress yoki emotsional zo‘riqish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, tadqiqot natijalari o‘quvchilar sinf darajasi ularning xotira rivojlanishida muhim psixologik determinant ekanini ko‘rsatadi. Ushbu holat ta’lim jarayonida sinflar kesimida kognitiv imkoniyatlar va psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda individual yondashuvlarni joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli omillarning o‘smirlar kognitiv faoliyati, xususan, xotira jarayonlariga ta’sirini empirik jihatdan asoslab beradi. O‘smir yoshdagi respondentlarda o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, internetdan foydalanish intensivligi va xotira samaradorligi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud.

Tadqiqotning eng muhim jihati shundaki, internetdan ko‘p foydalanuvchilar guruhining o‘rtacha xotira ko‘rsatkichi (M=3.98) kam foydalanuvchilar guruhiga (M=7.71) nisbatan sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi ($p < 0.001$). Bu natija raqamli omillar, xususan, internetga haddan tashqari tayanib qolish shaxsning

kognitiv faoliyatiga, ayniqsa xotira jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu salbiy ta'sir axborot me'yordan oshishi va diqqatning pasayishi bilan izohlanadi. Internetda uzoq vaqt o'tkazish miyaning qisqa muddatli qayta ishlash tizimini band qilib, uzoq muddatli xotira shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. N. Carr, M. Spitzer va S. Turkle kabi olimlarning nazariyalariga muvofiq, axborotga tezkor kirish imkoniyati insonning ma'lumotni uzoq muddatli xotirada saqlashga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi va "tashqi xotira" (raqamli xotira) fenomenini shakllantiradi. Tadqiqotda jins omili ham xotira ko'rsatkichlarida statistik jihatdan ahamiyatli farq ($t(125.220)=-3.507$, $p=0.001$) keltirib chiqargan. Xususan, qiz bolalar ($M=6.384$) o'g'il bolalarga ($M=5.209$) nisbatan xotira vazifalarini yaxshiroq bajarganlar. Bu holat qiz bolalarda verbal va emotsional xotira komponentlarining nisbatan faolroq ekanligi bilan izohlanadi, bu esa ularning ma'lumotni kodlash va qayta tiklashda yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Yosh omili bo'yicha ANOVA tahlili natijalari ham sezilarli farqni ($F=3.450$, $p=0.018$) ko'rsatdi. 14 yoshdan ($M=4.839$) 16 yoshgacha ($M=6.265$) xotira ko'rsatkichlari oshishi, o'smirlik davrining o'rta bosqichida kognitiv faoliyatning faol rivojlanishini, nerv tizimi va intellektual mexanizmlarning yetuklashuvini tasdiqlaydi. 17 yoshda esa natijaning biroz pasayishi o'quv yuklamasi yoki emotsional zo'riqish kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sinf omili bo'yicha ham shunga o'xshash dinamika ($F=7.096$, $p < 0.001$) qayd etilgan.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari raqamli omillar, xususan, internet va raqamli kommunikatsiya vositalarining insonning kognitiv faoliyati hamda xotira jarayonlariga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etdi. Raqamli muhit sharoitida inson tafakkuri, diqqat va xotira mexanizmlari yangi psixologik moslashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi natijasida inson miyasi axborotni eslab qolish o'rniga uni tez topish va qayta ishlash strategiyasiga tayanishga o'rganmoqda. Natijada, an'anaviy xotira mexanizmlarining faolligi pasayib, "raqamli xotira" deb ataluvchi yangi fenomen shakllanmoqda. Bu jarayon insonning tabiiy eslab qolish tizimini tashqi texnologik manbalarga — internet, bulutli saqlash tizimlari, elektron qurilmalar kabi raqamli vositalarga yuklash bilan tavsiflanadi. Biroq raqamli omillarning ta'siri ikkiyoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, axborot texnologiyalaridan me'yorda va maqsadli foydalanish shaxsning bilish salohiyatini kengaytiradi, tafakkur tezligini oshiradi, axborotni tahlil qilish, taqqoslash va qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Boshqa tomondan esa, internetdan haddan tashqari foydalanish, ko'p vazifali faoliyat (multitasking) va doimiy onlayn muloqot inson diqqatining barqarorligini pasaytiradi, xotiraning qisqa muddatli komponentini zaiflashtiradi hamda ma'lumotni chuqur kodlash jarayonini cheklaydi. Bu holat, ayniqsa, o'quvchilar va o'smir yoshdagilar orasida axborotni yuzaki o'zlashtirish, e'tiborni tez yo'qotish va diqqatni jamlay olmaslik holatlari ko'payishida namoyon bo'lmoqda. Raqamli muhit inson tafakkurining funksional tuzilishida sifat

o‘zgarishlarini keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy shaxsda “raqamli tafakkur” shakllanib bormoqda — bu tafakkur turi tezkor axborot almashinuvi, tarmoqli fikrlash va qisqa muddatli xotira ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Biroq, bunday tafakkur shaklining kuchayishi insonning refleksiv fikrlash, tahliliy yondashuv va uzoq muddatli kognitiv strategiyalarni shakllantirish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, raqamli muhitda insonning kognitiv barqarorligini saqlash va xotira jarayonlarini samarali boshqarish zamonaviy psixologiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli faoliyat insonning diqqat va xotira tizimlariga faqat tashqi omil sifatida emas, balki ularning ichki tuzilishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Raqamli texnologiyalar bilan doimiy muloqot shaxsning bilish faoliyatida yangicha strategiyalarni shakllantiradi — bunda inson eslab qolishdan ko‘ra eslab olish (retrieval) mexanizmlariga ko‘proq tayanadi. Bunday o‘zgarishlar kognitiv moslashuvchanlikni kuchaytirsa-da, barqaror e’tibor va uzoq muddatli xotira talab qiluvchi faoliyatlarda samaradorlikni kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan, raqamli faoliyatni tartibga soluvchi psixologik mexanizmlarni shakllantirish, diqqatni boshqarish va xotira strategiyalarini rivojlantirish bugungi kun psixologik amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli omillar insonning kognitiv faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular inson tafakkuri va xotira jarayonlarining tashqi axborot manbalari bilan integratsiyasini kuchaytirib, bilish faoliyatining tezkor, ammo qisqa muddatli modelini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon shaxsning kognitiv salohiyatini boshqarish, xotira tizimini rivojlantirish va diqqat barqarorligini ta’minlash bo‘yicha yangi psixologik yondashuvlarni talab etadi. Tadqiqot natijalari psixologik ta’lim, kognitiv rivojlanish, axborot xavfsizligi va raqamli sog‘lomlik sohalarida amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, insonning raqamli sharoitda o‘z kognitiv resurslarini ongli boshqarish zarurligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev B. H. Raqamli tafakkur fenomeni va uning psixologik xususiyatlari. // “O‘zbekistonda ilm” jurnali. – 2023. – №5. – B. 102–109.

2. Abdullayeva M. M. Axborot texnologiyalarining yoshlarning kognitiv rivojlanishiga ta’siri. – Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2022. – 136 b.

3. Carr, N. (2010). The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: W. W. Norton & Company.

4. Greenfield, P. M. (2017). Mind and Media: The Effects of Television, Video Games, and Computers. – New York: Psychology Press.

5. Mayer, R. E. (2019). Multimedia Learning: The Science of Learning with Digital Media. – Cambridge: Cambridge University Press.

6. Mirzayeva D. K. O‘quvchilarda diqqat va xotira rivojlanishining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 142 b.

7. Ophir, E., Nass, C., & Wagner, A. D. (2009). Cognitive Control in Media Multitaskers. // Proceedings of the National Academy of Sciences, Vol. 106(37), pp. 15583–15587.

8. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. // On the Horizon, Vol. 9(5), pp. 1–6.

9. Rasulov O. I. Axborot yuklamasi va xotira mexanizmlarining o‘zaro ta’siri. // “Psixologiya va pedagogika muammolari” jurnali. – 2022. – №3. – B. 53–61.

10. Small, G., & Vorgan, G. (2008). iBrain: Surviving the Technological Alteration of the Modern Mind. – New York: HarperCollins.

11. Sparrow, B., Liu, J., & Wegner, D. M. (2011). Google Effects on Memory: Cognitive Consequences of Having Information at Our Fingertips. // Science, Vol. 333(6043), pp. 776–778.

12. Spitzer, M. (2018). Digital Dementia: What We and Our Children Are Doing to Our Minds. – München: Droemer Knaur Verlag.

13. To‘xtayeva N. R. Raqamli kompetensiya va bilish jarayonlari rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlik. // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali. – 2023. – №1. – B. 87–95.

14. Turkle, S. (2015). Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age. – New York: Penguin Press.

15. Tursunov M. M. Raqamli muhit sharoitida shaxs tafakkuri va diqqat barqarorligi. // “Psixologiya va zamon” ilmiy jurnali. – 2021. – №4. – B. 45–52.

Mirzayev Nurbek Nuritdinovich,
Turon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi
tarix yo'nalishi magistranti

1991–1999-YILLARDA QARSHI SHAHRINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1991–1999-yillarda Qarshi shahrining ijtimoiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida shahar hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jabhalarida amalga oshirilgan islohotlar yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy, taqqoslash va statistik tahlil usullari orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma, mahalla tizimi hamda fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni o'rganilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Qarshi shahrining mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijtimoiy hayoti birlamchi arxiv manbalari va og'zaki tarixiy ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qarshi shahri, mustaqillik, ijtimoiy hayot, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, infratuzilma, mahalla, fuqarolik jamiyati, tarixiy tahlil.

СОЦИАЛЬНАЯ ЖИЗНЬ ГОРОДА КАРШИ В 1991–1999 ГОДАХ

Аннотация. В данной статье анализируются социальные изменения, произошедшие в городе Карши в 1991–1999 годах. Освещаются реформы, проведённые в политической, экономической, культурной и духовной сферах городской жизни в годы независимости. В исследовании с использованием исторического, сравнительного и статистического методов рассмотрены развитие образования, здравоохранения, инфраструктуры, системы *махалли*, а также процесс формирования гражданского общества.

Ключевые слова: город Карши, независимость, социальная жизнь, образование, культура, здравоохранение, инфраструктура, махалля, гражданское общество, исторический анализ.

SOCIAL CHANGES IN QARSHI CITY DURING 1991–1999

Abstract. This article analyzes the social transformations that took place in Qarshi city between 1991 and 1999. It highlights the reforms implemented in the political, economic, cultural, and spiritual spheres of urban life during the years of independence. Using historical, comparative, and statistical analysis methods, the study examines the development of education, healthcare, infrastructure, the *mahalla* (community) system, and the formation of civil society in Qarshi.

Keywords: Qarshi city, independence, social life, education, culture, healthcare, infrastructure, mahalla, civil society, historical analysis.

1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilishi nafaqat mamlakat tarixida, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida yangi siyosiy va ijtimoiy bosqichni boshlab berdi. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillar mamlakat hayotining barcha jabhalarini tubdan yangilash, yangidan tashkil etish, milliy o‘zlikni tiklash va xalqning tarixiy xotirasini qayta baholash jarayonlari bilan xarakterlandi. O‘zbekiston o‘z mustaqil davlat qurilishi, demokratik jamiyat barpo etish, fuqarolik institutlarini shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish kabi murakkab, ammo tarixiy jihatdan muhim vazifalarni amalga oshirishni boshladi.

Ushbu jarayonlar yurtning barcha hududlarida — poytaxtda ham, viloyat va tuman markazlarida ham bir tekisda namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan Qarshi shahri mustaqillikning dastlabki yillaridagi o‘zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Qarshi o‘zining qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, strategik geografik o‘rni hamda iqtisodiy salohiyati bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham 1990-yillarda bu shaharda sodir bo‘lgan ijtimoiy jarayonlar butun viloyatning yangilanishi va hududiy rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi muhim misol bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning ilk davri Qarshi shahrida ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida sezilarli o‘zgarishlar bilan kechdi. Sovet davridan qolgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi o‘rnini milliy manfaatlar, bozor munosabatlari va mahalliy boshqaruv tamoyillariga asoslangan yangi boshqaruv modeli egallay boshladi. Shahar jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi, aholining turmush tarzi, bandlik tizimi va iqtisodiy faolligi o‘zgarib, mahalla institutining mavqei mustahkamlandi, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki kengaydi.

1991–1999-yillar orasida Qarshi shahrida ta’lim tizimi tubdan modernizatsiya qilindi, madaniy-ma’naviy hayot qayta tiklandi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot tizimlarida islohotlar amalga oshirildi, yangi infratuzilmaviy loyihalar hayotga tatbiq etildi. O‘sha yillarda tashkil etilgan Qarshi davlat universiteti shahar ilmiy-ma’rifiy salohiyatining yuksalishida muhim o‘rin tutdi. Madaniyat muassasalarining qayta tashkil etilishi, milliy bayramlarning qayta nufuz kasb etishi, diniy qadriyatlarning tiklanishi shahar aholisi o‘rtasida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy uyg‘onish jarayonlarini kuchaytirdi.

Shu bilan birga, mustaqillikning dastlabki yillari murakkab iqtisodiy sharoit bilan ham kechdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, narxlar liberallashuvi, ayrim korxonalarning vaqtincha faoliyatini to‘xtatishi, ishsizlik kabi omillar shahar aholisining ijtimoiy hayotida muammolarni yuzaga keltirdi. Ammo mahalla tizimi, oilaviy birdamlik va davlat tomonidan ko‘rsatilgan ijtimoiy yordam mexanizmlari tufayli Qarshi shahrida ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin bo‘ldi.

Ushbu tadqiqot aynan shu tarixiy bosqich — 1991–1999-yillarda Qarshi shahrida kechgan ijtimoiy jarayonlarni, ularning omillari va natijalarini ilmiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganish, ushbu davrni hududiy rivojlanish tarixining muhim bosqichi sifatida baholashni maqsad qilib oladi. Bu davrda shahar hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tadqiq etish orqali nafaqat o‘tish davrining mahalliy

ko‘rinishlarini yoritish, balki mustaqil O‘zbekistonning ilk yillardagi ijtimoiy siyosati amaliyotda qanday namoyon bo‘lganini ham ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, Qarshi shahrining mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijtimoiy tarixini o‘rganish bugungi kunda shahar taraqqiyotining zamonaviy bosqichini to‘g‘ri anglash, urbanizatsiya va mahalla tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, shuningdek, ijtimoiy siyosatning tarixiy tajribasidan samarali foydalanish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va sotsiologik yondashuvlar qo‘llanildi. Asosiy manbalar sifatida:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991–1999-yillardagi farmon va qarorlari;
- Qashqadaryo viloyati va Qarshi shahar hokimligi hujjatlari;
- Mahalliy matbuot — “Qashqadaryo” gazetasi hamda “Nasaf” jurnali materiallari;
- O‘sha davr aholisi xotiralari va mahalla tizimi vakillarining og‘zaki ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar asosiy o‘rin tutadi:

1. Tarixiy tahlil – 1991–1999 yillarda yuz bergan ijtimoiy voqealar ketma-ketligini o‘rganish;
2. Taqqoslash usuli – mustaqillikdan avvalgi va keyingi davr ijtimoiy sharoitlarini solishtirish;
3. Statistik tahlil – aholi soni, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik sohalaridagi o‘zgarishlarni raqamli ko‘rsatkichlar bilan asoslash.

Natijalar. 1. Ijtimoiy hayotning umumiy manzarasi. 1991–1999-yillarda Qarshi shahri ijtimoiy hayotida milliy qadriyatlarni tiklash va yangi boshqaruv tizimini shakllantirish jarayoni kechdi. Sovet davridagi markazlashgan boshqaruv o‘rnini demokratik tamoyillarga asoslangan tizim egallay boshladi. Mahalla institutlari mustahkamlanib, fuqarolik jamiyatining dastlabki unsurlari shakllandi.

Shahar aholisi soni bu davrda 150 ming atrofida bo‘lib, tabiiy o‘sish ijobiy yo‘nalishda davom etdi. Aholining asosiy qismi davlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, ta’lim va xizmat ko‘rsatish sohalarida band edi.

2. Ta’lim va ma’rifat sohasidagi o‘zgarishlar. Mustaqillik yillarida ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratildi. Qarshi shahridagi umumta’lim maktablari rekonstruksiya qilindi, yangi o‘quv binolari qurildi.

- 1992-yilda Qarshi davlat pedagogika instituti negizida Qarshi davlat universiteti tashkil etildi.
- Universitetda o‘zbek tilida ta’lim kengaydi, milliy qadriyatlarga asoslangan fanlar bo‘yicha yangi kafedralar ochildi.
- 1997-yilda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingach, Qarshidagi o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim muassasalari faoliyati tubdan isloh qilindi.

3. Madaniyat va ma'naviyat sohasida yangilanishlar**.** 1991–1999-yillarda Qarshi shahrida madaniy-ma'naviy hayotda sezilarli o'zgarishlar kuzatildi:

- "Nasaf" nomidagi musiqali drama teatri faoliyati qayta tiklandi;
- Kutubxonalar, madaniyat uylari va xalq ansambllari faol ishlay boshladi;
- Mustaqillik bayrami, Navro'z, Ramazon va Qurbon hayitlari davlat darajasida nishonlana boshlandi.

Bu jarayonlar yoshlar o'rtasida milliy g'urur, vatanparvarlik va ma'naviy uyg'onish hissini kuchaytirdi.

4. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot**.** Sog'liqni saqlash tizimida ham muhim o'zgarishlar ro'y berdi:

- Yangi poliklinikalar va tibbiyot markazlari qurildi;
- Tug'ruqxona va bolalar shifoxonalari kapital ta'mirdan chiqarildi;
- Sanitariya, gigiyena va profilaktika ishlariga katta e'tibor qaratildi.

Ijtimoiy himoya tizimida kam ta'minlangan oilalar, pensionerlar va nogironlar uchun imtiyozlar joriy etildi.

5. Infratuzilma va turmush darajasi. 1990-yillarda shahar infratuzilmasi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi:

- Yangi uy-joy massivlari, avtomobil yo'llari va bozorlar barpo etildi;
- 1998–1999-yillarda ichimlik suvi va elektr tarmoqlari yangilandi;
- Transport tizimi va ijtimoiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari kengaydi.

Muhokama. Qarshi shahrining 1991–1999-yillardagi ijtimoiy hayoti o'tish davrining murakkab, ammo sermahsul bosqichini aks ettiradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, narx-navoning o'zgarishi, ishsizlik kabi muammolar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, mahalla tizimi va oilaviy birdamlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Eng muhim jihatlardan biri — ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va milliy o'zlikning shakllanishidir. Bu jarayon Qarshi shahrida ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida yaqqol ko'zga tashlandi.

Xulosa. 1991–1999-yillar Qarshi shahrining ijtimoiy tarixida o'ziga xos, murakkab va bir vaqtning o'zida taraqqiyot yo'lini belgilab bergan davr bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki bosqichida shahar hayotida yuz bergan o'zgarishlar faqatgina tashkiliy yoki ma'muriy yangilanishlar emas, balki jamiyatning chuqur qatlamlariga singib borgan ijtimoiy-madaniy yangilanish jarayoni sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur davr Qarshining yangi ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, aholi turmush tarzini yangilash, shahar infratuzilmasini zamonaviylashtirish va fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratishda muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

Birinchidan, mustaqillik yillarida Qarshi shahrida milliy qadriyatlarning tiklanishi va ma'naviy hayotning jonlanishi jamiyatning yangicha dunyoqarashini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'ldi. Mahalla institutining kuchayishi, milliy bayramlarning qayta tiklanishi, tarixiy merosga bo'lgan qiziqishning ortishi shahar aholisining ma'naviy birligini mustahkamladi. Bu jarayon yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy faollik va madaniy hayotning jonlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar Qarshi shahrining intellektual salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutdi. Qarshi davlat universitetining tashkil etilishi, umumta'lim muassasalarining rekonstruksiyasi, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimining isloh qilinishi shaharni ilm-fan markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qildi. Bu o'zgarishlar 2000-yillardan boshlab Qarshida malakali kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Uchinchidan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimidagi yangilanishlar aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qildi. Yangi poliklinika va tibbiyot markazlarining qurilishi, mavjud shifoxonalarning ta'mirlanishi, sanitariya-gigiyena xizmatlarining kengayishi aholining ijtimoiy farovonligini oshirgan muhim omillar sifatida baholanadi. Kam ta'minlangan oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun joriy etilgan yordam mexanizmlari o'tish davrining murakkab iqtisodiy sharoitida aholini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynadi.

To'rtinchidan, shahar infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi Qarshining umumiy urbanistik qiyofasini o'zgartirdi. Uy-joy massivlarining barpo etilishi, yangi bozorlar, zamonaviy yo'llar, ichimlik suvi va elektr energiyasi tizimlarining yangilanishi nafaqat jismoniy infratuzilma, balki aholining kundalik hayoti sifatini ham yaxshilab bordi. Transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayishi esa shahar iqtisodiyotining jonlanishiga xizmat qildi.

Beshinchidan, iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq muammolar — narx-navoning liberallashuvi, ayrim korxonalar faoliyatining to'xtashi, ishsizlikning kuchayishi — dastlabki yillarda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, mahalla jamoalarining birdamligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarining joriy etilishi hamda aholi faolligining ortishi bu murakkab jarayonlarni birmuncha yengillashtirdi.

Shu tariqa, 1991–1999-yillar Qarshi shahrining ijtimoiy rivojlanishida poydevor yillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda:

- milliy qadriyatlar tiklandi va ma'naviy hayot yuksaldi;
- ta'lim tizimi modernizatsiya qilinib, oliy ta'limning yangi bosqichi boshlandi;
- sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot tizimlari qayta qurildi;
- shahar infratuzilmasi bosqichma-bosqich yangilandi;
- fuqarolik jamiyati va mahalla tizimining zamonaviy ko'rinishlari shakllandi.

Umuman olganda, Qarshi shahri mustaqillikning dastlabki to'qqiz yilligida o'zining tarixiy rivojlanish trayektoriyasini belgilab oldi va kelgusi yillarda sodir bo'ladigan islohotlar uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu davr shaharni nafaqat viloyat markazi sifatida, balki mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarini amaliy jihatdan o'zida mujassam etgan muhim makon sifatida ham ajratib ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari (1991–1999).
3. “Qashqadaryo” gazetasi arxivi (1991–1999-yillar sonlari).
4. To‘raqulov B. Qarshi shahri tarixi va ijtimoiy taraqqiyoti. – Qarshi: Nasaf, 2001.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993.
6. “Nasaf” jurnali, 1995–1999-yillar sonlari.
7. Mahalla tizimi arxiv materiallari, Qarshi shahar hokimligi hujjatlari.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
9. Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi statistik to‘plami. – Qarshi, 1999.
10. Abdullayev H. O‘zbekiston viloyat markazlari ijtimoiy rivojlanish tarixi. – Toshkent: Fan, 2000